

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

J.M.Qurbonov, M.E.Pulatov., N.R. Barakaev

**PATENTSHUNOSLIK, LITSENZIYALASH
VA SERTIFIKATLASH**

Oliy ta‘limning

810 000-Xizmatlar ko‘rsatish sohasining magistratura mutaxassisliklari uchun
mo‘ljallangan **darslik**

SAMARQAND – 2019

J.M.Qurbonov - SamISI «Xizmatlar ko‘rsatish, servis
va uni tashkil etish» kafedrası ,
t.f.d., professor
M.E.Pultov i.f.d., professor SamISI
N.R. Barakaev – t.f.d., professor BuxMTI

Taqrizchilar:

Komilov M. - «ELXOLDING» ilmiy ishlab chiqarish
birlashmasi, «YAngi texnika» bo‘limi boshlig‘i
Normaxmatov R. - SamISI professori, t.f.n, «Marketing»
kafedrası mudiri.

Darslikda O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarining tashkillashtirilishi, patentshunoslilik asoslarini tashkil etuvchi manbalar, ya’ni intellektual mulk, sanoat mulki, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, shuningdek tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari tushunchalarining mohiyati, huquqiy muhofazasi va ularni rasmiylashtirilishi, standartlashtirish, sertifikatlash va litsenziyalash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Darslik magistratura mutaxassisliklari uchun mo‘ljallangan.

Mundarija

	KIRISH	3
1 BOB	O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarning tashkillashtirilishi	4
1-mavzu	So‘z boshi. O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarning tashkillashtirilishi.....	4
2-BOB.	PATENTSHUNOSLIK	
2-mavzu	Intellektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari.....	17
3 mavzu	Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari mazmuni, tushunchasi, mohiyati.....	29
4-mavzu	Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari talabnoma tuzish, topshirish va rasmiy hujjat olish.....	40
5-mavzu	Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlari tushunchasi, mazmuni, mohiyati.....	57
6-mavzu	Tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqish joylarini rasmiylashtirish.....	68
7-mavzu	Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulklarning huquqiy muhofazasi.....	83
8-mavzu	EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar toplogiyalari, intellektual mulk ob’ekti ekanligi.....	91
9-mavzu	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar.....	101
4-BOB	SERTIFIKATLASH	117
10-mavzu	Standartlashtirish va sertifikatlashtirishning O‘zbekis-tonda tashkillashtirilishi.....	117
11-mavzu	O‘zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, joriy etish tartibi.....	134
12-mavzu	Standartlashtirish bo‘yicha davlat nazorati, xalqaro standartlashtirish.....	149
13-mavzu	O‘zbekistonda metrologiya, o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi, metrologik nazorat.....	169
14-mavzu	O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi, milliy idoralar va ularning vazifalari.....	190
15-mavzu	Mahsulotlar sertifikatsiyasi va uning nazorati.....	209
16-mavzu	Sertifikatlangan mahsulotlar sifatini ta’minlash va boshqarish.....	225
17-mavzu	O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimi istiqbollari.....	241
3 – BOB.	LITSENZIYALASH	
	
18-mavzu	Litsenziya va ularning sotib olinishi va sotilishi, moliyaviy munosabatlar.....	260
	GLOSSARIY	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	277

KIRISH

Hozirgi vaqtda intellektual mulkning yaratilishi va huquqiy muhofazasi bo'yicha ishlarining tashkillashtirish dunyo mamlakatlarida davlat miqyosida – muhim davlat ishlari sifatida olib borilayapti. Chunki, har qanday mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ta'lim, bilim, ilmga, umuman fanning rivojlanishi bo'lgan munosabatini belgilaydi va mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyati hisoblanadi. Xuddi shuningdek intellektual mulk bo'yicha ishlarning qanday darajada olib borilishiga, uning yangi texnika-texnologiyalar yaratilishiga, jamiyat va tabiat qonunlarini o'rganib, hayotga tadbiiq etganligiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda respublikada mamlakatning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish uchun kulay shart-sharoitlarni yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni xar tomonlama ko'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida aholi farovonligini tubdan oshirish va turmush sifatini yaxshilash, jamiyat va davlatni har tomonlama jadal rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olingan.

Ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag'batlantirishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son Farmoni qabul qilindi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi ho‘zuridagi «Ilg‘or texnologiyalar markazi»ga aylantirildi. Jumladan unga, xalqaro darajada patentlash imkoniyatiga ega bo‘lgan ilmiy hajmdor va ilg‘or texnologiyalarni yaratish, yangi innovatsion mahsulotlarning namunalarini maketlashtirish, modellashtirish, tayyorlashda va ularni tekshirishda ishtirok etish; mahalliy va xorijiy ilmiy va oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda, shu jumladan innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish, texnologiyalarning transferi va intellektual mulk ob‘ektlarini kommersializatsiyalash, eksport potensialini rivojlantirish va O‘zbekistonning dunyo iqtisodiy xamjamiyatiga integratsiyasini amalga oshirish belgilangan.

SHu asnoda yurtimizda ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar qatori intellektual mulkning muhofazasi huquqiy asoslari yaratilgani, mulk sohiblarining barcha huquqlari, qabul qilingn qonun va qoidalar orqali to‘la muhofazalanadi. SHuning uchun “Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fanining maqsadi, bo‘lajak mutaxasis bo‘lmish talabalarni intellektual mulk huquqiy himoyasida ixtirochilik, patent, standartlashtirish, litsenziyalash va sertifikatlash bo‘yicha bilimga va ularning hujjatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Uylaymizki, “Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fanini o‘rgangan talabalar intellektual mulk huquqiy asoslari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va patent idorasi qoidalariga rioya qilib, mustaqil ravishda ixtirochilik ishlari bilan shug‘ullanishi, ixtirolar, foydali modellar, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlar kelib chiqish joylarining nomlari, elektron hisoblash mashinalari uchun das-turlar va ma‘lumotlar ba‘zalarini, firma nomlari va boshqalarni ro‘yxat-dan o‘tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish, xuddi shu-ningdek standartlashtirish, sertifikatlash, litsenziyalarni rasmiylash-tirish ishlarini olib borish va boshqa ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

1-BOB. O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarning tashkillashtirilishi.

1-MAVZU. O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarning tashkillashtirilishi.

1. Ma‘ruzaning ta‘lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot ma‘ruza, va “B.B.B” jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejası	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarining tashkillashtirilishi va Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi. 2. Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod, ilmiy – texnikaviy rivojlanishidagi roli. 3. O‘zbekiston patent idorasi haqida. 4. Patentshunolik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash kursining maqsadi, predmeti va vazifalari.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> . O‘zbekistonda mustaqillik yillarida intellektual mulkning yaratilishi uchun qilingan tashkiliy-boshqaruv ishlari haqida ma‘lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ma‘lumot beradi. - Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi bilan tanishtiradi. - Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod, ilmiy – texnikaviy rivojlanishidagi roli ko‘rsatiladi. - O‘zbekiston patent idorasi haqida ma‘lumot beriladi. - Patentshunolik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash kursining maqsadi, predmeti va vazifalari. 	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: <ul style="list-style-type: none"> - intellektual mulk muhofazasi haqida ma‘lumotga ega bulishadi - Innovatsion rivojlanish vazirligi vazifalari uning tarkibi bilan tanishib chiqadilar. - patent va uning fan, ijod, ilmiy – texnikaviy rivojlanishidagi roli haqida ma‘lumotga ega bo‘lishadi - patent idorasi uning vazifalari va tarkibiy tuzilishi haqida ma‘lumot beriladi. - Kursning maqsadi, predmeti va vazifalari bilan tanishadi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Axborot ma‘ruzasi, blits-so‘rov, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari foydalaniladi.
O‘qitish shakli	Frontal ma‘ruza, individual, guruh bilan ishlash
O‘qitish vositalari	Ma‘ruza matni, proektor, qog‘oz, marker, KT/OTV, doska, bo‘r
O‘qitish sharoitlari	Jihozlangan auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-Bosqich Kirish (10 min)	1.1.O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi.	1.1.Eshitadilar va yozib oladilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi (1-ilova). 2.2.O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo'yicha ishlarining tashkillashtirili-shi va Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini yo'lga qo'-yilishi. 2.3.Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod, ilmiy – texnikaviy rivojlanishidagi roli ko'rsatib o'tiladi. 2.4. O'zbekiston patent idorasi haqida ma'lumot beriladi. 2.5.Patentshunolik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash kursining maqsadi, predmeti va vazifalari bilan tanishtiradi.	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlariga chizadilar,Jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.3.YOzib oladilar va o'z bilimlari bilan solishtiradilar. 2.4.Optimal echimlar yuzasidan takliflar beradilar. B.B.B. jadvalining 5-ustunini to'ldiradilar.
3-Bosqich YAkuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishdafaolishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.3. Mustakil ish uchun vazifa beradi.	Eshitadilar, o'zlarining shu mavzu bo'yicha bilimla-rini boyitadilar YOzib oladilar

1. O‘zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha ishlarning tashkillashtirilishig va innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi.

Ma‘lumki, har qanday mamlakatning rivojlanganlik darajasi, undagi intellektual mulkning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. SHuning uchun, barcha mamlakatlar o‘z intellektual mulklarini rivojlanishi borasida, ayniqsa uning davlatda va butun dunyoda himoyalashiga katta e‘tibor beradilar.

Agar biz insonning aqlini, tafakkurini, bilimini va ilmini, zakovatini, qobiliyatini va h.k. uning intellekti desak, unda ana shular yordamida yaratilgan, ijod etgan mahsulot yoki mulk uning intellektual mulki deb yuritiladi. Intellektual mulkning asosiy manbai bo‘lib insonning ilmiy-tadqiqot faoliyati, inson yashab turgan jamiyatning bu faoliyatga, ayniqsa, bilimiga, ilmiga, umuman fanga texnikaviy rivojlanishga bo‘lgan munosabati va mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtda intellektual mulkning yaratilishi va huquqiy muhofazasi bo‘yicha ishlarining tashkillashtirish dunyo mamlakatlarida davlat miqyosida – muhim davlat ishlari sifatida olib borilayapti.

CHunki, har qanday mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi intellektual mulk bo‘yicha ishlarning qanday darajada olib borilishiga, uning yangi texnika-texnologiyalar yaratilishiga, jamiyat va tabiat qonunlarini o‘rganib, hayotga tadbiiq etganligiga bog‘liqdir. SHuning uchun ham er yuzidagi minglab ilmiy muassasa va korxonalarda, muntazam ravishda millionlab ilmiy tadqiqot natijalari olinib, tahlil etilib inson hayoti – amaliyotiga tadbiiq etib – bashariyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston ham o‘zining rivojlangan intellektual mulki material bazasi keng ilmiy fondi, ilmiy ishlari dunyo miqyosida tan olingan yuqori malakaviy ilmiy kadrlari bilan Markaziy Osiyodagi katta salohiyatga ega bo‘lgan ilmiy markaz hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-izlanish kompleksini jami sohalar profili bo‘yicha ko‘plab akademik, oliy ta‘lim tashkilotlari tashkil topgan. Bunda ilmiy-izlanish institutlari, oliy o‘quv yurtlari ilmiy-izlanish bo‘limlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va eksperimental korxonalar, axborot-hisob markazlari mavjud. Jumladan, yurtimizda xozirgi vaktida 85 ta oliy ta‘lim muassasasi bo‘lib, uning 21 tasi universitet, 35 tasi institut, 2 tasi akademiya, 18 tasi OTM filiali, 1 tasi konservatoriya, 1 tasi oliy maktab, 7 tasi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari filiallaridir. O‘zbekiston o‘zining fan va texnologiyalari rivojlanishini dunyo hamjamiyati bilan qadamma-qadam hamkorlikda, o‘zaro kelishuvida olib bormoqda. Hozirda, O‘zbekiston Rio Deklaratsiyasiga, BMTning iqlim o‘zgarishi, biologik turli xillik, sahrolanishga qarshi konvensiyasiga, ozon qatlamini himoyalash Vena konvensiyasiga, xavfli chiqindilarning tashilishi va chiqarilishini nazorat qilish Bazen konvensiyasiga

qo‘shilib o‘zaro munosabatlarni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, yana 12 dan ko‘p atrof-muhitni saqlash bo‘yicha xalqaro bitimlar va hamkorlik shartnomalariga qo‘shilgan. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasining 1968 yil 8 oktyabrda Lokarnoda imzolagan Sanoat namunalarining xalqaro tavsifini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Lokarno bitimiga qo‘shilishi haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 1 iyulda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan «Patent huquqi to‘g‘risidagi SHartnomaga qo‘shilishi haqida»gi qonunlari chiqarildi. O‘zbekiston hukumati faolligida Orol dengizi va Orol dengizi basseynida ekologik muhitni yaxshilash uchun konsepsiya ishlab chiqildi va bu konsepsiya 1994 yili Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qabul qilindi va bu haqda Xalqaro konferensiya (1995 yil sentyabr Nukusda) o‘tkazildi va Nukus Dekloratsiyasi qabul qilindi.

YUrtimiz hayotida turli xildagi Milliy dasturlar ishlab chiqilganki, ularning asosiy vazifasi iqtisodiyotimiz asosiy tarmoqlarini texnologik modernizatsiya qilish, eksport potensialini rivojlantirish va O‘zbekistonning dunyo iqtisodiy xamjamiyatiga integratsiyasini amalga oshirishdan iboratdir. So‘nggi yillarda respublikada mamlakatning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish uchun kulay shart-sharoitlarni yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni xar tomonlama ko‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholi farovonligini tubdan oshirish va turmush sifatini yaxshilash, jamiyat va davlatni har tomonlama jadal rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olindi.

Ilg‘or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta‘minlash, mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag‘batlantirishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-5264-son farmoni qabul qilindi

Farmon bilan strategik rejalashtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infrato‘zilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ijtimoiy va

iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg‘or texnologiyalarni faol joriy etish kabi mamlakat innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari belgilandi.


Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi hamda uning davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy rivojlanish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohalaridagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari nazarda tutildi. Bundan kelib chiqib, Innovatsion rivojlanish vazirligi O‘zbekiston Respublikasining innovatsion va ilmiy-texnik rivojlanishi sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ etib belgilandi. Vazirlik davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari va loyihalarining yagona buyurtmachisi bo‘ladi, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahlil muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Innovatsion texnologiyalar hisobiga rivojlanishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiquvchi, shartli ravishda “kelajak vazirliklari” deb nomlanuvchi ixtisoslashtirilgan idoralarni tashkil qilish bo‘yicha jahon tendensiyasini qayd etib o‘tish lozim. Jumladan, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga va uning to‘zilasini tubdan o‘zgartirishga, eng avvalo, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish hisobiga uning sifatini va yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi rolini oshirishga ko‘maklashadi; innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashadi; iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish sohasida xizmatlar sohasini tubdan takomillashtirish, eng avvalo, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish hisobiga ularning sifatini va yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi rolini oshirish; qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida: eng avvalo, mavjud er, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi “Aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasiga asoslangan qishloq; ijtimoiy rivojlanishga innovatsiyalarni joriy etish sohasida, “Aqlli tibbiyot” va “Yagona tibbiyot axborot markazi” “Xavfsiz shahar”, “Aqlli shahar” konsepsiyalarini joriy etish vazifalari ko‘rsatib utildi. Faoliyatda bir-birini takrorlashni istisno etish, yagona yondashuvlarni ta‘minlash maqsadida 2018 yil 1 yanvardan boshlab Fan va texnologiyalar bo‘yicha Davlat komissiyasi, Fan va texnologiyalar bo‘yicha Davlat komissiyasi ho‘zuridagi Ilmiy-texnik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg‘armasi, shuningdek, Fan va texnologiyalar agentligi tugatildi. Tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi o‘tkazilayotgan tadqiqotlar bo‘yicha hisobot berishning shaffof tizimidan foydalangan holda innovatsion g‘oyalar va ularni ishlab chiqishni moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbasi hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, exnoparklarni tashkil etish maqsadida Fanlar

akademiyasi va Oliy attestatsiya komissiyasining faoliyatini tanqidiy o'rganish topshirildi. Farmonda innovatsiyalarni joriy etishning qonuniy asoslarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. SHu munosabat bilan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish prinsiplari hamda qo'llab-quvvatlash shakllarini, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni belgilovchi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi va "Fan to'g'risida"gi qonunlar loyihalari ishlab chiqiladi. Ushbu farmonni ijro etish yuzasidan 2017 yil 30 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3416-son qarori kabul kilindi va unga muvofik vazirlikning tashkiliy to'zilmesi (1-rasm), vazirlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni (82 nafar), markaziy apparati to'zilmesi (2-rasm), vazirlik to'g'risidagi nizom (3-rasm), innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ijro etuvchi direksiyasining to'zilmesi (4-rasm), uning Ko'zatuв kengashining tarkibi va innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majbo'riyatlarini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibi, shuningdek, uning rahbarlarining funksional majbo'riyatlarini va javobgarligini belgilovchi Nizomida: Vazirlik va uning markaziy apparati vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, Vazirlik rahbarlarining asosiy funksional majbo'riyatlarini, javobgarligi, Vazirlik faoliyatini tashkil etish, faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish, hisobdorligi belgilab berildi.



1 – rasm. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining TASHKILIY TO'ZILMASI




2 – rasm. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi markaziy apparatining TUZILMASI

O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2018 yil 19 apreldagi pq-3674-sonli « O‘zbekiston respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi ho‘zurida ilg‘or texnologiyalar markazini tashkil qilish to‘g‘risida qarori ga asosan: ilmiy va innovatsion faoliyatning rivojlanishini faollashtirish, fan, ta‘lim va ishlab-chiqarishning yanada keng integratsiyasini ta‘minlash, yangi bilimlarni yaratish va ko‘llash, ilg‘or innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab-chiqish va joriy etishda ilmiy-innovatsion salohiyatdan va ilmiy laboratoriya bazasidan samarali foydalanish bo‘yicha sharoitlar yaratish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar Akademiyasi xamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining «YUqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi» Davlat korxonasini O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ho‘zuridagi ilg‘or texnologiyalar markaziga aylantirildi. Jumladan unga, xalqaro darajada patentlash imkoniyatiga ega bo‘lgan ilmiy hajmdor va ilg‘or texnologiyalarni yaratish, yangi innovatsion mahsulotlarning namunalarini maketlashtirish, modellashtirish, tayyorlashda va ularni tekshirishda ishtirok etish; mahalliy va xorijiy ilmiy va oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda, shu jumladan innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish, texnologiyalarning transferi va intellektual mulk ob‘ektlarini kommersializatsiyalash masalalari yuzasidan ilmiy konferensiyalar, seminarlar, treninglar va mahorat darslarini tashkillashtirish belgilangan.

Mazkur holatlar innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil qilish sohasida davlat boshqaruvining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishni talab qiladi.

YUqorida keltirilgan manbalardan ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston so'nggi yillarda intellektual mulk bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirishga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda, mamlakatni demokratik yangilashda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish, energetika, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, fan va texnikaning g'oyat muhim ilmiy va texnologik muammolarni hal qilishga qaratilgan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlar sohasidagi 25 davlat ilmiy-texnika dasturi bo'icha ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish ilmiy jamoalar ijodiy faolligini rag'batlantirishini, ularning sa'y-harakatlari real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilinishini, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb



3 – rasm. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshidagi Ilg'or texnologiyalar markazining TUZULMASI

masalalari hal qilinishini, ularning ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika, ayniqsa intellektual mulkni muhofazasi sohasida xalqaro aloqalar

jadal rivojlanmoqda. Bunday natijalar, albatta ilmiy izlanish ishlari yurtimizda davlat tomonidan to'g'ri yo'naltirilganligini natijasidir.

YUqorida qayd etilgan barcha tashkiliy-amaliy ishlar O'zbekistonda intellektual mulkning yaratilishi uning muhofazasi bo'yicha qilingan muhim ishlar hisoblanib, uning ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi. Pirovard natijada, O'zbekistonni rivojlantirishning innovatsion yo'li iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi, mamlakat barqarorligi va aholi farovonligini ta'minlashning omili bo'lishiga ishonamiz.

2. Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod, ilmiy texnikaviy rivojlanishdagi roli

YUqorida qayd etib o'tganimizdek, intellektual mulk asosini fan-ijod, texnika va ishlab chiqarish bo'lib, bular bir-biriga chambarchas bog'langan. Eng yangi ilmiy ijod mahsulidan uning amaliyotga tadbiiq etilishigacha bo'lgan yo'lni tashkil tadi.

Bundagi ilmiy-texnikaviy rivojlanish, xalq xo'jaligi ishlab chiqarish va xizmat sohasida iqtisodiy qonunlariga asoslangan holda, muntazam ravishda fan va texnika yutuqlarini amaliyotda qo'llab borish bilan olib boriladi.

Ilmiy-texnikaviy rivojlanishda, mamlakatdagi ixtirochilikga bo'lgan munosabat o'ta muhim hisoblanadi. Ixtirolarning xalq xo'jaligida qo'llanilishi natijasida olingan iqtisodiy samara ilmiy-texnikaviy rivojlanishning hal qiluvchi omillaridan hisoblanadi. SHuning uchun ham intellektual mulk bo'lgan ixtiro – patentlarning yangi texnologiya, texnika sifatida xalq xo'jaligiga tadbiiqi yurtimiz iqtisodiyotiga yalpi ishlab chiqarish sur'atini jadallashtiradi.

Iqtisodiyotimizning jadal rivojlanish vaqtida mavjud va bo'lajak intellektual mulkning muhofazasiga yurtimizga katta e'tibor berilayaptiki, bunga ayniqsa yuqorida keltirilgan, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonun va qoidalar buning isboti bo'la oladi.

Intellektual mulk strukturaviy tarkibi bo'yicha u asosan sanoat mulki, nosanoat mulki va fan adabiyot sanoat asarlari va ulardan foydalanish bo'yicha bo'linadi (rasm 1.1).

YUrtimizda ko'pgina rivojlangan mamlakatlar qatori intellektual mulkning muhofazasi huquqiy asoslari yaratilgani, mulk sohiblarining barcha huquqlari, qabul qilingan qonun va qoidalar orqali to'la muhofazalanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu borada juda muhim ishlar bajarildi. Jumladan: "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joylarining nomlari to'g'risida"gi, "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi, "Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi,

“Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi, shulardan kelib chiqqan holda, intellektual mulklarni sohibiga aylanish uchun talabnomalar berish, uni ko‘rib chiqish va Davlat ro‘yxatidan o‘tish qoidalarining yaratilishi misol bo‘la oladi. SHu bilan birga O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qoshidagi vakolatli Davlat Patent idorasini tashkil etilishi va shu orqali sanoat mulki, jumladan ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy namunalarini, shuningdek seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma‘lumotlar ba‘zalari va integral mikrosxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ishtirok etadi.



1.1 rasm. Intellektual mulk strukturaviy tarkibi.

3. O‘zbekiston patent idorasi haqida

O‘zbekiston Patent idorasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 iyundagi 209-sonli qaroriga asosan takshil etilgan bo‘lib, shu qaror Bilan tasdiqlangan Nizom asosida ish yuritadi.

Nizomning umumiy qoidalariga asosan, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqishi joylarining nomlari to‘g‘risida”, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”, “Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma‘lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikavi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining (keyingi o‘rinlarda – Patent idorasi deb ataladi) asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Patent idorasi sanoat mulkini, shu jumladan ixtirolarga, sanoat namunalariga, foydali modellarga, tovar belgilariga, xizmat ko‘rsatish belgilariga va tovarlar kelib chiqishi joylarining nomlari (keyingi o‘rinlarda – sanoat mulki ob‘ektlariga) huquqlarni muhofaza qilish sohasida, shuningdek seleksiya yutuqlarini, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni (keyingi o‘rinlarda – EHM uchun dasturlar deb ataladi), ma‘lumotlar bazalarini va integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish borasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Patent idorasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Patent idorasi o‘z faoliyatini davlat organlari, ixtirochilar va ratsionalizatorlarning jamoat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, faoliyati intellektual mulk muhofazasi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Patent idorasining asosiy vazifalari va funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- sanoat mulki ob‘ektlarini, seleksiya yutuqlarini, EHM uchun dasturlarni, ma‘lumotlar bazalarini, integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash;

- sanoat mulki ob‘ektlari, seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma‘lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar topologiyalariga huquqiy muhofaza xizmati ko‘rsatish;

- rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan EHM uchun dasturlar, ma‘lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalariga oid patent hujjatlarining davlat fondini va ma‘lumotlar bankini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasida ilmiy-texnika, badiiy konstruktorlik va boshqa ijodiyotlarning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish.

Bundan tashqari Patent idorasi o'ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi: huquqiy muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish bo'yicha takliflar kiritadi va uni ro'yobga chiqarishda bevosita ishtirok etadi; qonun hujjatlarini tayyorlashda qatnashadi, shuningdek o'z vakolatlari doirasida zarur normativ hujjatlar qabul qiladi; ro'yxatdan o'tkazishga oid buyurtmanomalarni davlat ekspertizasidan o'tkazadi; berilgan buyurtmanomalarning belgilangan talablariga muvofiqligini tekshirish natijalariga ko'ra rasmiy ro'yxatdan yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi; davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi, shuningdek muhofaza qilish hujjatlarini beradi, tegishli davlat reestrlarini yuritadi; muhofaza qilish va boshqa zarur hujjatlarning yagona shakllarini belgilaydi; davlat ilmiy-texnika ekspertizasini o'tkazishda qatnashish uchun manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etadi; foydalanish huquqini berish to'g'risidagi litsenziya shartnomalarini, shuningdek, ularni to'liq yoki qisman berish to'g'risidagi yoki ularning kafolati to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi; ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar va litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yuritadi;

Patent idorasining byulletenlarini va boshqa rasmiy nashrlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha boshqa ma'lumotlar va materiallarni chop etishni tashkil qiladi va amalga oshiradi; davlat patent tizimini rivojlantirishning muhim istiqbolli muammolarini ishlab chiqish va hal etish uchun vaqtinchalik ijodiy ilmiy jamolarni tashkil qiladi; huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi kadrlarni tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.

Bundan tashqari, Patent idorasining xalqaro faoliyati mavjuddir.

Patent idorasi:

- intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni belgilangan tartibda amalga oshiradi;

- o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalari (bitimlari)dan kelib chiqadigan O'zbekiston Respublikasi majbo'riyatlarining bajarilishini ta'minlaydi;

- tegishli xalqaro tashkilotlar, patent idoralari va chet mamlakatlarning boshqa tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va shartnomalar tuzish to'g'risida mo'zokaralar olib boradi hamda Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoat mazkur shartnomalarni imzolaydi;

- intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi chet el tajribasini o'rganish va undan foydalanishni tashkil qiladi.

SHuningdek, patent idorasining huquqlari, Patent idorasining javobgarligi, Patent idorasining faoliyatini tashkil etish ham ushbu Nizomda batafsil ko'rsatilgan.

Patent idorasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Direktor boshqaradi. Direktorning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi. Patent idorasida hay'at to'ziladi, uning tarkibiga Direktor (hay'at raisi) va uning o'rinbosarlari, shuningdek Patent idorasining boshqa rahbar xodimlari kiradi. Hay'at 7 kishidan iborat tarkibda to'ziladi. Hay'at maslahatlashuv organi hisoblanadi, u o'zining muntazam ravishda o'tkaziladigan majlislarida Patent idorasi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatining muhim masalalarini ko'rib chiqadi. Apellyasiya kengashi tarkibiga Patent idorasi direktori, uning o'rinbosarlari va bosh ekspertlar kiradi.

Hozirgi vaqtda Patent idorasining quyidagi bo'limlari mavjud:

- Kadrlar bo'limi.
- Moliya bo'limi.
- Ekspert bo'limi.
- Xalqaro aloqalar va patent kooperatsiyasi bo'limi.
- Axborot texnologiyalari bo'limi.
- Intellektual mulk ob'ektlarini ta'minoti bo'limi.
- Intellektual mulk ob'ektlarining rasmiy ekspertizasi bo'limi.
- Ixtirolar va foydali modellarning davlat ilmiy-texnika ekspertizasi bo'limi.
- Sanoat namunalari, tovar belgilari va tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini davlat ekspertizasi bo'limi.
- Intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish va muhofaza hujjatlarini berish bo'limi.
- Patent – axborot tahlili markazi (PATM).
- Patent hujjatlari davlat fondi.
- Ma'muriy-xo'jalik bo'limi.
- Xavfsizlik xizmati bo'limi.
- Istiqbolli va tezkor rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'limi.

4. Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash kursining maqsadi va vazifalari

“Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fanining maqsadi, talabalarni intellektual mulk huquqiy himoyasida ixtirochilik **patent litsenziyalash va sertifikatlash** hujjatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning maqsadidan kelib chiqqan holda, unga quyidagi vazifalar qo'yiladi: patent ishlarining tashkillantirilishi, ixtirochilik – patentlashtirish ishlarining qonuniy himoyalaniishi, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovarlar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlar kelib chiqish joylarining nomlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini, firma nomlari haqida ma'lumot va ularni tasdiqlovchi hujjatlarning rasmiylashtirilishi, O'zbekiston patent idorasi axborotnomasi, ixtirochilikning moliyalashtirilishi va boshqalar haqida ma'lumotlar berish.

“Patentshunoslik, litsenziyalashva sertifikatlash” fanini o'rgangan magistr:intellektual mulk huquqiy asoslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va O'zbekiston patent idorasi qoidalariga rioya qilib, mustaqil ravishda ixtirochilik ishlari bilan shug'ullanishi, ixtirolar, foydali modellar, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlar kelib chiqish joylarining nomlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini, firma nomlari va boshqalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish – rasmiylashtirish ishlarini olib borish va boshqa ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Tayanch iboralar: Intellektual mulk, ustuvor yo'nalishlar, Vena konvensiyasi, innovatsiya, innovatsion rivojlanish, patent, patent idorasi, sanoat mulki, seleksiya yutuqlari.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda intellektual mulk.
2. Intellektual mulk muhofazasi, mohiyati.
3. Intellektual mulkning material bazasi.
4. DITD nomlari va uning mohiyati.
5. Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod rivojlanishidagi roli.
6. O'zbekistonda Patent idorasi va vazifalari.
7. Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash fanining maqsadi va vazifalari.

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi bo'yicha ishlarining tashkillashtirilishi mohiyati bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
2. Intellektual mulk muhofazasida patent va uning fan, ijod, ilmiy – texnikaviy rivojlanishidagi roli haqida tushunchalarga ega bo'lishi kerak.
3. O'zbekiston patent idorasi haqida ma'lumotlarni bilishi lozim.
4. Patentshunoslik, litsenziyalashva sertifikatlash kursining maqsadi, predmeti va vazifalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 1, 2, 3, 4

2-BOB. PATENTSHUNOSLIK.

2- ma'ruza. Intellektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari

1.Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunining mohiyati. 2.Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joylari nomlarining mohiyati. 3.Elektron hisoblash mashinalari integral mikrosxemalar topologiyalarni huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida qonunning ahamiyati. 4.Firma nomlari, seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunlar haqida umumiy ma’lumotlar. 5.Intellektual mulk huquqi haqida xalqaro kelishuvlar to‘g‘risida.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O‘zbekistonda ixtirochilik – patent ishlarining qonuniy himoyalanihi haqida ma’lumot berish .	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none">•“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari konuniy asoslari bilan tanishtiriladi.•Barcha tovarlar va xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlar kelib chiqish joylari nomlarining mohiyati haqi-da tushunchaga ega bulish.•Integral mikrosxemalar topologiyalarni huquqiy muhofazasi to‘g‘risidagi qonunni bilish.•Firma nomlari, seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunlar haqida umumiy ma’lumotlar berish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talabalar: <ul style="list-style-type: none">• Intellektual mulk konuniy asoslari bilan tanishib tassavur xosil qiladilar.• tovarlar va xizmat ko‘rsatish belgilari , tovarlar kelib chiqish joylari nomlari bilan tanishadilar.• Integral mikrosxemalar topologiyalarni huquqiy muhofazasi to‘g‘risidagi qonunning mohiyati bilan tanishadilar.• turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunlar, xalqaro kelishuvlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladilar.

O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, grafik organayzer: jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichla	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	talabning
1-Bosqich Kirish (5 min.)	1.1.Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chikaradi.	1.1.Eshitadilar yozib oladilar. 1.2.E'tibor beradilar
2-Bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy kategoriya va tushunchalarni va ma'ruza oxirida echiladigan masalalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baxolash mezonlari ma'lum kilinadi.	2.1.Aniqlik kiritadilar. Savollar beradi.
3-Bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1.“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonunining mohiyati tushuntiradi. 3.2.Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joylari nomlari haqida konun tushunchalari bilan tanishtiradi. 3.3.Elektron hisoblash mashinalari integral mikroxiemalar topologiyalarni huquqiy muhofaza qilish to'g'risida qonunning ahamiyati. 3.4.Firma nomlari, seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunlar haqida umumiy ma'lumotlar va intellektual mulk huquqi haqida xalqaro kelishuvlar to'g'risida gapirib beradi.	3.1.Omillarni sanaydi.Ta'riflar ni yozib oladilar. 3.2.YOzib oladilar,muxokama qiladilar. 3.3.YOzib oladilar, muxokama qiladilar.

4-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O‘quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi. 4.2. Mustakil ishlash va nazariy bi-limlarni mustaxkamlash uchun savolarni be-radi.	4.1.Eshitadi. Aniqlashtira-di. 4.2.Topshirini yozib oladilar.
------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------

1. “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunining mohiyati

“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1994 yil 6 mayda mustaqilligimizning dastlabki kunlarida qabul qilingan edi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 yil № 5, 138-modda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil № 3, 38-modda). Lekin ungacha, ya’ni 1 oktyabr 1992 yildan O‘zbekistonda Prezident ho‘zuridagi Vazirlar Mahkamasining 15 sentyabr 1992 yil №432 qarori bilan “ O‘zbekiston Respublikasi sanoat mulki vaqtincha nizomi” qabul qilingan edi. Ushbu nizom, yuqorida qayd etilgan qonunni qabul qilingunga qadar qo‘llanilib kelindi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal sur‘atlarda rivojlanishi va uning xalqaro munosabatlarda salohiyatining oshishi bilan ushbu qonunning butun dunyo amaliyotini o‘rgangan holda yangi tahriri ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 yil 29 avgustda “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun jami 39 modda, VII bo‘limdan iborat bo‘lib, unda umumiy qoidalar (1-8 moddalar), Sanoat mulki ob‘ektining huquq sub‘ektlari (9-13 moddalar), patent berish haqidagi talabnoma (14-19 moddalar), patent berish haqidagi talabnomani ekspertizadan o‘tkazish (20-23 moddalar), Sanoat mulki ob‘ektiga patent olish va bu patentning amal qilishni tugatish (24-29 moddalar), Sanoat mulki ob‘ektlaridan foydalanish (30-33 moddalar) va yakunlovchi qoidalar (34-39 moddalar)dan tashkil topgan.

Ushbu qonunning maqsadi 1-moddada belgilanganidek – ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari (bundan buyon matnda sanoat mulki ob‘ektlari deb yuritiladi) yaratish, huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Sanoat mulki ob‘ektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining sanoat mulki ob‘ektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda

tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi (bundan buyon matnda Patent idorasi deb yuritiladi) sanoat mulki ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Patent idorasi sanoat mulki ob'ektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni (bundan buyon matnda patent berish haqidagi talabnoma deb yuritiladi) ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat ro'yxatiga oladi, sanoat mulki ob'ektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki ob'ektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Patent idorasi to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat byudjeti mablag'lari, patent bojlari, shuningdek Patent idorasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va taqdim etiladigan materillar uchun to'lanadigan haq Patent idorasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Patent idorasining Apellyasiya kengashi (bundan buyon matnda Apellyasiya kengashi deb yuritiladi) qarorlar chqarishda mustaqildir va o'qz faoliyatida ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Apellyasiya kengashi:

Patent idorasining talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki ob'ektlari xususidagi qarori ustidan;

sanoat mulki ob'ektlariga patent berilganligiga qarshi manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan;

sanoat mulki ob'ektlari patentlarining huquqiylikiga qarshi berilgan apellyasiyalarni ko'rib chiqadi.

Apellyasiya kengashi o'z vakolatlari doirasida apellyasiyalarning boshqa turlarini ham ko'rib chiqishi mumkin.

Apellyasiya kengashi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoat mulki ob'ektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorsilariga) tegishli bo'ladi va patent bilan tasdiqlanadi.

Agar sanoat mulki ob'ektini bir nechta shaxs sibir-biridan mustaqil ravishda yaratgan bo'lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Patent idorasiga birinchi bo'lib topshirgan shaxsa tegishli bo'ladi.

Muallif (hammualliflar), agar o'zi (o'zlari) yaratgan sanoat mulki ob'ektini boshqalar g'ayriqonuniy o'zlashtirib olishi natijasida bu ob'ektga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo'lsa, patent berilganligiga qarshi e'tiroz bildirish

yoxud patent egasi sifatida o'ziga (o'zlariga) patentning o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Sanoat mulki ob'ektining huquqiy sub'ektlari. Ijodi mehanti bilan sanoat mulki ob'ektini yaratgan jismoniy shaxs shu ob'ektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar sanoat mulki ob'ekti bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehanti asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida to'zilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi shu ob'ektning teng huquqli hammualliflari deb e'tirof etiladi.

Patent egasi; patent egasining sanoat mulki ob'ektidan foydalanish huquqi; patent egasi mutlaq huquqining bo'zilishi sifatida e'tirof etilmaydigan harakatlar; patent egasi mutlaq huquqining bo'zilishi; ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma; foydali modelga patent berish haqidagi talabnoma; sanoat namunasiga patent berish haqidagi talabnoma; sanoat mulki ob'ekti ustuvorligi; talabnomalarni o'zgartirish.

Patent berish haqidagi talabnomani ekspertizadan o'tkazishda: patent berish haqidagi talabnomaning davlat ekspertizasi; rasmiy ekspertiza; foydali model haqidagi talabnoma ekspertizasi.

Sanoat mulki ob'ektiga patent olish va bu patentning aml qilishini tugatishida: sanoat mulki ob'ektini davlat ro'yxatiga olish; sanoat mulki ob'ekti ro'yxatga olingani to'g'risidagi ma'lumotlarni rasman e'lon qilish; sanoat mulki ob'ektiga patent berish; sanoat mulki ob'ekti patentini haqiqiyo emas deb e'tirof etish; sanoat mulki ob'ekti patentining amal qilinishi tugatish; sanoat mulki ob'ekti patentidan voz kechish.

Sanoat mulki ob'ektlaridan foydalanishda: ixtiro, foydali model, sanoat namunasidan foydalanish; avval foydalanganlik huquqi; sanoat mulki ob'ektidan foydalanish huquqini berish; sanoat mulki ob'ektlaridan foydalanishning davlat tomonidan rag'batlantirilishi.

Qonunning yakunlovchi qoidalarida: patent bojlari, ya'ni sanoat mulki ob'ektlariga huquqiy muhofaza berish bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni bajarganlik uchun patent bojlari undiriladi. Patent bojlari Patent idorasiga to'lanadi.

Patent bojlarining miqdori va ularni to'lash muddatlari, ularni to'lashdan ozod qilish, to'lov miqdorlarini kamaytirish yoki ularni qaytarib berish uchun asoslar, shuningdek patent bojlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Patent vakillari; sanoat mulki ob'ektlarini boshqa davlatlarda patentlash; chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari; nizolarni hal etish; sanoat mulki ob'ektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini bo'zganlik uchun javobgarlik.

Sanoat mulki ob'ektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini bo'zganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

2. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joylari nomlarining mohiyati

Intellectual mulkning sanoat mulki tarkibiga kiruvchi tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish joylari nomlari to'g'risida huquqiy muhofazasi ham mustaqillikning dastlabki kunlaridan ishlab chiqilib, yurtimiz iqtisodiyoti hayotida qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 mayda qabul qilingan "Mahsulot belgilari va xizmat belgilari to'g'risida"gi qonun (Oliy Kengash axborotnomasi, 1993 yil №6, 244-modda), 1997 yil 26 dekabardagi hamda 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan qo'shimchalar va o'zgartirishlar Bilan, 2001 yil 30 avgustgacha amaliyotda qo'llanilib kelindi.

Ushbu qonunlar takomillashtirilib, davr talablaridan kelib chiqqan holda, butun dunyo tajribalari natijalaridan kelib chiqqan holda "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni ishlab chiqilib 2001 yil 30 avgustda qabul qilinib, amalga kritildi.

Ushbu qonun 38 moddadan iborat bo'lib, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunning 1-5 moddalarida asosan, qonun maqsadi, hujjatlari tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish joy nomlari, ro'yxatdan o'tkazilishi va h.k. haqida ma'lumotlar berilgani bilan muhofazasi ko'rsatilgan.

Tovar kelib chiqqan joy nomini huquqiy jihatdan muhofazasi, ushbu qonunning 6-moddasida keltirilgan: Tovar kelib chiqqan joy huquqiy jihatdan uni ushbu Qonunda belgilangan tartibda shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ravishda muhofaza qilinadi.

Tovar kelib chiqqan joy nomi mazkur jo'g'rofiy ob'ektdagi, nomi o'zlari ishlab chiqarayotgan, ishlatiladigan bir yoki bir necha yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazgan shaxs bu nomdan, bashart mazkur shaxs yoki asosan mazkur jo'g'rofiy ob'ektga xos tabiiy sharoitlar yoki boshqa omillar bilan yoxud tabiiy birikmasi bilan belgilanadigan tovarni ishlab chiqarayotgan bo'lsa, foydalanish huquqini oladi.

Ushbu qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar kelib chiqqan joy nomidan jo'g'rofiy ob'ektda joylashgan va aynan shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarish jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin.

Qonunning 7-moddasida ko'rsatilganidek O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tovar kelib chiqqan joy nomlarini muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organi hisoblanadi.

Qonunda: Tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatga olish uchun talabnoma berish; tovar belgisini va tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnomaga doir talablar; Tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan belgilar; Tovar kelib chiqqan joy nomi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan tovar belgilari; Tovar belgisining ustuvorligi; Tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomani davlat ekspertizasidan o'tkazish; tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomani rasmiy ekspertizadan o'tkazish; talabnoma ifodalangan belgini ekspertizadan o'tkazish va davlat ekspertizasidan o'tkazish natijalari ustidan shikoyatlar haqida ham batafsil ko'rsatilgan.

Tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan huquqiy ro'yxatdan o'tkazishga doir moddalar 17, 18, 19 – moddalarda keltirilgan.

Ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga doir guvohnoma va tovar kelib chiqqan joy nomidan foyda olish, amal qilish hamda 20, 21, 22 va unga o'zgartirishlar kritish 23-modda, haqiqiy emas deb topish, tugatilishi 24, 25 – moddalarda keltirilgan.

Bundan tashqari qonunda: tovar belgisiga doir mutlaq huquq; tovar belgisidan foydalanish; tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish; ogohlantiruvchi tamg'alash; tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazish; tovar belgisi egasi bo'lmish yuridik shaxsni qayta tashkil etish paytida; tovar belgisini takroriy ro'yxatdan o'tkazish shartlari haqida ham batafsil aytib o'tilgan. Qonunning 33-moddasida patent bojlari haqida shunday deyiladi: Tovar belgilarini, tovar kelib chiqqan joy nomini yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish bilan bog'liq yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik uchun patent bojlari olinadi. Bu uning Ushbu Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga doir harajatlarni qoplash uchun to'lanadi. Albatta, qonun so'ngida patent vakillari; tovar belgisini va tovar kelib chiqqan joy nomini boshqa davlatlarda; chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari; nizolarni hal etish; tovar belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlarga javobgarlik to'g'risida ham ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

3. Elektron hisoblash mashinalari integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida qonunning mohiyati

Fan, texnika va ishlab chiqarishda elektron hisoblash mashinalarining (EHM) kirib borishi, hozirgi vaqtda ilmiy-texnika istiqbolini busiz tasavvur ham qilib bo'lmazligi va be borada butun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqbolli dasturlarning bajarilishida, ularning asosi bo'lgan integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofazasini qonun bilan belgilanishi o'ta muhim hisoblanadi. "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qouni 30 avgust 2001 yilda qabul qilingan bo'lib, 21 moddadan iboratdir. Ushbu qonun, bu to'g'risidagi barcha munosabatlarni tartibga solish bilan birga integral mikrosxemalar, integral mikrosxemalar topologiyasi, ularning huquqiy egasi tushunchalarini asoslab beradi (2-modda). Integral mikrosxemalar topologiyalarni huquqiy muhofaza qilish ob'ekti va shartlarida: Integral mikrosxemaning ushbu belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'ziga xos topologiyasi (bundan buyon matnda topologiya deb yuritiladi) integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ekti hisoblanadi. Muallifning ijodiy faoliyat natijasida yaratilgan va yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lmagan topologiya boshqacha holat isbotlangunga qadar o'ziga xos deb e'tirof etiladi. Yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lgan elementlardan tarkib topgan topologiyaga, agar bunday elementlar yig'indisi ushbu modda ikkinchi qismining talablariga to'la muvofiq bo'lsagina, huquqiy muhofaza beriladi. Ushbu Qonun bilan beriladigan huquqiy muhofaza topologiyaga singdirilgan g'oyalar, usullar, tizimlar, texnologiya yoki kodlashtirilgan axborotga nisbatan tatbiq etilmaydi. Yaratilgan topologiyalar muallifi, hammualliflik, topologiyalardang foydalanish huquqining berilishi va mutloq huquqning bo'zish hollari ham qonunning 4, 5, 6 – moddalarida keltirilgan. Masalan, topologiya muallifi deb, ijodiy mehnat bilan topologiyani yaratgan shaxs shu topologiya muallifi deb e'tirof etiladi. Agar topologiya ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxslarning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ular birgalikda mualliflar (hammualliflar) deb e'tirof etiladi. Topologiyani yaratishga shaxsan ijodiy hissa qo'shmagan, biroq muallifga texnik, tashkiliy ko'maklashgan jismoniy shaxslar mualliflar deb e'tirof etilmaydi. Muallifning topologiyaga bo'lgan huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Ushbu qonunda xizmat topologiyasi degan tushuncha kiritilib, unda (7-modda), bu quyidagicha izohlanadi: Xodim o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchining bajarishi vaqtida yaratgan (xizmat topologiyasi) topologiyaning ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risida guvohnoma olish huquqi, basharti bu ular o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi. Xizmat topologiyasi uchun muallifga mukofot pulining miqdori, shartlari va

tartibi u bilan ish beruvchi o'rtasidagi shartnoma bilan belgilanadi. Ushbu qonunda: topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish; topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomaning davlat ekspertizasi; davlat ekspertizasining xulosasi ustidan shikoyat qilish; topologiyani ro'yxatga olish; topologiya ro'yxatdan o'tkazilganitog'risidagi ma'lumotnomalarni e'lon qilish tartiblari ham batafsil berilgan. Ro'yxatdan o'tkazilgan topologiyalarga guvohnoma beriladi, guvohnoma foydalanish muddati, ularga bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tkazilishi, guvohnomaning bekor bo'lishi, patent bojlarining to'lab borilishi va boshqalar haqida qolgan moddalarda berilgan. Albatta, ushbu qonun elektron hisoblash mashinalari integral mikrosxemalar toplogiyalarini O'zbekistonda rivojlanishida katta rol o'ynaydi deb hisoblaymiz.

4. Firma nomlari, seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunlar haqida umumiy ma'lumotlar

YUrtimizda so'nggi vaqtlarda tadbirkorlikka bo'lgan e'tibor, ko'plab firma va korxonalarining tashkil etilishi, ularning kun sayin rivojlanib borayotganligi, bozor iqtisodiyoti munosabatida o'tishdagi shart-sharoit talablariga binoan ularning rivojlanishini va muhofazasini huquqiy himoyalanihi yo'lida qabul qilingan hujjatlardan biri bu "Firma nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni hisoblanadi.

Ushbu qonun 2006 yil 20 iyunda qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan. 2006 yil 25 avgustida Senat tomonidan maqullanib, 2006 yil 18 sentyarbda № URQ-51 Prezident tomonidan amalga kritilgan bo'lib, uning maqsadi firma nomlarini huquiy jihatdan muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Firma nomi deganda: Firma nomi yuridik shaxs bo'lgan tijorat tashkilotining (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) individual nomi bo'lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtda yuzaga keladi. YUridik shaxs to'liq firma nomi bilan birga qisqartirilgan firma nomiga ham ega bo'lishi mumkin. YUridik shaxsning firma nomida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilishi kerak. Qonunda nazarda tutilgan hollarda firma nomida yuridik shaxs faolitining xususiyati ko'rsatilishi kerak.

Qonunda firma nomida ko'rsatilishi lozim bo'lgan belgilar quyidagicha izohlanadi:

1) davlatning rasmiy nomi, xalqaro, hukumatlararo yoki nodavlat notijorat tashkilotining qisqartirilgan yoki to'liq nomi;

2) tarixiy yoki O'zbekiston Respublikasida mashhur bo'lgan shaxsning to'liq yoki qisqartirilgan ismi, belgilangan tartibda beriladigan ruxsatsiz;

3) firma nomining egasi, uning faoliyat turi yoki u kelib chiqqan falokat xususidagi soxta yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilar;

4) jamiyat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq prinsiplariga zid bo'lgan belgilar ko'rsatilmashligi kerak.

Firma nomida:

- ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa yuridik shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'xatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lgan firma nomlari;

- ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

- belgilangan tartibda qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadigan tovarlar kelib chiqqan joylarning nomlari bilan, shunday nomdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazish hollari bundan mustasno, adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshash bo'lgan belgilar ham ko'rsatilmashligi kerak.

Ushbu modda birinchi qismining 1-bandida ko'rsatib o'tilgan belgilar, agar bunga tegishli davlat organining yoki tashkilotning ruxsati bo'lsa, firma nomiga kritilishi mumkin.

Firma nomi to'g'risidagi qonun jami 17 moddadan iborat bo'lib, unda muhofaza qilish, uning huquqi, foydalanishligi, huquqning boshqa shaxsga o'tish va boshqalar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi qonun 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan bo'lib, 2002 yil 29 avgustda esa uning takomillashgan, zamon talablariga javob beruvchi yangi tahririda qabul qilindi va amalga kritildi. Ushbu qonun 5 bo'lim, 45 moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi seleksiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Uning asosiy tushunchasini seleksiya yutuqlari, ya'ni o'simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti tashkil etadi va asosan: seleksiya yutuq'ining patentga layoqatliligi; seleksiya yutug'iga patent olish; patent egasining huquqi; patent amal qilishning tugatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 2006 yil 23 martda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2006 yil 9 iyunda Senat tomonidan maqullangan va 2006 yil 20 iyunda Prezident tomonidan amalga kritilgan. Ushbu qonun 6 bobdan 70 moddadan iborat bo'lib: maqsadi fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi takshilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini (turdosh huquqlar) yaratish hamda ulardan foydalanish bilan

bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy tushunchalarini: asar nusxasi; asarni omma oldida namoyish etish; asarni oshkor qilish; audiovizual asar; audiovizual asarni tayyorlovchi; barchaning e'tiboriga etkazish; barchaning e'tibori uchun yuborish; yozuv; ijro; ijrochi; kabel orqali yuborish; manzarali-amaliy sant'at asari; ma'lumotlar bazasi; muallif; omma oldida ijro etish; prokatga berish; reprografik takrorlash; retranslyasiya; takrorlash; fonogramma; fonogramma nusxasi; fonogrammani tayyorlovchi; xalq ijodiyoti asarlari; chop etish; efirga o'zatish; efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot; efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvi yoki eshittirishi va huquq egasi tashkil etadi. Bundan tashqari mualliflik huquqi, uning mulkiy huquqlari, turdosh huquqlar, mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish va boshqalar ko'rsatilganki, ular hozirgi zamon talablariga to'la javob beradi.

Tayanish iboralar: Ixtiro; foydali model; sanoat namunalari; ekspertiza; Patent idorasi; ob'ekt; apellyasiya; patent egasi; tovar belgilari; xizmat ko'rsatish belgilari; EHM; mikrosxemalar topologiyasi; firma nomlari.

Nazorat uchun savollar:

1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" O'z.R. Qonunining mohiyati.
2. Sanoat mulki ob'ektlariga patent berish bo'yicha talabnomalar.
3. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish to'g'risida" O'z.R. Qonuni.
4. EHM da integral mikrosxemalar topologiyalari mohiyati.
5. Firma nomlari haqida umumiy ma'lumotlar.
6. Seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqlari haqida umumiy ma'lumotlar.

Talabaning mustaqil ish topshiriqlar:

1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining mohiyatini bilishi kerak.
2. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joylari nomlarining mohiyati bo'yicha etarlicha tushunchaga ega bo'lishi kerak.
3. Elektron hisoblash mashinalari integral mikrosxemalar topologiyalarni huquqiy muhofaza qilish to'g'risida qonunning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.
4. Firma nomlari, seleksiya yutuqlari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunlar haqida umumiy ma'lumotlar. Intellektual mulk huquqi haqida xalqaro kelishuvlar to'g'risida etarlicha bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 1, 2, 3, 4

3-mavzu. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari mazmuni tushunchasi, mohiyati

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar	
O'quv mashg'uloti-ning shakli	Axborot, vizual ma'ruza,	
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Sanoat mulki tushunchasi va uning tarkibi. 2. Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi. 3. Foydali modellar mazmuni, tushunchasi va ko'rinish hollari. 4. Sanoat namunalari mazmuni, tushunchasi va tuzilishi.	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Sanoat mulki tushunchasi, tarkibi va ularning mohiyati haqida ma'lumotlar berish.		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<ul style="list-style-type: none"> • Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi nimalardan iborat • Foydali modellar mazmuni, ko'rinish hollari to'g'risida tushuncha beradi • Sanoat namunalari tuzilishi, tushunchasi ahamiyati to'g'risida aytib beradi • Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari patentga layoqatlik shartlari haqida aytib beradi 	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
		<ul style="list-style-type: none"> • Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi haqida bilib oladilar • Sanoat namunalari tuzilishi, tushunchasi to'g'risida bilib oladilar. • Sanoat namunalari tuzilishi to'zilasini kila biladilar • Layoqatlik shartlari haqida ma'lumotga ega buladilar
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali ma'ruza, insert, akliy hujum, blits-so'rov,	
O'qitish shakli	Frontal, guruh, juftlikda ishlash	
O'qitish vositalari	Ma'ruza matnlari, proektor, grafik organzayzerlar, doska, bo'r	
O'qitish shart-sharoiti	Namunali auditoriya	

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, Vaqt	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.

<p>2-Bosqich. Asosiy (60 min.)</p>	<p>2.1 Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Sanoat mulki tushunchasi va uning tarkibi haqida ma'lumotlar keltiriladi. 2.3. Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi konun talablari va uning moxiyati yoritiladi. 2.4. Foydali modellar mazmuni, tushunchasi va ko'rinish hollari. konun talablari va uning moxiyati yoritiladi. 2.5. Sanoat namunalari mazmuni, tushunchasi va tuzilishi haqida ma'lumotlar tushuntirib beriladi.</p>	<p>2.1. Muammoli savollarga e'ti-bor beradilar: bilaman-bildim» jadvalining 1-ustu-nini to'ldiradilar. 2.2. Eshitadilar, yozadilar. 2.3. Eshitadilar, yozadilar. 2.4. Eshitadilar, yozadilar. 2.5. Eshitadilar, yozadilar.</p>
<p>3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)</p>	<p>3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2. Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:</p>	<p>3.1. Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

1. Sanoat mulki tushunchasi va uning tarkibi

Sanoat mulki intellektual mulkning muhim tarkibiy qismi bo'lib u ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari hamda tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlarini o'z ichiga oladi. Sanoat mulki sifatida biron-bir moddiy ob'ektlarni – korxonalar binolarini, asbob-uskunalarini va boshqalarni ko'zda to'tish noto'g'ri hisoblanadi.

Sanoat mukliga bo'lgan huquqlar mualliflik huquqidagi kabi ularning yaratilishi fakti bilan emas, balki ular Patent idorasida belgilangan tartibda ekspertizadan, Davlat reystrida ro'yxatdan o'tkazilganidan, ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Patent idorasining byulletenida e'lon qilinganidan va muhofaza hujjatlari berilganidan keyingina paydo bo'ladi.

Seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalari kabi ob'ektlar sanoat mulki ob'ektlari bo'lib hisoblanmaydilar. Ular intellektual mulkning alohida turlari bo'lib hisoblanadilar. Seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalariga muhofaza hujjatlari shuningdek Patent idorasi tomonidan beriladi.

Patent bu – patent egasining ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, seleksiya yutuqlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga bo‘lgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Sanoat mulki ob‘ektlarini huquqiy muhofazasi haqida gapirar ekanmiz, bunday muhofaza “Ixtirlar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida” qonunda batafsil keltirilgan.

Sanoat mulki ob‘ektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari. Sanoat mulki ob‘ektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining sanoat mulki ob‘ektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Sanoat mulki ob‘ektlarini huquqiy muhofaza qilish. Sanoat mulki ob‘ektiga bo‘lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorsilariga) tegishli bo‘ladi va patent bilan tasdiqlanadi.

Agar sanoat mulki ob‘ektini bir necha shaxs bir-biridan mustaqil ravishda yaratgan bo‘lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Patent idorasiga birinchi bo‘lib topshirgan shaxsga tegishli bo‘ladi.

Muallif (hammualliflar), agar o‘zi (o‘zlari) yaratgan sanoat mulki ob‘ektini boshqalar g‘ayriqonuniy o‘zlashtirib olish natijasida bu ob‘ektga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo‘lsa, patent berilganligiga qarshi e‘tiroz bildirish yoxud patent egasi sifatida o‘ziga (o‘zlariga) patentning o‘tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Sanoat mulki ob‘ektining patenti davlat ekspertizasi o‘tkazilgandan keyin beriladi.

Ixtiro patenti ixtironing yangiligini, ixtirolik darajasini, uning haqiqiylikini va patent egasining ixtiroga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Foydali model patenti foydali modelning yangiligini, uning haqiqiylikini va patent egasining foydali modelga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Sanoat namunasi patenti sanoat namunasi yangiligi va o‘ziga xosligini; uning haqiqiylikini hamda patent egasining sanoat namunasi egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Sanoat mulki ob‘ekti patentning to‘la hajmdagi huquqiy muhofazasi yoki bu muhofazaning faqat bir qismi haqiqiy emasligini isbotlash vazifasi patenti haqiqiy emas deb da’vo qilyotgan taraf zimmasiga yuklanadi.

Patent egasining mutlaq huquqi sanoat mulki ob'ekti ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'umotlar Patent idorasining rasmiy axborotnomasiga e'lon qilingan sanadan e'tiboran amalda deb hisoblanadi.

Patent idorasiga patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran hisoblanganda ixtiro patenti yigirma yil mobaynida, sanoat namunasi patenti o'n yil mobaynida, foydali model patenti besh yil mobaynida amal qiladi.

Ixtiro patentining amal qilishi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda patent egasining iltimosnomasiga binoan Patent idorasi tomonidan ko'pi bilan besh yil muddatga o'zaytirilishi mumkin. Bunday ixtiro patentining amal qilishini o'zlashtirish tartibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Sanoat namunasi patentining va foydali model patentining amal qilish muddati patent egasining iltimosnomasiga binoan Patent idorasi tomonidan tegishlicha besh yilga hamda uch yilga o'zaytirilishi mumkin.

Ixtiro hamda foydali model patenti ta'minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi ularning formulasi bilan, sanoat namunasi patenti ta'minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi esa buyumning (maketning, rasmning) tasvirida aks ettirilgan muhim belgilari va (yoki) ularning kombinatsiyasi (bundan buyon matnda uning muhim belgilari majmui deb yuritiladi) bilan belgilanadi.

Sanoat mulki ob'ekti patenti, shuningdek uni olish huquqi meros bo'lib o'tadi.

Sanoat mulki ob'ektining huquq sub'ektlari. Sanoat mulki ob'ektining muallifi. Ijodiy mehnat bilan sanoat mulki ob'ektini ratgan jismoniy shaxs shu ob'ektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar sanoat mulki ob'ekti bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehaniti asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida to'zilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi shu ob'ektning teng huquqli hammualliflari deb e'tirof etiladi.

Mualliflik huquqi boshqaga o'tkazilmadigan va topshirilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquqdir.

Patent egasi. Sanoat mulki ob'ektining patenti quyidagilarga beriladi:

- sanoat mulki ob'ektining muallifiga (hammmualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki sanoat mulki ob'ekti ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar Patent idorasiga topshirilgan talabnoma beruvchini o'zgartirish haqidagi arizada ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ularning o'zi rozi bo'lgan taqdirda);

- ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga.

Xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki ob'ektining patentiga

bo'lgan huquq, agar bu hol ular o'rtasida to'zilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi.

Agar ish beruvchi bilan muallif (hammualliflar) o'rtasidagi shartnomada ushbu moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, u holda muallif (hammualliflar) talabnoma topshirish va sanoat mulki ob'ektining patentini o'z nomiga olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda ish beruvchi patent egasiga shartnomaga belgilanadigan miqdorda tovon to'lab, o'z ishlab chiqarishida tegishli sanoat mulki ob'ektidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ish beruvchi sanoat mulki ob'ektini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to'lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi.

2. Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirlar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" Qonuniga (yangi tahriri 29.08.2002 y. da tasdiqlangan) muvofiq qurilmalar, usullar, moddalar, mikroorganizmlarning shtammlari, o'simliklar va hayvonlar turlari, avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarni yangi vazifada qo'llanilishi ixtirlar sifatida tan olinadi.

O'zbekistonda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ilmiy nazariyalar va matematik usullar, tashkiliy va boshqaruv usullari, shartli belgilar, ish jadvallari, qoidalar, aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari, elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar, binolar, inshootlar, hududlarning joylashishi loyihalari va sxemalari, estetik ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga taalluqli echimlar, integral mikrosxemalar topologiyalari, o'simliklar pavlari va hayvon zotlari, jamiyat manfaatlari, insonparvarlik va ahloq prinsiplariga qarama-qarshi bo'lgan echimlar ixtiro deb tan olinmaydi.

Ixtiroga bo'lgan huquq patent bilan tasdiqlanadi. Patent egasiga ixtiroga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish mutlaq huquqi beriladi.

Ixtiro patentlanishi uchun yangi, sanoatda qo'llanila olishi va ixtirochilik darajasiga ega bo'lishi lozim (so'nggi talab taklif qilinayotgan texnik echim ushbu sohadagi mutaxassis uchun yaqqol ayon bo'lmasligi kerakligini anglatadi).

Patent tegishli patent bojlari to'langan hollarda davlat ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng ijobiy qaror chiqarilganiga beriladi va Patent idorasiga patent berish uchun talabnoma topshirilgan sanadan boshlab yigirma yil davomida amal qiladi.

Ixtironing patentga layoqatlilik shartlari. Agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, u yangi deb hisoblanadi.

Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi ma'lumotlardan yaqqol ayon bo'lmasa, u ixtirolik darajasiga ega bo'ladi.

Texnika taraqqiyoti jahonda ommaga oshkor bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ixtironing yangiligini aniqlash chog'ida birmuncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi.

Agar ixtirodan sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda foydalanish mumkin bo'lsa, u sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi.

Ixtiroga taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, ixtironing patentga layoqatliligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etiladi:

- qurilmalar;
- usullar;
- moddalar;
- mikroorganizmlarning shtammlari;
- o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari;
- ilgaridan ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarning, mikroorganizmlar shtammlarining yangi maqsadida qo'llanilishi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidlari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid echimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid echimlar.

Qonunning 6-moddasiga muvofiq agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi, ixtirlik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi. Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, u yangi deb hisoblanadi. Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi ma'lumotlardan yaqqolayon bo'lmasa, ixtirolik darajasiga ega bo'ladi. Texnika taraqqiyoti darajasi ixtiro ustuvorligi sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'zi ichiga oladi. Agar ixtiro sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarida foydalanish mumkin bo'lsa, sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi. Qonunning 6-moddasini sakkizinchi qismiga muvofiq qurilmalar, usullar, moddalar, mikroorganizmlarning shtammlari, o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari, ilgari ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarning, mikroorganizmlar shtammlarining yangi maqsadda qo'llanilishi ixtiro sifatida e'tirof etiladi.

a) Ixtiro turi – “qurilma”

ixtiro turi sifatida qurilmalarga konstruksiyalar, konstruktiv elementlar yoki ularning funksional konstruktiv birlikda bo'lgan majmuidan iborat buyumlar kiradi.

Qurilmalarga mashinalar, asboblari, apparatlar, uskunalar, instrumentlar, mahkamlovchi buyumlar, mashina detallari, aloqa vositalari, qurilish konstruksiyalari va boshqalar kiradi.

b) Ixtiro turi – “usul”

ixtiro turi sifatida usullarga moddiy ob'ekt (qurilma, muhit, elektr zaryadi, magnit maydoni va boshqalar) ustida moddiy vositalar yordamida o'zaro bog'liq harakatlarni bajarish jarayonlari kiradi.

v) Ixtiro turi – “modda”

Ixtiro turi sifatida moddalarga:

- kimyoviy birikmalar, bularga shartli ravishda yuqori molekulyar birikmalar va gen injeneriyasi mahsulotlari bo'lgan rekominant nuklein kislotalar, vektorlar kiritilgan;

- kompozitsiyalar (tarkiblar, aralashmalar, qotishmalar, eritmalar va boshqalar);

- yadroviy parchalanish mahsulotlari kiradi.

g) Ixtiro turi – “mikroorganizm shtammi, o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari (liniyalari)”

Mikroorganizm shtammlari, o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari (liniyalar)ga:

- bakteriyalar, viruslar, bakteriofaglar, mikro suv o'tlari, mikroskopik zambo'rug'lar va boshqalarning shtammlari;

- mikroorganizmlar, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlari (liniyalari) konsorsiumlari;

- xususan mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlarning plazmidlari, vektorlari, barqaror transformasiyalangan hujayralari, transgen o'simliklar va hayvonlarga doir bo'lgan genetik konstruksiyalar kiradi.

d) Ixtiro turi – “avvaldan ma'lum bo'lgan qurilma, usul, modda, shtammni yangi maqsadda qo'llanilishi”

Ixtiro turi sifatida avvaldan ma'lum bo'lgan qurilma, usul, modda, shtammni yangi maqsadda qo'llanilishiga ularning o'zgacha maqsadga muvofiq ishlatilishi kiradi. Avvaldan ma'lum bo'lgan (tabiiy va sun'iy yo'l bilan olingan) moddalarni ijtimoiy iste'molni qanoatlantirish uchun birinchi marta ishlatilishi yangi maqsadda ishlatishga tenglashtiriladi.

Quyidagilar:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidlari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va sxemalari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, mahsulotlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid echimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid echimlar ixtirolar deb tan olinmaydi. Qonunning 15-moddasi birinchi qismiga muvofiq talabnoma bitta ixtiroga yoki yagona ixtirochilik fikrini (ixtiro birligi talabini) tashkil etgan tarzda bir-biri bilan o'zviy bog'langan ixtirolar guruhiga taalluqli bo'lishi kerak.

Agar ixtiro formulasida bitta ixtiro tavsiflangan bo'lsa;

- ixtiro formulasida bir turdagi (bir qancha qurilmalar, bir qancha turlar va boshqalar), bir xil maqsadda foydalanishga mo'ljallangan, prinsipial aynan bir xil yo'l (variantlari) bilan aynan bir xil texnika natijasini olishni ta'minlaydigan ob'ektlarga taalluqli ixtirolar guruhi tavsiflangan bo'lsa;
- biri ikkinchisini olish (tayyorlash) uchun mo'ljallangan bo'lsa (masalan, qurilma yoki modda va qurilma yoki moddani butunlay yoki ularning bir qismini olish usuli);
- biri ikkinchisini amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lsa (masalan, usul va usulni butunlay yoki uning amallaridan birini oshirish uchun qurilma);
- biri ikkinchisidan (ikkinchisida) foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa (masalan, usulda foydalanish uchun mo'ljallangan uchul va qurilma; usul yoki qurilma va uning bir qismi; qurilma yoki moddani ulardan yangi maqsadda foydalanish uchun qo'llash va ushbu maqsadga muvofiq ulardan foydalanish usuli);

qurilma yoki moddadan yangi maqsadda foydalanish va tarkibiy qismi bo'lgan qurilma yoki kompozitsiya) ixtiro birligi talabiga rioya qilingan deb hisoblanadi.

3. Foydali modellar mazmuni, tushunchasi va ko'rinish hollari

Foydali model qonunga asosan, qurilmalarning konstruktiv bajarilishiga tushuniladi. Agar, foydali model haqiqatan ham yangi bo'lsa, unga qonunga asosan huquqiy himoya patent ko'rinishida Patent idorasi tomonidan besh yil muddatga beriladi. Foydali modelning patentga layoqatlilik shartlari "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasida keltirilgan. Jumladan, shunday deyilgan: Agar foydali model sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi bo'lsa va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi. Agar foydali modelning muhim belgilari majmui texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, u yangi deb hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti darajasi talabnomada ko'rsatilgan foydali model amalga oshirishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajara oladigan vositalar haqidagi O'zbekiston Respublikasida hamma foydalana oladigan barcha ma'lumotlarni, shuningdek ularni qo'llashga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Foydali model, agar undan amalda foydalanish mumkin bo'lsa, sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi. Foydali modelga taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar foydali modelga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, foydali modelning patentga layoqatliligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi. Qurilmaning konstruktiv yo'l bilan bajarilishi foydali modellarga taalluqlidir. Ushbu Qonun 6-moddasining to'qqizinchi qismida ko'rsatilgan ob'ektlar foydali modellar sifatida muhofaza qilinmaydi.

4. Sanoat namunalari mazmuni, tushunchasi va tuzilishi

Sanoat namunalari - bu sanoatda ishlab chiqariladigan buyumning (tovarning) tashqi original ko'rinishi belgilaridan uning badiiy konstruktorlik echimiga aytiladi. Sanoat namunasiga huquqiy muhofazasi uchun Qonunda belgilanganidek (8-modda) uning patentga layoqatlilik shartlari bajarilishi kerak. Agar sanoat namunasi sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi va original (o'ziga xos) bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi. Agar sanoat namunasining muhim belgilari majmui sanoat namunasiga ustuvorlik berish sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ayon bo'lmasa, u yangi deb e'tirof etiladi. Sanoat namunasining yangiligini aniqlash chog'ida birmuncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish

haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi. Sanoat namunasi, agar uning muhim belgilari majmui buyum xususiyatlarining ijodiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, original deb e’tirof etiladi. Sanoat namunasiga taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar sanoat namunasiga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e’tiboran ko‘pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo‘lsa, sanoati namunasining patentga layoqatliligini tan olishga ta’sir ko‘rsatadigan holat sifatida e’tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, taabnoma beruvchi zimmasida bo‘ladi. Buyumning tashqi ko‘rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik echimi sanoat namunalari jumlasiga kiradi.

Quyidagilar sanoat namunalari deb e’tirof etilmaydi:

- matbaa mahsulotlari;
- arxitektura ob’ektlari (kichik arxitektura shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa statsionar inshootlar;
- suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o‘xshash moddalardan iborat o‘zgaruvchan shakldagi ob’ektlar;
- buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan echimlar;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid echimlar.

Tayanch iboralar: Sanoat mulki tushunchasi; mulk tarkibi; Davlat reystri; EHM uchun dasturlar; sanoat mulki ob’ektlari; foydali model; patent egasi; talabnoma; ixtiro turi; sanoat namunalari.

Nazorat uchun savollar:

1. Sanoat mulki tushunchasi va mohiyati.
2. Patent qanday ma’noni bildiradi?
3. Sanoat mulki ob’ektining huquq sub’ektlari.
4. Ixtironing mazmuni va tuzilishi.
5. Ixtiro sifatida e’tirof etiladigan turlari.
6. Foydali modellar tushunchasi va uning ko‘rinish hollari.
7. Sanoat namunalari tushunchasi va tuzilishi.

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Sanoat mulki tushunchasi va uning tarkibi va ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi to‘g‘risida etarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim.
3. Foydali modellar mazmuni, tushunchasi va ko‘rinish hollari haqida bilshi kerak.
4. Sanoat namunalari mazmuni, tushunchasi va tuzilishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 3, 4, 5, 6

2-BOB. PATENTSHUNOSLIK.

4-mavzu. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga talabnoma tuzish, topshirish va rasmiy hujjat olish

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar	
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza,	
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga patent olish uchun talabnoma tuzish.</p> <p>2. Patent idorasiga talabnomani topshirish tartibi.</p> <p>3. Patent idorasi tomonidan topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi.</p> <p>4. Patent idorasi tomonidan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga patent hujjatini berilishi.</p>	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Sanoat mulki bo'lgan ob'ektlarga rasmiy hujjat – patent olish qoidalari haqida ma'lumotlar berish.		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston patent idorasidan patent olish uchun talabnoma tuzish talablari va tartibi ma'lumotlar berish. • Patent idorasiga talabnomani topshirish o'rnatilgan tartibi, talab etiladigan xujjatlar to'g'risida axborot beriladi. • Patent idorasi nizomi bo'yicha topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi haqida ma'lumot beriladi. • Patent idorasi tomonidan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga rasmiy patent hujjatini berilishi tartibi haqida ma'lumotlar beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> • patent olish uchun talabnoma tuzish talablari va tartibi haqidagi konuniy ma'lumotlar ega buladilar. • Patent talabnomasini topshirish tartibi, talab etiladigan xujjatlar soni, nom iva mazmuni haqida axborotlar oladilar • Topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi haqida ma'lumot ega buladilar. • Ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga rasmiy patent hujjatini berilishi tartibi bilan tanishadilar. 	
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali ma'ruza, insert, akliy hujum, blits-so'rov, klaster, UTV/KT	
O'qitish shakli	Frontal, guruhiy, juftlikda ishlash	
O'qitish vositalari	Ma'ruza matnlari, proektor, grafik organzayzerlar, doska, bo'r	
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya	

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi.

Bosqichlar, Vahti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar,javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. O'zbekiston patent idorasidan patent olish uchun talabnoma tuzish talablari va tartibi ma'lumotlar berish. 2.3.Patent idorasiga talabnomani topshirish o'rnatilgan tartibi, talab etiladigan xujjatlar to'g'risida axborot beriladi. 2.4.Patent idorasi nizomi buyicha topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi haqida ma'lumot beriladi. 2.5.Patent idorasi tomonidan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga rasmiy patent hujjatini berilishi tartibi haqida ma'lumotlar beriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar:«bilaman-bildim» jadvalining 1-stunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar. 2.5.Eshitadilar, yozadilar.
3-bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga patent olish uchun talabnoma tuzish

Patent olish uchun talabnoma, bu qonun-qoidaga binoan to'zilgan hujjatlar majmuasi hisoblanadi.

Talabnoma tarkibi. Qonunning 15-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq talabnoma quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi kerak:

a) ixtiro muallifi (mualliflari) va nomiga patent berilishi so'ralayotgan shaxs (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi), shuningdek ularning yashash turar joyi ko'rsatilib, patent berilishi so'ralgan ariza (1-ilova);

b) ixtironing uni amalga oshirish uchun etarli bo'lgan darajada to'liq bayon etilgan tavsifi;

v) ixtiro mohiyatini aks ettiruvchi va uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan ixtiro formulasi;

g) ixtiro mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallar;

d) referat.

Talabnomaga belgilangan miqdorda boj to'langanligini tasdiqlovchi hujjat yoki boj to'lashdan ozod qilish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun nasos bo'luvchi hujjat ilova qilinadi.

Patent vakili yoki boshqa ishonchli vakil orqali berilgan talabnomaga talabnoma beruvchi tomonidan berilgan ishonchnoma yoxud uning kerakli tarzda rasmiylashtirilgan nusxasi ilova qilinadi.

Konvention ustuvorlik so'rab berilgan talabnomaga talabnoma beruvchi tomonidan Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan davlatda berilgan birinchi talabnomaning tasdiqlanagn nusxasi va shu talabnomaning o'zbek yoki rus tiliga tarjimasi ilova qilinadi va ular konvention talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan uch oydan kechiktirmay berilishi lozim.

Birinchi talabnoma berilgan sanadan o'n ikki oy o'tgandan keyin, lekin o'n ikki oylik muddatdan ikki oydan kechiktirmay berilgan talabnoma bo'yicha konvention ustuvorlik so'ralganda, talbanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- konvention ustuvorlikni so'rash muddatini o'zaytirish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'langanligi to'g'risida hujjat;

- belgilangan o'n ikki oylik muddatdan kechiqib talabnoma berishning talabnoma beruvchiga bog'liq bo'lmagan sabablarini ko'rsatuvchi hujjat ilova qilinadi va bu sabablar Patent idorasiga ma'lum emas deb hisoblansa, ularni tasdiqlovchi dalillar keltiriladi.

Konvention ustuvorlikni belgilash to'g'risidagi iltimos talabnoma berilgan (arizaning tegishli grafasida ko'rsatiladi) yoki talabnoma Patent idorasiga kelib tushish sanasidan boshlab ikki oy ichida berilishi mumkin.

YAngi mikroorganizm shtammi, o'simlik va hayvonlar hujayralari liniyalariga, ularni olish yoki ulardan foydalanishga oid talabnomaga shtammning rasmiy vakolatga ega bo'lgan kolleksiya-depozitariyada deponentlanganligi to'g'risidagi hujjat ilova qilinadi.

Nukleotidlar va yoki aminokislotalar ketma-ketligi ro'yxatini ichiga olgan talabnomaga aynan ushbu ro'yxatning nusxasi yozilgan va BMTning ST.25 standarti talablarini qanoatlantiruvchi axborotni mashinada o'qish mumkin bo'lgan tashuvchi (disketa) (bundan buyon matnda MO'T deb yuritiladi) hamda talabnoma

beruvchi tomonidan imzolangan mashinada o'qish mumkin bo'lgan shakldagi taqdim etilayotgan axborot bosma ravishda taqdim etilayotgan ro'yxat bilan bir xil ekanligi haqidagi ariza ilova qilinadi.

Ushbu Qoidalarning 5-bandida ko'rsatilgan hujjatlari uch nusxada taqdim etiladi: 2 nusxasi qog'ozda, uchinchi nusxasi sifatida esa axborotni mashinada o'qish mumkin bo'lgan tashuvchida elektron ko'rinishdagi nusxasi taqdim etilishi mumkin.

Agar aynan ushbu talabnoma hujjatlari boshqa tilda to'zilgan bo'lsa bir nusxada, ularning o'zbek yoki rus tiliga tarjimasida esa uch nusxada: 2 nusxasi qog'ozda, uchinchi nusxasi esa elektron ko'rinishda taqdim etilishi mumkin.

Talabnoma hujjatlari yoki qo'shimcha materiallarning qog'ozdagi va axborotni mashinada o'qish mumkin bo'lgan tashuvchidagi mazmuni aynan bir xil bo'lishi kerak. Qog'ozdagi va axborotni mashinada o'qish mumkin bo'lgan tashuvchidagi materiallarning aynan bir xil bo'lishiga talabnoma beruvchi javobgardir.

a) agar biron-bir ma'lumotlarni tegishli grafalarda to'liqligicha joylashtirish mumkin bo'lmasa, u holda ular tegishli grafada "davomini qo'shimcha varaqda qarang" yozuvi ko'rsatilgan holda qo'shimcha varaqda aynan shunday shaklda keltiriladi.

Xorijiy nomlar va korxonalar nomlari o'zbek va rus tili transliteratsiyasida ko'rsatiladi.

Talabnoma beruvchining nomi, ixtiro nomi o'zbek va rus tillarida taqdim etiladi.

Arizaning "ariza" so'zidan yuqorida joylashgan grafalari talabnoma Patent idorasiga kelib tushgandan keyin ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabnoma beruvchi tomonidan to'latilmaydi.

"Talabnoma beruvchi" kodi ostida berilgan grafada talabnoma bo'revchi(lar) haqidagi ma'lumotlar: jismoniy shaxsning familiyasi, ismi (otasining ismi), bunda familiyasi ismidan oldin ko'rsatiladi, yoki yuridik shaxsning to'liq rasmiy nomi (ta'sis hujjatlariga muvofiq) va shuningdek, yashash joyi yoki joylashgan manzili to'g'risidagi ma'lumotlar, mamlakatning rasmiy nomi va to'liq pochta manzili va mamlakatning Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning ST.3 standarti bo'yicha kodi ko'rsatiladi (agar belgilangan bo'lsa) keltiriladi.

"YOzishmalar uchun manzil" kodi ostidagi grafada yozishmalar uchun manzil, yozishmalar tezroq etib borishi uchun odatdagi talablarini qanoatlantiradigan xat oluvchining ismi yoki nomi, va telefon, faks raqamlari, e-mail (agar bo'lsa) keltiriladi.

b) Ixtiro tavsifi ixtironi amalga oshirish uchun etarli ravishda to'liq ochib berishi kerak.

Tavsif ixtiro nomini keltirish bilan boshlanadi (talabnoma berilayotgan ixtiro tegishli bo'lgan Xalqaro patent klassifikatsiyasining amaldagi tuhriri rubrikasi belgilangan holda, ushbu rubrikaning indeksi ixtiro nomi oldida keltiriladi) va quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- ixtiroga oid bo'lgan texnika sohasi;
- texnika darajasi;
- ixtiro mohiyati;
- chizmalar va boshqa materiallar ro'yxatining (agar ular bo'lsa) qisqacha tavsifi;
- ixtironing amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovi ma'lumotlar;
- nukleotidlar va yoki aminokislotalar ketma-ketligi ro'yxati (agar bunday ketma-ketlikdan ixtironi tavsiflash uchun foydalanilgan bo'lsa).

Ixtiro nomi aniq, qisqa bo'lib, ixtiro mohiyatiga mos kelishi, ixtiro tegishli bo'lgan ob'ektning umumiy tushunchasini aniqlashi va ob'ektning vazifasini harakterlashi (uning bajaradigan funksiyasini yoki texnikaning qaysi sohasiga oid ekanligini ko'rsatishi) kerak.

Ixtiro nomi XPKning biror rubrikasiga mos kelishi kerak. Ixtiro mohiyatiga mos rubrikani aniqlash mumkin bo'lmasa, ixtironing nomi qabul qilingan tarmoq, umumiy texnika atamalariga muvofiq ko'rsatiladi.

Agar ixtiro har xil sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, nomi buni ifodalasa, ixtiro nomida "afzal", "ayniqsa" so'zlarini ishlatib, ixtiro qaysi sohalardan birida ayniqsa ko'p qo'llanishini aniqlashga ruxsat etiladi.

Ixtiro nomida qo'llash mumkin bo'lgan sohalarning faqat bittasini ta'kidlovchi "masalan" va "xususan" degan iboralar qo'llanilmaydi.

Ixtiro nomi atamaga xos yoki tavsifiy bo'lishi mumkin.

Atamaga xos nom, texnikaning shu soha bo'yicha mutaxassisiga ma'lum bo'lgan ob'ektning muhim alomatlari majmuini ular sanab o'tilganli yoki yo'qligidan qat'iy nazar harakterlaydi.

Tavsifiy nom ob'ektning vazifasi va u tomondan texnikaning bir yoki turli xil sohalarida bajaradigan funksiyasi haqida tasavvur beradi, ammo talabnoma berilgan ixtironi tavsiflovchi muhim alomatlarining zarur bo'lgan majmuasi to'g'risida aniq fikr yuritish imkoniyatini bermaydi.

Tavsifning "Texnika darajasi" bo'limida talabnoma beruvchiga ma'lum bo'lgan ixtiro analoglari keltiriladi va ular orasidan ixtiroga muhim alomatlar majmui bo'yicha eng yaqin bo'lgan analog ajratib ko'rsatiladi.

Ixtironing analogi sifatida ixtironing ustuvorlik sanasigacha ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lgan va ixtironing muhim belgilari majmuiga o'xshash belgilar bilan tavsiflanadigan ixtiro bajaradigan vazifani bajaradigan vosita ko'rsatiladi.

Agar ixtiro konkret vazifaga yoki biologik aktiv xususiyatlarga ega bo'lgan aniqlanmagan tarkibli aralashmani olish usuliga oid bo'lsa, analog sifatida xuddi shunday vazifaga va biologik aktiv xususiyatga ega bo'lgan aralashmalar olish usuli ko'rsatiladi.

Agar ixtiro yangi individual kimyoviy, shuningdek, yuqori molekulyar birikma olish usuliga yoki gen injeneriyasi ob'ektiga oid bo'lsa unga o'xshash analogni olish usuli haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Mikroorganizm shatmmi, o'simlik va yoki hayvonlar hujayralari liniyalariga – modda produsentiga oid bo'lgan ixtironing eng yaqin analogini tavsiflashda hosil bo'ladigan modda haqida ma'lumotlar kiritiladi.

Agar ixtiro avval ma'lum bo'lgan qurilma, usul, modda, shtammni yangi maqsadda qo'llanilishiga oid bo'lsa, uning analoglariga xuddi shu vazifada ishlatiladigan ma'lum qurilmalar, usullar, moddalar, shtammlar kiradi.

Ixtirolar guruhini tavsiflashda analoglar (shu jumladan eng yaqini) haqidagi ma'lumotlar har bir ixtiro uchun alohida keltiriladi.

Tavsifning "Ixtiro mohiyati" bo'limida ixtiro mohiyati ixtiro orqali texnik natijaga erishish etarli bo'lgan muhim alomatlar majmui orqali ifodalanadi.

Alomatlar erishiladigan texnik natijaga ta'sir ko'rsatsa, ya'ni texnik natija bilan sabab-oqibat bog'lanishida bo'lsa, muhim alomatlarga kiradi.

Mazkur bo'limda ixtiro hal qilishi kerak bo'lgan vazifasi ixtiro amalga oshirganda olinadigan texnik natija ko'rsatilgan holda ochib beriladi.

Ixtironi harakterlovchi barcha muhim alomatlar keltiriladi, eng yaqin analogdan fraqlanuvchi alomatlar ajratiladi, bunda so'ralayotgan huquqiy muhofaza hajmi amal qiladigan barcha hollarda texnik natijani olishni ta'minlaydigan muhim alomatlar majmui va ixtironi xususiy hollarda, bajarilishi aniq shakllarda yoki undan foydalanishning alohida sharoitlarida tavsiflaydigan alomatlar ko'rsatiladi.

Texnik natija o'zi bilan ixtironi namoyon qiluvchi vositani amalga oshirishda (tayyorlashda) yoki undan foydalanishda olinishi mumkin bo'lgan texnik samara, xususiyat, hodisalar va boshqalarning tavsifini ifodalaydi.

Qurilmalarni tavsiflash uchun xususan quyidagi alomatlar ishlatiladi:

- konstruktiv element (elementlar) mavjudligi;
- elementlar orasidagi bog'liqlik mavjudligi;
- elementlarning o'zaro joylashishi;
- elementning (elementlarning) yoki umuman qurilmaning bajarilish shakli, xususan geometrik shakli;
- elementlar orasidagi bog'liqlik bajarilishi shakli;
- elementning (elementlarning) parametrlari va boshqa harakteristikalar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

- element (elementlar) yoki umuman qurilma tayyorlangan material;
- element funksiyasini bajaruvchi muhit.

Tavsifning “CHizmalar figuralar ro‘yxati” bo‘limida figuralar ro‘yxatidan tashqari ularning har birida nima tasvirlanganligini qisqacha ta’rifi keltiriladi.

Agar ixtiro mohiyatini tushuntiruvchi boshqa materiallar berilgan bo‘lsa, ularning qisqacha mazmuni keltiriladi.

“Ixtironi amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovchi ma’lumotlar” bo‘limida ixtironi talabnoma beruvchi tomonidan ko‘rsatilgan vazifada amalga oshirish mumkinligi ko‘rsatiladi.

Mohiyatini umumiy tushuncha bilan ifodalangan, xususan funksional umumlashtirish darajasida keltirilgan alomatdan foydalanish bilan harakterlanuvchi ixtironi amalga oshirish imkoniyati bevosita talabnoma materiallarida bunday alomatni hosil qilish uchun vositalarni yoki uni olish metodlari yoki vosita yoki metodlarning ma’lum ekanligiga ko‘rsatmani ifodalash bilan tasdiqlanadi.

Qurilmaga oid ixtiroga uning konstruksiyasining (statik holatdagi) tavsifi chizma figuralariga izoh berilgan holda keltiriladi. Konstruktiv elementlarning tavsifidagi raqamli belgilari chizma figuralaridagi raqamli belgilarga mos kelishi kerak va ularning ketma-ket tahriflash davomida birdan boshlab o‘sish tartibida keltiriladi.

Usulga oid ixtironi tavsiflash uchun moddiy ob’ekt ustida bajariladigan harakatlar ketma-ketligi va shuningdek, harakatlar olib boriladigan shart-sharoitlar, agar zarur bo‘lsa aniq rejimlar (harorat, bosim va boshqalar) ishlatiladigan qurilmalar, moddalar, shtammlar ko‘rsatiladi. Agar usul biror ustuvorlik sanasigacha ma’lum bo‘lgan vositalardan, qurilma, modda va shtammlardan foydalanish orqali tavsiflansa, bu vositalarni ixtironi amalga oshirish mumkin bo‘lgan holda ochib berish kifoya. Noma’lum vositalardan foydalanilgan bo‘lsa, ularning harakteristikalarini keltiriladi, zarur hollarda grafik tasvirlar ilova qilinadi.

Qurilma, usul, modda, shtammni yangi vazifada qo‘llanilishiga taalluqli ixtiro uchun ushbu vazifani amalga oshirish imkoniyatlarini tasdiqlovchi ma’lumotlar keltiriladi.

Ixtironing formulasi, patent orqali beriladigan huquqiy muhofaza hajmini belgilash uchun mo‘ljallangan.

Ixtironing formulasi tavsifiga va chizmalarga to‘liq asoslangan bo‘lishi, ya’ni ixtironi uning tavsifida mavjud bo‘lgan va chizmalarda ko‘rsatilgan tushunchalar bilan ta’riflab berishi lozim.

Ixtironing formulasi uning mohiyatini ifodalashi kerak, ya’ni talabnoma beruvchi tomonidan ko‘rsatilgan texnikaviy natijaga erishish uchun etarli darajada ixtironing muhim alomatlari majmuini o‘z ichiga olishi lozim.

Ixtironing alomatlari ixtiro formulasida shunday ifoda etilishi lozimki, ularni aynanlashtirish, ya'ni ma'lum bo'lgan texnika taraqqiyoti darajasi asosida ularning ma'nosi va mazmuni mutaxassislar tomonidan bir xil ma'noda tushunilishi imkoniyatini ta'minlansin.

Ixtiro formulasiidagi alomat ta'rifini axborot manbaiga ilova qilish bilan almashtirilishi mumkin emas. Alomatni talabnoma tavsifi yoki chizmalarga havola qilmasdan ta'riflashning iloji bo'lmasa, ushbu Qoidalarining 65-bandi talablarini bo'zmagan holda, alomat ta'rifi bunday havola qilish bilan almashtirilishi mumkin.

Ixtiro formulasi xususan agar u quyidagilarni: %

- kimyoviy birikma;
- mikroorganizm shtammi, o'simlik va hayvon hujayralari liniyasi;
- avval ma'lum bo'lgan qurilma, usul, modda, shtammni yangi maqsadda qo'llanilishi;
- analoglarga ega bo'lmagan ixtironi harakterlasa, bandni cheklovchi va farqlovchi qismlarga bo'linmay to'ziladi.

Formulaning bandi bitta gap ko'rinishida bayon etiladi.

Ixtiro mohiyatini tushuntiradigan materiallar, grafik tasvirlar (chizmalar, sxemalar, grafiklar, epyuralar, rasmlar, osilogrammalar va h.k.) tasvirlar va jadvallar ko'rinishida bajarilishi mumkin.

Tavsifni chizmalar yoki sxemalar bilan tasvirlashning iloji bo'lmagan holda rasmlar topshiriladi.

Fotosur'atlar grafik tasvirlarga qo'shimcha sifatida topshirilishi mumkin.

CHizmalar, sxemalar, rasmlar alohida varaqlarda va har bir varaqning yuqorisidan o'ng bo'rchagida ixtironing nomi ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

Referat ixtiro haqida ma'lumot olish uchun xizmat qiladi va ixtiro tavsifining qisqartirilgan bayoni bo'lib, ixtiro nomi, ixtiro mansub bo'lgan texnika sohasining harakteristikasi, mohiyat harakteristikasi, u va yoki qo'llanilish sohasi, agar bu nomidan aniq bo'lmasa erishiladigan texnik natijani mohiyat harakteristikasini o'z ichiga oladi. Referatda ixtiro mohiyati ixtiro formulasining mustaqil punktidagi hamma muhim alomatlarini saqlagan holda erkin ifodalanishi orqali harakterlanadi.

Zarur hollarda ixtiro referatiga chizma yoki kimyoviy formula kiritiladi. Referatga kiritilgan chizma alohida varaqda, referat matni miqdoridagi nusxalar sonida, shu jumladan tavsifga ilova qilingan chizmalar figuralaridan biriga mos kelgan hollarda ham beriladi.

Referat qo'shimcha ma'lumotlar, xususan bog'langan bandlar, grafik tasvirlar, jadvallar mavjudligi va soni ko'rsatilishi mumkin.

Referat matnining tavsiya etiladigan o'rtacha hajmi 1000 ta bosma belgigacha.

2. Patent idorasiga talabnomani topshirish tartibi

Patent berish haqidagi talabnomani topshirish. Patent berish haqidagi talabnoma muallif, ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi tomonidan Patent idorasiga topshiriladi.

Patent berish haqidagi talabnomalarga belgilangan miqdorda patent boji to'langanligini yoki patent boji to'lashdan ozod qilishning yoxud uning miqdori kamaytirilishining asoslarini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Patent berish haqidagi talabnoma hujjatlariga doir talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi. Patent berish haqidagi talabnoma shaxsan, patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilishi mumkin. Talabnoma materiallari Patent idorasi talablariga binoan rasmiylashtirilishi kerak. Hamma hujjatlar, zarur bo'lgan hollarda ularni bevosita preproduksiya qilinib, cheklanmagan miqdorda nusxa ko'chirish imkoniyati bo'lgan tarzda rasmiylashtiriladi. Har bir varaqning faqat bir tomonidan, qatorlarni varaqning kichik tomoniga parallel joylashtirilgan holda foydalaniladi. Talabnomaning hujjatlari pishiq, oq, tekis, yarqiramaydigan qog'ozda bajariladi. Talabnoma hujjatlarini MO'Tda ham berish mumkin.

Talabnomaning har bir hujjati alohida varaqdan boshlanadi. Varaqlar 210x297 mm. formatga ega bo'ladi. tavsif, formula, chizma va referatlarni o'z ichiga olgan varaqning hoshiyasi quyidagicha bajariladi, mm.:

yuqorigi – 20;o'ngdagi – 20;pastki – 20;chapdagi – 20.

CHizmalar chizilgan varaqlardagi foydalaniladigan sstaxning o'lchami 170-262 mm. dan oshmasligi lozim, hoshiyalarning o'lchami quyidagilardan kam bo'lmasligi kerak, mm.:

yuqorigi – 25;o'ngdagi – 25;pastki – 10;chapdagi – 25.

Bu varaqlarda foydalanilgan yoki foydalanishga yaroqli sath atrofida ramka chizilmasligi lozim. Tasvirlar formati talabnoma hujjatlari varaqlarining belgilangan o'lchamlaridan oshmagan holda tanlab olinadi. Kichik formatdagi tasvirlar (fotosur'atlar) varaq formati va sifatiga qo'yilgan talablarga rioya qilgan holda qog'oz varaqlariga yopishtirilgan holda taqdim etiladi. Talabnoma har bir hujjatning varaqlari va nuklkeotidlar va aminokislotalar ketma-ketligi ro'yxati bir-biriga bog'liq bo'lmagan birdan boshlanadigan varaqlar raqamiga ega. Varaqlarning raqamlari ikkinchi varaqdan boshlab arab raqamlari bilan qo'yiladi. Hujjatlar qora rangli shriftda bosma havrlar bilan mashinkada yoziladi. Tavsif, formula, referat matni 1,5 intervalda yoziladi, bosh harf kattaligi 2,1 mm. dan kam bo'lmasligi kerak. Grafik belgilar, lotincha nomlar, lotin va yunoncha harflar, matematik va kimyoviy formulalar va belgilar qora siyoh, tush bilan yozilishi mumkin. Formulani bosma harfda va qo'lda aralash yozish mumkin emas. Talabnomani topshirish. Ixtiro muallifi, ish beruvchi yoki ularning vorislari talabnoma topshirish va patent olish huquqiga ega. Talabnoma bevosita Patent

idorasiga topshiriladi yoki pochta orqali yuboriladi. Talabnoma bevosita talabnoma beruvchi tomonidan yoki Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari yoxud boshqa vakil orqali topshirilishi mumkin. Qonunning 35-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan jismoniy shaxslar yoki xorijiy yuridik shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomada boshqacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, talabnoma beri shva patent olish bilan bog'liq ishlarni Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari orqali olib boradilar.

Vakil tayinlash. Talabnoma bo'yicha ishlarni olib borish va talabnomani ko'rib chiqishda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun talabnoma beruvchi ishonchnoma berish orqali vakil tayinlash mumkin.

Patent idorasi bilan yozishmalarni olib borish. YOzishma talabnoma beruvchi bilan yoki ushbu ishga vakolat berilgan uning vakili bilan har bir talabnoma bo'yicha aloida olib boriladi.

3. Patent idorasi tomonidan topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi

Patent idorasiga kelib tushgan talabnoma materiallari, agar eng kamida o'zbek yoki rus tilida patent berish to'g'risidagi ariza va belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlaydigan yoki miqdorda patent bojini to'lashdan ozod etish uchun yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjatdan iborat bo'lsa, ular kelib tushgan sanasi ko'rsatilgan holda ro'yxatga olinadi. Talabnomaga Patent idorasining ro'yxat raqami beriladi. Talabnoma beruvchi ro'yxat raqami va kelib tushgan sanasini ma'lum qilgan holda talabnoma materiallarida rasmiy ekspertizasini muddatdan ilgari boshlash haqidagi iltimosnoma bo'lsa, talabnoma beruvchi talabnoma hujjatlarining tarjimasi olinmagunga qadar rasmiy ekspertizani o'tkazish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi. Ro'yxatdan o'tkazilgan talabnoma materiallari qaytarilmaydi. Talabnoma materiallari Patent idorasiga kelib tushgandan patent berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy nashrda chop etilgunga qadar konfidensial hisoblanadi va talabnoma beruvchining roziligisiz e'lon qilinishi mumkin emas. Patent idorasi patent berishga talabnoma bo'yicha Qonunning 20-moddasiga muvofiq rasmiy ekspertiza va ixtiroga talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy texnik ekspertizadan iborat bo'lgan davlat ekspertizasini o'tkazadi.

Qonunning 21-moddasiga muvofiq talabnomaning rasmiy ekspertisasi u Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan ikki oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi.

Rasmiy ekspertiza o'tkazish davomida quyidagilar tekshiriladi:

a) talabnoma tarkibida bo'lishi yoki unga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning mavjudligi;

b) ixtiro mohiyatini tahlil qilmasdan turib aniqlanadigan belgilangan talablarga rioya qilinganligi;

v) Qonunning 14-moddasi to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan hollarda talabnoma topshirish tartibiga, jumladan patent vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan ishonchnomaning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilishiga rioya qilinganligi;

g) talabnoma ixtiro sifatida muhofazalanadigan ob'ektlarga oid taklifga berilganligi;

d) talabnoma bo'yicha Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan avvalroq ustuvorlikni so'rash asoslanganligi;

e) ixtironi XPTning amal qilayotgan tahriridagi tasniflanishi to'g'riligi (agar talabnoma beruvchi tomonidan tasniflanmagan bo'lsa tasniflanadi).

Ro'yxatga olingan talabnomada talabnomani topshirish uchun belgilangan miqdorda boj to'langanini tasdiqladigan hujjat mavjudligi tekshiriladi. Agar rasmiy ekspertiza jarayonida talabnoma hujjatlari qo'yilgan talablarga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgani aniqlansa, talabnoma beruvchiga kamchiliklarni ko'rsatib, zarur huquqiy asoslarni keltirgan holda va etishmagan yoki to'zatilgan hujjatlarni so'rochnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi. Agar talabnoma beruvchi belgilangan muddatda so'ralgan materiallarni yoki ularni topshirish muddatlarini o'zaytirish haqidagi iltimosnomani ushbu Qoidalarning 10-§ida ko'zda tutilgan shartlarga rioya qilingan holda taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi. Talabnoma mohiyatini biron-bir texnika sohasiga oidligini aniqlash maqsadida Patent idorasi talabnoma berilgan ixtironi XPTning amaldagi tahriri bo'yicha tasniflaydi.

Tasniflash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- talabnoma rasmiy ekspertizani o'tkazishda;
- talabnomaning mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazishda;
- tasniflash "XPTga kirish"da belgilangan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Talabnoma berilgan ixtiro tushunish uchun tavsif va chizmalardan foydalaniladi.

Agar talabnoma XPTning turli rubrikalariga tegishli bir necha ob'ektlarni ichiga olgan bo'lsa, barcha mos tasnif indeksleri aniqlanadi. Bu holda birinchi indeks ixtiro nomi bilan aniqlanadi.

Rasmiy ekspertiza bosqichida aniqlangan tasnif indeksleri talabnomaning mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazish jarayonida o'zgartirilishi mumkin.

Ixtiroga talabnoma ekspertizasida quyidagilar amalga oshiriladi:

- ixtiro ustuvorligini belgilash, agar u Qonunning 18-moddasi ikkinchi-to'rtinchi qismlariga ko'ra so'ralayotgan bo'lsa;

- talabnoma beruvchi tomonidan ixtiro formulasining ushbu Qoidalarining 62-85-bandlarida keltirilgan talablarga muvofiqligini tekshirish;

- qo'shimcha materiallarni ushbu Qoidalarining 22-§iga muvofiq tekshirish, agar talabnoma beruvchi tomonidan bunday materiallar taqdim etilgan bo'lsa;

- talabnoma beruvchi tomonidan talabnomaning dastlabki materiallarida yoki talabnomani ko'rib chiqishda e'tiborga olingan qo'shimcha materiallarda taklif qilingan formulada ta'riflangan ixtironing patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligini tekshirish.

Sanoat mulki ob'ektining ustuvorligi patent berish uchun talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi. Tekshirish ixtironing talabnoma rasmiy ekspertizasi tugagan vaqtdagi dastlabki materiallardagi formulasiga nisbatan o'tkaziladi, agar u talabnoma beruvchi tomonidan bundan keyin o'zgartirilgan holda, ushbu Qoidalarining 20-§ida ko'rsatilgan talablar bajarilgan bo'lsa, o'zgartirilgan formula tekshiriladi. Formulani tekshirishda ixtiro birligi talabi bajarilganligi aniqlanadi.

Formulani tekshirish, shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) ixtiro ko'p zvenoli formulasining bog'liq bandlarida ixtironing tegishli xususiy bajarilish hollaridagi yoki jamiyat manfaatlari, insonparvarlik yoki axloq-odob qoidalariga zid belgilar mavjudligini aniqlash;

b) ixtiro formulasida o'zi bog'liq bo'lgan bandning belgilarini chiqarib tashlashni yoki almashtirishni ko'zda tutadigan bog'liq bandning mavjudligi.

Talabnoma berilgan ixtironing patentga layoqatlilikini qo'shimcha ravishda u patentga layoqatli deb, tan olinmaydigan takliflar ro'yxatga oid emasligi tekshiriladi va ixtironing sanoatda qo'llash mumkinlik, yangilik va ixtirolik darajasi shartlariga muvofiqligi aniqlanadi.

Qonunning 6-moddasi uchinchi qismiga ko'ra ixtiro agar mutaxassis uchun texnika taraqqiyoti darajasidan yaqqol kelib chiqmasa, ixtirilik darajasiga ega deb hisoblanadi.

Ixtirolik darajasini tekshirish ixtiro formulasining mustaqil bandida keltirilgan ixtiroga nisbatan o'tkaziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ushbu Qoidalarining 28-bandiga muvofiq eng yaqin analogni aniqlash;

- talabnoma berilgan ixtiro eng yaqin analogdan farqlanadigan belgilarni (farqlanuvchi belgilar) aniqlash;

- texnika taraqqiyoti darajasidan ixtironing farqlanuvchi belgilari bilan mos bo'lgan texnikaviy echimlarini aniqlash.

4. Patent idorasi tomonidan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga patent hujjatini berilishi

Talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan formula bilan ifodalangan talabnoma berilgan ixtiro (agar ixtirolar guruhiga talabnoma berilgan bo'lsa, guruhdagi har bir ixtiro) hamma patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga shu formula bilan ixtiroga patent berilishi mumkinligi haqida va ushbu bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida ekspertiza xulosalariga nisbatan o'z fikrini ma'lum qilish taklif etilgan bildirishnoma yuboriladi. Agar tavsif va chizmalarda kamchiliklar bo'lib, avval talabnoma beruvchi ularni yo'qotish haqida ogohlantirilmagan bo'lsa, taklif jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida aniqliklar kiritilgan tavsif va yoki chizmalarni taqdim etish haqidagi taklif yuboriladi. Bu holda, talabnoma beruvchiga bu muddat kamlik qilsa, u ushbu muddat o'tgunga qadar patent bojini to'lash sharti bilan boshqa, mobaynida aniqliklar kiritilgan tavsif va yoki chizmalarni taqdim etadigan, muddat haqidagi taklif jo'natilgan sanadan e'tiboran olti oydan oshmagan muddat haqida ma'lum qilishi mumkinligi xabar qilinadi.

Talabnoma beruvchi, shuningdek agar eslatib o'tilgan uch oylik muddat ichida aniqlik kiritilgan tavsifni yoki ko'rsatib o'tilgan mazmundagi xabarni taqdim etmasa, bunday xabar kelgan holda esa, aniqlik kiritilgan tavsifni ushbu xabarda ko'rsatilgan muddatda taqdim etmasa, talabnoma bo'yicha ushbu so'rovnomada bayon qilingan ixtiro formulasi bilan qaror qabul qilinishi va nashr etishda birinchi berilgan ixtiro tavsifidan foydalaniladi. Talabnoma beruvchidan ekspertizaning fikriga nisbatan roziligi kelib tushganda unga ixtiroga so'rovnomada ko'rsatilgan formula bilan patent berish to'g'risidagi qaror yuboriladi. Agar talabnoma berilgan formula ixtiro mohiyatini ifodalasa va tavsifga to'liq asoslangan bo'lsa, lekin eng yaqin analogni (yoki umuman analogni) hisobga olmay to'zilgan bo'lsa yoki tarkibida talabnoma berilgan ob'ekt belgilari bilan bir qatorda boshqa ob'ekt belgilari bo'lib, talabnoma beruvchi o'zi to'zgan tahrirdagi formulani qoldirishni qattiq turib talab qilsa, patent berish to'g'risidagi qarorda talabnoma beruvchining tahriridagi formula keltiriladi.

Talabnoma beruvchi taklif qilgan tahrirdagi formula, shuningdek formuladagi belgilar standart bo'lmagan yoki hamma qabul qilmagan atamalardan foydalangan holda ta'riflangan bo'lsa (lekin bu ularni aynanlashtrishga to'sqinlik qilmasa) va talabnoma beruvchi qismiga muvofiq ko'rib chiqilgan barcha ixtirolarning patentga layoqatliligi aniqlangan holda ham keltiriladi. Talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan ixtiro formulasida orfografiyaga, tinish belgilariga oid va boshqa xatolar bo'lgan taqdirda patent berish to'g'risidagi qarorni tayyorlashda formulaga tegishli to'zatishtar kiritiladi. Belgilangan patent boji to'langan taqdirda Patent idorasi Qonunning 24-moddasiga ko'ra ixtironi

Ixtirolar davlat reystrida ro'yxatdan o'tkazadi va Qonunning 25-moddasiga muvofiq ixtiro ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni nashr qiladi.

Talabnoma beruvchi taklif etilgan formula bilan ifodalangan talabnoma berilgan ixtiro patentga layoqatlilikning hech bo'lmaganda birorta shartiga ("sanoatda qo'llash mumkinlik", "yangilik", "ixtirlik darajasi") muvofiq emasligi aniqlangan holda talabnoma beruvchiga ixtiroga patent berilishi mumkin emasligi haqida, ushbu so'rovnomaga jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida ekspertiza xulosalariga nisbatan o'z fikrini ma'lum qilish taklif etilgan so'rovnomaga yuboriladi.

Talabnoma beruvchiga, shuningdek agar, eslatib o'tilgan uch oylik muddat ichida ko'rsatib o'tilgan mazmundagi xabarni taqdim etmasa, talabnoma chiqarib olingan deb hisoblanishi haqida xabar qilinadi.

Tayanch iboralar: Talabnoma; ixtiro muallifi; talabnoma tuzish; Parij konvensiyasi; BMT ST,25 standarti; talabnoma hujjatlari; kod; BIMT; shtamm; chizmalar figurasi; talabnoma hujjatlari o'lchamlari; rasmiy hujjat.

Nazorat uchun savollar:

1. Talabnomaning tarkibi. Patent olish uchun talabnoma tuzish.
2. BMT ning ST.25 standartining mohiyati.
3. Ixtiro nomining atamaga xosligi.
4. Qurilmalarni tavsiflash alomatlari.
5. Patent idorasiga talabnomani topshirish tartibi.
6. Topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi.
7. Ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga patent hujjatlarining berilish qoidalari.

Talabning mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga patent olish uchun talabnoma tuzish bo'yicha bilishi ke ma'lumotga ega bo'lishi kerak.
2. Patent idorasiga talabnomani topshirish tartibi va topshirilgan talabnomalarni ko'rish tartibi to'g'risida etarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
3. Patent idorasi tomonidan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalariga patent hujjatini berilishi haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 3, 4, 5, 6

5-mavzu. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlari tushunchasi, mazmuni, mohiyati

1. Ma'ruza ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza - konferensiya.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tovar belgilari tushunchasi, tuzilishi va mohiyati. 2. Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi va ko'rinish hollari. 3. Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ko'rinish hollari, mazmuni to'g'risida. 4. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlarining ustuvorlik tushunchasi haqida.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlari tushunchasi, mazmuni, mohiyati to'g'risida qonunga asoslangan holda tushunchalarni talabalarga tushuntirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Tovar belgilari tuzilishi va uning mohiyati to'g'risida ma'lumot beradi. • Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi, ko'rinish hollari haqida gapirib beradi • Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarining ko'rinish hollari haqida gapirib beradi • Tovarlar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish talablari haqida gapirib beradi 	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: <ul style="list-style-type: none"> • Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi, ko'rinish hollari haqida ma'lumotga ega buladi • Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarining ko'rinish hollari • Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarining ko'rinish hollari haqida bilib olishadi • Tovarlar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish talablari haqida bilib olishadi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza - konferensiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, takdimot
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh, bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob be-radilar.
2- Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Tovar belgilari tuzilishi va uning mohiyati to'g'risida ma'lumot beradi. 2.3.Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi, ko'rinish hollari haqida gapirib beradi 2.4.Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarining ko'rinish hollari haqida gapirib beradi 2.5.Tovarlar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish talablari haqida gapirib beradi	2.1.Muammoli savol-larga e'tibor beradi-lar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar,yozadilar 2.3.Eshitadilar,yozadilar 2.4.Eshitadilar,yozadila 2.5Eshitadilar,yozadilar
3-Bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chiqaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar,savollarini beradi.YOzib ola-dilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Tovar belgilari tushunchasi, tuzilishi va mohiyati

2001 yilning 22 sentyabrida amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" Qonuniga muvofiq tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi – bu bir yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi o'xshash tovarlari va xizmatlaridan farqlash uchun xizmat qiluvchi belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgidir.

Tovar belgilari sifatida tasviriy, so'zli, hajmiy va boshqa telgilar yoki ularning istalgan rangdagi yoki ranglar birikmasidagi kombinatsiyalari bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda tovar belgisiga huquqiy muhofaza faqat u rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng beriladi.

Tovar belgisi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomiga ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun Qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilgan talabnomani Davlat patent idorasiga topshirish zarur. Qonunda belgilangan ekspertiza o'tkazilgandan so'ng va patent boji to'langanligi to'g'risida hujjat olingan sanadan boshlab bir oy davomida tovar belgisi ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlar Patent idorasining byulletenida e'lon qilinadi.

Tovar belgisiga guvohnoma tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin bir oy davomida Patent idorasi tomonidan beriladi va talabnoma sanadan boshlab o'n yil davomida amal qiladi.

Tovar belgisiga guvohnomaning amal qilishi muddati huquq egasining guvohnoma amal qilishining so'ngi yili davomida topshirilgan arizasiga ko'ra har gal o'n yilga o'zaytirilishi mumkin.

Tovar belgilari sifatida xususan, quyidagi belgilar ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

- farqlash xususiyatiga ega bo'lmagan belgilar;
- umum qabul qilingan timsollar va atamalar hisoblangan belgilar;
- tovarlarning sifati, miqdori, xususiyatlari, vazifasi, qimmatligini hamda ularning ishlab chiqarilgan yoki sotilgan vaqtini ta'riflash uchun foydalaniladigan belgilar;

- tovar yoki uning tayyorlovchisiga nisbatan yolg'on yoki adashtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan belgilar.

Tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan belgilar to'laligicha "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunning 10-moddasida sanab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat patent idorasi (matnda "Patent idorasi" deb yuritiladi) tovar kelib chiqqan joy nomlarini muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Patent idorasi:

- tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirishga qatnashadi;

- tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiy talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular yuzasidan davlat ekspertizasini o'tkazadi;

- tovar belgilarini, tovar kelib chiqqan joy nomlarini va tovar kelib chiqqan joy nomlaridan foydalanishga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish.

Tovar belgilari davlat reysterini va tovar kelib chiqqan joy nomlari davlat reysterini (bundan buyon davlat reystri deb yuritiladi) yuritiladi:

- tovar belgisi uchun guvohnoma va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida ma'lumot;
- tovar belgilari ro'yxatga olinganligi va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi ma'lumotlarni e'lon qiladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

2. Xizmat ko'rsatish belgilarning tuzilishi va ko'rinish hollari

Xizmat ko'rsatish belgilariga qo'yilgan talablar tovar belgilariga qo'yilgan talablarga to'g'ri keladi.

Jumladan: Xizmat ko'rsatish belgilari sifatida ro'yxatidan o'tkazilmaydigan belgilar.

Quyidagilar xizmat ko'rsatish belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

- 1) davlat gerblari, bayroqlari va davlat mukofotlarining tasviri tushirilgan belgilar;
- 2) davlatning rasmiy nomlari, xalqaro yoki xukumatlararo tashkilotlarning qisqartirilgan yoki to'liq yozilgan nomlari belgilari;
- 3) rasmiy nazorat, kafolat tamg'alari va namuna yo'sinidagi tamg'alar, muhrlar;
- 4) davlat xizmatlarining O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan ajratish va farqlash belgilari tasvirlari;
- 5) farqlash xususiyatiga ega bo'lmagan belgilar;
- 6) muayyan turdagi tovarlarning belgisi sifatida umum foydalanishda bo'lgan belgilar;
- 7) umum e'tirof etilgan ramzlar va atamalar hisoblangan belgilar;
- 8) xizmatlarni, shu jumladan ularning turi, sifati, soni, xususiyati, qanday maqsadga mo'ljallanganligi, ularning ishlab chiqariladigan yoki o'tkaziladigan joyi va vaqtini tavsiflash uchun foydalaniladigan belgilar;
- 9) tovar yoki uning tayyorlovchisi xususidagi yolg'on yoki iste'molchini chalg'itish mumkin bo'lgan belgilar;
- 10) tovar kelib chiqqan haqiqiy joyni rasman ko'rsatuvchi, lekin tovar boshqa hududda siqarilganligi haqida tasavvur beruvchi belgilar;
- 11) madanli suvlar, vino yoki kuchli spirtli ichimliklarning asliyatini aks ettiruvchi jo'g'rofiy nomlarini ifodalovchi belgilar, mazkur joyda chiqarilmagan tovarlarni belgilash uchun ishlatilgan belgilar, shuningdek "ko'rinishdagi", "turdagi", "usuldagi" va boshqa shunga o'xshash so'zlar bilan qo'shilgan holdagi belgilar;

12) jamiyat manfaatlariga, odamiylik va ahloq qoidalariga zid bo'lgan belgilar;

13) quyidagi belgilar:

- ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatda berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilganligi yoki shu turdagi tovarlarga nisbatan ancha ilagiroq ustuvorlikka ega bo'lgan tovar belgilari bilan adashtirilgan yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar;

- har qanday xizmatlarga nisbatan boshqa shaxslarning belgilangan tartibda umum e'tirof etilgan darajada bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar;

- ushbu Qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan xizmat ko'rsatish belgilari bo'lgan belgilar bilan va bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar, bu belgilar har qanday xizmatlarga nisbatan shunday maqomga ega bo'lgan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkaziladigan xizmat ko'rsatish belgisiga muhofaza qilinmaydigan qism bundan mustasno;

- belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan sertifikatlash belgilari bilan adashtirib yuborish darajasi va shunga o'xshash bo'lgan belgilar;

14) quyidagi belgilar:

- o'zga shaxslarga tegishli va O'zbekiston Respublikasi hududida taniqli bo'lgan firma nomlarini nomga bo'lgan huquq bir turdagi tovarlarni belgilash uchun tovar belgisiga doir talabnoma kelib tushganligi bo'lsa, takrorlovchi belgilar;

- sanoat namunalarini, agar ularga huquq O'zbekiston Respublikasida o'zga shaxslarga berilgan belgilar;

- O'zbekiston Respublikasida mashhur bo'lgan ilmiy asarlar, adabiyot va san'at asalarining nomlarini va iboralarini, san'at asarlarini yoki ulardan ko'rinishlarni mualliflik huquqiga ega bo'lgan shaxs yoki uning roziligini olmagan tarzda takrorlovchi belgilar;

- atoqli shaxslarning familiyalari, ismlari, taxalluslari va ulardan yasalgan so'zlarini, basharti bular O'zbekiston Respublikasining tarixiy va madaniy boyligi bo'lsa, ana shunday merosxo'rlari yoki davlat organi roziligini olmagan tarzda takrorlovchi belgilar.

Ushbu modda birinchi qismining 1-4 bandlarida ko'rsatilgan belgilar, agar bunga tegishli davlat organlari roziligi bo'lsa, tovar belgisiga muhofaza qilinmaydigan qismlar sifatida kiritilishi mumkin, ushbu bandlarda ko'rsatilgan belgilar, agar ular tovar belgisida mavqega ega bo'lmasa, bu belgi kiritilishi mumkin.

Ushbu modda birinchi qismining 5-8 bandlarida ko'rsatilgan belgilarni ro'yxatdan o'tkazishga, basharti foydalanish natijasida farqlanish xususiyatiga ega bo'lgan taqdirdagina, yo'l qo'yilishi mumkin.

Ushbu modda birinchi qismining 13-bandidagi ikkinchi va uchinchi xatboshilarda ko'rsatilgan darajada ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilarni ro'yxatdan o'tkazishga tovar belgisi egasini roziligi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yilishi mumkin.

3. Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ko'rinish hollari, mazmuni to'g'risida

Tovar kelib chiqqan joy nomi. Mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy ob'ektning (bundan buyon matnda "jo'g'rofiy ob'ekt" deb yuritiladi) belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy ob'ektning yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar joy nomi e'tirof etiladi.

Tovar kelib chiqqan joy nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish. Tovar kelib chiqqan joy nomi huquqiy jihatdan uni ushbu Qonunda belgilangan tartibda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ravishda muhofaza qilinadi. Tovar kelib chiqqan joy nomi mazkur jo'g'rofiy ob'ektdagi, nomi o'zlari ishlab chiqarayotgan tovar ishlatiladigan bir yoki bir necha yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazgan shaxs bu nomdan, basharti mazkur shaxs yoki asosan mazkur jo'g'rofiy ob'ektga xos tabiiy sharoitlar yoki boshqa omillar bilan yoxud tabiiy xususiyatlar birikmasi bilan belgilanadigan tovarni ishlab chiqarayotgan bo'lsa, foydalanish huquqini oladi. Ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar kelib chiqqan joy nomidan joy yoki boshqa jo'g'rofiy ob'ektga joylashgan va aynan shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarayotgan jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin.

Tovar belgisini va tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnomaga doir talablar. Tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanishi uchun beriladigan talabnoma tovar belgisiga yoki tovar kelib chiqqan birj oy nomiga taalluqli bo'lishi lozim.

Talabnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

- tovar belgisi sifatida belgini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ariza;
- talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri;
- belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlarning ro'yxati;

- tovar ishlab chiqarilgan joyni jo'g'rofiy ob'ekt chegarasida ko'rsatgan holda tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovar turining nomi tavsifi.

Talabnomaga quyidagilar ilova qilinishi zarur:

- talabnoma berganlik uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- talabnoma patent vakili orqali berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi;

- talabnoma beruvchining zikr etilgan jo'g'rofiy ob'ektda joylashganligini va alohida xususiyatlarining tabiiy sharoitlar yoki boshqa omillar bilan yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omilarning birikmasini tasdiqlovchi hujjatlar;

- chet ellik talabnoma beruvchining tovar kelib chiqqan joyining talabnomada ifodalangan boshqa mamlakatda foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga doir talabnomani rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarga taalluqli talablar Patent idorasi tomonidan beriladi.

Tovar kelib chiqqan joy nomi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan hujjatlar. Quyidagi belgilar tovar kelib chiqqan joy nomi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

- tovar kelib chiqqan joy xususida iste'molchini chalg'itib qo'yadigan jo'g'rofiy nom bo'lgan belgilar;

- tovar kelib chiqqan haqiqiy joyni rasman ko'rsatuvchi, lekin tovar boshqa hududda chiqarilayotganligi haqida beruvchi belgilar;

- tovar tayyorlangan joy nomi bilan bog'liq bo'lmagan jo'g'rofiy nomni anglatuvchi va O'zbekiston Respublikasi tovar belgisi sifatida foydalanishda bo'lgan belgilar.

4. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlarining ustuvorlik tushunchasi haqida

O'zbekiston Respublikasida Patent idorasi oldida vakillik qilish uchun rasmiylashtiriladigan ishonchnoma, oddiy yozma shaklda to'ziladi va notarius tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi. Ishonchnoma talabnoma bilan bir vaqtning o'zida yoki talabnoma kelib tushgan sanadan ikki oydan kechiktirilmay topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi jismoniy shaxsning yoki chet ellik yuridik shaxsning manfaatlariga vakillik qilish uchun patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakiliga ishonchnoma, talabnoma beruvchi shaxsning o'zi tomonidan, shuningdek talabnoma beruvchi tomonidan berilgan teshigli ishonchnomaga ega patent vakili tomonidan ham berilishi mumkin.

Bunday hollarda ko'rsatib o'tilgan ikala ishonchnoma yoki uning to'g'ri rasmiylashtirilgan nusxasi ilova qilinadi. Agar ishonchnoma Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan bir necha patent vakillariga berilgan bo'lsa, u holda talabnoma bo'yicha mahsulot belgisini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ishlar, ularning istalgan biri tomonidan olib borilishi mumkin. Ishonchnoma bo'yicha vakil qilingan patent vakilining har qanday hatti-harakati, ariza beruvchining hatti-harakatidir deb baholanadi. Konvensiya ustuvorligi so'rab berilgan talabnomaga (bundan buyon konvensiya talabnoma) talabnoma beruvchi tomonidan sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi qatnashchisi bo'lgan davlatda berilgan birinchi talabnomaning tadiqlangan nusxasi va uning o'zbek yoki rus tiliga qilingan tarjimai ilova qilinadi, ular konvensiya talabnomasi Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab uch oy muddatdan kechiktirilmay topshiriladi. Talabnoma nusxasining tarjimai tarjimon imzosi bilan tasdiqlanadi. Konvensiya ustuvorligini belgilash to'g'risidagi iltimosnoma, talabnoma berish paytida (guvohnoma berish to'g'risidagi arizaning tegishli grafasida keltiriladi) yoki Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab ikki oy muddat davomida topshirilishi mumkin. Ko'rgazmaga oid ustuvorlik so'rab berilgan talabnomaga, bunday ustuvorlik so'rashning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjat ilova etiladi, u Patent idorasiga talabnoma kelib tushgan sanadan boshlab uch oydan kechiktirilmay topshiriladi. Talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjat, sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining qatnashchisi bo'lgan davlatlardan birining hududida tashkil etilgan ko'rgazmaning maqomni, ya'ni rasmiy xalqaro ko'rgazma yoki xalqaro deb rasman tan olingan ko'rgazmaligini tasdiqlashi va tovarlarni namoyish etgan shaxsning nomini, belgini, shu belgi qo'yilgan tovarlar ro'yxatini, shuningdek, eksponatlarni ochiq namoyish etish boshlangan sanani o'z ichiga olishi lozim. Hujjat tegishli ko'rgazmaning ma'muriyati yoki tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Talabnomada ko'rsatilgan belgini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza o'zbek yoki rus tilida topshiriladi. Talabnomaning boshqa hujjatlari o'zbek, rus yoki boshqa tilda topshiriladi. Agar talabnoma hujjatlari boshqa tilda topshirilgan bo'lsa, talabnomaga ularning o'zbek yoki rus tiliga tarjimon imzosi bilan tasdiqlangan tarjimai ilova qilinadi. Boshqa tilda topshirilgan hujjatlar Patent idorasiga kelib tushgan sanada topshirilgan deb hisoblanadi, agar ularning tarjimalari boshqa tilda topshirilgan hujjatlar kelib tushgan sanadan boshlab ikki oy muddat ichida topshirilsa, aks holda hujjatlar, ularning tarjimalari kelib tushgan sanada topshirilgan deb hisoblanadi. Talabnoma (belgini ro'yxatdan o'tkazishga talab etilayotgan tasvirdan tashqari) ikki nusxada topshiriladi. Belgining ro'yxatdan o'tkazish uchun talab etilayotgan tasviri 5 nusxada topshiriladi. Talabnomaga ilova etilayotgan hujjatlar bir nusxada topshiriladi. Tovar belgisining ustuvorligi Patent

idorasiga tarkibida talabnoma beruvchi va uning joylashgan manzili yoki yashash joyi, talabnomada keltirilgan belgi, uning tavsifi va tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovar va xizmatlar ro'yxati keltirilgan ariza bo'lgan talabnoma topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi. Agar talabnomada dastlab yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar va yoki hujjatlardan biri bo'lmagan bo'lsa, tovar belgisining ustuvorlik sanasi deb, etishmagan ustuvorlikni belgilash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarning eng oxirgisi kelib tushgan sana hisoblanadi. Tovar belgisining ustuvorligi shuningdek Parij konvensiyasiga a'zo davlatda berilgan birinchi talabnoma sanasi bo'yicha yoki Parij konvensiyasiga a'zo davlatlardan birining hududida tashkil qilingan rasmiy yoki rasmiy tan olingan xalqaro ko'rgazmada ushbu belgi bilan belgilangan eksponatlarning ochiq namoyish qilingan sanasi bo'yicha belgilanishi mumkin, agar Qonunning 12-moddasi 2, 3 va 4 – qismida ko'zda tutilgan talablarga rioya qilingan bo'lib, talabnoma beruvchi tomonidan so'ralayotgan ustuvorlikni tasdiqlaydigan zarur hujjatlar taqdim etilgan bo'lsa.

Qonunning 12-moddasi ikkinchi va to'rtinchi qismiga muvofiq konvensiya ustuvorlik so'ralgan holda quyidagilar tekshiriladi:

a) talabnoma beruvchi tomonidan Parij konvensiyasiga a'zo davlatda topshirilgan birinchi talabnomaning nusxasi mavjudligi;

Agar ko'rsatilgan nusxa talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan keyin taqdim etilsa, talabnoma nusxasi taqdim etilishi lozim bo'lgan uch oylik muddatga rioya qilinganligi;

b) birinchi talabnoma topshirilgan sanadan hisoblanadigan konvensiya ustuvorligi so'ralgan talabnoma topshirilishi lozim bo'lgan olti oylik muddatda talabnoma beruvchi tomonidan rioya qilinganligi;

v) konvensiya ustuvorligining belgilash haqidagi iltimosnoma Patent idorasiga talabnoma topshirilgan sanadan boshlab ikki oy ichida berilganligi;

g) talabnomada ko'rsatilgan belgini tovar va xizmatlar ro'yxatining birinchi talabnomadagi belgi va tovar xizmatlar ro'yxatiga muvofiqligi.

Ko'rgazma ustuvorligi so'ralgan holda Qonunning uchinchi, to'rtinchi qismiga muvofiq quyidagilar tekshiriladi:

a) ko'rgazma ustuvorligini tasdiqlaydigan hujjat mavjudligi ushbu Qoidalarning 11-bandida ko'zda tutilgan talablarga muvofiqligi;

b) ko'rgazma ustuvorligi so'ralgan talabnoma Patent idorasiga kelib tushishi lozim bo'lgan eksponat ko'rgazmasida ochiq ko'rsatib boshlangan sanadan boshlanadigan olti oylik muddatga rioya qilinganligi;

v) ko'rgazma ustuvorligini belgilash to'g'risidagi iltimosni Patent idorasiga talabnoma kelib tushgan sanadan ikki oydan oshmagan muddatda taqdim etilishi;

g) ko'rgazma ustuvorligini belgilash so'ralgan belgi bilan belgilangan tovar ko'rgazmada namoyish qilingan bo'lsa, talabnomada ko'rsatilgan belgi namoyish etilgan tovarlardagi belgilarga muvofiqligi.

Talabnomada ko'rsatilgan belgining Qonunning 3 va 10-moddalarida va ushbu qoidalarining 4-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi. Barcha elementlarda belgi boshqa belgi bilan mos tushsa aynan bir xil deb hisoblanadi. Agar belgi belgiga umuman olganda o'xshash bo'lsa, alohida farqlariga qaramasdan boshqa belgi bilan aralashtirib yuborish darajasida o'xshash deb hisoblanadi. Tovarlarining bir xil jinsligini belgilashda iste'molchida shu tovarlar bitta ishlab chiqaruvchiga qarashli degan tasavvur paydo bo'lishi ehtimoli aniqlanadi. Tovarlarining bir jinsliligini belgilashda tovarlarining turi vazifasi, ular tayyorlagan material turi, tovarlarni sotish sharti isme'mol doirasi va boshqa alomatlar.

ayanah iboralar: Tovar belgilari; xizmat ko'rsatish belgilari; guvohnoma; byulleten; Davlat organi; sertifikatlash; jo'g'rofiy ob'ekt; huquqiy muhofaza qilish; talabnoma ilovasi va talablari; ishonchnoma.

Nazorat uchun savollar:

1. Tovar belgilari tushunchasi va uning mohiyati.
2. Vakolatli davlat organlari.
3. Xizmat ko'rsatish belgilarining to'zili shva uning mohiyati.
4. Tovarlarining kelib chiqqan joy nomlari haqida.
5. Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarining ustuvorligi haqida tushuncha.
6. Talabnomaga ilova etiladigan hujjatlarning topshirilishi.

Talabaning mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tovar belgilari tushunchasi, tuzilishi va mohiyatini bilishi va etarli ma'lumotga ega bo'lishi kerak.
2. Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi va ko'rinish hollari bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi lozim.
3. Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ko'rinish hollari, mazmuni, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlar kelib chiqish joy nomlarining ustuvorlik tushunchasi haqida to'liq bilishi va ko'nikma hosil qilishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 2, 3, 5, 6

6-mavzu. Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqish joy nomlarini rasmiylashtirish

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar	
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza - konferensiya.	
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga talabnoma tuzish, topshirish. 2. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini Patent idorasi ro'yxatidan o'tkazilishi. 3. Tovarlar kelib chiqish joy nomlariga berilgan talabnomaga guvohnoma olish. 4. Patent idorasidan tasdiqlovchi hujjat olish bo'yicha ishlarning ayrim holatlari to'g'risida. 	
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovarlar kelib chiqish joy nomlarini rasmiylashtirish to'g'risidagi qoi-daga asosan talabnoma tuzish, topshirish va rasmiy hujjat olish haqida tu-shuncha berish.</p>		
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga talabnoma tuzish, patent idorasiga topshirish koidalari bilan tanishtiriladi. 2. Patent idorasi ro'yxatidan tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ekspertizasining o'tkazilishi. 3. Tovarlar kelib chiqish joy nomlariga berilgan talabnomaga guvohnoma olish tartibi haqida ma'lumot berish. 4. Patent idorasidan tasdiqlovchi hujjat olish bo'yicha ishlarning ayrim holatlari to'g'risida axborot berish. 	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Belgilarga talabnoma tuzish, patent idorasiga topshirish hollari haqida ma'lumotga ega buladi 2. Belgilarni patent idorasi tomonidan ekspertiza utkazilish tartibi, tushunchalari bilan tanishadilar. 3. Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish talablari, tartibi haqida bilib olishadi, hujjat olish bo'yicha ish-larning umumiy koidalarda ayrim holatlari uchraydigan holatlar bilan tanishadilar. 	
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza - konferensiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, takdimot	
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar .	
O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh, bilan ishlash,	
O'qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya	

Ma'ruzaning texnologik xaritasi.

Bosqichlar,	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orkali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1.Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish begisiga talabnoma tuzish, patent idorasiga topshirish koidalari bilan tanishtiriladi. 2.2.Patent idorasi ro'yxatidan tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ekspertizasining o'tkazilishi. 2.3. Tovarlar kelib chiqish joy nomlariga berilgan talabnomaga guvohnoma olish tartibi haqida ma'lumot berish. 2.4.Patent idorasidan tasdiqlovchi hujjat olish bo'yicha ishlarning ayrim holatlari to'g'risida axborot berish.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar 2.3.Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich YAkuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi: 3.3. Tajriba va kuzatishlarning ahamiyati haqida tahlil qilish. 3.4..Koxren va Fisher kriteriyalarini tahlil qilish 3.5.Informativ va metainformativ usullarning mohiyatini tahlil qilish 3.6.Davlat sistemasida ilmiy ishlar natijalarini tadbiqining mohiyatini tahlil qilib kelish	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga talabnoma tuzish, topshirish

Qonunning 3-moddasiga muvofiq tovar belgisi – bu bir huquqiy va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarining boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan belgidir.

Hududiy va (yoki) jismoniy shaxslar birlashasining ular tomonidan ishlab chiqariladigan va (yoki) realizatsiya qilinadigan bir xil sifatga yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo'lgan tovarlarni belgilash uchun mo'ljallangan tovar belgisi jamoaviy belgi hisoblanadi.

Qonunning 3-moddasi beshinchi qismiga ko'ra tasvirlar, so'zlar, muayyan shakl tarzidagi belgilar va boshqa belgilar ularning bir rangdagi yoki turli rangdagi jamlama ifodasi tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin

So'zli belgilarga so'zlar, so'z birikmalari, qaplar, boshqa so'z birikmalari va shuningdek ularning birkmalari kiradi.

Tasviriy belgilarga jonli mavjudotlar, predmetlar, tabiiy va boshqa ob'ektlar va shuningdek istalgan shakldagi figuralar, chiziqlar, dog'lar, tekislikdagi shakllar kompozitsiyalari kiradi.

Muayyan shaklli hajmli belgilarga uch o'lchamli ob'ektlar, figuralar va chiziqlar, figuralarning kombinatsiyalari kiradi.

Jamlama belgilarga turli harakterdagi, ya'ni tasviriy, so'zli, muayyan shakldagi hajmli va boshqa belgilar elementlaridan tashkil topgan belgilar kiradi.

Boshqa belgilarga raqamli, harfli, tovushli, yorug'likdan iborat bo'lgan, hidli va boshqa belgilar kiradi.

Raqamli belgilar sifatida raqamlarning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan belgilarga talabnoma berilishi mumkin.

Harfli belgilar sifatida harflarning so'z harakteriga va mazmuniga ega bo'lmagan kombinatsiyasiga talabnoma berilishi mumkin.

Tovushli belgilar sifatida musiqa asarlari, qo'shiqlar, jo'r ovozlari, tanish tovushlar va tabiatda uchraydigan noyob tovushlar, tabiatda uchramaydigan elektron tovushlar va boshqalarga talabnoma berilishi mumkin.

YOrug'likdan iborat belgilar sifatida yorug'lik effektidan hosil bo'lgan belgilarga talabnoma berilishi mumkin.

Hidli belgilarga hid sezish organlari bilan qabul qilishga mo'ljallangan belgilar kiradi.

Belgilarning istalgan bir rangdagi yoki turli rangdagi uyg'unlashgan ifodasi tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Quyidagilar tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

a) davlat gerblari, bayroqlari va davlat muhofotlarining tasfiri tushirilgan belgilar;

b) davlatning rasmiy nomlari, xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarning qisqartirilgan yoki to'liq nomlari;

v) rasmiy nazorat, kafolat tamg'alari va namuna yo'sinidagi tamg'alar, muhrlar;

g) davlat xizmatlarining O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan ajratish va farqlash belgilari tasvirlari.

Ushbu bandning (a)-(g) bandchalarida ko‘rsatilgan belgilar, agar bunga tegishli davlat organining yoki belgi egasining roziligi bo‘lsa, tovar belgisiga muhofaza qilinmaydigan qismlar sifatida kritilishi mumkin.

a) xususan quyidagilar taaluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan farqlash xususiyatiga ega bo‘lmagan belgilar:

1) o‘ziga xos grafik tasvirga ega bo‘lmagan alohida harflar, raqamlardan iborat bo‘lgan belgilar;

2) chiziqlar, oddiy geometrik figuralar va ularning tarkibiga kirgan alohida elementlaridan farqli, sifat jihatdan boshqa qabul qilish darajasini beradigan kompozitsiyalar hosil qilmaydigan birikmalari;

3) tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishga topshirilgan talabnomadagi tovarlarni belgilash uchun ularning haqiqiy yoki sxematik tasvirlari;

4) shakli faqat funksional vazifasidan kelib chiqadigan uch o‘lchamli ob‘ektlar;

5) tovarlarning umum e‘tirof etilgan oddiy nomlari shu tovarlarni belgilash uchun;

6) tashkilot, korxonalar va sohalarning umumqabul qilingan qisqartirilgan nomlari va ularning abbreviaturalari;

e) muayyan turdagi tovarlarning belgisi sifatida umum foydalanishda bo‘lgan belgilar. Bunday belgilar deb ma‘lum bir tovar yoki turli ishlab chiqaruvchilarning shunga o‘xshash tovarlari uchun o‘zoq vaqt ishlatilganligi tufayli tushuncha (vidovoe ponyatie) bo‘lib qolgan belgilar tushuniladi;

j) umum e‘tirof etilgan ramzlar va atamalar hisoblangan belgilar. Bunday belgilarga odatda, tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish so‘ralayotgan tovarlar ro‘yxatidagi tovarlar oid bo‘lgan xo‘jalik yoki faoliyat sohasini aks ettiruvchi belgilar va shuningdek, fan va texnikada qo‘llaniladigan shartli belgilar kiradi. Umum e‘tirof etilgan atamalarga fan va texnikaning aniq bir sohasiga xos bo‘lgan so‘z birliklari kiradi;

z) tovarlarni shu jumladan ularning turi, sifati, soni, xususiyati, qanday maqsadga mo‘ljallanganligi va qiymatini shuningdek ularning ishlab chiqariladigan yoki o‘tkaziladigan joyi va vaqtini tavsiflash uchun foydalaniladigan belgilar.

Ushbu bandning (z) bandchasida belgilarga tovarlarning oddiy nomlari, tovarlar sifat toifasining belgisi, tovarlarning xususiyatini ko‘rsatuvchi (shu jumladan, maqtov harakteriga ega bo‘lgan) belgilar, xam ashyo materialini va tarkibini ko‘rsatuvchi belgilar, tovarlarning oqirligi, hajmi, narxini, ishlab chiqarilgan sanasini ko‘rsatuvchi belgilar, tovar tayyorlovchilarning va vositachi

firmalarning manzilgog'lari, qisman yoki to'liq jo'g'rofiy nomdan iborat bo'lib, tovar tayyorlovchining joylashgan joyi kabi qabul qilinishi mumkin bo'lgan belgilar.

Ushbu bandning (d)-(z) bandchalarida belgilarni ro'yxatdan o'tkazishga, basharti bu belgilar amalda ulardan foydalanish natijasida farqlanish xususiyatiga ega bo'lganligi isbotlangan taqdirdagina, yo'l qo'yilishi mumkin.

Isbot sifatida talabnoma topshirilgan sanagacha talabnomada ko'rsatilgan belgidan foydalanilganligi natijasida farqlash xususiyatiga ega bo'lganligini talabnomada tasdiqlaydigan quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:

- talabnoma ko'rsatilgan belgi bilan belgilangan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish hajmi;

- talabnomada ko'rsatilgan talabnoma berilgan belgini talabnomada ko'rsatilgan tovar (xizmat)larni belgilash uchun ishlatish muddati;

- talabnomada ko'rsatilgan belgi bilan belgilangan tovar (xizmat)larning reklamasi uchun sarflanadigan harajatlar hajmi;

- talabnomada ko'rsatilgan belgi vash u belgi bilan belgilangan tovarlarning ishlab chiqaruvchilari haqida iste'molchilarning xabardorlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan sotsiologik so'rovlarning natijalari;

- talabnomada ko'rsatilgan belgi bilan belgilangan tovarlar haqidagi axborot ochiq matbuotda nashr qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar;

- talabnomada ko'rsatilgan belgi bilan belgilangan tovarlar O'zbekiston Respublikasi yoki chet mamlakatlardagi ko'rgazmalarga namoyish qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar.

5. Qonunning 9-moddasi, birinchi qismiga muvofiq talabnoma bitta tovar belgisiga tegishli bo'lishi lozim.

6. Talabnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

a) tovar belgisi sifatida belgini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

b) talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri;

v) belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlarning ro'yxati.

Talabnomaga talabnomani topshirish uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatning asli yoki bank muassasi yoxud buxgalteriya tomonidan tasdiqlangan nusxasi ilova qilinishi lozim.

Agar talabnoma jamoaviy belgiga oid bo'lsa, va yoki jismoniy shaxslar birlashmasi qatnashchilarining jamoaviy belgidan foydalanish to'g'risidagi kelishuvchi ilova qilinadi.

Kelishuvda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

a) jamoaviy belgini o‘zining nomiga ro‘yxatdan o‘tkazishga vakolat berilgan shaxsning nomi;

b) ushbu belgidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxati (to‘liq rasmiy nom va manzilgohini ko‘rsatgan holda);

v) jamoaviy belgini ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadi;

g) jamoaviy belgi bilan tovarlarning ro‘yxati va gona sifat yoki boshqa umumiy ko‘rsatkichlari;

d) jamoaviy belgidan foydalanish shartlari;

e) jamoaviy belgidan foydalanishni nazorat qilish tartibi;

j) kelishuvni bo‘zganlik uchun javobgarlik.

Kelishuv ushbu belgidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan imzolanadi (huquqiy shaxslar uchun muhr bilan tasdiqlanadi). Imzo chekan shaxslarning familiyasi va ismi-sharifi ko‘rsatiladi.

9. Talabnoma patent vakili orqali berilgan bo‘lsa, talabnoma beruvchi tomonidan berilgan va uning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma, yoki uning to‘g‘ri rasmiylashtirilgan nusxasi ilova qilinadi.

2. Tovar va xizmat ko‘rsatish belgisini Patent idorasi ro‘yxatidan o‘tkazilishi

Agar Patent idorasiga kelib tushgan talabnoma eng kamida o‘zbek yoki rus tilida tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishga ariza va talabnomani topshirish uchun patent boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lsa talabnoma kelib tushish sanasi ko‘rsatilgan holda ro‘yoxatga olinadi.

O‘zbek yoki rus tilidan boshqa tilda topshirilgan talabnoma ro‘yxatga olinmaydi va topshirgan shaxsga qaytarib yuboriladi.

Talabnomaga uchta harfli va sakkiz xonali raqamli kod beriladi. Unda birinchi harf (T) sanoat mulki ob‘ekti turi – tovar belgisini, keyingi ikki harf (GU) muhofaza hujjati turi – tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishga guvohnomani bildiradi, sonlar (katta razryaddagi 4 ta son) esa talabnoma topshirilgan yilni va (kichik razryadli 4 ta son) shu yildagi har yili birdan boshlanadigan tartib raqamini bildiradi.

Rasmiy ekspertizaning vazifasi materillari tarkibini, zarur hujjatlar mavjudligini va ularning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish. Rasmiy ekspertiza natijalari bo‘yicha talabnoma beruvchiga Patent idorasining talabnoma ko‘rib chiqishga qabul qilinganligi yoki qabul qilinmaganligi haqidagi qarori yuboriladi.

Rasmiy ekspertiza muddati talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab 30 kunni tashkil qiladi. Talabnoma beruvchiga so‘rovnoma yuborilgan holda bu muddat mos ravishda o‘zaytiriladi.

Rasmiy ekspertiza o'tkazishda materillar ichida quyidagi hujjatlar mavjudligi va ularning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi:

- a) belgini tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishga ariza;
- b) talabnoma beruvchining nomi yoki nomlanishi, manzilgohining ko'rsatilganligi;
- v) patent vakilining ismi-ashirfi, agar mavjud bo'lsa;
- g) talabnomada ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan belgining tasviri;
- d) ro'yxatga o'tkazish so'ralayotgan tovarlar va xizmatlar ro'yxati;
- e) konvensiya ustuvorligi so'ralgan bo'lsa birinchi talabnoma nusxasi;
- j) ko'rgazma ustuvorligini so'rash qonuniyligini tasdiqlaydigan hujjat;
- z) tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishga talabnomani topshirish uchun patent boji to'langanligi to'g'risidagi hujjat;
- i) talabnoma jamoaviy belgiga oid bo'lsa, kelishuv;
- k) patent vakiliga berilgan ishonchnoma;
- l) o'zbek yoki rus tilidagi boshqa tilda topshirilgan materiallarning tarjimasi.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishga talabnomani topshirish ushbu Qoidalarning (a), (b), (g), (d), (z) bandchalarida sanab o'tilgan hujjatlar va ma'lumotlar talabnoma bilan birga topshirilgan bo'lsa yoki ulardan eng oxirgisi kelib tushgan sanadan belgilanadi.

O'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda topshirilgan talabnomaning tarjimasi taqdim etilmaguncha hujjatlar topshirilmagan deb hisoblanadi.

Talabnoma materiallarida (v), (e), (j), (i) bandchalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning yoki hujjatlarning mavjud emasligi yoki ularning ushbu Qoidalardagi talablarga muvofiq emasligi talabnomani ko'rib chiqishga qabul qilinganligi haqida qaror chiqarish va talabnoma kelib tushgan sanani belgilash uchun to'siq bo'la olmaydi.

Ro'yxatga olinmagan talabnomada talabnomani topshirish uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi tekshiriladi. Agar taqdim etilgan hujjatda talabnoma topshirish uchun patent boji TXXKning bitta sinfi uchun belgilangan miqdorda to'langan bo'lib, talabnomada ko'rsatilgan sinflar soniga mos kelmasa talabnoma beruvchiga tegishli bildirishnoma yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida zarur bo'lgan patent bojining etishmagan qismini to'lash yoki sinflar sonini muvofiqashtirish taklif qilinadi. Uch oylik muddat ichida patent bojining belgilangan miqdorga etishmagan qismini to'langanligi tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmasa, ko'rib chiqish talabnomada birinchi bo'lib ko'rsatilgan TXXK sinfiga nisbatan olib boriladi.

Agar rasmiy ekspertiza o'tkazish jarayonida talabnoma hujjatlari ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilganligi aniqlansa, talabnoma beruvchiga so'rovnoma yuboriladi, so'rovnomada aniqlangan

kamchiliklarni ko'rsatilgan va ushbu so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida etishmagan yoki to'zatilgan ma'lumotlar yoki hujjatlarni taqdim etish taklif qilinadi.

So'rovnoma yuborish uchun xususan quyidagilar asos bo'ladi:

a) talabnoma materillarida ushbu Qoidalarining 82-bandi (a), (b), (g), (d), (z) bandchalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar yoki hujjatlar mavjud emasligi;

b) to'langan patent bojining summasi belgilangan miqdorga muvofiq emasligi.

Ushbu qoidalarining 82-bandi (v), (e), (j), (i) bandchalaridagi ma'lumotlar yoki hujjatlarning faqat birortasi etishmasa talabnoma rasmiy ekspertiza bosqichiga so'rovnoma yuborilmaydi.

Agar talabnoma beruvchi taqdim etgan javobda so'ralgan barcha ma'lumotlar va yoki hujjatlar bo'lmasa yana qayta so'rovnoma yuboriladi.

Rasmiy ekspertiza so'roviga javob olinmasa, javob berish uchun belgilangan muddat bo'zilgan bo'lsa va bu muddat ichida qabul qilinishi haqida iltimosnoma yuborilmasa, talabnoma beruvchiga talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilinishini rad etish to'g'risida qaror yuboriladi.

Talabnoma materiallari belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan, shuningdek so'ralgan ma'lumotlar talabnoma beruvchi tomonidan o'z vaqtida taqdim etilgan holda talabnoma topshirilgan sana belgilanadi va talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilinganligi to'g'risidagi qaror talabnoma beruvchiga yuboriladi.

Agar talabnoma beruvchi tomonidan so'rovnomasiga rasmiy ekspertizaning taqdim etilgan javobda so'ralgan ma'lumotlar va yoki hujjatlar bo'lmasa, talabnomani ko'rib chiqishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqariladi.

Talabnomani ko'rib chiqishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi bunday qaror chiqarish uchun asoslar ko'rsatiladi.

Talabnomani ko'rsatilgan belgi ekspertizasi. Qonunning 15-moddasiga muvofiq talabnoma ko'rsatilgan belgi ekspertizasining vazifasi tovarlarning belgisi ustuvorligini belgilash va talabnoma berilgan belgining Qonunning 3 va 10-moddasi qoidalariga muvofiqligini tekshirishdir.

Tovar belgisi ustuvorligini belgilash. Tovar belgisining ustuvorligi Patent idorasiga tarkibida talabnoma beruvchi va uning joylashgan manzili yoki yashash joyi, talabnomada keltirilgan belgi, uning tavsifi va tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovar va xizmatlar ro'yxati keltirilgan ariza bo'lgan talabnoma topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi. Agar talabnomada dastlab yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar va yoki hujjatlardan biri bo'lmagan bo'lsa, tovar belgisining ustuvorlik sanasi deb, etishmagan ustuvorlikni belgilash uchun

zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarning eng oxirgisi kelib tushgan sana hisoblanadi.

Talabnomada ko'rsatilgan belgining muhofazaga layoqatligini tekshirish. Agar talabnomada ko'rsatilgan belgi elementlari sifatida ushbu Qonunning 4-bandi (i-m) bandchalarida ko'rsatilgan belgilardan birini o'z ichiga olsa yoki faqat ushbu qoidalarning 4-bandi (a-z) bandchalarida ko'rsatilgan belgilardan iborat bo'lsa, shu belgini tovar belgisi sifatida ro'yxatga olish mumkin emasligi haqida xulosaga kelinadi. Agar talabnomada ko'rsatilgan belgi faqat ushbu Qoidalarning 4-bandi (a-z) bandchasida ko'zda tutilgan muhofazaga layoqatli bo'lmagan belgilardan iborat bo'lmasa lekin ulardan birini o'z ichiga olgan bo'lsa:

a) ushbu Qoidalarning 4-bandi (a-g) bandchalarida ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lgan holda tegishli vaqolatli organ yoki ularning egalarining roziligi tasdiqlangan hujjat mavjudligi tekshiriladi. Bunday roziksiz tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi;

b) ushbu Qoidalarning 4-bandi (d, e, j, z) bandchalarida ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lgan holda ular tovar belgisida ustun mavqeiga egaligi tekshiriladi.

Talabnomada ko'rsatilgan belgi talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan tovarlar va xizmatlar ro'yxatidagi barcha tovar va xizmatlar uchun Qonunning 3 va 10-moddalarida belgilangan talablarga javob berishi aniqlansa, shu ro'yxatda berilgan tovar va xizmatlar uchun tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Agar Qonunning 15-moddasi birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq o'tkazilgan talabnomada ko'rsatilgan belgi ekspertizasini o'tkazish natijasida belgi tovar va xizmatlar ro'yxatining hammasi uchun ushbu qoidalarning 4-bandida kltirilgan talablarga muvofiq kelmasa, talabnoma beruvchiga tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror yuboriladi.

3. Tovarlar kelib chiqish joy nomlariga berilgan talabnomaga guvohnoma olish

Patent idorasi davlat ekspertizasidan o'tkazish natijalari asosida, patent boji to'langanligi haqida e'tiboran bir oy mobaynida tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va (yoki) tovar kelib chiqish huquqini tegishli reystrda ro'yxatga oladi.

Reystrga kiritilgan ma'lumotlar tarkibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomi va (yoki) tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasining rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Tovar belgisiga doir guvohnoma tovar belgisi sifatida talabnomada ifodalangan belgi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida belgisining ustuvorligini va

tovar egasining guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan tovar belgilarini tasdiqlaydi.

Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma tovar kelib chiqqan joy nomida ifodalangan belgi ro'yxatdan o'tkazilganligi faktini va guvohnoma egasining undan guvohnomaga ko'ra foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

Tovar belgisiga doir guvohnoma va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida tovar kelib chiqqan joy nomi va (yoki) tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi tegishli, keyin so'ng bir oy davomida Patent idorasi tomonidan beriladi. Guvohnomalar shakli va ular Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Tovar belgisiga doir guvohnoma yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida berilgan sanadan e'tiboran o'n yil mobaynida amal qiladi.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida amal qilish muddati guvohnoma amal qilayotgan oxirgi yil mobaynida uning egasi tomonidan berilgan arizaga ko'ra o'zaytirilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan arizaga quyidagilar ilova qilinishi lozim:

- patent boji to'langanligi tasdiqlovchi hujjat;
- patent vakili orqali ariza berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi;
- tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs mazkur jo'g'rofiy ob'ektda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarilayotganligini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joyi nomidan foydalanish huquqiga amal qilish muddatini o'zaytirish haqidagi yozuv tegishli reystrga kiritiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan arizani berish muddati guvohnomaning amal qilish oy mobaynida guvohnoma egasi bergan iltimosnomaga binoan o'zaytirilishi mumkin.

Tovar belgisining egasi yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi iborasini o'z nomi, familiyasi, ismi va otasining ismi o'zgrganligi to'g'risida, tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joyda o'tkazishga taalluqli boshqa o'zgartirishlar to'g'risida, tovar belgisi uchun esa – tovar belgisi nomi qisqartirilganligini, tovar belgisining ayrim qismlari uning mohiyatini bo'zmaydigan tarzda o'zgartirilganligi.

Ushbu o'zgartirishlar to'g'risidagi yozuv Patent idorasi tomonidan tovar belgisiga doir guvohnomaga va uning nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomaga va tegishli reystrga kiritiladi.

Tovar belgisiga doir guvohnoma uning butun amal qilish muddati davomida, bosharti u ushbu qoidada va 10-moddasi birinchi qismining 1-12-bandlarida belgilangan talablarni bo'zgan holda berilgan, ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy axborotnomada e'lon qilingan sanadan e'tiboran, ushbu Qonunning 10-moddasi birinchi qismining 13 va 14-bandlarida belgilangan talablari bo'zgan holda qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma uning amal qilishini, bosharti u ushbu Qonunda belgilangan talablarni bo'zgan holda berilgan bo'lsa, haqiqiy emas deb topilishi.

Tovar kelib chiqqan joy nomi ro'yxatdan o'tkazilganligi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- mazkur jo'g'rofiy ob'ekt uchun xos bo'lgan sharoitlar yo'qolganda va reystrda ko'rsatilgan hollarda ishlab chiqarishning iloji bo'lmaganda;

- chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxslar tovar kelib chiqqan mamlakatda tovar kelib chiqqan joy nomi hujjatini yo'qotganda.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida amal qilishi uning amal qilish muddati tugaganligi munosabati bilan tugatiladi. Tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilishi tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab ma'lum muddat mobaynida undan o'zluksiz ravishda foydalanilmaganda, shuningdek jamoaviy belgidan foydalanish taqdirida manfaatdor shaxsning arizasiga binoan qabul qilingan sud qarori asosida muddatdan oldin berilishi mumkin. Tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilishini undan foydalanilmaganligi munosabati to'g'risidagi masalani hal qilayotganda tovar belgisining egasi tomonidan taqdim etilgan unga bog'liq bo'lgan belgisdan foydalanilmaganligini isbotlovchi dalillar e'tiborga olinishi mumkin.

Tovar belgisiga doir guvohnomaning yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga amal qilishni: Apellatsiya kengashi qarori asosida; Tovar belgisi egasining yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi iborasiga bergan arizasi asosida; Sud qarori asosida muddatidan ilgari tugatiladi.

4. Patent idorasidan tasdiqlovchi hujjat olish bo'yicha ishlarning ayrim holatlari to'g'risida

Tovar belgisiga doir mutlaq huquq. Tovar belgisining egasi tovar belgisdan foydalanish va uni tasarruf etish mutlaq huquqiga ega.

Tovar belgisiga doir mutlaq huquq guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan amal qiladi va axborotnomada e'lon qilingan sanadan e'tiboran ro'yxatdan o'tkazishning amal qilishi davri mobaynida mutlaq huquqga ega. Tovar belgisini yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda tayyorlash, qo'lash, chop etish, sotish, o'zgacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritish yoki ularni shu maqsadda saqlash, yoxud ma'lum darajada aynan o'xshash bo'lgan bir xildgi tovarlarni belgilash tovar belgisiga doir mutlaq huquqi bo'zilganligi. **Tovar belgisidan foydalanish.** Tovar belgisi uni ishlatish uchun ro'yxatga olingan tovarlarda va (yoki) ularning idishi hamda Patent idorasi tomonidan yoki ushbu Qonunning 30-moddasiga muvofiq litsenziya shartnomasi asosida bunday huquqning. qo'llanilishi tovar belgisidan foydalanish deb hisoblanadi.

Tovar belgisini reklamada, bosma nashrlarda, rasmiy blankalarda, peshlavhalarda, O'zbekiston Respublikasi ko'rgazmalar va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish etish vaqtida ishlatish ham tovar belgisidan foydalanish mumkin. Vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tovarlarni tayyorlovchining roziligi bilan shartnoma asosida o'z tovar belgisidan ham foydalanishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish. Tovar kelib chiqqan joy nomini tovarda, uning idishi hamda o'rovida, peshlavhalarda, rasmiy blankalarda, nashrlarda va tovarni fuqaro muomalasiga kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda ishlatish tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish deb hisoblanadi. Litsenziya shartnomasi asosida: tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini, boshqa huquqdan boshqa shaxslar foydasiga voz kechish to'g'risida bitimlar tuzishga va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish uchun berishga yo'l qo'yilmaydi. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomasi bo'lmagan shaxsning joyning ro'yxatdan o'tkazilgan nomidan foydalanishga, hatto basharti bunda tovar kelib chiqqan joyning bitta nom tarjima qilib yoxud "ko'rinishdagi", "turdagi", "usuldagi" va shunga o'xshash so'zlarni qo'shish, shuningdek har qanday tovar kelib chiqqan joy nomi va tovarning alohida xususiyatlari xususida va shunga o'xshash belgilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ogohlantiruvchi tamg'alash. Tovar belgisining egasi yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki tovar kelib chiqqan joy nomi bilan bir qatorda tovarda yoki uning idishi hamda o'rovida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joy nomi ekanligini bildiruvchi belgi aylana ichiga olingan "R" harfi tarzida ogohlantiruvchi tamg'a qo'yishi mumkin.

Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazish. Tovar belgisiga doir mutlaq huquq bu huquqning egasi tomonidan shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazish mumkin. Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazishga, bosharti u iste'molchini tovar yoki uni chalg'itadigan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi. Tovar belgisidan foydalanish huquqi tovar belgisining egasi (litsenziar tomonidan litsenziya shartnomasiga asosan (litsenziatga) berilishi mumkin. Litsenziya shartnomasida litsenziat tovarlarining sifati litsenziat tovarlarining sifatidan past bo'lgan bo'lishi va litsenziar bu shartning bajarilishini nazorat qilishi ko'rsatilishi lozim. Tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma yoki litsenziya ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Jamoaviy belgi va undan foydalanish huquqi boshqa shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

Tovar belgisi egasi bo'lmish yuridik shaxsni qayta tashkil etish. Tovar belgilarining egalari bo'lmish yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda tovar belgilari qayta shaxsga o'tadi. Tovar belgisi egasi bo'lmish yuridik shaxs bo'linganda tovar belgisi tovarlarni ishlab chiqarish vazifasi ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxsga o'tadi. Tovar belgisining egasi tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilgan bir qismini o'zida saqlash qolgan taqdirda har ikkala yuridik shaxs o'zaro kelishuvchiga (shartnomaga) ko'ra egasi deb e'tirof etilishi mumkin. Bu haqdagi kelishuv (shartnoma) Patent idorasida ro'yxatdan o'tkaziladi. Tovar belgisining egasi bo'lmish yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shib olinganda tovar belgilari yuridik shaxsga o'tadi.

Tovar belgisini takroriy ro'yxatdan o'tkazish shartlari. Guvohnomasining amal qilish muddati o'tgan tovar belgisi tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilish muddatiga e'tiboran uch yil mobaynida boshqa shaxs nomiga qayta ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas. Mazkur guvohnomada undan tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilish muddati tugashiga qadar voz kechgan hollarda ham qayta ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

Patent bojlari. Tovar belgilarini, tovar kelib chiqqan joy nomini yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik uchun patent bojlari olinadi. Uning ushbu Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga doir harajatlarini qoplash uchun to'lanadi. Patent bojlarining miqdorlari va ularni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Patent vakillari. Patent vakili Patent idorasida yuridik va jismoniy shaxslarning vakillik huquqini amlaga oshiradi. O'z mamlakat hududida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi patent vakili bo'lishi mumkin. Qo'yiladigan malaka talablari, ularni attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida

doimiy yashovchi jismoniy shaxslar yoki chet ellik yuridik shaxslar tovar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini yuritishni hamda bu ishlar bilan olib borgan harakatlarni Patent idorasida ro'yxatdan o'tgan patent vakillari orqali amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, lekin vaqtinchalik uning hududidan tashqarida bo'lgan, lekin tovar belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini va bu ishlar bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni yozishma uchun O'zbekiston Respublikasi doirasidagi manzilini ko'rsatgan holda patent olishi mumkin.

Patent vakilining vakolatlari bilan tasdiqlanadi.

Tovar belgisini va tovar kelib chiqqan joy nomini boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish. O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tovar belgisini yoki kelib chiqqan joy nomini boshqa davlatlarda belgilanagan tartibda ro'yxatdan o'tkazishga haqli.

CHet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari. CHet ellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki o'zaro kelishuv prinsipi asosida foydalanadilar.

Nizolarni hal etish. Tovar belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish hamda kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Tayanch iboralar: Talabnomani tuzish; so'zli, tasviriy belgilar; patent boji; talabnoma kodi; rasmiy ekspertiza; TXXK; tovar belgisi ustuvorligi; reystr; rasmiy axborotnoma; appelyasiya; vositachilik; litsenziya; tamg'a; patent vakillari.

Nazorat uchun savollar:

1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga talabnoma tuzish va uni topshirish.
2. Qanday belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi?
3. Tovar va xizmat ko'rsatish belgisining ro'yxatdan o'tkazilishi.
4. Tovarlarining kelib chiqish joy nomlariga guvohnomalar olinishi.
5. Tovar belgisiga doir huquqning mohiyati.
6. Tovar belgisidagi ogohlantiruvchi tamg'alar mohiyati.

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish begisiga talabnoma tuzish, topshirish va ularni Patent idorasi ro'yxatidan o'tkazilishi bo'yicha etarli ma'lumot va bilimga ega bo'lishi lozim.

2. Tovarlar kelib chiqish joy nomlariga berilgan talabnomaga guvohnoma olish haqida bilishi kerak.

4. Patent idorasidan tasdiqlovchi hujjat olish bo'yicha ishlarning ayrim holatlari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 3, 4, 5, 6

7-Mavzu. Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulklarning huquqiy muhofazasi

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza, ikki tomonlama taxdil.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulklar 2.Firma nomlari. 3.Ratsionalizatorlik ishlari haqida umumiy ma'lumot.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> Sanoat mulkidan tashqari intellektual (nosanoat) mulklarning huquqiy muhofazasi bo'yicha umumiy tushunchalar berib, ularga rasmiy hujjat olish haqida ma'lumotlar berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1.Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulklar tarkibi, ularga kuyilgan talablar, intellektual mulklar xukukiy muxofazasi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. 2.Firma nomlari buyicha konunda ko'rsatilgan talablar va asosiy tushunchalar keltiriladi. 3.Ratsionalizatorlik ishlari haqida umumiy ma'lumotlar beriladi .	<i>Uquv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1.Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulk tarkibida EHM dasturlari, EHM ma'lumot bazalari; Integralmikrosxemalar opologiyalari, Seleksiya yutuqlari va firma nomlari bilan tanishadi.. 2.Firma nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish va ular haqidagi umumiy tushunchalar bilib olishadi. 3.Kaysi takliflar ratsionalizatorlik ishi turiga kirmasligi va kirishi mumkin bulganlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, bayon, axborot,
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzer
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi.

Bosqichlar, Vaqt	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1. Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.

<p>2-Bosqich. Asosiy (60 min.)</p>	<p>2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Dars avvalida va sungida “bilaman-bildim” jadvalini to‘ldirish uchun savollar tarkatiladi. 2.3.Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulk tarkibida EHM dasturlari, EHM ma’lumot bazalari; Integralmikrosxemalar topologiyalari, Seleksiya yutuqlari va firma nomlari haqida ma’lumotlar beriladi. 2.4. Firma nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish va ular haqidagi umumiy tushunchalar keltiriladi. 2.5.Kaysitakliflar ratsionalizatorlik ishi turiga kirmasligi va kirishi mumkin bo‘lganlari haqida ma’lumotlarga beriladi. 2.6. B.B.B. jadvalining 2-ustunini to‘ldirishni taklif etadi.</p>	<p>2.1.Muammoli savollarga e’-tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to‘ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3.Eshitadilar, yozadilar. B.B.B. jadvalining 2-ustunini to‘ldiradi.</p>
<p>3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)</p>	<p>3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. B.B.B. jadvalini to‘ldirishdagi savol-javoblarni taxlil qiladi va faol talabalarni baxolaydi. 3.2. Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi: 1. Ilmiy hujjatlar turlari va ularni bilish hamda tahlil qilib kelish. 2. UDK ning umumiy belgilarini o‘rganib, sanab berish.</p>	<p>3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

1. Sanoat mulkidan tashqari intellektual (nosanoat) mulklar

Nosanoat mulk tarkibida EHM dasturlari, EHM ma’lumot bazalari; Integral mikrosxemalar topologiyalari, Seleksiya yutuqlari va firma nomlari kiradi. Albatta, bularning nosanoat mulk deb ajratish shartli ravishda bajariladi.

Ma'lumotlar bazasi, bu sistemalashgan, ob'ektiv formada maqolalar, hisoblar va h.k. ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, ularni EHM yordamida topish va qayta ishlash mumkin bo'lsin:

- EHM uchun dasturlar ob'ektiv formada EHM ishlashi va EHM tarmoqlarining ma'lum natija olish uchun ma'lumotlar va ko'rsatmalar;

- boshlang'ich tekst – dasturlash tilida yozilgan, kompilyator yordamida qayta ishlovi mumkin bo'lgan tekst;

- ob'ektiv kod – boshlang'ich tekstni mashina kodiga aylantirishda vujudga kelgan dastur;

- EHM uchun dekompilevlangan dastur deb, struktura va EHM kodlashni o'rganish maqsadida ob'ekt kodini boshlang'ich tekstga aylantirish texnikaviy priyomi;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasi uchun adaptatsiya dasturi – konkret sharoitlarda EHM dasturlarini ishlashi uchun, mualliflik boshlang'ich tekstni o'zgartirmagan holda ma'lumotlar bazasiga qo'shimchalar kritish;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini adaptatsiyasi (qayta ishlovi) – boshlang'ich tekstni o'zgartirmagan holda kritilgan o'zgartirishlar;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasini dasturini qayta ishlab chiqarish;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasini bir yoki hohlagan nusxalarda material formada, yoki xotirada tayyorlash;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini tarqatish;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini sotish, prokatga berish, import qilish va h.k. bilan ishlashga yo'l qo'yilishiga tushuniladi;

- EHM yoki ma'lumotlar bazasini chop etish – muallifning roziligi bilan EHM yoki ma'lumotlar bazasini pechatga, ishlashga berish;

- huquq egalari deganda, uning muallif, yoki merosxo'ri yuridik yoki jismoniy shaxslarning qonun asosida to'la mulkchilik huquqiga egaligiga tushuniladi.

Ushbu asosiy tushunchalar EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarining mohiyatini echish uchun qonunda qo'llanib kelinmoqda.

Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari. Integral mikrosxemalarning topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **integral mikrosxema** – elektron vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, tuga lyoki oraliq shakldagi mikroelektron buyum bo'lib, undagi elementlarining hech bo'lmaganda biri faol hisoblanadi, buyumdagi bog'lanishlarning ayrimlari yoki borchasi bu buyum tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida o'zviy shakl topgan bo'ladi;

- **integral mikrosxema topologiyasi** – integral mikrosxema elementlarining va ular o'rtasidagi bog'lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi;

- **huquq egasi** – integral mikrosxema topologiyasining muallifi, uning merosxo'ri, shuningdek integral mikrosxema topologiyasidan foydalanish mulkiy huquqlarini qonunga yoki shartnomaga asosan olgan va ularga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ektlari va shartlari. Integral mikrosxemaning ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'ziga xos topologiyasi (bundan buyon matnda topologiya deb yuritiladi) integral mikrosxema topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ekti hisoblanadi.

Muallifning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan va yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lmagan topologiya boshqacha holat isbotlangunga qadar o'ziga xos deb e'tirof etiladi.

Yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lgan elementlardan tarkib topgan topologiyaga, agar bunday elementlar yig'indisi ushbu modda ikkinchi qismining talablariga to'la muvofiq bo'lsagina, huquqiy muhofaza beriladi.

Ushbu Qonun bilan beriladigan huquqiy muhofaza topologiyaga singdirilgan g'oyalar, usullar, tizimlar, texnologiya yoki kodlashtirilgan axborotga nisbatan tadbiiq etilmaydi.

Topologiya muallifi. Ijodiy mehnati bilan topologiyani yaratgan jismoniy shaxs shu topologiya muallifi deb e'tirof etiladi. Agar topologiya ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxslarning birgalikdagi ijodiy mehanti bilan yaratilgan bo'lsa, ular birgalikda mualliflar (hammualliflar) deb e'tirof etiladi.

Topologiyani yaratishga shaxsan ijodiy hissa qo'shmagan, biroq muallifga texnik, tashkiliy yoki moddiy yordam ko'rsatgan yoxud topologiyadan foydalanish

huquqini rasmiylashtirishga ko‘maklashgan jismoniy shaxslar mualliflar deb e‘tirof etilmaydi.

Muallifning topologiyaga bo‘lgan huquqi boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Topologiyadan foydalanish huquqi. Huquq egasiga topologiyadan o‘z ixtiyoriga binoan foydalanish, shu jumladan uni tayyorlash, qo‘llash va tarqatish mutlaq huquqi tegishlidir.

Huquq egasi topologiyada, shuningdek shunday topologiyani o‘z ichiga olgan buyumlarda “T” harfi yoki aylanadagi “T” harfi yoxud boshqacha tarzda ifodalangan “T” harfini joylashtiradi va bu uning O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinishini ko‘rsatadi.

Bir nechta huquq egalari tegishli huquqlardan foydalanish tartibi ular o‘rtasidagi shartnomaga binoan belgilanadi.

2. Firma nomlari

Firma nomi. Firma nomi yuridik shaxs bo‘lgan tijorat tashkilotining (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) individual nomi bo‘lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtda yuzaga keladi.

Yuridik shaxs to‘liq firma nomi bilan birga qisqartirilgan firma nomiga ham ega bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxsning firma nomida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilishi kerak.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda firma nomida yuridik shaxs faoliyatining xususiyati ko‘rsatilishi kerak.

Firma nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish. Firma nomi yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan e‘tiboran, chet el yuridik shaxsining firma nomi esa, chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasi hududida fuqarolik muomalasi ishtirokchisi sifatida faoliyatni amalga oshirishni boshlagan sanadan e‘tiboran huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

3. Ratsionalizatorlik ishlari haqida umumiy ma‘lumot

Ratsionalizatorlik talabnomasini tuzish va uning berilishi kerak. Ratsionalizatorlik talabnomasi nafaqat ixtirodan, balkim har xil ko‘rinishda beriladigan novatorlik ishlaridan ham, o‘zining tuzilishi bilan farq qiladi.

Quyidagi ijodiy takliflar ratsionalizatorlik ishi turiga kirmaydi:

1. Xo‘jalikni boshqarish va ishini tashkil etish bo‘yicha bo‘lgan taklif.

2. Ilmiy-izlanish, loyiha, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar va shunga o'xshash korxonalar bo'limlari muxandis-texnik ishchilarining (ixtirodan tashqari) takliflari (agar bu takliflar shu korxonalar bajarayotgan mavzuda, jarayon bo'yicha bo'lsa).

3. Ixtiro va ratsionalizatorlik taklifi tajriba almashinish tartibi bo'yicha qo'llash taklifi.

Albatta, yuqorida ko'rsatilgan takliflar turlari bo'yicha hamma ishlar korxonalar tomonidan inobatga olinadi, taqdirlanadi. Lekin bularning hammasi korxonalar rahbarining qaroriga muvofiq boshqa manbaalardan sarflanadi. Ixtiro yoki ratsionalizatorlik manbaiga kirmaydi.

Xuddi, shuningdek ratsionalizatorlik takliflari, agar shu korxonalar ishini tasdiqlovchi yuqori tashkilot rahbarlari yoki ular bilan birga berilsa ham, qabul qilinmaydi, hisoblanmaydi.

Ilmiy-texnikaviy va ilmiy ishchilarning takliflari, quyidagi vaqtda ratsionalizatorlik takliflarini qabul qilishga ruxsat beriladi:

1. Bu ishchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni ishchi chizmalar yoki texnikaviy loyihalar tasdiqlangandan so'ng berilsa;

2. Agar konstruktiv ish bo'lsa, asosiy namunani seriyada qabul qilingandan so'ng berilsa;

3. Agar texnologik jarayon bo'lsa, ma'lum tartibda ekspluatatsiyaga qabul etilgandan so'ng berilsa.

Umuman, berilgan takliflar loyihani, konstruksiya va texnologik jarayonni texnikaviy tavsifini yaxshilasa, bunday takliflar qabul qilinib ma'lum tartibda rag'batlantiriladi.

Xuddi shuningdek, takliflarda aniq texnikaviy echim bo'lmasa ham, bunday takliflar ratsionalizatorlik taklifi sifatida qabul qilinmaydi.

Ratsionalizatorlik takliflar to'zilgandan so'ng, qaysi korxonada ishlatiladigan bo'lsa, shu korxonaga berilishi kerak.

Ratsionalizatorlik taklif tushgandan so'ng chuqur tekshirilishi va shu korxonalar profiliga to'g'ri kelish-kelmasligi aniqlanishi kerak.

Agar tekshirish natijalari ijobiy bo'lsa, so'ng ratsionalizatorlik taklifning arizasi rasmiy ravishda qabul qilinib, registratsiya etiladi. Agar tekshirish natijasi ijobiy bo'lmasa, sababi tushuntirilib, ariza qaytarilib beriladi.

Ko'p holda, arizani qaysi tashkilotga berilishi haqida tushunmovchilik bo'lishi mumkin. SHuning uchun normativ aktlarda bu haqda aniq ko'rsatmalar berilgan. Masalan, mahsulotni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, faqat shu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonaga berilishi kerak, ya'ni bu mahsulotlarni qo'llovchilarga emas.

Xuddi shuningdek, ishlab chiqarish uslubini o'zgartirishga taalluqli ratsionalizatorlik taklif, shu taklif muallifi kim bo'lsa ham, unga bog'liq bo'lmagan holda podryadchikga (ishga yollangan korxonaga) beriladi. Qabul qilingan ariza albatta maxsus kitobda qabul qilingan kuni ko'rsatilib, registratsiya qilinishi kerak. Registratsiya qilinishning mohiyati, ko'rib chiqish uchun qabul qilinganligini, shakllarini birinchi bo'lib berilganligini tasdiqlasa, shu bilan birga korxonaning ushbu arizani ko'rib chiqishini javobgarligini oshiradi, shu kundan boshlab arizani ko'rib chiqish vaqti sanaladi, umuman olganda, ariza - takliflarni registratsiya qilingan kundan boshlab ushbu hujjat rasmiy hisoblanadi va muallif uni qaytib ololmaydi. Beriladigan yozma arizada ratsionalizatorlik taklifning mazmuni yozib beriladi. Agar kerak bo'lsa, arizaga qo'shimcha ravishda chizmalar, sxemalar yoki eskiz, rasmlar berilishi mumkin. Umuman olganda, berilgan yozma tushuntirish xati yordamida, qilingan taklif amaliyotda tadbqiq etishi mumkin bo'lsin. Davlat ixtiro komiteti tomonidan, ratsionalizatorlik taklif arizasi va shunga bog'liq berilgan boshqa hujjatlar formasi ishlab chiqilgan. Arizaga faqat bitta texnikaviy echim beriladi.

Agar berilgan arizada bir nechta texnikaviy echim haqida yozilgan bo'lsa, muallifga 15 kunlik muhlat beriladiki, bu vaqtda muallif, har bir texnikaviy echim bo'yicha, alohida-alohida ariza tayyorlab berishi kerak. Lekin, birinchilik vaqti, birinchi birgalikda berilgan ariza bo'yicha hisoblanadi. Korxonaga arizani qabul qilinganligi to'g'risida besh kun muhlat ichida, muallifga ma'lumotnoma berishi kerak.

Berilgan ariza-takliflarni ko'rib chiqish vaqtida, muallif qo'shimchalar kiritishi yoki o'zgartirishlar kiritishi huquqiga ega. Lekin qilingan o'zgartirishlar ariza - taklif mohiyatini o'zgartirmasligi lozim. Agar beriladigan ariza - taklif, amaliyotda qo'llanilayotgan bo'lsa, unda muallif faqat uch oydan so'ng ariza-taklif berishi mumkin.

Ariza-taklifni to'la ko'rib chiqqunga qadar, mualliflar, mualliflar sonini ko'paytirishi yoki kamaytirishi ham mumkin. Berilgan ariza takliflarni ko'rib chiqish muddati: korxonalar uchun 15 kun, vazirlik uchun esa 1,5 oy, kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar berilgan ariza-taklif boshqa korxonalarga ham ishlatilishi mumkinligi aniqlansa, unda korxonaga 3 oylik muddatda yuqori tashkilotlarga xabar berishi kerak.

Ariza-taklif ko'rib chiqilgandan so'ng uning natijasida quyidagi qarorlar qilinishi lozim: taklifni ratsionalizatorlik taklif deb uni qo'llanilishi haqida yoki tajriba o'tkazish va tekshirish yoki qaytarilishi albatta sabablarini ko'rsatilgan holda taklifning qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi haqidagi qaror texnik, ilmiy kengashlarda ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ratsionalizatorlik

taklifning qabul qilinishi va unga mualliflik huquqini berilishi ratsionalizatorlik taklif guvohnomasi berilishi bilan tasdiqlanadi.

Agar mualliflar bir necha kishi bo'lsa, guvohnoma ham har bir kishiga ma'lum qoidaga asosan beriladi. Mualliflik guvohnomasini shu ariza - taklifni qabul qilgan korxonalar tomonidan beriladi.

Agar taklifni bir necha korxonalar qabul qilgan va o'z ishlab chiqarishda qo'llamoqchi yoki qo'llayotgan bo'lsa, barcha korxonalarga alohida-alohida guvohnoma beriladi.

Agar shu korxonalar vazirligi tomonidan berilsa, unda korxonalar tomonidan berilgan guvohnomalar o'z kuchini yo'qotadi. Agar guvohnoma noto'g'ri berilgan bo'lsa, unda u to'la yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Guvohnoma noto'g'ri berilgan deb hisoblansa, unda to'la qaytariladi, agarda qisman noto'g'riligi (mualliflar sonida, mohiyatining bir qismi va hokazo) aniqlansa, qisman qaytariladi, ya'ni noto'g'ri deb topilgan xatoliklar hisobga olinadi va bekor qilinadi.

Tayanch iboralar: nosanoat mulk; EHM dasturi; integral mikrosxema; seleksiya yutuqlari; ob'ektiv kod; huquq egasi; topologiya muallifi; firma nomi; muhofaza qilish; ratsionalizatorlik; yozma ariza; mualliflik guvohnomasi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nosanoat mulklariga nimalar kiradi?
2. Firma nomlari, mualliflik huquqi va ratsionalizatorlik ishlarining umumiy ma'lumotlari.
3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning asosiy tushunchalari.
4. Ratsionalizatorlik ish turiga qanday takliflar kirmaydi?
5. Qanday hollarda ratsionalizatorlik takliflari qabul qilinadi?
6. Mualliflik guvohnomasi qanday amalga oshiriladi?

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Sanoat mulkidan tashqari intellektual mulklar bo'yicha bilimga ega bo'lishi va bilishi lozim.
2. Firma nomlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.
3. Ratsionalizatorlik ishlari haqida umumiy ma'lumot haqida tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 1, 2, 3, 4

8-mavzu. EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalari, integral mikroshemalar topologiyalar intellektual mulk sifatida

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot vizual ma'ruza, aniq, holatlarni echish.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalari tushunchasi, mohiyati.</p> <p>2. Integral mikroshemalar topologiyalar, seleksiya ishlari tushunchasi, ularning huquqiy himoyalanihi.</p> <p>3. EHM dasturlari va ma'lumotlar ba'zalari, integral mikroshemalar topologiyalariga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalari, integral mikroshemalar topologiyalar intellektual mulk sifati haqida ma'lumotlar berish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>1. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalari tushunchasi, mohiyati ochib berish.</p> <p>2. Integral mikroshemalar topolo-giyalar, seleksiya ishlari tushunchasi, ularning huquqiy himoyalanihi ha-qida axborot berish.</p> <p>3. EHM dasturlari va ma'lumotlar ba'zalari, integral mikroshemalar topologiyalariga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish tartibi bilan tanishtirish.</p>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <p>1. EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini tushunchalarini bilishadi va ularni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish kunikmasiga ega bulishadi.</p> <p>2. EHM mikroshemalar topologiyalar, seleksiya ishlari tushunchasi haqida ma'lumotga ega bulishadi.,</p> <p>3. Patent idorasiga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish tartibi bilan tanishadilar.</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, klaster, munozara, texnika: takdimot, blits-so'rov, grafik
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor,
O'qitish shakli	Frontal ma'ruza, guruh, va juftliklarda
O'qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar,	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarnitaklif etadi. 2.2. Talabalarga Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari tushunchasi, mohiyati ochib beriladi. 2.3.Integral mikrosxemalar topologiyalar, seleksiya ishlari tushunchasi, ularning huquqiy himoyalanihi haqida axborot beriladi. 2.4. EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar topologiyalariga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish tartibi bilan tanishtiriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.3.Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2. Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni

1. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari tushunchasi, mohiyati

EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofazasi va uning qo'llanilishi, ro'yxatdan o'tkazilishini tartibga solib turish maqsadida 6 may 1994 yil №1060-XIII O'zbekiston Respublikasi "EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasini huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qabul qilingan Qonun, 05.04.2002 yil №364-III, 30.08.2002 yil №405-II qo'shimchalari bilan amal qilinayapti.Ushbu qonunning (1-moddasi) bilan quyidagi tushunchalar qabul qilingan:- ma'lumotlar bazasi, bu sistemalashgan, ob'ektiv formada maqolalar, hisoblar va h.k. ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, bularni EHM yordamida topish va qayta ishlash mumkin bo'lsin:

- EHM uchun dasturlar ob'ektiv formada EHM ishlashi va EHM tarmoqlarining ma'lum natija olish uchun ma'lumotlar va ko'rsatmalar;
- boshlang'ich tekst – dasturlash tilida yozilgan, kompilyator yordamida qayta ishlovi mumkin bo'lgan tekst;
- ob'ektiv kod – boshlang'ich tekstni mashina kodiga aylantirishda vujudga kelgan dastur;
- EHM uchun dekompileirovlangan dastur deb, struktura va EHM kodlashni o'rganish maqsadida ob'ekt kodini boshlang'ich tekstga aylantirish texnikaviy priyomi;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasi uchun adaptatsiya dasturi – konkret sharoitlarda EHM dasturlarini ishlashi uchun, mualliflik boshlang'ich tekstni o'zgartirmagan holda ma'lumotlar bazasiga qo'shimchalar kritish;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini adaptatsiyasi (qayta ishlovi) – boshlang'ich tekstni o'zgartirmagan holda kritilgan o'zgartirishlar;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasini dasturini qayta ishlab chiqarish;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasini bir yoki hohlagan nusxalarda material formada, yoki xotirada tayyorlash;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini tarqatish;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasi dasturlarini sotish, prokatga berish, import qilish va h.k. bilan ishlashga yo'l qo'yilishiga tushuniladi;
- EHM yoki ma'lumotlar bazasini chop etish – muallifning roziligi bilan EHM yoki ma'lumotlar bazasini pechatga, ishlashga berish;
- huquq egalari deganda, uning muallif, yoki merosxo'ri yuridik yoki jismoniy shaxslarning qonun asosida to'la mulkchilik huquqiga egaligiga tushuniladi.

Ushbu asosiy tushunchalar EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarining mohiyatini echish uchun qonunda qo'llanib kelinmoqda.

EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma. Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq talabnoma bitta EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga taalluqli bo'lishi lozim.

Talabnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

a) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining muallifi (mualliflari) va nomiga ro'yxatdan o'tkazilish so'rayotgan shaxs (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi) hamda ularning yashash joylari yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan holda rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza;

b) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini indentifikatsiya qiladigan materiallar, referatni ham o'z ichiga olgan holda.

Talabnomaga patent bojini belgilangan miqdorda to'langanligini tasdiqlaydigan hujjat yoki patent bojini to'lashdan ozod qilish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi.

EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining referati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

a) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi (arizada ko'rsatilganidek holda);

b) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining vazifasi, qo'llanilish sohasi va funksional imkoniyatlari ochib berilgan annotatsiya. Annotatsiyaning hajmi 700 ta belgidan oshmasligi lozim;

v) ishlatiladigan EHMning tipii;

g) dastur tili (EHM uchun dasturga);

d) ma'lumotlar bazasini boshqarish turi va versiyasi (ma'lumotlar bazasiga);

e) operatsiya tizimining turi va versiyasi;

j) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining mashinada o'qiladigan shakldagi hajmi kilobaytlarda.

2. Integral mikrosxemalar topologiyalar, seleksiya ishlari tushunchasi, ularni huquqiy himoyalanihi

Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari. Integral mikrosxemalarning topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- integral **mikrosxema** – elektron vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, tuga lyoki oraliq shakldagi mikroelektron buyum bo'lib, undagi elementlarining hech bo'lmaganda biri faol hisoblanadi, buyumdagi bog'lanishlarning ayrimlari yoki borchasi bu buyum tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida o'zviy shakl topgan bo'ladi;

- **integral mikrosxema topologiyasi** – integral mikrosxema elementlarining va ular o'rtasidagi bog'lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi;

- **huquq egasi** – integral mikrosxema topologiyasining muallifi, uning merosxo'ri, shuningdek integral mikrosxema topologiyasidan foydalanish mulkiy

huquqlarini qonunga yoki shartnomaga asosan olgan va ularga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ektlari va shartlari. Integral mikrosxemaning ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'ziga xos topologiyasi (bundan buyon matnda topologiya deb yuritiladi) integral mikrosxema topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ekti hisoblanadi.

Muallifning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan va yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lmagan topologiya boshqacha holat isbotlangunga qadar o'ziga xos deb e'tirof etiladi.

Yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lgan elementlardan tarkib topgan topologiyaga, agar bunday elementlar yig'indisi ushbu modda ikkinchi qismining talablariga to'la muvofiq bo'lsagina, huquqiy muhofaza beriladi.

Ushbu Qonun bilan beriladigan huquqiy muhofaza topologiyaga singdirilgan g'oyalar, usullar, tizimlar, texnologiya yoki kodlashtirilgan axborotga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Topologiya muallifi. Ijodiy mehnati bilan topologiyani yaratgan jismoniy shaxs shu topologiya muallifi deb e'tirof etiladi. Agar topologiya ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxslarning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ular birgalikda mualliflar (hammualliflar) deb e'tirof etiladi.

Topologiyani yaratishga shaxsan ijodiy hissa qo'shmagan, biroq muallifga texnik, tashkiliy yoki moddiy yordam ko'rsatgan yoxud topologiyadan foydalanish huquqini rasmiylashtirishga ko'maklashgan jismoniy shaxslar mualliflar deb e'tirof etilmaydi. Muallifning topologiyaga bo'lgan huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Topologiyadan foydalanish huquqi. Huquq egasiga topologiyadan o'z ixtiyoriga binoan foydalanish, shu jumladan uni tayyorlash, qo'llash va tarqatish mutlaq huquqi tegishlidir. Huquq egasi topologiyada, shuningdek shunday topologiyani o'z ichiga olgan buyumlarda "T" harfi yoki aylanadagi "T" harfi yoxud boshqacha tarzda ifodalangan "T" harfini joylashtiradi va bu uning O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinishini ko'rsatadi.

Bir nechta huquq egalari tegishli huquqlardan foydalanish tartibi ular o'rtasidagi shartnomaga binoan belgilanadi.

"Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonunning maqsadi seleksiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Asosiy tushunchalar. Ushub Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

zot – genetik jihatdan o'zaro bog'liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan, parrandalar, hashoratlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo'lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari aynan shu guruhga xos bo'ladi va uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi (zonal) tip, zavod tipii, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir;

ish beruvchi – seleksiya yutug'ini yaratish to'g'risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziar – seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

nav – o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan-naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va Ayni bir botaniq taksondagi boshqa o'simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadi. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyasiya navning muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir;

patent egasi – seleksiya yutug'iga berilgan patentning egasi;

seleksiya yutug'i – o'simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

talabnoma beruvchi – seleksiya yutug'iga patent berish haqida talabnoma topshirgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilishning tashkiliy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi (bundan buyon matnda Patent idorasi deb yuritiladi) seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Patent idorasi seleksiya yutuqlariga patentlar berish haqidagi talabnomalarni (bundan buyon matnda patent berish haqidagi talabnoma deb yuritiladi) qabul qilib oladi hamda ko'rib chiqadi, ular bo'yicha rasmiy ekspertiza o'tkazadi, O'simlik pavlari davlat reystrini hamda Hayvon zotlari davlat reystrini (bundan buyon matnda reystr deb yuritiladi) yuritadi, seleksiya yutuqlariga patentlar beradi, talabnoma materiallari va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olinib, muhofaza qilinayotgan seleksiya yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni rasmiy ravishda e'lon qiladi, seleksiya yutuqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashga doir qoidalar qabul qiladi hamda tushuntirishlar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi, CHorvachilikda naslchilik ishlari bo'yicha bosh davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda ixtisoslashtirilgan

tashkilotlar deb yuritiladi) talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutuqlarining patentga layoqatliligini ekspertizadan o'tkazadi.

Patent egasi. Seleksiya yutug'iga patent:

- seleksiya yutug'ining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga);

- muallif yoki uning merosxo'ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki seleksiya yutug'i ro'xatdan o'tkazulgunga qadar Patent idorasiga topshirilgan talabnoma talabnoma beruvchini o'zgartirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ular rozi bo'lgan taqdirda);

- ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga beriladi.

3. EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari integral mikrosxemalar topologiyalarga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish

Talabnoma hujjatlarini rasmiylashtirish. Hamma hujjatlar, zarur bo'lgan hollarda ularni bevosita reproduksiya qilish mumkin bo'lgan tarzda rasmiylashtiriladi.

Har bir varaqning faqat bir tomonidan, qatorlarni varaqning kichik tomoniga parallel joylashtirilgan holda foydalaniladi.

Talabnomaning hujjatlari pishiq, oq, teki, yarqiramaydigan qog'ozda bajariladi. Talabnoma hujjatlarini MO'T da ham berish mumkin.

Talabnomaning har bir hujjati alohida varaqdan boshlanadi. Varaqlar 210x297 mm. Formatga ega bo'ladi.

Tavsif va muhim alomatlar majmui o'z ichiga olgan varaqlardagi hoshiyalarning eng kichik o'lchami quyidagilarni tashkil etadi, mm.:

yuqorigi – 20;

o'ndagi – 20;

pastki – 20;

chapdagi – 25.

Bu varaqlarda foydalanilgan yoki foydalanishga yaroqli sath atrofida ramka chizilmasligi lozim.

Talabnomaning har bir hujjatida ikkinchi va keyingi varaqlar raqamlanishning alohida seriyasidan foydalangan holda birdan boshlab arab raqamlari bilan tartibma-tartib raqamlab chiqiladi.

Talabnoma hujjatlari qora rangli shirft bilan bosmadan chiqariladi. Referatning matnlari 1,5 interval orqali bosh harflarining balandligi 2,1 mm dan kam bo'lmagan holda bosmadan chiqariladi.

MO'T da beriladigan materiallarga qo'yilgan talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Talabnomani topshirish. Qonunning 9-moddasi birinchi qismiga muvofiq huquq egasi talabnomani topshirish huqiqaga ega.

Talabnoma bevosita Patent idorasiga topshiriladi yoki pochta orqali yuboriladi.

Talabnoma bevosita talabnoma beruvchi tomonidan yoki o'zining vakili orqali topshirilishi mumkin.

Talabnoma topshirilgandan keyin yuboriladigan materiallarda talabnoma raqamini ichiga olgan va talabnoma beruvchi yoki uning vakili tomonidan izmolangan bo'lishi lozim.

Talabnoma raqami ko'rsatilmagan materiallar, agar raqamni bilvosita aniqlash imkoni bo'lmasa, qaytarib yuboriladi.

Patent idorasiga talablar bo'zilgan holda kamchiliklar bilan taqdim etilgan materiallar bo'yicha so'rovda ko'rsatilgan muddatda to'zatilgan yoki mavjud bo'lmagan materiallar taqdim etilishi taklif qilingan so'rov jo'natiladi.

Talabnoma beruvchi yoki uning vakili bo'lmagan shaxslar tomonidan berilgan materiallar ko'rilmaydi. Bunday materiallarni yuborgan shaxsga tegishli bildirishnoma yuboriladi.

Talabnoma bo'yicha ishlarni olib borish va talabnomani ko'rib chiqishga o'z manfaatlarini himoya qilish uchun talabnoma beruvchi ishonchnoma berish orqali vakil tayinlash mumkin.

Patent idorasi oldida vakillik qilish uchun O'zbekiston Respublikasida rasmiylashtiriladigan ishonchnoma oddiy yozma ravishda to'ziladi.

Agar ishonchnoma o'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda berilgan bo'lsa, unga o'zbek yoki rus tilidagi tarjimai ilova qilinadi.

Agar talabnoma bir qancha shaxslar nomiga berilgan bo'lsa, u holda ishlar ularning istalgani tomonidan olib borilishi mumkin.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish. Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma muallif, ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi) tomonidan bevosita yoki ishonchli vakil orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasiga (bundan buyon matnda Patent idorasi deb yuritiladi) beriladi.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish, agar topologiyadan foydalanilgan bo'lsa, undan birinchi marta foydalanilgan sanadan e'tiboran ikki yildan oshmagan muddatda amalga oshirilishi mumkin.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnoma bitta topologiyaga taalluqli bo'lishi kerak.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomani rasmiylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarga doir talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomaning davlat ekspertizasi. Topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomaning davlat ekspertizasi talabnoma berilgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida

Patent idorasi tomonidan o'tkaziladi. Davlat ekspertizasi natijalariga binoan topologiyani ro'yxatga olish yoki uni ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror chiqarilib, bu haqda talabnoma beruvchi xabardor qilinadi.

Talabnoma beruvchi Patent idorasining so'roviga binoan yoki o'z tashabbusi bilan topologiyani ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar talabnoma materiallarini to'ldirish, aniqlashtirish va to'zatishtirishga haqlidir.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomaning davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Topologiyani ro'yxatga olish. Davlat ekspertizasining xulosasi asosida Patent idorasi patent boji to'langani to'g'risidagi hujjat olingan sanadan e'tiboran bir oy ichida topologiyani integral mikrosxemalar topologiyalarining davlat reystrida ro'yxatga oladi. Reystrga kiritiladigan ma'lumotlar tarkibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Tayanch iboralar: Intellektual mulk; EHM uchun dasturlar; ma'lumotlar bazasi; ob'ektiv kod; struktura; adaptatsiya dasturlar; referat; integral mikrosxemalar topologiyasi; talabnoma hujjatlari; MO'T; topologiya muallifi; ish beruvchi litsenziya; firma nomi; mualliflik huquqi; talabnomani topshirish; ratsionalizatorlik.

Nazorat uchun savollar:

1. "EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasini huquqiy himoyasi to'g'risida"gi O'z.R. Qonuni mohiyati.
2. EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasini ro'yxatdan o'tkazish talablari.
3. Integral mikrosxemalar topologiyalari tushunchasi va mohiyati.
4. Topologiya mualliflari kimlar bo'lib hisoblanadi.?
5. Seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofaza qilish asoslari.
6. EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalarining talabnoma hujjatlarini rasmiylashtirish.

Talabnoma mustaqil ish topshiriqlar:

1. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari tushunchasi, mohiyati haqida bilimga ega bo'lish.
2. Integral mikrosxemalar topologiyalar, seleksiya ishlari tushunchasi, ularning huquqiy himoyalaniishi to'g'risida etarli ma'lumotlarga ega bo'lish va uni bilishi kerak.
3. EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar topologiyalariga talabnoma tuzish, berish va guvohnoma olish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 5, 6, 7, 8

9-Mavzu. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, ixtirochilikda moliyaviy munosabatlar

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, axborot ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, qonuniy asoslanishi 2. Patent bojlari tushunchasi, bojlari stavkalari. 3. Sanoat mulki va boshqalarning amaliyotda qo'llanilishi
<i>O'quv mashg'ulotining muvaddi:</i> Mualliflik va turdosh huquqlar va ixtirochilikda moliyaviy munosabatlarni tushuntirish	
<i>Pedagogii vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:
<ul style="list-style-type: none"> • Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, huquqiy jihatdan muhofaza etish mohiyati yoritiladi • Patent bojlari tushunchasi davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talabnoma berish, guvohnoma olish tartibi haqida ma'lumot beriladi. • Sanoat huquqiy muhofaza qilish va ularning amaliyotda kullanilishi haqida axborot beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, huquqiy jihatdan muhofaza etish mohiyati biladi. • Patent bojlari tushunchasi davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talabnoma berish, guvohnoma olish tartibi haqida kunikmaga ega buladi. • Sanoat mulki tushunchasi, huquqiy muhofaza qilish tashkiliy tarkibiy qismlarining amaliyotdagi tadbigi bilan tanishadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, xdmkorlikda O'qitish texnikasi,.
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma’ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma’ruza mavzusi va rejasi e’lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog‘lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, huquqiy jihatdan muhofaza etish mohiyati yoritiladi 2.3.Patent bojlari tushunchasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun talabnoma berish, guvohnoma olish tartibi haqida ma’lumot beriladi. 2.4. Sanoat huquqiy muhofaza qilish va ularning amaliyotda qo‘llanilishi haqida axborot beriladi.	2.1.Muammoli savollarga e’tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1ustunini to‘ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar,
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladi-lar. 3.2.Topshiriqlarn

1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, qonuniy asoslanishi

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

asar nusxasi – asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko‘chirmasi;

asarni omma oldida namoyish etish – asarning asl nusxasi yoki nusxasini bevosita yoxud plyonka, diapozitiv, televizion kadr yordamida yoki biron-bir boshqa texnika vositalari orqali ekranda ko‘rsatish, shuningdek audiovizual asarning ayrim kadrlarini ularning ketma-ketligiga rioya etmasdan omma uchun ochiq joyda yoki Ayni bir oila a’zolari bo‘lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo‘lgan joyda ko‘rsatish;

asarni oshkor qilish – muallifning roziligi bilan amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga o‘zlash yoki boshqacha usulda yuborish yo‘li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo‘lishi uchun imkon beradigan harakat;

audiovizual asar – bir-biri bilan bog‘langan (ovoz jo‘rligida yoki ovoz jo‘rligisiz) tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo‘lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko‘rib va eshitib (ovovz jo‘rligida bo‘lganida) idrok etish uchun mo‘ljallangan asar, shu jumladan dastlabki yoki keyingi qayd etish usulidan qat’i nazar kinematografiya asarlari va kinematografiyanikiga o‘xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar hamda boshqa asarlar);

audiovizual asarni tayyorlovchi – shunday asarni tayyorlash tashabbusi va mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

barchaning e’tiboriga tekazish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o‘z tanloviga ko‘ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo‘lgan tarzda barchaning e’tibori uchun yuborish;

barchaning e’tibori uchun yuborish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini efirga o‘zlash, kabel orqali yuborish, shuningdek ularni yuborish joyida vakillari bo‘lmagan omma eshitib va (yoki) ko‘rib idrok etishi uchun, shu tarzda eshitish yoki ko‘rish mumkin bo‘lgan asarlar yoki turdosh huquqlar ob’ektlari amalda idrok etilishi-etilmasligidan qat’i nazar, har qanday boshqacha usullarda etkazish (nusxalarni tarqatish bundan mustasno);

yozuv – ovozlari va (yoki) tasvirlarni qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki yuborish imkonini beradigan biron-bir moddiy shaklda texnika vositalari yordamida qayd etish;

ijro – asarni (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini), fonogrammani, ijroni, sahna asarini o‘yin, ifodali o‘qish, kuylash, raqsga tushish orqali jonli ijro yoki texnika vositalari yordamida taqdim etish;

ijrochi – aktyor, xonanda, sozanda, raqqos yoki rol o‘ynaydigan, kuylaydigan, o‘qiydigan, ifodali o‘qiydigan, raqsga tushadigan, talqin etadigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san’at asarini (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini) o‘zgacha tarzda ijro etadigan boshqa jismoniy shaxs, shuningdek spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirjyor;

kabel orqali yuborish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini kabel, sim yoki shunga o‘xshash vositalar yordamida barchaning e’tibori uchun yuborish;

manzarali-amaliy san’at asari – asl nusxalari yoki nusxalari amalda foydalanish ashyolari sifatida qo‘llaniladigan yoki ana shunday ashyolarga

ko‘chirilgan ikki o‘lchovli yoki uch o‘lchovli san’at asari, shu jumladan badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat usulida tayyorlangan asar;

ma’lumotlar bazasi – ob’ektiv shaklda ifodalangan va elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) yordamida topish hamda ishlov berish mumkin bo‘ladigan tarzda bir tizimga solingan ma’lumotlar (maqolalar, hisob-kitoblar va shu kabilar) majmui;

muallif – ijodiy mehanti bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

omma oldida ijro etish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini ijro etish yoki ma’lum qilishning har qanday boshqa shakli vositasida, bevosita yoki texnika vositalari yordamida, omma uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a’zolari bo‘lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo‘lgan joyda eshitib va (yoki) ko‘rib idrok etish uchun etkazish;

prokatga berish – asarlarning asl nusxasini yoki nusxalarini yoxud turdosh huquqlar ob’ektlarini daromad olish maqsadida vaqitnchalik foydalanish uchun berish;

reprografik takrorlash – fotoko‘chirmasini olish yo‘li bilan yoki boshqa texnika vositalari yordamida yozma va boshqa asarlarning asl nusxalarini yoki ularning ko‘chirmalarini bir yoki undan ko‘p nusxada, har qanday o‘lchamda va shaklda faksimal takrorlash, tasviriy san’at asarlari reproduksiyalarini bosmaxona usullaridan foydalangan holda tayyorlash hollari bundan mustasno. Reprografik takrorlash mazkur ko‘chirmalarni raqamli shaklda saqlash yoki ko‘paytirishni o‘z ichiga olmaydi, reprografik takrorlash uchun foydalaniladigan texnika vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq muvaqqat ko‘chirma nusxalar yaratish hollari bundan mustasno;

retranslyasiya – efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi bir tashkilotning ko‘rsatuv yoki eshittirishini efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi boshqa tashkilot tomonidan bir vaqtda efirga o‘zatishtirish yoki kabel orqali yuborish;

takrorlash – asarlarning yoki turdosh huquqlar ob’ektlarining yoxud ulardan bir qismining har qanday usulda va har qanday moddiy shaklda bir yoki undan ko‘p nusxalarini tayyorlash, shu jumladan ikki o‘lchovli asarning bir yoxud undan ko‘p nusxalarini uch o‘lchovda hamda uch o‘lchovli asarning bir yoki undan ko‘p nusxalarini ikki o‘lchovda tayyorlash, EHM va boshqa elektron qurilmalar xotirasiga yozib olish;

fonogramma – biron-bir ijroning, boshqa ovozlarning har qanday mutlaqo ovoqli yozuvi, audiovizual asarga kiritilgan ovoqli yozuv bundan mustasno;

fonogramma nusxasi – har –anday moddiy jismdagi, fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammada qayd etilgan ovozlarning hammasini yoxud bir qismini qamrab olgan fonogramma ko‘chirmasi;

fonogrammani tayyorlovchi – ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovoqli yozuvi uchun tashabbus va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

xalq ijodiyoti asarlari – aniq muallifi bo‘lmagan ertaklar, qo‘shiqlar, raqslar, manzarali-amaliy san’at asarlari hamda badiiy va havaskorlik xalq ijodiyotining boshqa natijalari;

chop etish – asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqan holda ommaning oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun etarlicha miqdorda asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning nusxalarini asar muallifining, ijrochining yoki fonogrammani tayyorlovchining roziligi bilan muomalaga chiqarish;

efir o‘zatisht – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini radio yoki televidenie, shu jumladan sun’iy yo‘ldoshlar (kabel televideniesi bundan mustasno) orqali o‘zatisht vositasida barchaning e’tibori uchun yuborish. Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob’ektlarini sun’iy yo‘ldosh orqali efirga o‘zatisht deganda signallarni erdagi stansiyadan sun’iy yo‘ldoshga qabul qilish va sun’iy yo‘ldoshdan signallarni o‘zatisht tushuniladi, ular vositasida asa ryoki turdosh huquqlar ob’ektlari, ularni omma amalda qabul qilishidan qat’i nazar, barchaning e’tiboriga etkazilishi mumkin;

efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot – efirga o‘zatisht yoki kabel orqali yuborish uchun tashabbus va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan hamda ularni belgilangan tartibda amalga oshiruvchi shaxs;

efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuvi yoki eshittirishi – efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning o‘zi tomonidan, shuningdek uning buyurtmasi bo‘yicha va uning mablag‘lari hisobiga boshqa tashkilot tomonidan yaratilgan ko‘rsatuv yoki eshittirish;

huquq egasi – mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir va kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar ob’ektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Mualliflik huquqini amal qilish sohasi. Ushbu Qonunga muvofiq mualliflik huquqi:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy turish joyiga ega bo‘lgan mualliflarning yoki mualliflik huquqining boshqa dastlabki egalik qiluvchilarining asarlariga;

- mualliflarining fuqaroligi va doimiy turish joyidan qat’i nazar, O‘zbekiston respublikasida birinchi marta chop etilgan asarlarga;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan asarlarga tatbiq etiladi.

Agar asar O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida birinchi marta chop etilgan sanadan so‘ng o‘ttiz kun ichida O‘zbekiston Respublikasi hududida chop etilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida ham birinchi marta chop etilgan deb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq asarga O‘zbekiston Respublikasi hududida muhofaza berilgan taqdirda, asar muallifi mualliflik huquqini olish uchu nasos bo‘lib xizmat qilgan yuridik fakt qaysi davlatning hududida sodir bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davlatning qonuni bilan aniqlanadi.

2. Patent bojlari tushunchasi

Patent bojlari. Sanoat mulki ob’ektlariga huquqiy muhofaza berish bilan bog‘liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni bajarganlik uchun patent bojlari undiriladi. Patent bojlari Patent idorasiga to‘lanadi. Patent bojlarining miqdori va ularni to‘lash muddatlari, ularni to‘lashdan ozod qilish, to‘lov miqdorlarini kamaytirish yoki ularni qaytarib berish uchun asoslar, shuningdek patent bojlaridan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Patent bojlari talabnoma beruvchi, patent egasi va boshqa manfaatdor shaxs tomonidan to‘lanadi. Patentni o‘z kuchida saqlab turganlik uchun patent bojini to‘lash maqsadida qo‘shimcha patent boji to‘langan taqdirda, patent egasiga olti oylik imtiyozli muddat beriladi. Agar patentni o‘z kuchida saqlab turganlik uchun patent boji va qo‘shimcha patent boji imtiyozli muddat mobaynida to‘lanmasa, patentning amal qilishi belgilangan muddatda patent boji to‘lanmagan kundan e’tiboran tugatiladi.

Patent idorasi patent bojlari stavkasi

Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari

Boj kodi	Bojning vazifasi	Stavkalar		Boj to‘langanligi haqidagi hujjatlar taqdim etilish muddatlari
		eng kam oylik ish haqi	xorijiy valyutada (AQSH dollari)	
1	2	3	4	5
1.1. Talabnoma berilganligi uchun to‘lanadigan boj				
1.1.1.	Patent berishga va rasmiy ekspertiza o‘tkazishga talabnoma berish:			Talabnoma berilgan bir vaqtda
	a) – bitta ixtiroga	5	421	Talabnoma berilgan bir vaqtda
	- ixtirolar guruhiga, qo‘shimcha ravishda	2,5	210	

	bittadan ortiq bo'lgan har bir ixtiroga			
	b) – bitta foydali modelga	5	421	
	- foydali modellar guruhiga, qo'shimcha ravishda bittadan ortiq bo'lgan har bir foydali modelga	2,5	210	
	v) – sanoat namunasining bitta variantiga	5	420	
	- variantlarga, qo'shimcha ravishda ikkitadan o'ntagacha bo'lgan har bir variant uchun	2,5	210	
	- variantlarga, qo'shimcha ravishda o'ntadan ortiq bo'lgan har bir variant uchun	5	420	
1.2. Ekspertiza o'tkazilganligi uchun to'lanadigan boj				
1.2.1.	Quyidagilarga nisbatan ekspertiza o'tkazish:			Rasmiy ekspertiza qarori jo'natilgan sanadan boshlab uch oy mobaynida
	- bitta foydali modelga	10	840	
	- foydali modellar guruhiga, bittadan ortiq bo'lgan har bir foydali modelga	10	840	
	- formulaning o'ntadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	1	84	
	- qo'shimcha ravishda formulaning yigirmadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	0,5	42	
1.2.2.	Quyidagilarga nisbatan ilmiy-texnik ekspertiza o'tkazish:			
	a) bitta ixtiroga	15	1260	
	- ixtirolar guruhiga, qo'shimcha ravishda bittadan ortiq bo'lgan har bir ixtiroga	15	1260	
	- qo'shimcha ravishda formulaning o'ntadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	1	84	
	- qo'shimcha ravishda formulaning yigirmatadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	0,5	42	
	b) bitta sanoat namunasiga	15	1260	
	- qo'shimcha ravishda sanoat namunasining bittadan o'ntagacha bo'lgan ortiq bo'lgan har bir varianti uchun	5	420	
	- qo'shimcha ravishda sanoat namunasining o'ntadan ortiq bo'lgan har bir varianti uchun qo'shimcha	10	840	
	v) ixtiro uchun berilgan talabnomada xalqaro qidirish organlarining biri tomonidan tayyorlangan xalqaro qidirish to'g'risida hisobot mavjud bo'lgan taqdirda, Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boj miqdori quyidagilarni tashkil etadi:			
	- bitta ixtiro uchun	12	1000	
	- ixtirolar guruhiga, qo'shimcha ravishda	10	840	

	bittadan ortiq bo'lgan har bir navbatdagi ixtiroga			
	- qo'shimcha ravishda formulaning o'ntadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	1	84	
	- qo'shimcha ravishda formulaning yigirmatadan ortiq bo'lgan har bir bog'liq bandiga	0,5	42	
1.3. Patentlarni ro'yxatdan o'tkazish, e'lon qilish va berish				
1.3.1.	Ixtironi, foydali modelni, sanoat namunasini ro'yxatdan o'tkazish	3	250	Ekspertiza qarori aytilgan sanadan boshlab uch oy mobaynida
1.3.2.	E'lon qilish:			
	a) rasmiy axborotnomada ro'yxatdan o'tkazilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari to'g'risidagi ma'lumotlar	1	84	
	b) ixtiroga, foydali modelga tavsif: - 35 varaqgacha bo'lgan hajmda, shu jumladan formula, chizmalar, referat va boshqa materiallar	3	250	
	- qo'shimcha ravishda 35 varaqdan ortiq bo'lgan har bir navbatdagi varaq uchun	0,1	8,4	
1.3.3.	- patentlar berish	3	250	
1.4. Patentlarning amal qilishini qo'llab-quvvatlaganlik uchun to'lanadigan bojlar				
1.4.1.	Foydali modelga patentni har yili talabnoma topshirilgan sanadan boshlab uning amal qilishining har bir yiliga doir kuchda saqlab turish:	10	840	Birinchi yil uchun ro'yxatdan o'tkazilganligini e'lon qilinganli-gi berilganligi uchun to'langanli-gini tasdiqlovchi hujjatlar bir vaqtda, keyingi-lar uchun – joriy yilning patentni amal qilish mud-dati tamom bo'l-ganga qadar oxirgi yillar mobaynida
	a) 5 yil doriasida	5	420	
	b) 6-8 yil doriasida	5	420	
1.4.2.	Ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab vaqti-vaqti bilan itiroga berilgan patentni kuchda saqlab turish:			Uch yil uchun patent berilganligi uchun to'langanligini tasdiqlovchi hujjat berilgan vaqtda. Keyingi uchun – patentning amal qilish muddati tamom bo'lgunga qadar uch oy mobaynida
	- uch yil uchun	10	840	
	- etti yil uchun	20	1680	
	- o'n bir yil uchun	30	2500	
1.4.3.	Amal qilishining uchinchi yilidan boshlab sanoat namunasiga patentni har yili kuchda saqlab turish:			
	- uch yil uchun	5	420	

	- to'rtinchi-ettinchi yillar uchun	7,5	630	
	- sakkizinchi-o'ninchi yillar uchun	10	840	
	- o'n birinchi-o'n beshinchi yillar uchun (o'zaytirilgan har bir yil uchun)	15	1260	
1.4.4.	Patentning amal qilishi muddati o'tgandan so'ng 6 oylik muddat berganlik uchun qo'shimcha boj	belgilangan boj miqdorining 50 foizi		O'zaytirish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda
1.5. Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalariga bo'lgan huquqlarni berish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish				
1.5.1.	Quyidagilardan iborat bo'lgan litsenziya shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish:			Ariza berish bilan bir vaqtda
	- ixtiro, sanoat namunasiga, foydali modelga bitta patent	10	840	
	- ixtiro, sanoat namunasiga, foydali modelga bir nechta patentlarni, litsenziya shartnomasida ko'rsatilgan har bir patentga qo'shimcha ravishda	5	420	
1.5.2.	Quyidagilarga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish:			
	- ixtiro, sanoat namunasiga, foydali modelga patent	15	1260	
	- ixtiro, sanoat namunasiga, foydali modelga bir nechta patentlarni, huquqni berish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan har bir patent uchun qo'shimcha ravishda	10	840	
1.5.3.	Ixtirodan, foydali modeldan, sanoat namunasidan foydalanishga huquqni istalgan shaxsga berish (ochiq litsenziya) to'g'risidagi ariza haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish	1	84	
1.6. O'zgartirishlar kiritish				
1.6.1.	Talabnoma beruvchining tashab-busiga ko'ra ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga doir talabnomaga, shu jumladan ixtiro, foydali model formula-siga, sanoat namunasining muhim belgilari ro'yxatiga davlat ekspertizasining qarori chiqarilgunga qadar to'zatislar, qo'shimchalar va aniqliklar kiritish	2,5	210	O'zgartirishlandan va materiallar bilan bir vaqtda
1.6.2.	Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi ro'yxatdan o'tkazilgungacha talabnoma beruvchini o'zgartirish	2,5	210	O'zgartirishlar to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda
1.6.3.	Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga talabnomani ajratish, dastlabki talabnomadan ajratilgan har bir talabnoma uchun (birgalik bo'zilgan holda)	10	840	Ajratilgan talabnoma berish bilan bir vaqtda
1.6.4.	Ro'xatdan o'tkazilgan litsenziya	2,5	210	O'zgartirishlandan va

	shartnomasiga va patentni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirishlar kiritish			materiallar bilan bir vaqtda
1.6.5	Ixtiroga talabnomani foydali modelga talabnomaga o'zgartirish	1,5	125	Talabnomani o'zgartirish to'g'risidagi ariza berish bilan bir vaqtda
1.6.6.	Foydali modelga talabnomani ixtiroga talabnomaga o'zgartirish	2,5	210	
1.7. Hujjatlarni berish muddatlarini o'zaytirish va tiklash				
1.7.1.	Ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunalari talabnomalar bo'yicha ekspertiza so'roviga javob berishning qonunda belgilangan muddatini o'zaytirish, o'zaytirilgan har bir oy uchun:			Belgilangan muddatni o'zaytirish to'g'risida iltimosnoma berish bilan bir vaqtda
	- belgilangan muddat tugagan sanadan boshlab 6 oygacha doirasida	1	84	
	- 6 oydan 12 oygacha	5	420	
1.7.2.	Ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga talabnomalar sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasida belgilangan muddatdan kechiqib berilganda konvension ustuvorlikni so'rash muddatini ko'pi bilan 2 oyga o'zaytirish	2,5	210	Ariza berish bilan bir vaqtda
1.7.3.	Quyidagi muddatlar doirasida berilgan iltimosnoma bo'yicha, ixtirochilarga, foydali modellarga, sanoat namunalari talabnomalar yuzasidan ekspertiza so'roviga javob berishning qonunda belgilangan, talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash:			O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma bilan bir vaqtda
	- berilgan muddat tugagan sanadan boshlab 6 oygacha	6	600	
	- 6 oydan 12 oygacha	15	1260	

3. Sanoat mulki va boshqalarning amaliyotda qo'llanilishi

Agar sanoat mulki ob'ektidan o'z hohishicha foydalanish boshqa patent egalarining huquqlarini, shu jumladan boshqa shaxslarning mazkur ob'ektdan foydalanishini taqiqlab qo'yish huquqini bo'zmasa, bunday foydalanish patent egasiga tegishlidir, shu zaylda foydalanish ushbu Qonunga muvofiq patent egasining huquqini bo'zish deb hisoblanmaydigan hollar bundan mustasno. Bir necha patent egasiga qarashli bo'lgan sanoat mulki ob'ektidan foydalanish borasidagi o'zaro munosabatlar ular o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, har bir patent egasi muhofaza qilinayotgan sanoat mulki ob'ektidan o'z hohishicha foydalanishi mumkin, lekin qolgan patent

egalarining rozilgisiz ob'ektga mutlaq litsenziya berishga yoki patentni o'zga shaxsga topshirishga haqli emas. Patent egasi patent bilan tasdiqlangan sanoat mulki ob'ektiga bo'lgan huquqi patentdan o'zganing foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha yoki sanoat mulki ob'ektidan foydalanish huquqini litsenziya shartnomasi bo'yicha har qanday yuridik yoxud jismoniy shaxsga (shaxslarga) topshirishi mumkin. Patentdan o'ganing foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma va litsenziya shartnomasi Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Patent egasi foydalanilayotgan sanoat mulki ob'ektlari patentlanganligini ko'rsatuvchi ogohlantirish tamg'asidan foydalanishi mumkin. Patent egalari patent ro'yxatga olingan sanadan boshlab uch yil mobaynida sanoat mulki ob'ektidan foydalanmasa yoki etarli darajada foydalanmasa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki ob'ektidan foydalanishni hohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs, patent egasi litsenziya shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'ziga majburiy nomutlaq litsenziya berishni so'rab sulga iltimosnoma bilan murojaa qilishi mumkin.

Patent egasi mutlaq huquqining bo'zilishi sifatida e'tirof etilmaydigan harakatlar. Quyidagi hollarda patent egasi mutlaq huquqining bo'zilishi sifatida e'tirof etilmaydi:

- O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan sanoat mulki ob'ektlaridan tarkib topgan qurilmalarni Sanoat mulki muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatning transport vositasida mazkur vosita vaqtincha yoki tasodifan O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda, basharti bu qurilmalardan faqat mazkur vositaning ehtiyojlari uchun foydalaniladigan bo'lsa, qo'llash;

- patent bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki ob'ektlaridan tarkib topgan vositalar ustida ilmiy-tadqiqot yoki tajriba o'tkazish;

- patentlar bilan muhofaza qilinayotgana sanoat mulki ob'ektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, haloqatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlar qo'llash;

- patentlar bilan muhofaza qilinayotgana sanoat mulki ob'ektlaridan tarkib topgan vositalarni, agar bu vositalar fuqarolik muomalasiga qonuniy yo'l bilan kiritilgan bo'lsa, qo'llash;

- patentlar bilan muhofaza qilinayotgana sanoat mulki ob'ektlaridan tarkib topgan vositalarni daromad olmay shaxsiy maqsadlarda qo'llash;

- dorixonalarda shifokor retsepti bo'yicha dorilarni bir marotabalik tayyorlash.

Patent egasi mutlaq huquqining bo'zilishi. Patent bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki ob'ektlaridan ushbu Qonunning 11 va 32-moddalarida

nazarda tutilgan qoidalarga xilof ravishda foydalanayotgan har qanday shaxs patent egasining mutlaq huquqini bo‘zuvchi hisoblanadi.

Patentlangan sanoat mulki ob’ektidan foydalangan holda buyumlarni ruxsatsiz tayyorlash, qo‘llash, iport qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo‘sinda kiritish yoki shu muqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo‘llash yoxud ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulda bevosita tayyorlangan buyumlarni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish patent egasi mutlaq huquqining bo‘zilishi deb e’tirof etiladi. Sanoat mulki ob’etidan patent egasining mutlaq huquqini bo‘zgan holda foydalanayotgan shaxslar patent egasining talabiga ko‘ra:

- patent egasining mutlaq huquqini bo‘zuvchi harakatlarni to‘xtatishlari;
- patent egasiga etkazilgan zararining o‘rnini qonun hujjatlariga muvofiq qoplashlari shart.

Sanoat mulkiga patent berish haqidagi talabnoma va ekspertizadan o‘tkazish patentlash va uning amal qilishi, foydalanishi bo‘yicha bajariladigan ishlar, keyingi ma’ruzalarda uning tarkibiy qismlari bo‘yicha keltirilgan.

Tayanch iboralar: mualliflik huquqi; asar nusxasi; audiovizual asar; yozuv; ijro; ma’lumotlar bazasi; muallif; reprografik takrorlash; retranslyasiya; fonogramma; efir o‘zatish; huquq egasi; patent bojlari; bojlar stavkasi; sanoat namunasi; foydali model; litsenziya; sotib olish, sotish; MPK.

Nazorat uchun savollar:

1. Mualliyalik huquqi nima?
2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni qonun asosida tushuntirib bering
3. Patent bojlari haqida tushunchalar.
4. Ixtirolar, foydalimodellar, sanoat namunalarining patent bojlari.
5. Patentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, e’lon qilish va berish uchun to‘laganadigan patent bojlari.
6. Boj stavkalarining ahamiyati nimada?
7. Sanoat mulki to‘g‘risida tushuncha bering.
8. Sanoat mulki amaliyotda qanday qo‘llaniladi?

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, qonuniy asoslanishi bo‘yicha o‘rganish va etarli ma’lumotlarga ega bo‘lish.
2. Patent bojlari tushunchasi, bojlari stavkalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish.
3. Sanoat mulki va boshqalarning amaliyotda qo‘llanilishi to‘g‘risida chuqur bilim olish va uni o‘rganish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 5, 6, 7, 8

4-bob.Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlaya

10-mavzu.Standartlashtirish va sertifikatlaya O'zbekistonda tashkillashtirilishi

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, axborot ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Standartlashtirish va sertifikatlaya tashkil etilishining mazmuni, mohiyati 2.Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlaya davlat markazining tashkil etilishi 3.Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlaya bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari va ularning ahamiyati 4.Standartlashtirish bo'yicha atamalar va ularning ta'rifi 5.O'zbekiston Respublikasining standartlaya davlat tizimi, sohalari va milliy organlari, standartlaya xizmati
<i>O'quv mashg'ulotining muvaddi:</i> Standartlaya va sertifikatlaya ning O'zbekistonda tashkillashtirilishi haqida tushunchalar berish	
<i>Pedagogii vazifalar:</i> 1.Standartlaya va sertifikatlaya tashkil etilishining mazmuni, mohiyati va standartlaya mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasining tarkibiy qismi ekanligi ochib beriladi. 2.Standartlaya, metrologiya va sertifikatlaya davlat markazining tashkil etilishi haqida ma'lumot beriladi 3.Standartlaya, metrologiya va sertifikatlaya bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari va ularning ahamiyati tushuntirib beriladi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1.Standartlaya va sertifikatlaya tashkil etilishining mohiyati va ularning mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasining tarkibiy qismi ekanligi tushuniladi. 2.SHu buyicha davlat markazining tashkil etilishi va uning vazifalari haqida ma'lumotga ega buladilar. 3.Standartlaya, metrologiya va sertifikatlaya bo'yicha qonunlarning tarkibi va mazmuni bilan tanishadilar. 4.Mavzu buyicha atamalar va ularning ta'rifi bilan tanishadi.

4.Standartlashtirish bo'yicha atamalar va ularning ta'rifi keltiriladi.	5.O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi, sohalari, milliy organlari, standartlashtirish xizmati bilan tanishib ularga kuyilgan vazifalar bilib olishadi.
5.O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi, sohalari va milliy organlari, standartlashtirish xizmati bilan tanishtiriladi.	
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, xdmkorlikda O'qitish texnikasi,.
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Standartlashtirish va sertifikatlashtirishning mazmuni, mohiyati va standartlashtirish mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasining tarkibiy qismi ekanligi ochib beradi. 2.3.Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlat markazining tashkil etilishi haqida ma'lumot beradi 2.4.Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari va ularning ahamiyati tushuntirib beradi	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.

	2.5. Standartlashtirish bo'yicha atamalar va ta'rif keltiradi. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi, sohalari va milliy organlari, standartlashtirish xizmati bilan tanishtiradi	2.5. Eshitadilar, yozadilar
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2. Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1. Eshitadilar, savollarini beradi. yozib oladilar. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Standartlashtirish va sertifikatlashtirishning mazmuni, mohiyati

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitidagi asosiy vazifalaridan biri, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, uning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarini to'laroq qondirish hisoblanadi. SHuning uchun ham ushbu muammoni hal etishda standartlashtirish muhim rol o'ynaydi. CHunki, mahsulot sifatini, asosan ularni standartlashtirish orqali ta'minlanadi. Mahsulot sifatini ta'minlashga esa, uning sifat ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish orqali erishiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda sifat ichki va tashqi bozorga chiqariladigan mahsulot hajmini ko'paytirish garovi va foyda olishning asosiy manbai hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatda sifatli mahsulot qancha ko'p ishlab chiqarilsa, shuncha sifatsiz mahsulotlar miqdorining kamayishiga, uning hisobiga xom ashyo va yarimfabrikatlarning tejalishiga, standart va boshqa me'yoriy hujjatlarning talablariga rioya qilish hisobiga tayyor mahsulot realizatsiyasining oshishiga olib keladi.

Hozirgi kunda Respublikamiz birgina Mustaqil Davlatlar Hamdustligi (MDH) davlatlari bilangina emas, balki dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari bilan ham savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirib kelmokda. Hech kimga sir emas, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida tashqi bozorga chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulot sifati hal qiluvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham sifatli mahsulot davlatlararo savdo-sotiq sohasidagi texnik to'siqlarni bartaraf etishda garov sifatida xizmat qilishi mumkin.

Demak, ichki va tashqi bozor uchun mo'ljallangan mahsulotlar sifatini yaxshilash o'ta muhim zarurlardan biri bo'lib hisoblanar ekan, chunki mahsulot sifati iqtisodiy islohotlarni yanada chukurlashtirish va davlat siyosatini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mahsulotni ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun uning faqat sifatinigina yaxshilab qolmasdan, balki korxonalar (fermer xo'jaliklari, firmalar va boshqalar) va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ham ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar sog'ligi, ularning mol-mulki hamda atrof-muhitga zararsizligini ta'minlashni talab etadi.

Ma'lumki, mahsulot sifati uning asosiy ko'rsatkichlari orqali harakterlanadi. SHuning uchun ham mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar va me'yoriy hujjatlarga kiritiladigan sifat ko'rsatkichlari ilg'or fan va texnika, texnologiya va xalqaro tajribalarning talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. Undan tashqari, mahsulotning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari ishlab chiqaruvchilar, nazorat qilish, sog'liqni saqlash na tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Hech kimga sir emas, ishlab chiqarilayotgan mahsulot qancha sifatli bo'lsa, u shuncha jahon bozorida o'z o'rnini topadi va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham tashqi bozorga chiqariladigan mahsulotning hajmi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi.

SHunday ekan, mahsulot sifatini ta'minlashda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. 2ta *Standartlashtirish* mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi. YAngi mahsulot ishlab chiqarish, ilg'or texnologiyalar, vositalar va nazorat usullarini yaratish, mahsulotni tashish va saqlash, standartlar va boshqa me'yoriy texnik hujjatlar (MTH) yaratish hamda ularga qat'iy rioya qilish sharoitidagina mumkin.

Hozirgi kunda inson faoliyatini standartlashtirishsiz tasavvur etish qiyin, chunki inson o'zining faoliyat doirasida doimo standartlashtirish bilan o'zviy bog'langan.

Standartlashtirishning mahsulot sifatini ta'minlashdagi ahamiyati birgina sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini muvofiqlashtiribgina qolmasdan, balki tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom ashyo va qo'shimcha materiallar miqdorini, xom ashyo va mahsulotlarni saqlash harorati, nisbiy namligi, muddati hamda texnologik jarayonlarning paramertlarini miqdoriy jihatdan me'yorlashtirishdan ham iborat. Undan tashqari ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni o'tkazish, asbob-uskunlardan foydalanish usullari va xom ashyo

hamda tayyor mahsulotlarning ayrim sifat ko'rsatkichlariga yozma talablar qo'yadi.

Standartlashtirish nazariy, amaliy, tabiiy va aniq fanlar (matematika, fizika, kimyo) asosida rivoj topadi va boshqa fanlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Standartlashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vazifasini bajaradi, chunki uning qat'iy texnik va texnologik talablari, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchilarni barcha turdagi mahsulotlarning eng yaxshi namunalarini tayyorlashga undaydi. SHuning bilan birgalikda standartlarga rioya qilish buyum hayotiy davrining barcha bosqichlaridagi o'tishini engillashtiradi. Bu hol esa o'z navbatida, butun ishlab chiqarish maromini ta'minlaydi va natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Texnikaning rivoji mashina va asbob-uskunalarining o'zaro bog'langan tizimlarini, xom ashyo va materiallarning keng doiradagi nomenklaturasini qo'llagan holda, ularning ishlatish rejaları talabchanligini yanada kuchaytirishi bilan chambarchas bog'liq. Bu erda, albatta birlamchi xom ashyo va materiallar hamda butlovchi buyumlar sifatiga bo'lgan talablar yanada kuchayadi: ilmiy izlanishlar, loyihalashtirish, yaratish va buyumni ishlatish davrining barcha bosqichlarida mahsulot sifati va texnik darajasini boshqarish tizimida eng muhim zveno sifatida standartlashtirishning roli ortadi.

Endi bir oz bo'lsada standartlashtirishning rivojlanish tarixiga e'tibor qaratamiz.

Standartlashtirish elementlari - bu termin hali ma'lum bo'lmagan paytdan paydo bo'la boshlagan. Masalan, bizning eramizdan oldin 111-ming yillikda Egipt piramidasi - Xeops qat'iy ravishda ma'lum o'lchamlarda ishlov berilayogan toshdan yasalgan. YOki bo'lmasa, aniq o'lchamdagi 410x200x130 mmli g'isht ishlatish bilan Egiptda faraonlar qurilgan; qadimgi Rimda suv g'ildiragi va katapult (harbiy tosh otish mashinasi) qurishda proporsional sonlar usuli qo'llanilgan; Rimda shahar suv quvurini qurishda ma'lum diametrdagi quvurlardan foydalanilgan; Egipt askarlari bir xil «standart» yoy va o'qlar bilan ta'minlangan; IX-X asrlarda Tojikiston va O'zbekistonda qurilish uchun bir namunadagi g'ishtlardan foydalanilgap; Amir Temur lashkarlari ishlatgan nayza va kamonlari, Ivan Grozniy qo'shinlari otgan to'p standart o'lchamda bo'lgan. SHunday qilib, asta-sekinlik bilan standartlashtirish tarixi rivojlana borgan.

Standartlashtirish mashinalar ishlab chiqarishni takomillashtirishda yirik partiyadagi buyumlar ishlab chiqarishga undovchi radikal vosita sifatida paydo bo'ldi. Masalan, 1841 yildan Angliyada Djon Vitvort tomonidan yaratilgan Sint rezbalarining yagona tizimi qo'llanila boshlangan. Rossiyaliklar birinchi bor

standartlashtirish XVI-asrning o'rtalaridan boshlab pushkalar uchun snaryadlar tayyorlashda qo'llanilgan. Keyinchalik XIX asrdan boshlab temir yo'l qurilishida standartlashtirish yanada rivojlandi. Natijada temir yo'l g'ildiraklarining kengligi va diametri, vagonlar rangi, birlashtiruvchi vositalar va boshqa elementlar standartlashtirildi.

Sobiq ittifoqda standartlashtirishga 18-19 yildan boshlab mustahkam asos solindi.

Mahsulot sifatini ta'minlashda standartlashtirish bilan bir qatorda metrologiyaning ham ahamiyati katta. Chunki, u xom ashyo va materiallar va tayyor mahsulot sifat ko'rsatkichlari, ularni saqlash va texnologik jarayonlar parametrlarining hamda boshqa me'yoriy ko'rsatkichlarini standart va texnik shartlarda belgilangan talablarga mos kelishini aniqlab beradi. Shunday ekan, standartlashtirishda mahsulot sifatiga ma'lum me'yorlar va talablar ko'yilsa, metrologiya ularning standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlar talabiga mosligini aniqlaydi.

Mahsulot sifatini ta'minlashdagi yana bir omillardan biri *sertifikatsiyalashtirish hisoblanadi*, chunki sertifikatlashtirish mahsulotning iste'molchi va ishlab chiqaruvchi sog'ligi hamda atrof muhit uchun xavfsizligini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni standart va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlaydi va nazorat qiladi.

Demak, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish o'zaro bir-biri bilan o'zviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifalari bir maqsadga, ya'ni ichki va tashqi bozor raqobatida qatnasha oladigan sifatli va inson hayoti hamda atrof-muhit uchun bezarar mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashdan iborat.

2. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlat markazining tashkil etilishi

Sobiq ittifoqning parchalanishidan so'ng o'z mustaqilligiga erishgan respublikamiz oldida davlatlararo iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, milliy mahsulot sifatini bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga etkazish, uning inson hayoti va sog'ligi hamda atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlash muammolari paydo bo'ldi. Bu muammolarni echish uchun mamlakatimizda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiradigan va ushbu masalalar bo'yicha kerakli ishlarni tashkil qiladigan davlat idorasini tashkil qilish hamda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish va mahsulot sifati ustidan davlat nazoratini olib borishning huquqiy asoslarini yaratish vazifalari turar edi.

Respublikamiz oldida turgan ushbu muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonida 1992 yilning 2 martida «O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish

to'g'risida»gi 93-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda respublikamizda bu yo'nalish bo'yicha bajariladigan ishlar Mustaqil hamdo'stlik davlatlari (MDH) bilan o'zaro xo'jalik, savdo, ilmiy-texnik va boshqa munosabatlarni saqlash, dunyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik qilishda texnik to'siqlarni yo'qotish maqsadida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.

Sobiq SSSR «Davlat standarti»ning respublika hududida joylashgan tashkilotlari va korxonalarini birlashtirish asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida O'zbek standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston davlat markazi (O'zdavstandart) tashkil etildi (hozirgi kunda «O'zstandart» agentligi deb ataladi). O'zdavstandart sobiq SSSR «Davlat standarti»ning vorisi deb elon qilindi. SHuning bilan bir qatorda u sobiq SSSR davlat standarti malaka oshirish institutining respublikadagi filiali O'zbekiston standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalaridagi tadqiqot va mutaxassislar tayyorlash institutiga (O'zTMTI) aylantirildi. Hozirgi kunda O'zTMTI O'zdavstandartning ilmiy bazasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 martdagi «O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish to'g'risidagi 93-sonli qaroriga asosan O'zdavstandart tarkibiga quyidagi korxonalar va tashkilotlar kiritilgan:

- O'zTMTI;
- O'zbekiston «Etalon» ishlab chiqarish birlashmasi;
- Toshkent «Standartlar» 2-son do'koni;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy markazlarga (HSMSM) aylantirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar standartlar va o'lchash texnikalari ustidan davlat nazorati laboratoriyalari.

Hozirgi kunda HSMSMlar Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrida va respublika viloyatlarining markazlarida hamda O'zdavstandart idoralari yirik ishlab chiqarish markazlariga yaqinlashtirish maqsadida Olmaliq, Bekobod, Qo'qon, Toshkent va CHirchiq shaharlarida tashkil etilgan. Bu erdan ko'rinib turibdiki, respublikamizda yirik ishlab chiqarish markazlarining ko'payishi HSMSMlar sonini yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan O'zdavstandart tarkibiga kiradigan barcha tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida», «Standartlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida», «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida», «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida», «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 93-sonli qarori bilan 1992 yilning 2 martida tasdiqlangan «O'zbek standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash markazi to'g'risida Nizom»ga va O'zdavstandart tomonidan

tasdiqlangan korxonalar va tashkilotlar nizomlariga asosan faoliyat ko'rsatadi. SHuning bilan birgalikda O'z davstandart tashkilotlariga vazirliklar, muassasalar, shu jumladan o'quv yurtlari, korxonalar va ularning birlashmalariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish vazifasi ham yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatib o'tilgan qaroriga asosan korxonalar standartlarini ishlab chiqishga huquq beradigan me'yoriy hujjatlarda qo'llash uchun majburiy va tavsiya etiladigan asosiy talablar, standartlashtirish organlari va xizmatlarining vazifalari belgilangan hamda O'zbekiston davlat standartlashtirish tizimining asosiy tamoyillari tasdiqlangan.

Respublikamiz mustakillikka zrishtigandan so'ng mamlakatda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlarni huquqiy ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikaning «Standartlashtirish to'g'risida» (28.12.1993 y.), «Metrologiya to'g'risida» (28.12.1993 y.), «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» (28.12.1993 y.) va «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi (30.08.1997 y.) qonunlari qabul qilindi.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati hozirgi zamon talablari darajasiga etkazish bo'yicha qatnashadigan tashkiliy ishlarni o'z vaqtida bajarilishi, mamlakatimizda O'zbekiston Davlat standartlashtirish milliy tizimi (O'zDST), O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash tizimi va O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimini shakllanishiga imkon yaratib berdi.

3. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari va ularning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida» va «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunlarining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ishlab chiqarish canoat korxonalarida, xususi ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari snfatini bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga etkazish hamda iste'molchilar hayoti sog'ligi, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan va u 1994 yilning 28 fevral oyidan boshlab kuchga kiritildi. Ushbu qonun 4 bo'lim va 12 moddani o'z ichiga oladi.

1- bo'lim. Umumiy qoidalar.

2- bo'lim. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar.

3- bo'lim. Standartlar ustidan davlat nazorati.

4- bo'lim. Davlat standartlashtirish va nazorati bo'yicha ishlarni moliyaviy ta'minoti. Standartlarni qo'llashni rag'batlantirish.

Qonunning «Umumiy qoidalar» bo'limida standartlashtirishning asosiy maqsadi, standartlashtirishning davlat tizimi, standartlashtirish bo'yicha ishlarni bajarish tartibi,

standartlashtirish bo'yicha qonunlar va xalqaro shartnomalar hamda bitimlar (1-5 moddalar) to'g'risidagi masalalar ko'rsatilgan.

Qonunning «Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar» bo'limi (6-7 moddalar) O'zbekiston Respublikasi hududida ko'llaniladigan me'yoriy hujjatlarning toifalari, ularga qo'yiladigan asosiy talablar va standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni sertifikatlashtirishda qo'llanishiga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Qonunning «Standartlar ustidan davlat nazorati» bo'limida (8-10 moddalar) davlag nazorati organlari (idoralari) va ob'ektlari, davlat inspektorlarining huquqlari va ma'suliyatlari, standartlashtirish to'g'risidagi qonunlarni bo'zganligi uchun javobgarliklari to'g'risidagi ma'lumot ko'rsatilgan.

Qonunning «Davlat standartlashtirish va nazorati bo'yicha ishlarni moliyaviy ta'minoti standartlarni qo'llashni rag'batlantirish» bo'limi davlat standartlashtirish va nazorati bo'yicha ishlarni moliyaviy ta'minoti va standartlarni qo'llashni rag'batlantirish masalalarini o'z ichiga olgan (11-12 moddalar).

O'zbekiston Rsspublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni ham 1993 yilning 28 dekabrda qabul qilingan va 1994 yilning 28 fevralidan boshlab kuchga kirgan. Bu qonun 5 bo'lim va 22 moddadan iborat bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-bo'lim. Umumiy qoidalar

2-bo'lim. Fizikaviy kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo'llash.

3-bo'lim. O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari.

4-bo'lim. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati.

5-bo'lim. Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash.

Qonunning «Umumiy qoidalar» bo'limida metrologiyaning asosiy tushunchalari, metrologiya to'g'risida qonunlar majmui, xalqaro shartnomalar va bitimlar, metrologiya bo'yicha faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishi ko'rsatilgan (1-4 moddalar).

Qonunning «Fizikaviy kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo'llash» bo'limi (5-8 moddalar) fizik kattaliklar birliklari, fizik kattaliklar birliklarining etolonlari, o'lchash vositalari va o'lchashni bajarish uslublarini o'z ichiga olgan.

Ushbu qonunning «O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari» bo'limida O'zbekiston Pecpublikasi metrologik xizmatining tuzilishi, davlat metrologik xizmatlarining tarkibi va yuridik shaxslar metrologik xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan (9-11 moddalar).

Qonunning «Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati» bo'limida (12-20 moddalar) metrologik tekshiruvi va nazorat o'tkazish tartibi, ularning ob'ektlari, davlat metrologik tekshiruvi va nazoratning tadbiq sohasi, davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining turlari, o'lchash vositalarining tiplarini tasdiqlash, ularni qiyoslash va kalibrlash tartiblari ko'rsatilgan.

Qonunning «Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash» bo'limi (21-22 moddalar) metrologik ishlarni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash va metrologik ishlar va xizmatlar uchun to'lov turlari haqidagi masalalarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni 1993 yilning 28 dekabrda qabul qilingan va 1994 yilning 28-dekabrda kuchga kirgan.

Ushbu qonun 4 bob va 23 moddadan iborat bo'lib, respublikada mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari hamda sertifikatlashtirishda qatnashuvchi tomonlarning huquqlari, bo'richlari va mas'uliyatlarini belgilaydi.

Qonun quyidagi boblardan tashkil topgan:

1-bob. Asosiy qoidalar.

2-bob. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar.

3-bob. Mahsulotni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

4-bob. Nizolarni ko'rib chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarni bo'zganligi uchun javobgarlik.

Qonunning «Asosiy qoidalar» bobi (1-6 moddalar) asosiy tushunchalar: sertifikatlashtirish milliy tizimi», «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish», «Muvofiqlik sertifikati», «Muvofiqlik belgisi», «bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi va sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish», sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar va bitimlar, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Qonunning «Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar» bobida muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi, sertifikatlashtirish faoliyatiga litsenziya berish, sertifikatlashtirish to'g'risida axborot haqida ma'lumotlar berilgan (7-9 moddalar).

Qonunning «Mahsulotni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish» bobi majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish, majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari, majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar, tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majbo'riyatlarini, chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish, majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi

sub'ektlar va ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari haqidagi masalalarni o'z ichiga olgan (10-19 moddalar).

Qonunning «Nizolarni qarab chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini bo'zganligi uchun javobgarlik» bobida (20-23 moddalar) mazkur Qonunni qo'llash bilan bog'liq nizolarni qarab chiqish, shikoyatlarni ko'rib chiqish, sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi, tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini bo'zganligi uchun javobgarligi haqida ma'lumotlar berilgan.

4. Standartlashtirish bo'yicha atamalar va ularning ta'rifi

Standartlashtirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish uchun standartlashtirish sohasidagi atamalar va tushunchalar, ma'lum bir tushunchalarning nomini bildiradigan so'z yoki so'z birikmalarining mazmunini yaxshiroq bilib olishni taqazo etadi. SHuning uchun ham atamalarning mazmunini tushunish orqali har qanday ilmiy-texnik va boshqa ma'lumotlarni o'zlashtirib olish mumkin bo'ladi. Standartlashtirish sohasida ko'plab standartlashtirilgan atamalar mavjud, ular ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi, sotuvchi va iste'molchilarning o'zaro tushunadigan mazmunida bo'lib, ilmiy-texnika rivojiga mos keladi va xalqaro talab me'yorlari bilan muvofiqdastirilgan. Ushbu atamalar Respublikamiz milliy standartlari, ishlab chiqaruvchi (ta'minlovchi) va iste'molchi o'rtasida to'ziladigan shartnoma, dalolatnoma, qaydnomalar va boshqa rasmiy hujjatlarning barcha turlarida, ilmiy-texnik, o'quv va ma'lumotnoma adabiyotlarida qo'llaniladi. Bu atamalar quyidagilardan iborat:

- standartlashtirish;
- xalqaro standartlashtirish;
- mintaqaviy standartlashtirish;
- milliy standartlashtirish;
- standartlashtirish ob'ekti;
- standartlashtirish sohasi;
- standart;
- xalqaro standart;
- mintaqaviy standart;
- uyg'unlashtirilgan standart;
- birxillashtirilgan standart;
- aynan o'xshash standart;
- standartlar majmui;
- me'yoriy hujjat;
- birxillashtirish;

- moslashuvchanlik;
- o‘zaro almashuvchanlik;
- mahsulotni himoya qilish;
- bir turdagi mahsulotlar rpyphi;
- xavfsizlik;
- atrof-muhitni muhofaza qilish.

Endi ushbu atamalarga qisqacha bo‘lsada ta’rif berib o‘tamiz.

Standartlashtirish - bu ma’lum sohada aniq va ma’lum murakkab masalalarga nisbatan, hamma uchun umumiy, ko‘p martalab foydalanish uchun o‘rnatilgan tartiblar yordamida tartiblashtirishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat. Standartlashtirish atamasi milliy, mintaqaviy va xalqaro standartlashtirish tushunchalari bilan o‘zviy bog‘liq.

Milliy standartlashtirish - bu muayyan bir mamlakat (misol uchun O‘zbekiston Respublikasi yoki sanoati rivojlangan ma’lum bir davlat) doirasida o‘tkaziladigan standartlashtirish.

Xalqaro standartlashtirish - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan standartlashtirish.

Standartlashtirish jarayonida standartlashtirish ob’ektining sifati va inson hayoti hamda atrof-muhit uchun xavfsizligini ta’minlaydigan me’yorlar, qoidalar va talablar belgilanadi. Odatda standartlashtirish ob’ekti sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat va boshqalar) tushuniladi. Ob’ektlarga materiallar, tarkibiy qismlar, asbob-uskunalar, tizimlar, ish olib borish tartibi yoki faoliyati va boshqalar kiradi. Standartlashtirish har qanday ob’ektning muayyan xususiyatlari bilan cheklanishi mumkin. Masalan, poyabzallarga nisbatan yondashiladigan bo‘lsa, uning katta-kichikligi (razmeri) va pishiq-puxtaligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish faoliyatida «Standartlashtirish sohasi» degan ibora ham ko‘p ishlatiladi. *Standartlashtirish sohasi* deb, o‘zaro bog‘langan standartlashtirish ob’ektlarining majmuiga aytiladi.

Standartlashtirish natijasida faoliyat turlari yoki ularning natijalariga tegishli qoidalar yoki tavsiflar belgilanadi. Bularni o‘z ichiga olgan hujjat *me’yoriy jujjat* deb aytiladi. *Hujjat* – bu ma’lumotlar yozilgan manbadir.

Me’yoriy hujjat atamasi «Standart», «Texnik shart», «Rahbariy hujjat» «Yo‘riqnom», «Qo‘llanma» va boshqa tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Standart ingliz so‘zidan (standart) olingan bo‘lib, *me’yor*, *namuna*, *etalon* degan ma’noni bildiradi. Standart - bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi (konsensus) asosida ishlab chiqarilgan, ma’lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo‘naltirilgan hamda faoliyatning har xil va turlariga yoki

natijalariga tegishli bo'lgan umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan hamda tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat.

Standartlar fan, texnika hamda ilg'or tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslanadi va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga qaratilgan.

Standartlar darajasiga ko'ra xalqaro, mintaqaviy va milliy bo'ladi.

Xalqaro standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Mintaqaviy standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Milliy standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Standartlar uyg'unlashtirilgan, birxillashtirilgan va aynan o'xshash standartlarga bo'linadi. *Uyg'unlashtirilgan standart* deb, mahsulot, jarayon va xizmatlarning o'zaro almashinuvchanligi va taqdim etilgan axborot yoki sinov natijalarini o'zaro tan olishni ta'minlaydigan standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan turli idoralar bilan birgalikda qabul qilingan va bir xil ob'ektlarga tegishli bo'lgan standartlarga aytiladi. Mazmunan o'xshash, ammo taqdim etilish shakli tomonidan boshqacha uyg'unlashtirilgan standartlar *birxillashtirilgan standartlar* deb ataladi. Ham mazmunan, ham shaklan uyg'unlashtirilgan standartlar *aynan o'xshash standartlar deyiladi*.

Standartlar majmui - bu o'zaro bog'langan standartlashtirish ob'ektlariga kelishilgan talablarni belgilovchi va ma'lum ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash uchun umumiy maqsad bilan birlashgan o'zaro bog'langan standartlar to'plami.

Standartlashtirishning maqsadi ko'p qirrali bo'lib, ularga quyidagi atamalar kiradi: mahsulot, jarayon va xizmatlarning birxilligi, moslashuvchanligi, almashuvchanligi, odam organizmi va atrof-muhit uchun xavfsizligi, mahsulotni himoya qilish va boshqalar.

Birxillashtirish - (unifikatsiyalashtirish) deganda, muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlar soni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlash tushuniladi.

Moslashuvchanlik - bu mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning o'zaro nomaqbul ta'sir ko'rsatmaydigan holda birgalikda, topshiriqdagi sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun foydalanishga yaroqliligidir.

O'zaro almashuvchanlik deb, bir xil talablarni bajarish maqsadida bir xil buyum jarayon va xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir xil buyum, jarayon va xizmatning yaroqliliga aytiladi.

Mahsulotlarni himoya qilish deganda, mahsulotdan foydalanish, transportda tashish yoki saqlash paytida uni iqlim va boshqa noqulay sharoitlar ta'siridan saqlash tushuniladi.

Xavfsizlik - bu zarar etkazish mumkin bo'lgan nojo'ya xavf-xatarning yo'qligidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish deb, atrof-muhit, mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga aytiladi.

Amaldagi standartlarning talablariga rioya qilish va ular asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar, jarayon va xizmatlar ustidan olib boriladigan nazorat *davlat nazorati* deyiladi. Davlat nazorati – bu korxonalar, mansabdor shaxslar va fuqarolarni standartlarning majburiy talablari hamda mahsulotlar, jarayonlar va xizmat sifati, shuningdek sertifikatlashtirilgan mahsulotga nisbatan shartlarga rioya etishni nazorat qilish bo'yicha vakolatga ega bo'lgan davlat idorasining faoliyatidir.

5. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi, sohalari va milliy organlari, standartlashtirish xizmati

Hozirgi kunda standartlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan birorta faoliyatni topish qiyin. Chunki, har qanday soha (fan, texnika, savdo, sanoat va boshqalar) standartlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos me'yoriy-texnik hujjatlar asosida o'z faoliyatini yurgizadi. Standartlashtirish mahsulot sifatini yaxshilash, tabiiy boyliklarni tejash, boshqarish usullarini takomillashtirish, aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakat iqtisodiyotini yanada mustaxkamlash, savdo-sotiq, ishlarni yaxshilash, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar va do'stlikni mustaxkamlash uchun xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir sharoitda O'z davstandart respublikamizda standartlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, metrologiya sohasida ilmiy-texnik progress talablariga javob beradigan standartlashtirish tizimi rivojining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ma'lumki, mahsulot sifati, mamlakatda standartlashtirish davlat tizimining to'liq shakllanganligi, mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan standartlarda belgilangan me'yorlar, talablar va qoidalarning dunyodagi ilmiy-texnik rivoji darajasiga mos kelishi bilan bog'liq. SHuning uchun ham mahsulotlarga belgilangan me'yoriy hujjatlar xalqaro, mintaqaviy va sanoat bo'yicha eng rivojlangan xorijiy davlatlariing me'yoriy hujjatlari bilan doimo o'zviy bog'liq bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda standartlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar milliy standartlashtirish tizimi talablari asosida amalga oshiriladi. Milliy standartlashtirish davlat tizimi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari va rivojlangan xorijiy davlatlarning standartlashtirish bo‘yicha milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilgan va dunyo ilmiy-texnik rivojiga asoslangan. Standartlashtirish davlat tizimi deb, respublikamizda standartlashtirish (ishlarini tashkillashtirish, standartlashtirish bo‘yicha idora va xizmatlarni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi standartlari va texnik shartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, rasmiylashtirish, ularga o‘zgartirishlar kiritish, bekor qilish va amaldagi standartlar talablari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ustidan nazorat o‘tkazish qonun-qoidalarini ichiga olgan me‘yoriy hujjatlar majmuiga aytiladi. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimining mazmuni va uning me‘yoriy hujjatlari majmui O‘zDst 1.0-1998 (O‘zbekiston respublikasini standartlashtirish Davlat tizimi. Asosiy qoidalar)da to‘liq aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimining standartlarining qoidalari barcha davlat, jamoa, ijarachi, aksionerlik, qo‘shma va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar, konsernlar, uyushmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa birlashmalar tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat boshqaruvining boshqa idoralari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish idoralari, shuningdek tashabbuskorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar tomonidan butun O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish - davlat tizimi quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: standartlashtirish bo‘yicha asosiy atama va tushunchalar, standartlashtirishning maqsadi va vazifalari, tamoyillari, standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish doiralari va standartlashtirish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar nomlari va vazifalari, standartlashtirish obektlari, standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni qo‘llash, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni chop etish, ma‘lumotlar bilan ta‘minlash, me‘yoriy hujjatlar ustidan davlat nazoratini o‘tkazish, davlat standartlashtirish va nazorati bo‘yicha ishlarni mablag‘ bilan ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish bo‘yicha ishlarida xalqapo hamkorlik qilish qoida va tartiblarini.

Hozirgi kunda O‘z davstandartning ma‘lumotnoma - axborot fondi (spravochno-informatsionnyy fond, SIF) 70 mingdan ko‘proq me‘yoriy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Bularga ISO, MEK, EN va boshqa tashkilotlar standartlari ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab Standartlash bo‘yicha xalqaro tashkilot ISOning a‘zosi hisoblanadi. O‘z davstandart bu tashkilotda O‘zbekiston Respublikasi (davlati) nomidan ish olib boradi. Xuddi shuningdek,

O‘zbekiston Respublikasi DEVKO tashkilotining ham doimiy a‘zosi hisoblanadi. DEVKO – bu bozor iqtisodiyotiga o‘tayogan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ISOning dasturi hisoblanadi.

Tayanch iboralar: Fan, texnika, texnologiya va ilg‘or tajriba; metrologiya; sertifikatlashtirish; standartlashtirish; HSMSM, O‘zDST; me‘yoriy hujjatlar; standart majmui; xalqaro standart; milliy standart; mahsulot sifati.

Nazorat uchun savollar:

1. Milliy mahsulotni ichki va tashqi bozordagi raqobabardoshligini ta‘minlashda nimalar talab etiladi?
2. Standartlashtirishda mahsulot sifatini ta‘minlashdagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Standartlashtirish elementlari va rivojlanish tarixi.
4. O‘zbekistonda standartlashtirish ishlari qachon tashkil etilgan?
5. «O‘zdavstandart» agentligi tarkibiga nimalar kiradi?
6. O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha qanday qonunlar qabul qilindi?
7. O‘zbekiston Respublikasida «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonun qachon qabul qilingan va u qanday bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?
8. O‘zbekiston Respublikasida «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonun qaysi bo‘limlardan tashkil topgan?
9. Standartlashtirishda qanday atamalar mavjud?
10. Standart nima?
11. Standartlashtirish davlat tizimi deganda nimani tushunasiz?
12. O‘zbekiston Respublikasi ISOga qachon a‘zo bo‘lgan?

Talabaning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Standartlashtirish va sertifikatlashtirishning mazmuni, mohiyati bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak.
2. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlat markazining tashkil etilishi, qonunlari va ularning ahamiyati to‘g‘risida bilishi va to‘liq o‘rganishi lozim.
3. Standartlashtirish bo‘yicha atamalar va ularning ta‘rifi va O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi, sohalari va milliy organlari, standartlashtirish xizmati haqida chuqur bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 11, 12, 13, 14, 15, 16, 20.

11-mavzu. O‘zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, joriy etish tartibi

1. Ma‘ruzaning ta‘lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual, axborot ma‘ruza
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar 2. Standartlashtirish ob‘ektlari 3. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va boshqalar 4. Standartlarni rasmiylashtirish
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> O‘zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, joriy etish tartibi haqida ma‘lumotlar berish.</p>	
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Standartlashtirish buyicha davlatlararo standartlar, O‘zbekiston davlat standartlari, tarmoq, standartlari ,texnik shartlar ,korxonalar standartlari me‘yoriy hujjatlar haqida tushuncha beriladi. 2. Standartlashtirish ob‘ektlari xisoblanmish fan va texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, madaniyat, sog‘liqni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ishlatiladigan aniq mahsulot, me‘yor, qoida, talab, uslublar, atamalar na boshqalar haqida axborot beriladi. 3. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va boshqalar bilan tanishtiriladi. 4. Standartlarni rasmiylashtirish Qoida va tartibi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davlatlararo standartlar, O‘zbekiston davlat standartlari, tarmoq, standartlari ,texnik shartlar, korxonalar standartlari me‘yoriy hujjatlar haqida tushunchaga ega bulishadi. 2. Xalk xo‘jaligi sohalarda ishlatiladigan aniq mahsulot, me‘yor, qoida, talab, uslublar, atamalar na boshqalar haqida axborot oladilar. 3. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va boshqalar bilan tanishadilar. 4. Standartlarni rasmiylashtirish Qoida va tartibi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma‘ruza, insert, xamkorlikd a, O‘qitish texnikasi,.
O‘qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O‘qitish vositalari	Ma‘ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O‘qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Standartlashtirish bo'yicha davlat-lararo standartlar, O'zbekiston davlat standartlari, tarmoq, standartlari, tex-nik shartlar, korxonalar standartlari me'yo-riy hujjatlar haqida tushuncha beriladi. 2.3.Standartlashtirish ob'ektlari xisoblanmish fan va texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, madaniyat, sog'liqni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ishlatiladigan aniq mahsulot, me'yor, qoida, talab, uslublar, atamalar na boshqalar haqida axborot beriladi. 2.4. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va boshqalar bilan tanishtiriladi. 2.5. Standartlarni rasmiylashtirish Koida va tartibi haqida ma'lumotlar keltiriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: bilaman-bildim» jadvali-ning 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar. 2.5.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2. Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi.yozib ladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining O'zDSt 1.0: 1998 (O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar standartiga asosan standartlashtirish bo'yicha qo'yidagi me'yoriy xujjatlar qo'llaniladi:

- davlatlararo standartlar - GOST;
- O'zbekiston davlat standartlari – O'z DSt;
- tarmoq, standartlari - TS;
- texnik shartlar - TSh;
- korxonalar standartlari - KS.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar guruhiga standartlashtirish bo'yicha rahbariy hujjatlar (PH), turli xildagi me'yorlar va qoidalar, yo'riqnomalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar tasniflagichi kiradi.

Standartlashtirish bo'yicha har bir toifali me'yoriy hujjatning o'ziga xos obekti (talablar, qoidalar, tavsiflar) va qo'llanish doirasi bo'ladi. Davlat standartlariga quyidagi qoida, talab va tavsiflar kiradi:

- mahsulot (xizmat) ning asosiy iste'mol tavsiflari va uning inson hayot sog'ligi, mol-mulki, atrof-muhit uchun va texnik xavfsizligini belgilaydigan talablar;

- mahsulotning texnik ma'lumotlar tomonidan bir-biriga mos kelishi hamda o'zaro almashuvi bo'yicha talablar:

- nazorat uslublari, o'rab-bog'lash (upakovka), markalash, tashish, saqlash, ishlatish, ta'mirlash va utilizatsiya qilishga qo'yiladigan talablar;

- mahsulotni tadqiq qilish (loyihalash), ishlab chiqarish va uni iste'mol qilish, jarayonlarni bajarish va xizmat ko'rsatish, texnika va ma'lumotlar birligini ta'minlash bo'yicha qoidalar va me'yorlar, shu jumladan. texnik hujjatlarni rasmiylashtirish, qo'yish (dopusk) va o'tkazish (posadka), sifatni ta'minlashning umumiy qoidalari, resurslarni saqlash va ulardan okilona foydalanish, atama va tushunchalar, shartli belgilar, metrologik va boshqa tashkiliy-uslubiy hamda umumtexnik qoida va me'yorlar.

Davlat standartlari, milliy standart sifatida qabul qilingan xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo standartlar O'zbekiston Respublikasining barcha hududida va korxonalarida qo'llaniladi.

Tarmoq standartlari (TS) shu tarmoqda ishlab chiqariladigan va qo'llaniladigan mahsulot (xizmat)ga agar shu mahsulotga davlatlararo va davlat standartlari bo'lmasa ishlab chiqiladi. TS lar shu mahsulotni ishlab chiqaradigan tarmoq korxonalarida va uni iste'mol qiladigan boshqa soha iste'molchilari uchun qonun kuchiga ega bo'ladi.

Texnik shartlar (TSh) aniq, mahsulot uchun ishlab chiqiladi: texnik shartlarda belgilanadigan talablar bir turli mahsulotlar guruhiga mo'ljallangan

standartlarda belgilanadigan talablarga muvofiq yoki ulardan yuqori bo'lishi kerak.

Korxonalar standartlari (KSt) faqat shu korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot uchun ishlab chiqiladi va amalga kiritiladi. KSt faqat shu korxonada va uning mahsulotini iste'mol qiladigan iste'molchilar uchun qonun kuchiga ega.

Ma'lumki, har qanday tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga shartli belgilar beriladi. Me'yoriy hujjatlarning shartli belgilari ularning indeksi, ro'yxatga olingan tartib raqami va tasdiqlangan yilidan iborat bo'ladi. Masalan, O'z DSt 1.0:1998, O'z DSt 1.7:1998, GOST 4353-91 va boshqalar. Davlat toifasidagi me'yoriy hujjatlarning indeksi davlat va hujjat nomlarining qisqacha yozilgan shartli belgilaridan, boshqa hujjatlarning indeksi esa faqat me'yoriy hujjatlarning qisqacha nomlaridan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining O'z DSt 1.0:1998 standartning 3-bo'limida ko'rsatilganidek, davlat toifasidagi me'yoriy hujjatlarning indeksleri qo'yidagicha ifodalanadi:

- GOST - davlatlararo standart;
- O'z DSt - O'zbekiston davlat standarti;
- O'z DT - Umumdavlat tasniflagichi;
- O'z RH - O'zbekiston rahbariy hujjati;
- O'zSt DT - O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi;
- O'zSDT - O'zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimi;
- O'zO'DT - O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi;
- O'zAT - O'zbekiston akkreditlash tizimi.

Tarmoq, toifasidagi me'yoriy hujjatlar indeksi:

- TSt - tarmoq standarti;
- TT - tarmoq tasniflagichi;
- RH - rahbariy hujjat;
- T - tavsiyanoma.

Ma'muriy-hududiy toifadagi me'yoriy hujjatlar indeksi:

- MN St - ma'muriy hududiy standart;
- KSt - korxonalar standartlari;
- Tsh - texnik shartlar.

Boshqa hujjatlarning qisqa shartli ifodalanishi:

- KNT - konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi;
- TNT - texnologik hujjatlarning yagona tizimi;
- MST - mahsulotni sinash tizimi;
- NVT - hujjatlarni birxillashtirish tizimi;
- NKAT - nashriyot, kutubxona va axborot ishlari bo'yicha standartlar tizimi;
- TR - texnik puxtaligi;
- MUAT - mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi;
- MSKT - mahsulot sifat ko'rsatkichlari tizimi;

-ST - sifat tizimi;

-TKT - texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash vakodlashning yagona tizimi va boshqalar

SHu narsani qayd etish joizki, hujjat nomi lotin alifbosida faqat davlat tilida yoziladi. Masalan, O'zDSt. Rus tilidagi davlatlararo standartlar avvalgidek saqlanib qolingan, masalan, GOST.

Agar xalqaro va hududiy standartlar asosida O'zbekiston Respublikasi milliy standartlari ishlab chiqilgan bo'lsa, u holda uning shartli belgisini ko'rsatishda O'zDSt qisqacha shartli ifodasidan so'ng xalqaro yoki hududiy standart qabul qilingan raqamlar va indeksidan keyin ikki nuqta qo'yilib, so'ngra milliy davlat standarti sifatida qabul qilingan to'rtta raqamdan iborat yil ko'rsatiladi. Masalan, ISO 9000-2 va ISO 9000-1 halqaro standartlar O'zbekiston milliy standarti sifatida qabul qilingan. O'zbekiston standartlashtirish Davlat tizimining tarkibiga kiradigan standartlar talablariga binoan ularga quyidagi shartli belgilar berilgan;

O'zDSt 9000-2:1999 va O'zDSt ISO 9000-1:1999. Rahbariy hujjatlar ham xuddi shunday belgilanadi.

O'zbekiston davlat standarti sifatida qabul qilingan xalqaro, hududiy va boshqa mamlakatlarning milliy standartlariga shartli belgilar ko'yish tartibi O'zDSt 1.7:1998 (GSS O'z. Poryadok primeneniya mejdunarodnyx, regionalnyx, mejgosudarstvennyx standartov i normativnyx dokumentov drugix gosudarstv) milliy standartida ko'rsatib berilgan.

Standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga beriladigan shartli belgilar ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish paytida amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar standartlashtirish darajasi bo'yicha quyidagicha bo'linadi:

- davlat miqyosidagi me'yoriy hujjatlar;
- tarmoq miqyosidagi me'yoriy hujjatlar;
- korxonalar miqyosidagi me'yoriy hujjatlar.

Davlat miqyosidagi me'yoriy hujjatlar guruhi qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlatlararo standart - GOST;
- O'zbekiston davlat standarti – O'zDSt;
- umumdavlat tasniflagichi - O'zDT;
- me'yorlar va qoidalar;
- O'zbekiston rahbariy hujjatlar – O'zRH;
- tavsiyanomalar – O'zT.

Davlat miqyosidagi me'yoriy hujjatlar O'zstavstandart («O'zstandart» agentligi) - Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitalari va sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Tarmoq miqyosidagi me'yoriy hujjatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

- tarmoq standarti - TSt;
- tarmoq tasniflagichi – TT;
- me'yorlar va qoidalar;
- rahbariy hujjat - RH;
- tavsiyanomalar - T.

Tarmoq miqyosidagi me'yoriy hujjatlar, me'yorlar va qoidalar tarmoq boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Korxonada miqyosidagi me'yoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- texnik shartlar -TSh;
- korxonada standarti - KSt.

Korxonada miqyosidagi me'yoriy hujjatlar korxonada rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

2. Standartlashtirish ob'ektlari

Standartlashtirish ob'ektlari deyilganda, fan va texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, madaniyat, sog'liqni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ko'p martalab ishlatiladigan aniq mahsulot, me'yor, qoida, talab, uslublar, atamalar na boshqalar tushuniladi.

Standartlashtirish bo'yicha har bir me'yoriy hujjat o'ziga tegishli obektga ega. Masalan, xalqaro standartlarning standartlashtirish ob'ektlari GOST 1.0-92 (Pravila provedeniya rabot po mejgosudarstvennoy standartizatsii. Obshche polojeniya) va O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish ob'ektlari O'zDSt 1.0:1998 (O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar)da ko'rsatilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlararo standartlarining ob'ektiga barcha hamdo'stlik mamlakatlarda iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar kiradi.

O'zDSt 1.0:1998 ga asosan *O'zbekiston davlat standartlarining ob'ekti* bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me'yorlar va talablar;
- mahsulotga qo'yiladigan talablar, umumtexnik me'yorlar va qoidalar;
- tarmoqlararo qo'llanishga mo'ljallangan mahsulot;
- davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xo'jalik ob'ektlarining elementlari, shu jumladan, bank tizimlari, foydalaniladigan tabiat resurslari, mudofaa transport, aloqa, energosistema va shunga o'xshashlarga qo'yiladigan talablar;
- davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarining ob'ektlari.

Tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me'yorlar va talablarning asosiy qismi quyidagilardan iborat:

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va o'tkazish tartiblari;
- ma'rifat (bilim) va faoliyatning turli sohalaridagi terminologik tizimlar;

- mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda hamda qo'llashda ishlatiladigan yagona til, bir-biriga mos keladigan dasturlash, ma'lumotlar texnologiyasining texnik vositalari va texnik hujjatlar;

- texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlash;

- texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat gigienasi, ergonomika va texnik estetik talablar;

- tipik o'lchamlar qatorlari va umumshinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning o'ziga xos konstruksiyalari (sharik-podshipniklar, birkirish boltlari, asbob-uskunalar, detallar va boshqalar);

- mahsulot sifati va uni nazorat qilishni ta'minlash tizimlari va uslublari;

- o'lchash birligini ta'minlaydigan va metrologiya ta'minoti bilan bog'liq me'yorlar, qoidalar, talablar va tashkiliy ishlar tartibi;

- xom ashyo va materialarning konstantalari hamda asoslari to'g'risidagi axborotnoma ma'lumotlari.

Tarmoq, standartlari davlatlararo va O'zbekiston davlat standartlariga kirmaydigan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar uchun ishlab chiqiladi. SHuning uchun ham tarmoq standartlashtirish ob'ektlariga davlatlararo va O'zbekiston davlat standartlari ob'ektlari bo'lmagan ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish va sifatni ta'minlash sohalaridagi me'yorlar, qoidalar hamda mahsulotlar kiradi.

Korxonalar standartlashtirish ob'ektlariga qo'yidagilar kiradi;

- boshqa iste'molchilarga sotiladigan mahsulot;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni va mahsulot sifatini boshqarish qoidalari va me'yorlar;

- faqat ushbu korxonada yaratiladigan, ko'llaniladigan va ishlab chiqariladigan buyumlarning tarkibiy qismi bo'lgan detallar va qismlar;

- texnologik asbob-uskunalar va instrumentlar, texnologik me'yorlar, talablar va tipik-texnologik jarayonlar;

- korxonaning iste'molchilarga ko'rsatadigan xizmatlari.

3. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va boshqalar

O'zbekiston davlat standartlari O'zRST 1.1-92 (O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va qayd qilish qoidalari) standartiga asosan davlat standartlari texnik qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar, vazirliklar, davlat miqyo-sidagi idoralar, konsernlar, uyushmalar, shirkat, davlat, aksionerlik va qo'shma korxonalar hamda muassasalar tomonidan; *tarmoq standartlari va texnik shartlar* tarmoq, boshqaruv idoralarining standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning

standartlashtirish bo'yicha bo'limlari tomonidan va korxonalar standartlari hamda *texnik shartlar* korxonalar standartlashtirish xizmatlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Davlat standartlashtirish ishlari standartlashtirish bo'yicha yillik reja asosida amalga oshiriladi. Respublika standartlashtirish rejasiga birinchi navbatda milliy standartlar talablari bilan uyg'unlashishi, inson hayotiy va sog'ligi uchun xavfsizligi, atrof muhitni muhofaza qilinish, iste'molchilar xuquqini himoya qilinishi, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirilishini ta'minlaydigan milliy standartlar ishlab chiqish ishlari kiritiladi. Standartlashtirish bo'yicha yillik reja RH O'z 51.040-95 (Planirovanie respublikanskoy standartizatsii) rahbariy hujjat talablariga asosan to'ziladi. Buning uchun standartlashtirish bo'yicha yuqorida ko'rsatib o'tilgan standartlashtirish bo'yicha ob'ekt va sub'ektlarning standartlashtirish bo'yicha o'zoq muddatga mo'ljallangan dasturlari va ish rejaları asos qilinib olinadi.

Davlatlararo standartlar va standartlashtirish bo'yicha respublika me'yoriy hujjatlari davlatlararo standartlashtirish va respublika davlat standartlashtirish tizimlarining talablari asosida ishlab chiqiladi. Davlatlararo standartlar GOST 1.2-97 va O'z DSt 1.7-1998, davlat standartlari RST O'z 1.1-92 va RST O'z 1.5-93, tarmoq, standartlari RST O'z 1.9-95 va RST O'z 1.5-93, korxonalar standartlari RST O'z 1.3-92 va RST O'z 1.5-93 va texnik shartlar RST O'z 1.2-92 va RST O'z 1.5-93 standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi, qayta quriladi, o'zgartirishlar kiritiladi va bekor qilinadi.

Standartlarni har xil tashkilotlar mutaxassislarining ishchi guruhlari tomonidan ishlab chiqishga ruxsat etiladi.

Standartning bir necha tashkiliy tomonidan ishlab chiqilishida, etakchi ishlab chiquvchi tashkilot hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko'lami va muddatlarini belgilaydi. Etakchi ishlab chiqaruvchi tashkilot standart loyihasini o'z vaqtida ishlab chiqishga, hamkorlikda ish bajaruvchi tashkilotlar o'zlariga topshirilgan ishlarni (vazifalarni) o'z vaqtida bajarilishiga javobgar hisoblanadi.

Standart loyihasining mazmuni va texnik-iqtisodiy tomonidan asoslanganligi, ko'rsatkichlarining me'yor va talablarini fan va texnikaning hozirgi yutuqlarga mos kelishiga standartni ishlab chiquvchi va tasdiqlovchi tashkilot javob beradi.

Respublikada me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlashga taqdim etish va tasdiqlash, joriy etish, amalda standartlarni qayta ko'rish, o'zgartirishlar kiritish va bekor qilish qoida va tartiblari O'zDSt 1.4:1998 standart talablari asosida amalga oshiriladi.

Standartlarni ishlab chiqish to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda texnik topshiriq, ikkinchi bosqichda - standart loyihasi (birinchi tahriri)

tayyorlanadi va fikr-mulohazalar olish uchun yuboriladi, uchinchi bosqichda - fikr mulohazalar va standartlarning oxirgi tahriri ustida ishlanib standartning oxirgi tahriri tayyorlanadi hamda tasdiqlashga taqdim ztiladi, to'rtinchi bosqichda esa standart tasdiqlanadi va davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Standart uchun texnik topshiriq, faqat zarurat tug'ilganda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Qolgan holarda birdaniga standart loyihasining birinchi tahriri ishlab chiqiladi.

4. Standartlarni rasmiylashtirish

Standart loyihasi texnik qo'mita ish rejasi, tasdiqlangan standartlashtirish jadvali, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasi, manfaatdor tashkilotlar taklifi va boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalarining tashabbusiga asosan ishlab chiqiladi.

Agar standart loyihasini ishlab chiqish jarayonida muomaladagi o'zaro bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish lozim topilsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlanadi va ular asosiy tadbirlar rejasiga kiritiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqishda uning toifasi, turi va bo'lishi zarur bo'lgan elementlari e'tiborga olinadi va ular qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- titul varag'i;
- so'z boshi;
- kirish qismi;
- mundarija;
- standartning nomi;
- qo'llanish doirasi;
- me'yoriy havolalar;
- umumiy qoidalar;
- belgilanish va kisqartirishlar;
- talablar (me'yorlar);
- ilovalar va biografik ma'lumotlar.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham to'ziladi va maqullansa standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnik tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi.

Tushuntirish xatida standart toifasi va to'liq nomi, standart loyihasi tahririning tartib raqami va standartni ishlab chiqish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Tushuntirish xatida ko'rsatilishi bo'yicha standart loyihasining bo'limlari qo'yidagilardan iborat bo'ladi:

- standartni ishlab chiqish uchun asos;
- standartni ishlab chiqish maqsadi va vazifalari;
- standartlashtirish ob'ektining tavsifi;
- standartning ilmiy-texnik darajasi;
- standartni joriy qilishdagi texnik-iqtisodiy samaradorligi;

- standartni joriy qilish, harakatga kiritish va nazorat qilish;
- boshqa me'yoriy hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligi;
- fikr-mulohazalar olish uchun yuborilganligi to'g'risida ma'lumot;
- kelishilganligi to'g'risida ma'lumot;
- axborot manbalari;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

Tushuntirish xati standart loyihasining har bir tahririga to'ziladi.

Agar ishlab chiqarilayotgan standart loyihasi standartlashtirish rejasiga kiritilmagan bo'lsa, u holda yuqori idoraning ushbu standartni ishlab chiqish uchun asos qilib olingan hujjati asos bo'ladi. SHuning bilan birgalikda standart loyihasi kelishishni talab etmasa, u holda tushuntirish xatida standartning kelishilishi shart emasligi ko'rsatiladi va asoslab beriladi.

Standart loyihasiga tushuntirish xatining oxirgi varag'ida standartni ishlab chiquvchi etakchi tashkilot (korxonalar) rahbarining o'rinbosari, standart loyihasini ishlab chiquvchi rahbar va hamkorlikda bajaruvchi tashkilotlar rahbarlarining imzolari bo'lishi kerak.

Standart loyihasiga tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasi loyihasini fikr-mulohazalar olish uchun yuborishdan oldin kerak bo'lgan ilmiy-texnik kengash yoki etakchi ishlab chiquvchi tashkilotning texnik kengashida buyurtmachi-tashkilot (asosiy iste'molchi) vakilining ishtirokida ko'rib chiqiladi. So'ngra standart loyihasiga tushuntirish xatining asosiy tadbirlar rejasi loyihalar bilan birgalikla ko'paytirilib, fikr-mulohazalar olish uchun qo'yidagi manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi:

- buyurtmachi tashkilot (asosiy iste'molchi) yoki uning standart loyihasini kelishish bo'yicha tayanch tashkilotlaridan biri;

- davlat nazorat bo'limi, kasaba uyushmasi tashkiloti, transport, Sog'liqni saqlash vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi (agar standart loyihasida ularning vakolatiga tegishli shartlar qo'yilgan bo'lsa);

- birkirilgan mahsulot yoki faoliyat sohasi yuzasidan standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar (agar ular standart loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etmagan bo'lsa);

- standartlarni joriy qiladigan va joriy qilishni ta'minlaydigan tashkilot va korxonalar;

- standart loyihasining ishlab chiqilishi bilan bog'liq bo'lmagan ravishda qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish, bekor qilish, lozim topilgan tadbirda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan amaldagi me'yoriy hujjatlarni tasdiqlagan tashkilotlar.

Standart loyihasi korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng, o'z fikr-mulohazalarini standart loyihasini ishlab chiquvchi tashkiloti 15 kun ichida (qabul qilgan kundan boshlab) kechikmasdan yuboradilar va fikr-

mulohazalar oxirida korxonalar hamda tashkilotlar o'zlariga kerakli standart sonini ko'rsatadilar.

Korxonalar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar bilan etakchi tashkilot tanishib chiqqandan so'ng, ularga asosan fikr-mulohazalar majmuini to'zadi.

Belgilangan vaqtdan so'ng yuborilgan fikr-mulohazalar etakchi tashkilotning ixtiyoriga ko'ra ko'rib chiqiladi va ma'qul bo'lsa fikr-mulohazalar majmuiga qo'shiladi. So'ngra fikr-mulohazalar majmuiga asosan standart loyihasining so'ngi tahriri ishlab chiqiladi va asosiy tadbirlar rejasi hamda tushuntirish xatiga aniqliklar kiritiladi.

Agar ishlab chiqaruvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bo'yicha nizolar paydo bo'lsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot nizolarni muhokama qilish maqsadida kengash chaqiradi va manfaatdor tashkilotlar hamda iste'molchilarning vakillari ishtirokida uning majlisi o'tkaziladi. Etakchi tashkilot kengash qatnashchilariga kengash boshlanguncha 10 kun oldin oladigan muddatda fikr-mulohazalar majmuidan ko'chirma va kengash taklifnomalarni yuboradi. Kengash qarori uning barcha qatnashchilari imzo chekkan bayonnoma bo'yicha rasmiylashtiriladi. Bayonnoma yoki unga ilova qilingan alohida ro'yxat kengash ishtirokchilarining ismi, familiyasi, otasining ismi va mansabi ko'rsatiladi. Kengashda qabul qilingan qaror asosida standart loyihasi, tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasining oxirgi tahriri to'ziladi va u birinchi tahriridek iste'molchilar va manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib olinadi.

Etakchi ishlab chiquvchi tashkilot standart loyihasining oxirgi tahririni bir vaqtning o'zida kelishiladigan barcha tashkilotlarga tushuntirish xati, asosiy tadbirlar rejasi loyihasi va nizolarni muhokama qilish yuzasidan qabul qilingan kengash bayonnomasining ko'chirmasi bilan birga yuboradi. Agar standart loyihasi, asosiy tadbirlar rejasi va tushuntirish xati bo'yicha yana yangi fikr-mulohazalar paydo bo'lsa, ular yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni olgan kundan boshlab 15 kun ichida yuborilishi kerak. Ushbu muddat ichida fikr-mulohazalar va takliflar kelib tushmasa, u holda standart loyihasi kelishilgan hisoblanadi.

Standart loyihasi bo'yicha tashkilotlar o'rtasida davom etayotgan nizolar bo'yicha O'z davstandart, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi o'zlariga taalluqli faoliyat turlari bo'yicha oxirgi qarorni qabul qilishadi.

Kelishilgan standart yoki kelishilganlik to'g'risidagi xat etakchi ishlab chiquvchi tashkilotga yuborilishi shart.

Standart loyihasini oxirgi tahririni tasdiqlashga yuborishdan oldin tayanch tashkilot yoki standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita o'ziga birkutilgan

mahsulotlar yoki faoliyat sohasi bo'yicha standartli ilmiy-texnik va xuquqiy ekspertizadan o'tkazadi.

Ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan standart loyihasi tasdiqlash uchun quyidagi to'plam shaklida beriladi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish xati;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasining 4 ta nusxasi, ulardan ikkitasi birinchi nusxa bo'lishi shart;
- standart loyihasi to'g'risida fikr-mulohazalar majmui;
- standart loyihasining kelishilmaganligini tasdiqlovchi asl nusxasi;
- qolgan kelishmovchiliklar hakidagi ma'lumotnoma.

O'zdavstandart, Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitalari, Sog'liqni saqlash vazirligi o'zlariga tegishli standart loyihasi va boshqa hujjatlarni ko'pi bilan 15 kun ichida ko'rib chiqilishi va ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi, kamchiliklari bo'lsa qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Standart uni tasdiqlagan tashkilot qarori bilan joriy etiladi va uning muddati cheklanmagan yoki cheklangan tarzda tasdiqlanadi. SHy paytning o'zida standartni joriy qilish sanasi, uning birinchi tekshiruv muddati va keyingi tekshiruvlar muddatlari ham belgilanadi. Amal qilish muddati cheklangan standartni tekshirishdan o'tkazish muddati uning amal qilish muddatiga 9 oy qolganda standart muddatini cho'zish yoki bekor qilish bo'yicha hujjatni tasdiqlashga takdim etish zarurligini hisobga olgan holda belgilanadi. Qo'llanish muddati tugashi bilan standart qonuniy kuchini yo'qotadi. Respublika standartini davlat ro'yxatiga olish O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada (2 nusxa asli va 2 nusxa ko'chirma) topshiriladi. Standartni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun kitob shakliga keltirilib, muqovalanib topshirilishi va u 5 kun ichida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Standartning qaysi tashkilot tasdiqlaganligidan qat'iy nazar, unga raqamli belgini O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) beradi. Beriladigan belgi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hujjatning ko'rsatkichi – O'zDSt;
- ro'yxatning tartib raqami;
- tasdiqlangan yilining raqam sonlari.

Masalan, O'zDSt 1.0:1998 "O'zbekiston standartlash davlat tizimi. Asosiy qoidalar", O'zRST 1.3-92 "O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish tizimi. Korxonalar standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash qoidalari" va boshqalar. Standartni ro'yxatga olgan idora uning asl nusxasi va ikkinchi nusxasini standartni ishlab chiqqan tashkilotga qaytaradi, ikkinchi nusxasi O'zdavstandart

(«O‘zstandart» agentligi)da qoladi. Standart O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi) ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng 15 kun ichida uning bir nusxasi Respublika ilmiy-texnik kutubxonasiga yuboriladi.

Tayanch iboralar: davlatlararo standartlar; davlat standarti; tarmoq, standarti; texnik shartlar; korxonalar standarti; milliy standart shaklida qabul qilingan xalqaro standartlar shartli belgilari; davlat miqyosida, tarmoq, va korxonalar miqyosida me‘yoriy hujjat; GOST 1.O.- 92; O‘zDSt 1.0: 1998; MDX, mamlakatlari; me‘yorlar qoidalar; talablar xo‘jalik ob‘ektlari; yagona texnik til; texnik vosita va xyjjatlar; gigiena, ergonomika, estetika; tarmoq, va korxonalar standartlashtirish ob‘ekti; asos bo‘luvchi, mahsulotga qo‘yiladigan, jarayonlarga qo‘yiladigan va nazorat uslublari standarti; tang‘alash, nomenklatura va belgilar standarti; RH O‘z 51-040-95; GOST 1.2-97; O‘z DSt 1.7:1998; RST O‘z 1.1-92; RST O‘z 1.5-93; RST O‘z 1.3-92; RST O‘z 1.2-92; O‘z DSt 1.4:1998; me‘yoriy hujjatlar elementlari; standart loyihasiga tushuntirish xati; fikr-mulohazalar; texnik, topshiriq; ilmiy-texnik kengash; buyurtmachi; bayonnoma.

Nazorat uchun savollar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirishning me‘yoriy hujjatlari nimalarni tashkil qiladi?
- 2.Davlat standarti, tarmoq standart iva texnik shartlar deganda nimani tushunasiz?
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Davlat toifasidagi me‘yoriy hujjatlarning indeksleri qanday ifodalanadi?
4. Standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar qaysilarni o‘z ichiga oladi?
5. Standartlashtirish ob‘ektlari deb nimaga aytiladi?
6. O‘zbekiston davlat standartlarining ob‘ektlariga nimalar kiradi?
- 7.O‘zbekiston davlat standartleri kimlar tomonidan ishlab chiqiladi?
8. Standartlar qanday rasmiylashtiriladi?
9. Standart loyihasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
10. Standart loyihasini tasdiqlash uchun qanday shaklda beriladi?

Talabaniq mustaqil ish topshiriqlar:

1. Standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar bo‘yicha etarlicha ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak.
2. Standartlashtirish ob‘ektlari va davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi zlozim.
4. Standartlarni rasmiylashtirish haqida ma‘lumotlarni to‘liq o‘rganishi va bilishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 11, 12, 13, 14, 15, 16, 20

12-mavzu. Standartlashtirish bo'yicha davlat nazorati, xalqaro standartlashtirish

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, axborot ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Standartlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni nazorat qilish tartibi 2. Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida 3. Xalqaro standartlashtirish (ISO, MEK, ISO-9000) tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Standartlashtirish bo'yicha davlat nazorati, xalqaro standartlashtirish haqida ma'lumotlarni berish	
<i>Pedagogii vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Ishlab chiqariladigan mahsulotga belgilangan me'yoriy hujjatlarning bajarilishi shart bo'lgan talablar va standartlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarini bajarilishi ustidan davlat nazorati haqida axborot beriladi. • Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida konunda keltirilgan talab va tartib to'g'risida axborot beriladi • Xalqaro standartlashtirish (ISO, MEK, ISO-9000) tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari, talablari va boshqalar to'g'risida axborot beriladi. 	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston xududida standartlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarini bajarilishi ustidan davlat nazorati haqida axborotga ega buliadi. • Standartlashtirish konunda keltirilgan talab va tartib to'g'risida axborot oladilar. • Standartlashtirish tashkilotlari ISO, MEK, ISO-9000 kabi xalkaro tashkilotlar va ularning asosiy vazifalari, talablari va boshqalar bo'yicha axborot ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, xdmkorlikda O'qitish texnikasi,.
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Ishlab chiqariladigan mahsulotga belgilangan me'yoriy hujjatlarning bajarilishi shart bo'lgan talablar va standartlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarini bajarilishi usti-dan davlat nazorati haqida axborot beriladi. 2.3. Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida konunda keltirilgan talab va tartib to'g'risida axborot beriladi 2.4. Xalqaro standartlashtirish (ISO, MEK, ISO-9000) tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari, talablari va boshkalavr to'g'risida axborot beriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar:«bila-man-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi, yozib oladi-lar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Standartlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni nazorat qilish tartibi

Agar vazirliklar, uyushmalar, korporatsiyalar, konsernlar, davlat ishlab chiqarish korxonalar, kooperativlar, qo'shma, aksionerlik, shaxsiy va boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlar, ishlab chiqarish va tijorat bilan shug'ullanadigan fuqarolar mahsulotga belgilangan talablarga rioya qilishmasa, u holda eng rivojlangan xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari darajasida ishlab chiqilgan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ham mahsulot sifatini kafolatlashga o'zlik qiladi. SHuning uchun ham amaldagi standartlar va o'lchash vositalari ustidan respublikada davlat nazorati o'rnatiladi.

O'zbekiston respublikasida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotga belgilangan me'yoriy hujjatlarning bajarilishi shart bo'lgan talablar va standartlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarini bajarilishi ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni, Respublika Vazirlar Mahkamasining 12 avgust 1994 yildagi «O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 410-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Standartlar va o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati to'g'risida Nizom» va O'zDSt 1.0:1998 "O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar" standarti talablariga asosan rahbariy hujjatlar (RD O'z. 51-033-97 va RD O'z 51-041-95) da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan davlat nazoratining asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat: vazirliklar, idoralar, assotsiatsiyalar, konsernlar, davlat korxonalari, kooperativlar, qo'shma hissadorlik, ijara, kichik va boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, ularning qaysi idoraga mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ular tomonidan standartlarni o'z vaqtida amalda tadbiq etish va ularning talablariga qat'iy ravishda rioya qilishini ta'minlash, standartlarning ilmiy-texnik darajalarini tahlil qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyotini jadallashtirish, mehmatal unumdorligi, mahsulotning texnik darajasi va sifatini yaxshilash maqsadida fan va texnika yutuqlaridan samaradorli foydalanishga ko'maklashish.

Ishlab chiqaruvchilar va sinov laboratoriyalari tomonidan harakatdagi standartlarning bajarilishi shart bo'lgan talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati, ularning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari (xizmatlari)ni ushbu talablarga mos kelish darajasini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun ham me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqarilayotgan majburiy sertifikatlashtiriladigan va sertifikatlashtirilmaydigan hamda chetdan keltirilgan mahsulotlar davlat nazoratining ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan (sertifikatlashtirilgan va import qilingan) mahsulotga belgilangan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy va qonunchilik hujjatlarining bajarilishi shart bo'lgan talablariga rioya qilish ustidan nazorat ishlari quyidagi idoralar tomonidan amalga oshiriladi:

- O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi);
- Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitalari va Sog'liqni saqlash vazirligi hamda ularning hududiy organlari;
- maxsus vakil sifatida belgilangan boshqa davlat boshqaruv organlari.

Standartlarning bajarilishi shart bo'lgan talablariga rioya qilish ustidan quyidagi shaxslar nazorat o'tkazadilar:

- O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining standartlar ustidan nazorati bo‘yicha davlat bosh inspektorlari;
- viloyat va shaharlarning standartlar ustidan nazorati bo‘yicha davlat bosh inspektorlari;
- standartlar ustidan nazorati bo‘yicha inspektorlar.

"O‘zbekiston Respublikasi standartlar va o‘lchash vositalari ustidan davlat nazorati to‘g‘risida"gi Nizomga asosan O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi) Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari va Sog‘liqni saqlash vazirligining rahbarlari o‘zlari egallab turgan lavozimlariga ko‘ra standartlar va o‘lchash vositalari ustidan nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining bosh davlat inspektorlari, ularning o‘rinbosarlari esa - O‘zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektorlarining muovnlari hisoblanadilar.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston davlat markazi O‘zdavstandart vorisi «O‘zstandart» agentligining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy (regional) markazlari (SMSHM), Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari va Sog‘likni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va shaharlardagi hududiy markazlarning rahbarlari o‘zlarining lavozimlariga ko‘ra standartlar va o‘lchash vositalari ustidan davlat nazorati bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasining, viloyat va shaharlarining bosh inspektorlari, ularning o‘rinbosarlari bosh inspektorlarining muovnlari hisoblanadi.

O‘zdavstandart, Arxitektura va qurilish, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari, Sog‘liqni saqlash vazirligi va sertifikatlashtirish bo‘yicha hududiy markazlar (CMCHM)ning bo‘lim boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari va bosh mutaxassislari o‘zlarining egallab turgan lavozimlariga ko‘ra standartlar va o‘lchash vositalari ustidan nazorati bo‘yicha davlat inspektorlari hisoblanadi.

Quyidagi idoralar O‘zbekiston Respublikasida standartlar ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar:

- O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha - O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi);
- qurilish, qurilish sanoati hamda loyihalash va konstruksiyalash sohasi bo‘yicha Arxitektura va qurilish davlat qo‘mitasi;
- tabiat resurslaridan foydalanishni boshqarish, atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta’sirlardan himoya qilish sohasi bo‘yicha Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- tibbiyot mahsulotlari, tibbiy texnika buyumlari, dorivorlar, davolash vositalari hamda respublika sanoatlarida ishlab chiqariladigan va import bo‘yicha chetdan keltirilgan mahsulotlar tarkibida inson organizmi uchun zararli bo‘lgan

moddalarni aniqlash masalalari sohasi bo'yicha - Sog'liqni saqlash vazirligi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va shaharlarida standartlar va o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati O'zdavstandartning mintaqaviy standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazlari hamda o'zlarining vakolatlari doirasida Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy idoralari tomonidan olib boriladi. Ular davlat nazoratini bevosita korxonalar, tashkilot va muassasalarda amalga oshiradilar.

Standartlar talabiga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini O'zbekiston va Qoraqalpog'iston respublikalarining bosh davlat inspektorlari, viloyat va shaharlarning bosh davlat inspektorlari va standartlar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat inspektorlari amalga oshiradilar.

Standartlar va o'lchash vositalari ustidan nazoratning amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar hokimiyat organlarining vakili hisoblanadi va ular davlat himoyasida bo'ladi. Ular O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasining barcha bosh davlat inspektorlari va davlat inspektorlarining huquq va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994 yil 12 avgustda qabul qilingan 410-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi standartlari va o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati to'g'risidagi Nizom»da to'liq ko'rsatib berilgan.

Respublikada qo'llanilayotgan standartlarni respublika xalq xo'jaligi, mamlakat aholisi va eksport ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlash hamda standartlarni qayta ko'rish, o'zgartirish va ularni bekor qilish, standartlarni tekshirishdagi asosiy maqsad hisoblanadi.

Standartlarni tekshirish ularda ko'rsatilgan muddat bo'yicha, avval standartni ishlab chiqqan tashkilotlar, texnik qo'mitalar (agar mavjud bo'lsa), standartlashtirish bo'yicha tayanch, buyurtmachi va boshqa manfaatdor tashkilotlar birgalikda kelishilgan holda o'tkaziladi. Buning uchun standartlarni ishlab chiqqan tashkilot rahbari tomonidan standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, tayanch, buyurtmachi (asosiy iste'mochilar) va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat komissiya to'ziladi.

Tekshiriladigan standartlar ro'yxati standartlashtirish bo'yicha yillik va istiqbol rejalari loyihalariga kiritiladi.

Standartlarni tekshirish jarayonida ko'rsatkichlar nomenklaturasi va ularning miqdori, me'yorlar, qoidalar, tavsiflar, atamalar va tushunchalar, belgilar, uslublar, fizik kattalik birliklari; shuningdek, mahsulotning inson hayoti va sog'ligi uchun xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'zaro almashuvchanligini ta'minlaydigan hamda belgi qo'yish va nazorat qilish

usullarini harakatdagi qonunchilik, standartlashtirish davlat tizimi va boshqa me'yoriy hujjatlar, xalqaro mintaqaviy va rivojlangan xorijiy davlatlarning standartlari (ISO, MEK va boshqalar), MDH Davlatlararo standartlari, bir xil mahsulot guruhlariga mo'ljallangan standartlar va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar talablari hamda sinov va sertifikatlashtirish milliy tizimlariga mos kelishi tahlil qilinadi. Bulardan tashqari, mahsulotga mo'ljallangan standartlarni tekshirish jarayonida solishtirma jadvallar va sinov natijalari, ya'ni mahsulot yaratish bo'yicha tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash va tajriba ishlari natijalari bo'yicha manfaatdor tashkilot va ishlab chiqarish korxonalar tomonidan to'zilgan takliflar, standartni qo'llashdagi haqiqiy samara, davlat va tarmoq nazoratlari, Transport vazirligi va kasaba uyushmalari idoralari natijalari ham ko'rib chiqiladi. SHuning bilan birgalikda tekshirilgan standartning bugungi kundagi ilmiy-texnika darajasi ham baholanadi.

Standartlarni tekshirish natijalari asosida ixtiyoriy shaklda dalolatnoma to'ziladi. Dalolatnomada tekshirilgan standartning ilmiy-texnik darajasi, qo'llanishdagi samaradorligi, standart talablarining jahon bozori talablari darajasiga mos kelishi va standartni bundan keyin qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha takliflar beriladi. Dalolatnoma imzolanganidan so'ng 15 kun ichida komissiya tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.

Agar komissiya standart mazmunini o'zgartirmasdan faqat harakat muddatini o'zaytirish, chegaralash yoki chegarasini olib tashlash to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, u holda standartni, tekshirish dalolatnomasi kelishish uchun ilgari kelishilgan manfaatdor tashkilotlarning barchasiga yubriladi. Tekshirish dalolatnomasi esa 15 kun ichida kelishilib bo'lishi kerak.

Agar standartni tekshirish natijasi bo'yicha uni chegaralanmagan muddatlar va o'zgartirishlar kiritilmasdan bundan so'ng ham qo'llash mumkin va uning talablari jahon talablari darajasiga mos keladi deb topilsa, u holda tekshirish dalolatnomasi standartlar majmuini saqlash tashkilotiga yuboriladi.

Standartlarni tekshirish natijalari bo'yicha bir-biri bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rish, o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi takliflarni tekshirishdan o'tkazgan tashkilot ularni standartlashtirish bo'yicha tegishli texnik qo'mita yoki tayanch tashkilotga va takliflarning ko'chirma nusxalarini esa O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ga yuboradi.

Agar mahsulotga yangi va progressiv talablar qo'yilsa, u holda standart qaytadan ko'rib chiqiladi. Lekin asos bo'luvchi va umumtexnik standartlar odatda qayta ko'rib chiqilmaydi, faqat ular yangi talablar kiritish orqali o'egartiriladi, xolos.

Qayta ko'rib chiqish natijasida harakatdagi standart o'rniga yangi standart ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan yangi standartdi qaysi standart o'rniga ishlab

chiqilganligi ko'rsatiladi. SHuning bilan birgalikda qayta ko'rib chiqilgan standartlarga kiritilgan qo'shimchalar va ular bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar ham bir vaqtda ko'rib chiqilishi kerak.

2. Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida

Mahsulot sifatiga mo'ljallangan standartlarga kiritiladigan o'zgartirishlar ushbu standartni ishlab chiqqan tashkilot tomonidan kiritiladi va o'zgartirishlar mahsulotning amaldagi standart talablari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsuloti bilan o'zaro almashuvini bo'zishga olib kelmaydigan texnik darajasi, sifati va samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini o'zgartirmaydigan yangi progressiv talablar bo'lishi kerak. O'zgartirishlar loyihasini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlashga taqdim etish va rasmiylashtirish yangi standartlar loyihasini tasdiqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar standartga kiritiladigan o'zgartirishlar uning ilmiy-texnik darajasiga ta'sir etmasa, u holda o'zgartirish loyihasiga tushuntirish xatida taqqoslash jadvalini keltirmasa ham bo'ladi. SHuning bilan birgalikda kiritiladigan o'zgartirishning boshqa standartlar bilan bog'liqligi bo'lmasa, u holda o'zgartirishlar loyihasini manfaatdor tashkilotlarga taqriz uchun yuborilmasligi ham mumkin. O'zgartirish loyihasini taqrizga yuborish yoki yubormasligi to'g'risidagi qaror standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaga tegishli tashkilot tomonidan qabul qilinadi.

SHuningdek kiritiladigan o'zgartirishlar boshqa kelishuv tashkilotlarning manfaatlari uchun tegishli bo'lmasa, u holda o'zgartirishlar faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi, xolos. Agar standart muddatini o'zaytirish, chegaralash yoki harakat muddatini bekor qilish ushbu standart mazmunining o'zgarishi bilan bir paytda amalga oshirilsa, u holda standart muddatini chegaralash yoki harakat muddatini bekor qilish haqidagi ma'lumotlar shu o'zgartirishlar ichiga kiritiladi va bu o'zgartirishlar ushbu standartni tasdiqlagan idora tomonidan amalga oshiriladi. O'zgartirishlar to'g'risidagi hujjatlar (qaror, buyruq va boshqalar) standart muddatining tamom bo'lishiga 6 oydan kam bo'lmagan vaqt ichida yuborilishi kerak. Standart muddatining o'zaytirilganligi, chegaralanmaganligi yoki harakat muddatini bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar standart harakati tamom bo'lish muddatidan 3 oy oldin standartlarning bibliografik ko'rsatkichlarida chop etiladi. Standartga kiritilgan o'zgartirishga uni tasdiqlagan idora tartib raqamini qo'yadi va korxonalarni o'zgartirishlar bilan ta'minlash hamda joriy etish bo'yicha tashkilot va texnik choralarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'zgartirishlarning joriy etish sanasini belgilaydi. Kiritiladigan o'zgartirishlar har bir standartga alohida rasmiylashtiriladi va standartga oldin tasdiqlangan o'zgartirishlar keyingi o'zgartirishlarga kiritilmaydi, ular alohida qo'llaniladi.

Amaldagi yoki harakatdagi standart quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- ushbu standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish butunlay to'xtatilsa;

- ushbu standart o'rniga boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilsa.

Standartni bekor qilish to'g'risidagi qaror yoki buyruq shu standartni tasdiqlagan idora tomonidan qabul qilinadi yoki chiqariladi. Buning uchun standartga ilova xati va standartni bekor qilish zarurligi asoslangan dalolatnoma, asosiy iste'molchi (buyurtmachi) va ilgari kelishilgan tashkilotlar bilan kelishilmaganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning asl nusxalari bilan birgalikda standartni tasdiqlagan idoraga yuboriladi. Standart tekshirilmasdan bekor qilinadigan bo'lsa, u holda u dalolatnomasiz, ammo ko'rsatilgan hujjatlar bilan birga yuboriladi. Agar standart yangi me'yoriy hujjatlar ishlab kelishi bilan bekor qilinsa, u holda yangi standart tasdiqlash uchun qabul qilingan qarorda uning qaysi me'yoriy hujjat o'rniga ishlab chiqilganligi ko'satiladi. Standartning bekor qilish to'g'risidagi barcha hujjatlar davlat rasmiylashtirish idorasiga standartni bekor qilish muddatini tamom bo'lishidan 6 oy oldin yuborilishi kerak.

MDH davlatlararo standartlarini bekor qilish uchun kerakli hujjatlar standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo Kengashning texnik kotibiatiga takdim etiladi va standartlarning boshqa toifalarini bekor qilish uchun barcha hujjatlar O'zdavstandartga («O'zstandart agentligi») yuboriladi.

Amaldagi standartlarni bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlar «Ma'lumotlar ko'rsatmasi»da standart bekor qilinishidan 3 oy oldin e'lon qilinadi.

3. Xalqaro standartlashtirish (ISO, MEK, ISO-9000) tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari

Ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiyotining rivoji xalqaro savdo aloqalarining o'sishi bilan o'zaro bog'liq. Hech kimga sir emas, xalqaro savdo aloqalarida bojxona qoidalarining bir xil emasligi, ta'riflari va mahsulotlarni jo'natish qoidalarining har xilligi va boshqa ayrim texnik to'siqlar xalqaro savdo-sotiq masalalarida ma'lum qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Bu qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishda xalqaro standartlashtirish tashkilotlari muhim rol o'ynaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish tashkilotlari tomonlar uchun zarur bo'lgan mahsulot sifatiga umumiy talablar. Aniq uslublar, ularni saqlash va tashish qoidalariga umumiy Talablar belgilovchi standartlar yaratadi.

Ma'lumotlar bo'yicha hozirgi kunda dunyoda - standartlashtirish bo'yicha 50 dan ortiq xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu tashkilotlar jahondagi barcha sanoati rivojlangan va o'zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarish uchun harakat kilayotgan mamlakatlar uchun va rivojlangan mamlakatlarning xalqaro standartlashtirishda ishtirok etishi, ularning o'z

iqtisodiyotlarini yanada rivojlantirishi va o'z milliy standartlarini mablag' bilan ta'minlashi uchun zarur bo'lgan mablag'larni tejashda muhim rol uynaydi.

Hozirgi kunda jahonda standartlashtirish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlaridan ISO xalqaro tashkiloti yirik tashkilotlardan biri bo'lib hisoblanadi va 100 ga yaqin mamlakat uning a'zosi hisoblanadi. SHu jumladan, O'zbekiston ham 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab ISO xalqaro tashkilotining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. SHuning bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan mamlakatlarda standartlashtirishni rivojlantirish bo'yicha qo'mita ISO/DEVKO tashkilotining ham doimiy a'zosi hisoblanadi.

Birinchi standartlashtirish milliy tashkilot - Britaniya Assotsiatsiya 1901 yilda tashkil etilgan, so'ngra birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y), Amerika qo'mitasi (1918) va boshqalar tashkil topdi.

1926 yilda standartlashtirish milliy tashkilotining Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISAning tarkibiga 20 ta mamlakat vakillari kirdi.

1938 yilda Berlinda standartlashtirish bo'yicha xalqaro s'ezd ochildi. Unda texnikaniig turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar to'zildi. 1939 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi ISAning faoliyatini to'xtatib qo'ydi. ISA 1946 yildan boshlab ISO Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standarts Organization) deb yuritildi.

1946 yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining (BMT) standartlashtirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining yig'ilishida xalqaro standartlashtirish tashkilotini tuzish haqida qaror qabul qilindi va shu yili bosh assambleyaning yig'ilishda 20 ta mamlakat (davlat) ishtirokida xalqaro standartlashtirish bo'iicha tashkilot ISO tashkil etildi hamda shu yig'ilishda ISO ustavi qabul qilindi. Ustavda ushbu tashkilotning huquqiy holati (statusi), uning tuzilishi (strukturasi), asosiy idora (organ)larining funksiyalari va ishlash uslublari belgilandi.

Hozirgi vaqtda ISO xalqaro tashkiloti o'zining faoliyatida 400dan ortiq har xil sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va aloqa bog'lab turadi. Uning qo'mitalari, ya'ni azolari standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlar hisoblanadi. SHu narsani alohida qayd etish joizki, ISO tashkilotiga har bir mamlakatdan faqat bitta standartlashtirish milliy tashkiloti a'zo qilib qabul qilinadi, chunki ba'zi mamlakatlarda standartlashtirish bo'yicha bir necha milliy tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.

1964 yilda ISO kengashi ayrim davlatlarda milliy standartlashtirish tashkilotlari hali tashkil etilmaganligini e'tiborga olgan holda, bu mamlakatlardan ISOga a'zolikka muxbir a'zo qilish haqida qaror qabul kildi. Muxbir a'zolarining huquqiy holati (statusi) bo'yicha ular ISO byudjetiga a'zolik badallarini to'lab turgan holdagina ISOning xalqaro standartlar va axborotlaridan foydalanishga haqlidir. SHuning bilan birgalikda muxbir a'zo bo'lgan davlatlar ISOning texnik qo'mitalari yig'ilishlariga

o'zlarining vakillarini faqat ko'zatuvchi sifatida qatnashish uchun yuborishlari mumkin.

ISONing organlariga quyidagilar kiradi:

- Bosh assambleya, Kengash;
- kengash qo'mitalari;
- texnik idoralar (texnik qo'mitalar, kichik texnik qo'mitalar, ishchi organlar);
- markaziy kotibiat (sekretariat).

Prezident, Vitse-prezident, xazinachi va bosh kotib ISONing rasmiy shaxslari, Bosh assambleya esa ISONing yuqori rahbarlik idorasi (organi) hisoblanadi va u barcha milliy standartlashtirish tashkilotlarining vakillari hamda a'zolaridan tashkil topadi. Assambleya ushbu tashkilotning umumiy texnik siyosatini belgilaydi va uning faoliyatidagi asosiy masalalarni hal etadi.

Bosh assambleya Prezidentning qarori bilan bosh kotib tomonidan yoki kengash a'zolarining kamida 7 tasining iltimosiga binoan har 3 yilda bir marta kengash chakariladi va shu vaqt oralig'ida kengash rahbarlik ishlarini olib boradi.

Kengash (sovet) prezidenti, vitse-prezidenti, xazinachi va 18 ta a'zoldan iborat bo'ladi va har 3 yilda qaytadan saylanadi. Kengash ISO faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ko'rib chiqadi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. Kengash yig'ilishiga a'zolar har yili kamida bir marta to'planishadilar.

ISO xalqaro standartlarni ishlab chiqish bilan bog'liq barcha asosiy texnik ishlarni o'zining texnik qo'mitalari (ISO/TQ) va kichik texnik qo'mitalar (ISO TQ/KQ) orqali amalga oshiradi, chunki ularning har biri muayyan soha bo'yicha ixtisoslashgan. Har bir qo'mita va kichik qo'mitalarga uning bajaradigan ishlarini ixtisoslashuvini aks ettiruvchi tartib raqami va nom beriladi. Masalan, ISO/TQ2 - "Boltlar, gaykalar va mahkamlash detallari", ISO/TQ18 "Rux va ruxli qotishmalar"; ISO/TQ23 - "Qishloq xo'jaligi traktorlari», ISO/TQ22 - «Avtomobillar», ISO/TQ97- "Hisoblash mashinalari va hisoblash tahlil asboblari"; ISO/TQ73 - «Iste'mol masalalari» va boshqalar.

Texnik qo'mitaning ish sohasi juda katta va ko'p qirrali bo'lgan hollarda uning muvoffaqiyatli ishlashi uchun qo'mita doirasida bir muncha tor sohadagi masalalarni hal qilish maqsadida cheklangan muddatga kichik qo'mitalar (KQ) va ishchi guruhlar (IG) tashkil etiladi va ularning oldiga qo'yilgan vazifalar bajarilgandan so'ng ular tarqatib yuboriladi.

ISONing texnik qo'mitalari ularning olib boriladigan ish natijalaridan manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol aloqalar olib borishadi.

ISO va uning Markaziy kotibiati tashkilotning tashkil topgan vaqtidan hozirgi kunga qadar o'z faoliyatini Jeneva shahrida olib bormoqda. Tashkilot tili ingliz, franso'z va rus tillari hisoblanadi va texnik qo'mitalar ishlari hamda tashkilot yozishmalari ushbu tillarning birida olib boriladi.

ISONing kengashi qoshida standartlarning ayrim jihatlarini malakali tarzda ko‘rib chiqilishini ta‘minlovchi bir necha maslahatchi qo‘mitalar mavjud. Masalan, standartlashtirishning prinsiplarini o‘rganish bo‘yicha doimiy qo‘mita (ISO/STAKO), rejalashtirish qo‘mitasi (ISO/PLAKO), sertifikatlashtirish bo‘yicha qo‘mita (ISO/SERTIKO), texnik axborotlarini o‘rganuvchi doimiy qo‘mita (ISO/INFKO), rivojlanayotgan davlatlarda standartlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘mita (ISO/DEVKO) va iste‘mol masalalari bo‘yicha qo‘mita (ISO/KOPOLKO).

Standartlashtirish prinsiplarini o‘rganish bo‘yicha doimiy qo‘mita ISO/STAKO standartlashtirish prinsiplari, uning samaradorligi, xalqaro standartlarni qo‘llash va boshqa ishlarni amalga oshiradi. Ushbu tashkilot tomonidan «Standartlashtirish samaradorligi» nomli kitobning bosilib chiqilishi xalqaro standartlashtirish ishlari bilan shug‘ullanadigan barcha manfaatdor tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. SHuning bilan birgalikda bu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan atamalar va ularning ta‘rifi bo‘yicha qo‘llanmalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, standart, standartlashtirish, unifikatsiya, garmonizatsiya, muvofiqlik sertifikati kabi atamalar ushbu qo‘llanmalarda o‘z aksini topgan.

Sertifikatlashtirish bo‘yicha qo‘mita ISO/SERTIKO yoki ISO/ KASKO mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarini o‘rganadi va kerakli tavsiflar ishlab chiqadi. Qo‘mitaning faoliyati davlatlarning milliy sertifikatlash tizimi, milliy va xalqaro sertifikatlash qonunlariga asosan xavfsizlik, inson salomatligini saqlash va tabiatni muhofaza qilish masalalariga karatilgan. Undan tashqari qo‘mita o‘zaro tan olish va tavsiflar ishlab chiqish bilan ham shug‘ullanadi.

SERTIKO (KASKO) da barcha ishlar ishchi guruhlar tomonidan olib boriladi.

Hozirgi kunda SERTIKO (KASKO) tomonidan quyidagi qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun qo‘llaniladigan standartlarga qo‘yiladigan talablarga qo‘llanma;
- sertifikatlashtirish tizimining namunaviy tizimi;
- sertifikatlashtirish organlari (idoralari)ga qo‘yiladigan talablar;
- nazorat organlari (idoralari)ga talablar;
- sinov laboratoriyasining texnik yaroqliligi.

Ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish bo‘yicha doimiy qo‘mita ISO/INFKO standartlashtirish bo‘yicha axborotlashtirish markazlarining ishlarini uyg‘unlashtirish va muvofiqlashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi. Jumladan, standartlar va boshqa hujjatlarga avtomatik ishlovni tashkil etish uchun guruhlash va indeksatsiya masalalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, xalqaro standartlarni axborotlashtirish tizimlarida qo‘llash va boshqa ishlarni tashkil etadi.

Iste'mol masalalari bo'yicha qo'mita ISO/KOPOLKO quyidagi vazifalarni bajaradi:

- iste'molchilarning milliy va xalqaro standartlashtirish ishlarida keng ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha tegishli (kerakli) tadbirlar o'tkazish;

- standartlashtirish prinsiplari bo'yicha iste'molchilarni axborotlar bilan ta'minlash va ularning xaq-huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha ishlar olib borish;

- iste'molchilarni xalq iste'mol tovarlari bo'yicha xalqaro standartlash ishlarida qatnashish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish;

- iste'molchilar manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ISOning boshqa organlari (idoralari) bilan aloqalar olib borish.

Iste'mol masalalari qo'mitasi ISO/KOPOLKO tomonidan iste'mol tovarlari bo'yicha quyidagi qo'llanmalar ishlab chiqilgan;

- qo'llanma 12 "Iste'mol tovarlarini qiyosiy sinash";

- qo'llanma 14 "Iste'molchilar uchun tovarlar to'g'risida axborot";

- qo'llanma 36 "Iste'mol tovarlarining ekspluatatsion tavsifining o'lchami, standarti" va boshqalar.

Keyingi vaqtlarda barcha mamlakatlarda xalqaro standartlar talablar asosida standartlashtirish ishlarini olib borish masalalariga alohida e'tibor karatilmokda. Bunday e'tibor ko'plab rivojlangan mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi mavjud 9600 standartning 2647 tasi ISO tashkiloti bilan hamkordir, Fransiyadagi 1099 ta standartdan 428 tasi belgilangan talablar bo'yicha ISO xalqaro standartlashtirish tashkilotining talablariga javob beradi. Xalqaro standartlar qo'yidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi:

- xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha texnik qo'mitaning takliflarini ko'rib chiqish va ularni dasturga kiritish;

- ishchi loyihani maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan ishlash;

- kotibiat tomonidan loyihani texnik qo'mitalar, kichik texnik qo'mitalar va faol a'zolarga yuborish hamda texnik qo'mitaning xalqaro yig'ilishini o'tkazish;

- loyiha to'g'risidagi fikrlarni rasmiylashtirilgandan so'ng ularni ISOning Markaziy kotibiatiga (sekretariatiga) berish va loyihani TQ va KQlarga ovoz berish uchun yuborish;

- ovoz berilgandan so'ng loyihani qabul qilish;

- Markaziy kotibiat tomonidan xalqaro standartni chop etish.

Birinchi bosqichda, xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kotibiat tomonidan barcha texnik qo'mitalarga standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligini bilish maqsadida yuboriladi. Arar texnik qo'mitalar

va kichik qo‘mitalar ushbu takliflar bo‘yicha ijobiy fikrlar bildirishsa, u holda hujjatning ishchi loyihasini ishlashga kirishiladi.

Ikkinchi bosqichda, hujjatning ishchi loyihasi ko‘p hollarda maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan qayta ishlanadi. Ishchi loyihalar ma‘lum bir tomonidan ham texnik qo‘mitalar, ham kichik qo‘mitalarga ko‘rib chiqish uchun yuborilishi mumkin. Ushbu ishchi loyiha umum kelishuvdan so‘ng texnik qo‘mita yig‘ilishida yoki xatlar orqali ISOning Markaziy kotibiatiga halqaro standartning loyihasi sifatida qayd etish uchun topshiriladi, unga maxsus tartib raqami (nomer) beriladi va bu tartib raqami xalqaro standart chop etilganga qadar o‘egartirilmaydi.

Uchinchi bosqichda, loyiha kotibiat tomonidan texnik qo‘mitalar, kichik qo‘mitalar va faol a‘zolariga yuboriladi hamda texnik qo‘mitaning xalqaro yig‘ilishi o‘tkaziladi. Albatta, bir martadagi yig‘ilishda loyiha bo‘yicha yaxlit bir qarorga kelishish qiyin. SHuning uchun qo‘mitaning bir necha yig‘ilishlarini o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Har bir yig‘ilishdan so‘ng hosil bo‘lgan hujjat 1-, 2- va 3-loyiha deb nomlanadi. SHuning uchun ham xalqaro standartlarni ishlab chiqish muddatini qisqartirish maqsadida loyihalarning soni uchtdan ortiq bo‘lmasligi belgilanib ko‘yilgan.

To‘rtinchi bosqichda, loyiha to‘g‘risidagi fikrlarning ijobiyligiga erishilgandai so‘ng, ISO talabi bo‘yicha rasmiylashtirilgan loyiha ISOning Markaziy kotibiatiga xalqaro standartning loyihasi sifatida qayd etilishi uchun topshiriladi va loyiha TQ va KQ a‘zolariga ovoz berish uchun yuboriladi. Ushbu loyiha texnik qo‘mita a‘zolari ijobiy ovoz berganliklari to‘g‘risidagi hujjat bilan birgalikda Qo‘mitalarga - ISO a‘zolariga, ya‘ni standartlashtirish bo‘yicha milliy idoralar (organlar)ga jo‘natiladi. Ishni tezlatish uchun ikkala jarayonni birgalikda qo‘shib, bir vaqtning o‘zida ovoz berish uchun yuborish ham mumkin.

Xalqaro standartlarni ishlab chiqish juda murakkab jarayon, shuning uchun ham ularni ishlab chiqish muddati o‘rtacha 5-6 yilga teng, ayrim hollarda ularni ishlab chiqish hatto 10 yil va undan ortiq vaqt ham talab etadi.

Xalqaro elektrotexnik komissiyasi - MEK 1906 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 45 dan ortiq mamlakatni o‘z ichiga oladi. hozirgi kunda MEKning a‘zolari bo‘lgan mamlakatlarda Er qirrasining 80% aholisi yashaydi va 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste‘molchisi hisoblanadi. MEK ingliz, franso‘z va rus tillarida ish olib boradi. Uning 80 dan ortiq texnik qo‘mitalari mavjud, shulardan 4 tasi uy xo‘jaligi, elektr asbob-uskunalari (piborlari) va radioelektron apparatlari bo‘yicha qo‘mitalar hisoblanadi.

MEK xalqaro bozorda sotiladigan tovarlarning elektr xavfsizligi bo'yicha standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Jumladan, hozirgi kunga qadar MEK tomonidan 1600 dan ortiq standartlar ishlab chiqilgan.

MEK xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO dan so'ng nufuzli halqaro tashkilot hisoblanadi. MEK faoliyati elektrotexnika, aloqa va radioelektron apparatlar sohasiga qaratilgan. Uning ustavi bo'yicha MEKning asosiy maqsadi elektrotexnika, radioelektronika sohalarida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va xalqaro aloqalarni yuksaltirishdan iborat. MEKning oliy organi Kengash hisoblanadi. Kengash tarkibiga prezident, vitse-prezident, xazinachi, bosh kotib va mamlakatlarning milliy vakillari kiradi. Kengash yig'ilishi bir yilda bir marta o'tkaziladi. SHunga qaramasdan MEK prezidenti va 4 ta milliy qo'mita talabi bilan qo'shimcha ravishda o'tkazilishi mumkin. MEK standartlari milliy qo'mitalar tomonidan qayta ishlanadi va standartlarni ishlab chiqish uchun milliy qo'mitalar taklif kiritadilar. Standartlar loyihasini ishlash hakidagi oxirgi qaror texnik qo'mitani yig'ilishida qabul qilindi. Undan so'ng MEK standartlarini ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar to'zadi va bularga har bir mamlakatning mutaxassislari kirishi mumkin. Ishchi guruhlar standart loyihasini ishlab chiqib, yig'ilishda ko'rib chiqadi va umum kelishuvdan so'ng TQning kotibiatiga topshiradi. SHuning bilan birgalikda MEK standartining loyihasi sifatida qandaydir bir mamlakatni milliy standarti ham qabul qilinishi mumkin. Davlatlarning loyiha bo'yicha fikr-mulohazalari texnik qo'mitada ko'rib chiqiladi va fikr-mulohazalar ma'qul deb topilsa, u holda ular kotibiatga topshiriladi. Davlat vakillarining kelishuvidan so'ng kotibiat loyihani ovoz berishga yuboradi. Davlatlarning milliy qo'mitalari 6 oy mobaynida byulletenlarni to'ldirishib, Markaziy byuroga jo'natishlari kerak, chunki kotibiat 6 oy o'tgandan so'ng hisob-kitob qiladi. Agar loyihaga ovoz beruvchilarning 1/5 qismi qarshi bo'lmasa, u holda loyiha qabul qilinadi. ISO standartlarini ishlab chiqish kabi MEK standartlarini ishlab chiqish ham murakkab jarayon hisoblanadi. SHuning uchun ham MEK standartlarini ishlab chiqish va uni tasdiqlash uchun taxminan 5 yil vaqt ketadi. Metrologiya qonuniyati bo'yicha MOZM (mejdunarodnaya organizatsiya zakonadatelnoy metrologii) ham standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot deb hisoblanadi. MOZM xalqaro tashkiloti 1955 yilga tashkil topgan bo'lib, uning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-MOZMga a'zo mamlakatlar uchun o'lchov vositalari metrologik tavsifining yagona birligini ta'minlash;

- tekshiruv jihozlari, etolon, namuna va ishchi o'lchov vositalarini uyg'unligini ta'minlash;

- xalqaro masshtabda o'lchovning yagona birligini ta'minlash;

- metrologik xizmatlarning eng maqbul (optimal) shakllarini ishlab chiqish;

- rivojlanayotgan mamlakatlarda metrologik xizmatni tashkil etish va uyushtirish yoki tashkil etishda ilmiy-texnik hamkorlikni amalga oshirish va texnik vositalar bilan jihozlashda yordam ko'rsatish;

- metrologiya sohasida har xil darajadagi malaka (kvalifikatsiya) berishda kadrlar tayyorlashning yagona prinsiplarini o'rnatish yoki belgilash va boshqalar.

Metrologiya bo'yicha Xalqaro konferensiya (anjuman) MOZMning rahbariy oliy organi hisoblanadi va u har 4 yilda bir marta chaqiriladi. Anjuman va qo'mitalar ishlari Xalqaro byuro tomonidan amalga oshiriladi. Byuro tarkibiga direktor, direktor o'rinbosarlari, muxandis (injener) va xizmatchilar kiradi. Byuro Fransiyaning markazi Parij shahrida joylashgan. MOZMning rasmiy tili - franso'z tili. YUqorida qayd etilgan tashkilotlarga o'xshash tashkilotlardan yana biri Sifat nazorati bo'yicha EVROPA tashkiloti - EOKK. Bu tashkilot 1957 yilda tashkil topgan bo'lib, uning ustavi 1976 yilda qabul qilingan. Tashkilotning o'sishida ko'rsatilgan asosiy vazifalari, mahsulot sifatini oshirish (yaxshilash) maqsadida sifatni boshqarishning amaliy uslublari va nazorat prinsiplarini har tomonlama takomillashtirish, targ'ibot qilish va ko'maklashishdan iborat. Hozirgi kunda 50 ga yaqin Evropa, Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlari EOKK tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Yana bir narsani qayd etish joizki, milliy organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish uchun 1992 yilda sobiq SSSR parchalanib ketgandan so'ng (Boltiqbuyi respublikalaridan tashqari) hamdo'stlik mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashi to'zildi, (MGS) bu kengashda O'zbekiston Respublikasi nomidan O'z davstandart ishtirok etadi. ISO 9000 xalqaro standartlari faqat sifat tizimlarini hujjatlashtirishga talablar qo'yadi. SHuning uchun ularning talablari mahsulot va xizmatlarning texnik tavsiflari va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq emas. Unga qaramasdan, hujjatlashtirish talablariga qat'iy rioya qilingan holda, mahsulot sifatini oshirish va xavfsizligini ta'minlashga erishish mumkin. ISO 9000 xalqaro standartlari istemolchilarning bugungi va ertangi talablarini qondirilishini to'liq kafolatlaydigan umumiy talablarni o'z ichiga oladi. SHuning uchun ham bu standartlar mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlashda dunyodagi eng muhim standartlardan hisoblanadi. Bu standartlardan dunyo mamlakatlarining aksariyat korxopalari sifat tizimlarini yaratish, so'ngra ularni sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun foydalaniladi. Sifat tizimiga talablar belgilaydigan va ISO 9000 xalqaro standartlar oilasiga quyidagi raqamdagi xalqaro standartlari kiradi: ISO 9000, ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 va ISO 9004. SHulardan ISO 9000 (Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va (lug'at) xalqaro standarti sifat menejmenti tizimlarining asosiy qoidalarini belgilaydi hamda ularda qo'llaniladigan atamalar mazmunini aniqlaydi va quyidagi hollarda qo'llaniladi:

-mahsulot etkazib beruvchilarning mahsulot sifatiga qo‘ygan talablari to‘liq bajarilishiga ishonch hosil qilishda;

-korxonalar tomonidan sifat menejmenti tizimlarini joriy etish orqali imtiyozlarga erishishga intilayotganda;

- sifat menejmentida ishlatiladigan atama va tushunchalardan manfaatdor bo‘lishda va sifat menejmenti tizimlarini baholashda;

- sifat menejmenti bo‘yicha maslahat berish va o‘qitishda hamda sifat tizimlariga tegishli standartlar ishlab chiqishda;

Demak, ISO 9000 halqaro standart sifat menejmenti tizimlari bilan aloqador bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari, iste‘molchilar va undan manfaatdor korxonalarining barchasida qo‘llanilar ekan. ISO 9001 standart (sifat menejmenti tizimlari. Talablar) sifat menejmenti tizimlariga umumiy talablar belgilaydigan standartlar kompleksi ichida eng muhimlaridan biri hisoblanadi va u mahsulotni loyihalashdan tortib to uni ishlatish jarayonlarigacha bo‘lgan davrda mahsulot sifatini ta‘minlash bo‘yicha sifat menejmenti tizimlariga talablar qo‘yadi. SHuning uchun ham bu standart mahsulot hayot davrining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. ISO 9002 va ISO 9003 halqaro standartlari ISO 9001 xalqaro standartining qisqartirilgan shakli hisoblanadi. SHunga ko‘ra bu standartli mahsulot sifati va xavfsizligini taminlash uchun mahsulot hayot davrining ma‘lum bir bosqichlarida qo‘laniladi. ISO 9004 standarti (Sifatni ma‘muriy boshqarish va sifat tizimining elementlari) umumiy nom bilan yuritiladigan va har biri mustaqil bo‘lgan 8 ta qismdan to‘zilgan. Masalan, 1-qismi (ISO 9004-1. Rahbariy qoidalar) va 2-qismi (9004-2. Xizmatlar bo‘yicha rahbariy qoidalar) xom ashyo, yarim fabrikatlar va aqliy mehnat (intellektual) mahsulotlari ishlab chiqaradigan va xizmat ko‘rsatadigan korxonalarining sifat menejmenti tizimlariga talablar qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Umuman olganda, ISO 9004 xalqaro standartidan iste‘molchilar talablarini yuqori darajada qondirish maqsadida mahsulot sifatini yanada yaxshilash uchun foydalaniladi. ISO 9000 xalqaro standart oilasiga kiruvchi standartlarning mahsulot sifatini va xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyatini e‘tiborga, olgan holda respublikamiz hukumati tomonidan ISO 9000 halqaro standartlari talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilish bosqichma-bosqich tayyorlanish dasturi qabul qilingan. Ushbu «Dastur»ning bajarilishi ISO 9000 standartlarining 2000 yildagi tahririni qo‘llashga asoslangan. ISO 9000 halqaro standartlarning talablari asosida sifat tizim birgina tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan va xizmat ko‘rsatadigan korxonalaridagina emas, balki mahsulotlarni saqlash, tashish, ortish, tushirish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda ham yaratiladi va so‘ngra sertifikatlashtiriladi.

YUqorida ta‘kidlab o‘tilgan «Dastur»ni bajarish bo‘yicha va milliy korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ISO 9000, ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003, ISO 9004 va ISO 8402 xalqaro standartlari davlat tiliga tarjima qilinib, respublikamiz

milliy standarti (O'zDSt ISO 9000:2002, O'zDSt ISO 9001:2002, (O'zDSt ISO 9002:1999, O'zDSt ISO 9003:1999, O'zDSt ISO 9004:1999 va PCT O'z. ICO 8402:1998) sifatida qabul qilingan. Hozirgi kynda O'zDSt ISO 9000:2002 standarti talablari asosida respublikamizning qator nufo'zli korxonalarida («SamAvto» qo'shma korxonasi, «Namangan mat» OAJ va boshqalarda) sifat tizimlari yaratilgan va amalda joriy etilgan.

Tayanch iboralar: RH 51-033-97; RH O'z. 51-041-95; Nizom; standartning bajarilishi shart bo'lgan talablari; bosh davlat inspektorlari va inspektorlar; yillik va istiqbolli rejalar; tekshirish dalolatnomasi; o'zgartirishlar loyihasi; harakat muddati; standartni bekor qilish; ISO; STAKO; PLAKO; SERTIKO yoki KASKO; INFKO; Texnik qo'mita va kichik texnik qo'mita; DEVKO; KOPOLKO; MEK; MOZM; EOKK; byuro, konferensiya; Markaziy kotibiat.

Nazorat uchun savollar:

1. Ishlab chiqariladigan mahsulotga belgilangan me'yoriy hujjatlarning bajarilishi qaysi qonun va qaror asosida amalga oshiriladi?
2. O'zbekistonda o'tkaziladigan davlat nazoratlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mahsulotga belgilangan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy va qonunchilik hujjatlarning bajarilishi qaysi idoralar tomonidan nazorat qilinadi?
4. SMSHMning kengaytirilgan ma'nosi va uning faoliyati nimalardan iborat?
5. Qaysi idoralar O'zbekistonda standartlar ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi?
6. Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish qanday amalga oshiriladi?
7. ISO qanday tashkilot va uning vazifalari nimalardan iborat?
8. MEK nima, qachon tashkil qilingan va uning vazifalariga nimalar kiradi?
9. ISO 9000 tarkibi nimalardan tashkil topgan?
10. ISO 9000 tarkiblari O'zbekistonda qanday milliy standartlari ishlab chiqilgan?

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Standartlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni nazorat qilish tartiblari to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi va bilishi lozim?
2. Standartlarni o'zgartirish va bekor qilish to'g'risida etarli bilimga ega bo'lishi kerak.
3. Xalqaro standartlashtirish (ISO, MEK, ISO-9000) tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari bo'yicha bilimlarga bo'lishi va ularni bilishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 11, 12, 13, 14, 15, 17, 18.

13-mavzu. O‘zbekistonda metrologiya, o‘lchamlar birligini ta‘minlash davlat tizimi, metrologik nazorat

1. Ma‘ruzaning ta‘lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual, axborot ma‘ruza
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasi «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonuni ahamiyati va vazifalari 2. Metrologiya bo‘yicha asosiy atamalar va tushunchalar 3. O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta‘minlash davlat tizimi 4. Metrologik xizmatlar va metrologik ta‘minot me‘yoriy-huquqiy asoslari
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> O‘zbekistonda metrologiya, o‘lchamlar birligini ta‘minlash davlat tizimi, metrologik nazorat to‘g‘risida tushunchalar be-rish.</p>	
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Respublikada metrologiya bo‘yicha ishlarni huquqiy ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonun-ning ahamiyati va vazifalari to‘g‘ri-sida axborot beriladi. • Metrologiya bo‘yicha yagona o‘lchash birligi, ulchash vositasi, birlik ztoloni, Davlat etoloni., metro-logiya xizmati. <i>Nazorati kabi</i> assosiy atamalar va tushunchalar <i>tushuntiriladi.</i> • O‘zbekiston Respublikasi o‘lcham-lar birligini ta‘minlash davlat tizimi bilan tanishtirilib ular-ning vazifalari yoritiladi. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonunning ahamiyati va vazifalari to‘g‘risida axborotga ega buladi. • Metrologiya bo‘yicha asosiy atamalar va tushunchalar <i>bilan tanishadi.</i> • O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta‘minlash davlat tizimi va vazifalari bilan tanishib yagona kunikmaga ega buladi. • O‘zbekiston metrologik xizmatlari va metrologik ta‘minot me‘yoriy-huquqiy asoslari bilan tanishadilar va bu bo‘yicha ma‘lum tasavurga ega bo‘ladilar.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma‘ruza, insert, xdmkorlikda O‘qitish texnikasi,.
O‘qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O‘qitish vositalari	Ma‘ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O‘qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1. Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Respublikada metrologiya bo'yicha ishlarni huquqiy ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonunning ahamiyati va vazifalari to'g'risida axborot beriladi. 2.3.Metrologiya bo'yicha yagona o'lchash birligi, o'lchash vositasi, birlik etoloni, Davlat etoloni., metrologiya xizmati. Nazorati kabi assosiy atamalar va tushunchalar tushuntiriladi. 2.4.O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi bilan tanishtirilib ularning vazifalari yoritiladi. 2.5.O'zbekiston metrologik xizmatlari va metrologik ta'minot me'yoriy-huquqiy asoslari tushuntiriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tiborberadilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4. Eshitadilar, yozadilar. 2.5. Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. O'zbekiston Respublikasi «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni ahamiyati va vazifalari

Metrologiya fani o'zoq tarixga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan olganda iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ega bo'lgan, doimiy ravishda va o'zluksiz tarzda rivojlanishda bo'luvchi fanlar turkumiga kiradi.

Metrologiya fani mahsulot (xizmat)lar sifatini ilmiy-texnik asosida nazorat qilishning asosi hisoblanadi, chunki qaerda mahsulotning holati, o'lchamlari

zamonaviy sinash va o'lchov asboblari orqali aniqlansa, o'sha epda yuqori sifatga erishish mumkin.

Metrologiya fan sifatida o'lchashlar, ularga bog'liq va tegishli bo'lgan qator masalalarni o'z ichiga oladi. Metrologiya so'zi yunoncha so'zidan olingan bo'lib, o'lchash, o'lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan degan manolarni bildiradi.

Qaysi bir fan va uning yo'nalishini olmaylik, albatta ularda o'lchashlarni, ularning turli xil usullari va o'zaro bog'lanishlarini ko'ramiz. SHuning uchun ham bir fan yoki ilmiy yo'nalish, u hoh tabiiy, hoh ijtimoiy bo'lmasin albatta, ular ma'lum darajada metrologiya bilan o'zviy bog'liq.

Metrologiya (o'lchashlar) haqidagi fanning tarixi qadim-qadimlardan ma'lum, chunki o'lchashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Kishilar o'zlarining kundalik hayotida har xil kattaliklarni (masofa, Er maydonining yuzasi, jismlarning o'lchamlari (razmerlari), vaqt va boshqalar) yuzaga kelish sabablari va manbalarini bilmasdan turib, o'zlarining sezgilari hamda tajribalari asosida o'lchay boshlaganlar. Masalan, antropometrik, ya'ni insonning muayyan a'zolariga muvofiqlikka yoki moyilikka asoslangan holda kelib chiqqan eng qadimgi o'lchash birliklari hisoblanadi. Jumladan, Ladon - bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; fut-oyoq tagining o'zunligi; pyad - yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa qarich, quloch, qadam va shu kabilar shular jumlasidandir. Asrlar o'tishi bilan bizgacha etib kelgan ba'zi bir o'lchov birliklari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. Masalan, qadimgi janubiy-sharqda «Loviya doni», «No'xatcha» ma'nolarini bildiruvchi turli xil qimmatbaho toshlarning o'lchov birligi sifatida ishlatilgan «KARAT», dorishunoslikda og'irlik birligi qilib qo'llanilayotgan ingliz, franso'z, lotin va ispan tillarida «Bug'doy doni» ma'nosini bildiruvchi «GRAN» va boshqalar.

Vaqt o'lchovlari ham o'zoq o'tmishga ega bo'lgan tabiiy o'lchovlarning daslabkilaridan biri hisoblanadi. Munajjmlarning ko'p yillik kuzatishlari va natijasida qadimgi Vavilonda vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlatilganligi tasdiqlangan. Keyinchalik Erning o'z o'qi atrofida to'liq aylanishiga ketgan vaqtning $1/86400$ qismi sekund nomini olgan. Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizdan oldin 11-asrlardayoq vaqtni Minalarda o'lchashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat vaqt oralig'iga teng bo'lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rasm bo'lgan suv soatidan massasi taxminan 500 grammga teng bo'lgan «mina suv» oqib ketgan. Keyinchalik mina o'zgarib minutga aylangan.

Vaqt o'tishi bilan suv soatlari o'z o'rnini qum soatlariga, ular ham vaqt kelib mayatnikli mexanizmlilik soatlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Jahonda fan va texnikaning doimiy ravishda rivojlanib borishi har xil fizik kattaliklar o'lchamlarini muayyan o'lchovlarga taqqoslab qarataishni taqozo eta

boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi natijasida o'lchashlar haqidagi fan – *metrologiya* paydo bo'ldi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi o'lchov vositalari usullarini yanada takomillashtirishni talab eta boshladi. Jumladan, amaliyot (praktika) juda keng ko'lamdagi fizik kattaliklar qiymatini, ko'pincha juda ham tez (sekundning milliarddan bir bo'lagida), yuqori aniqlikda va nafaqat inson sezgi organlari to'g'ri ilg'ay olmaydigan, hatto hayot uchun sharoit bo'lmagan hollarda ham aniqlashni talab etadi.

Hozirgi kunda fanga 100dan ortiq har xil fizik kattaliklar ma'lum bo'lib, ularning 70 dan ortig'ini o'lchash mumkin. Undan tashqari fan va texnikaning rivojlanib borishi tufayli ilgari o'lchab bo'lmaydi deb hisoblangan kattaliklarni ham o'lchash va baholash imkoniyatlari yaratilmokda. Masalan, Sankt-Peterbo'rg aloqa instituti olimlari hidni o'lchash bo'yicha bir muncha yutuqlapra erishganlar. Bu borada buyuk italiyalik olim Galileo Galileyning quyidagi so'zlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: - «O'lchash mumkin bo'lganini o'lchang, mumkin bo'lmaganiga esa imkon yarating». Bu iboraning ma'nosi juda keng. Bunga misol qilib, kondensatorning elektr sig'imi, nurlanish oqimi, erigan metallning harorati va atomning magnit maydoni kuchlanishi kabi kattaliklarni maxsus texnik vositalaridan foydalanmasdan o'lchashni amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tarixda ko'plab olimlar o'lchash texnikasining rivoji uchun munosib hissa qo'shganlar. Masalan, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy. Mirzo Ulug'bek, Mixail Lomonosov, Dmitriy Mendeleev va boshqalar. SHulardan Axmad Farg'oniyning «Miqyosi Nil»», ya'ni Nil daryosining sahtini tutash idishlar qonuniyati asosida o'lchash va uning natijasiga ko'ra yilning yog'ingarchiligi va uning ekin xosiliga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlari. Mirzo Ulug'bekning «Zij jadvallari»da keltirgan natijalari, hozirgi kunda eng zamonaviy o'lchash qurilmalarida olingan natijalardan juda ham kam tavvofut qiluvchi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. SHuning bilan birgalikda Farobiyning astronomik kuzatishlar va o'lchashlar uchun maxsus asbob-uskunalar yasash sirlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari ham juda katta ilmiy, ham falsafiy ahamiyatga ega.

SHunday qilib, O'zbekiston Respublikasida ham metrologiya o'lchashlar birligini ta'minlash tizimining ilmiy asosi sifatida qabul qilingan.

Metrologiya o'lchash texnikasinnng nazariy asoslari, etolonlar va namunaviy o'lchash vositalarini yaratish hamda takomillashtirish, o'lchash birliklarining nazariy asoslarini ishlab chiqish va boshqa masalalar bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasining O'z RST 8.001-98 (O'zbekiston Respublikasi

o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchashlar birligini ta'minlash tizimi. Asosiy qoidalar) standarti bo'yicha metrologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'lchashlarning umumiy nazariyasi;
- fizik kattaliklar birliklari va ularning tizimlari;
- o'lchash usullari va vositalari;
- o'lchashlar birligi va vositalarining bir xilligini ta'minlash asoslari;
- etolon yoki namunaviy o'lchash vositalaridan ishchi o'lchash vositalariga birliklarning o'lchamlarini o'zlash usullari.

Metrologiya: nazariy metrologiya, qonunlashtiruvchi metrologiya va amaliy metrologiya qismlaridan tashkil topgan. *Nazariy metrologiya* nazariy masalalarni ishlab chiqsa, qonunlashtiruvchi metrologiya milliy idora tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatga tegishli bo'lgan birliklar, o'lchash usullari, o'lchash vositalari va o'lchash (sinov) laboratoriyalariga tegishli davlat talablarini ichiga oladi. *Amaliy metrologiya*, ya'ni kvalimetriya nazariy metrologiya nazariyalari va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo'llash bo'yicha metrologiyaning bir qismi hisoblanadi.

1993 yilning 28 dekabrda respublikada metrologiya bo'yicha ishlarni huquqiy ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi va u 1994 yilning 28 fevralidan boshlab huquqiy kuchga kirdi. Bu qonunning hayotga tadbiiq etilishi respublikamizdagi mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishi uchun asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni 5 bo'lim va 22 moddadan iborat. Bu bo'limlar quyidagilardan iborat:

- birinchi bo'lim. Umumiy qoidalar;
- ikkinchi bo'lim. Fizik kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo'llash;
- uchinchi bo'lim. O'zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari;
- to'rtinchi bo'lim. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati;
- beshinchi bo'lim. Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash.

Qonunning "Umumiy qoidalar" bo'limi 1-4 moddalardan iborat. Unda metrologiyaning asosiy tushunchalari, metrologiya to'g'risida qonunlar majmui, xalqaro shartnoma va bitimlar, metrologiya bo'yicha faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishiga izoh berilgan.

Ushbu qonunning "Fizik kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo'llash" bo'limida fizik kattaliklarning etolonlari, o'lchash vositalari o'lchashni bajarish uslublari to'g'risida ma'lumotlar berilgan (5-8 moddalar).

Qonunning "O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari" bo'limi 9-11 moddalarni o'z ichiga oladi. Unda O'zbekiston Respublikasining metrologiya

xizmatining tuzilishi, davlat metrologik xizmatlarining tarkibi va yuridik shaxslar metrologik xizmatlari yoritib berilgan.

Mazkur qonunning "Davlat metrologik tekshiruv va nazorati" bo'limida metrologik tekshiruv va nazorat o'tkazish tartibi, ularning ob'ektlari, davlat metrologik tekshiruv va nazoratining tadbiiq etish sohasi, davlat metrologiya nazorati va tekshiruvining turlari, o'lchash vositalarining tiplarini tasdiqlash, ularni taqqoslash va kalibrlash tartiblari ko'rsatilgan (12-20 moddalar).

Qonunning 5-bo'limi "Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan taminlash» 21 va 22-moddalardan to'zilgan bo'lib, ularda metrologik ishlarni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash va metrologik ishlar hamda xizmatlar uchun to'lov ko'rsatib berilgan.

Ushbu qonunda ko'rsatilgandek, o'lchash vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatiga kiritish O'zstavstandart tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda davlat ro'yxati belgisini qo'yish masalasi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan. "Metrologiya to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilishicha, tasdiqlangan o'lchash vositalariga yoki uning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat ro'yxati belgisini qo'yishi shart.

Ushbu qonunning 17-moddasida ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan o'lchash vositalari, asbob-uskunalari, qurilma va o'lchovlari O'zstavstandartning davriy ravishda taqqoslash (qiyoslash) dan o'tkazilib turishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari guruhning ro'yxatiga kiritilishi kerak.

2. Metrologiya bo'yicha asosiy atamalar va tushunchalar

Metrologiyada eng ko'p qo'llaniladigan atama (tushuncha)lar quyidagilardan iborat:

YAgona o'lchash birligi. YAgona o'lchash birligi deb, o'lchash natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va o'lchashdagi xatoliklar muayyan ehtimollikda bo'lgan o'lchash holatiga aytiladi.

O'lchash vositasi. O'lchash vositasi bu o'lchash uchun foydalaniladigan va meyorlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnik vositadir.

Birlik etoloni. Birlik etoloni deganda, fizik o'lcham birligini boshqa o'lchash vositalariga o'zatish maqsadida uni qayta hosil qilish, saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi tushuniladi.

Davlat etoloni. Davlat etoloni deb, vakolat berilgan Moddiy organning qarori bilan O'zbekiston respublikasi hududida o'lchash birligini o'lchash sifatida e'tirof etilgan etoloniga aytiladi.

Metrologiya xizmati. Metrologiya xizmati bu davlat idoralari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari va o'lchash tarmog'i tomonidan hamda ularning yagona o'lchash birligida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Davlat metrologiya nazorati. Davlat metrologiya nazorati, bu metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

O'lchash vositalarini tekshiruvdan o'tkazish. Bu tushunchaning asosiy ma'nosi o'lchash vositalarining belgilab ko'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmat idoralari tomonidan bajariladigan amallar majmuidan iborat.

O'lchash vositalarini kalibrlash – bu metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlari va o'lchash birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmuidir.

Litsenziya – bu o'lchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish, ta'mirlash, sotish, ijaraga berish uchun davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Kattalik – bu sifat tomonidan ko'pgina fizik ob'ektlarga nisbatan umumiy bo'lib, miqdor tomonidan har bir ob'ekt uchun xususiy bo'lgan xossadir.

3. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi

Ma'lumki, hozirgi kunda insoniyat bilan bog'lik bo'lgan faoliyatlarda jumladan, xalq xo'jaligi va davlatni boshqarish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganish, ilm-fan va texnika yutuqlarining amalga tadbiq etish va ularni rivojlantirish, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa sohalarda hamkorlik qilish hamda yuqori aniqlikda ma'lumotlar olishda o'lchamlar va ularning vositalari, turlari va birliklaridan foydalaniladi. Yuqorida ta'kidlagandek, insoniyatning o'lchashlar bilan bog'liq bo'lmagan birorta ham faoliyati yo'q, chunki ular inson faoliyatining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. SHuning bilan birgalikda metrologik o'lchamlar va vositalar yordamida olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi o'lchashlar birligiga qat'iy rioya qilinishiga bog'liq bo'lib, mahsulotlar (xizmatlar) sifatini yaxshilash va taminlash, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, moddiy va ma'naviy boyliklar hamda vaqtdan tejamkorlik bilan foydalanishning ham garovi hisoblanadi. Respublika o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi halqaro tizimlar va rivojlangan mamlakatlarining tizimlari bilan to'liq uyg'unlashtirilgan. O'zbekiston Respublikasiniig O'z RST 8.001-98 (O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchamlar birligini ta'minlash tizimi. Asosiy qoidalar) standartida o'lchashlar birligini taminlash bo'yicha milliy davlat tizimining asosiy qoida va tushunchalari to'liq ko'rsatib berilgan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi respublikani metrologik tomonidan ta'minlashdan

iborat. Metrologik ta'minlash tushunchasi mamlakatda kerakli etolonlar, namunaviy va ishchi o'lchash vositalarini yaratish, ularni maqsadli tanlash va qo'llash, mahsulot sifatini ta'minlash, uning raqobatbardoshligini ichki va tashqi bozorda oshirish uchun kerak bo'lgan qoidalar, me'yorlar va boshqa metrologik ishlarni bajarishga qaratilgan metrologik idoralar faoliyatini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi deb, o'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan boshqariladigan sohalarda metrologiya bo'yicha milliy idora tomonidan respublika hududida tasdiqlangan va joriy etiladigan talablar, qoidalar, nizomlar va ishlarni o'tkazish tartibini belgilaydigan o'zaro bog'langan va o'zaro aloqador bo'lgan xalqaro, davlatlararo va milliy me'yoriy hamda uslubiy hujjatlar majmuiga aytiladi.

O'lchamlar birligi deganda, o'lchamlar natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va ularning xatoliklari berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaradan chiqmaydigan o'lchashlar holati tushuniladi. Respublikada xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlar, ularning qaysi idoraga mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar va tashkilotlar o'lchashlar birligiga rioya qilishlari shart.

O'lchamlar birligini ta'minlash deb, o'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinadigan qonun hujjatlari, standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, o'lchamlar birligiga erishish va saqlab turishga yo'naltirilgan xizmatlar va idoralar faoliyatiga aytiladi.

O'lchamlar birligini ta'minlash tizimi - bu o'lchamlar birligiga erishish va ularni saqlab turish uchun Respublika xalq xo'jaligi majmuasini samarali iqtisodiy rivojlanish talablariga bog'liq bo'lgan va ilmiy asoslangan, texnik tomonidan to'g'ri keladigan hamda iqtisodiy maqbul bo'lgan me'yorlar, qoidalar va tadbirlar tizimidir.

Ma'lumki, har bir faoliyat, u qaysi yo'nalish yoki maqsad uchun bo'lmasin, albatta o'zining maqsad va vazifalari bo'lganidek, Respublika o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining ham o'z maqsad va vazifalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining asosiy maqsadi qo'yidagilar hisoblanadi:

- belgilangan huquqiy tartib, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va manfaatlarini o'lchashlar natijalarining ishonchli bo'lmagan salbiy oqibatlaridan himoya qilish;

- o'lchash vositalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, sotish, ijaraga borish masalalari bo'yicha davlat boshqaruv idoralari, xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish;

- O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi majmuasining barcha sohalarida o'lchamlar birligiga va talab qilgan aniqlikka erishishni ta'minlash asoslari va sharoitini yaratish;

- o'lchamlar birligini ta'minlash milliy tizimi qoidalari va tadbirlari, xalqaro hamkorlikdagi texnik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida xalqaro tashkilotlar va boshqa Davlatlarning o'lchamlar birligini ta'minlash tizimlari tavsiyalari bilan uyg'unlashtirish;

- metrologiya faoliyati sohasida xalqaro va mintaqaviy maqsadi, hamkorlikni ta'minlash, o'lchashlar, taqqoslash, kalibrlash (o'lchov asbobining aniqligini boshqa bir asbob bilan tekshirib to'g'rilash), sinash, sertifikat-lashtirish va metrologik idoralar va xizmalarni akkreditlash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi davlatlararo bitimlarni bajarish uchun sharoitlar yaratish;

- xo'jalik sub'ektlari darajasida O'zbekiston Respublikasining o'lchamlari birligini ta'minlash davlat tizimi (O'zO'DT) talablarining sifat tizimlari, korxonalar va tashkilotlarda amal qilayotgan boshqa tizimlarning talablari va qoidalari bilan uyg'unlashtirish.

Ma'lumki, bajariladigan vazifalar qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqadi. SHunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-xalqaro birliklar tizimini joriy etish, unga rioya qilish va respublikada o'lchamlar birligini ta'minlash tizimining (O'z O'BTT) metrologik me'yorlari, qoidalari va talablari, o'lchashlar birligini ta'minlash, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar va milliy tizimlar tavsiyanomalari bilan uyg'unlashtirish asosida respublikani davlatlararo munosabatlariga ko'maklashish;

-O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi majmuasining ajralmas qismi sifatida O'z O'BTT ning rivojlanishini oldindan belgilab berish;

-o'lchamlar birligi, uning talab etilgan aniqligi va ishonchligini ta'minlash hamda o'lchash uslublari, o'lchash vositalari va ularning aniqligini unumdorligi hamda ishonchligini oshirishni mukamallashtirish asosida ilmiy-texnik imkoniyatlarni oshirish va milliy iqtisodiy rivojlantirish;

- bozor munosabatlari sharoitida o'lchashlarning maqbul variantlarini tashkil etish va mahsulot yaratishning barcha bosqichlarini metrologik ta'minlash asosida mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash;

- barcha sohalarda (savdo, sog'liqni saqlash, mehnat xavsizligini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar) jamoa manfaatlarini hisobga olgan holda, o'lchashlar natijalarini kerakli ishonchlik bilan o'rnatish va ta'minlashning yuridik hamda huquqiy asoslarini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi belgilangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

-katgaliklar birliklarining davlat etolonlari va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini yaratish hamda takomillashtirish, kattaliklar birliklarining o'lchamlarini

etolonlarda o'lchash vositalariga o'zlash me'yorlari va qoidalarini belgilash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va o'tkazish;

- o'lchamlar birligini ta'minlashning asosiy nizomlari, qoidalari va me'yorlarini standartlashtirish O'zO'BTTning huquqiy, me'yoriy va uslubiy asosini yaratish va saqlab turish;

- ishonchsiz o'lchamlarning salbiy oqibatidan jamiyatni himoya qilish uchun metrologik me'yorlar va qoidalarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- fan, ma'lumotlar, axborotlar, metrologik idoralar, texnik, mehnat va moddiy-moliyaviy manbalardan tashkil topgan metrologik infro to'zilmani tashkil etish va boshqarish.

Ma'lumki, har qanday faoliyat (ishlab chiqarish, savdo, respublika va xalqaro tashkilotlar, fan, texnika va boshqalar) o'zining ma'lum bir tizimiga ega. SHu sababli O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi ham o'z tizimlariga ega. Bu tizimlar quyidagilardan iborat va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mamlakat iqtisodining rivojlanish talablariga mos ravishda birliklarning qayta tiklanishini ta'minlaydigan kattaliklar birliklarining davlat etolonlari majmui va eng yuqori aniqlikdagi boshlang'ich o'lchash vositalari;

- kattaliklar birliklarining o'lchamlarini taqqoslash sxema (jadval)lari asosida yaratilgan etolonlar;

- vazirliklar, muassasalar, korxonalar miqyosida ishlab chiqiladigan, tasdiqlanadigan va O'zO'DT nizomlari, qoida va me'yorlari talablarini amalga oshirishni ta'minlaydigan me'yoriy va uslubiy hujjatlar majmui;

- o'lchash vositalarini sinash, metrologik attestatsiyalash, sertifikatlashtirish;

- o'lchashlarni bajarish uslublarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish orqali o'lchash vositalarini taqqoslash, kalibrlash va solishtirishni tashkil etish hamda ularni amalga oshirish;

- moddalar va materiallar tarkibi va xossalarini tavsiflaydigan kataliklar birliklarini qayta tiklanishini ta'minlaydigan moddalar hamda materiallar tarkibi va xossalarining standart namunalarini tasdiqlash;

- moddalar va materiallarning fizik konstantalari to'g'risida standart ma'lumotlaridan foydalanish;

- metrologiya bo'yicha idoralar, xodimlar va ishlarni akkreditlash va sertifikatlashtirish;

- metrologik axborotni tasniflash, kodlash va axborotli texnologiyalarni joriy etish;

4. Metrologik xizmatlar va metrologik ta'minot me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining me'yoriy va huquqli asoslari metrologiya bo'yicha respublika qonun hujjatlari, standartlari va xalqaro tashkilotlar (o'lchov me'zonlar bo'yicha bosh anjuman (konferensiya), metrologiyaning qonunlashtiruvchi xalqaro tashkiloti, standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot ISO, metrologiya bo'yicha MDH mamlakatlari doirasidagi xalqaro hamkorlik va boshqalar)ning qarorlariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida metrologik ta'minotniig xuquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni va respublikaning boshqa qonun hujjatlarining majmuidan iborat bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida metrologiya bo'yicha barcha munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi va 2000 yil 29 mayda qabul qilingan «Metrologiya haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunlari respublikadagi o'lchamlar birligini ta'minlash sohasidagi ishlarning qonunchilik asosi bo'lib hisoblanadi. CHunki, bu qonunlarning asosiy yo'nalishlari noaniq natijalarning salbiy oqibatlari bo'yicha belgilangan xuquqiy tartibni, davlat va yuridik shaxslarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish, metrologiya masalalar bo'yicha davlat boshqaruv idoralari (organlari) va xo'jalik sub'ektlari orasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. SHu boisdan ham metrologik ta'minotining bajaradigan vazifalarini amalga oshirish maqsadida O'zdavstandartga katta vakolat va xuquqlar berilgan. Masalan, harakatdagi qonun hujjatlariga asosan O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ning metrologik qoidalariga rioya qilmagan holda ishlab chiqarilgan, saqlangan mahsulotlarni sotish va ulardan foydalanishni ta'qiqlashdan boshlab to aybdor shaxslar ustidan jinoiy ish qo'zg'atish uchun takliflar berish xuquqiga ega.

O'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha asosiy qonun-qoidalar, talab va me'yorlar O'BTT (O'zbekiston o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi)ga kiradigan standartlarda belgilangan. Masalan, O'zRST 8.003-92 (O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchash vositalarin qiyoslash. Asosiy qoidalar), O'z.RST 8.002-92 (O'zbekiston Rsspublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologik boshqaruv va nazorat), O'z.RST 8.010-93 (O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar, ta'riflar va boshqalar).

YUqorida ko'rsatib o'tilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari respublikada o'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha davlat strategiyasini belgilaydi va bu sohada asos bo'luvchi qonun hujjatlari bo'lib hisoblanadi. Undan tashqari yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar metrologiya sohasida rasman tan olingan xalqaro va mintaqaviy

(davlatlararo) qoidalar va me'yorlarga muvofiq keladi, bu esa mamlakatning jahon ham jamiyati, sanoat va iqtisodiy integratsiyasi hamda savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etishga imkon yaratib beradi.

Ma'lumki, har qanday o'lchash vositasi ham uni ishlatish jarayonida o'z xususiyatlarini o'zgartiradi. SHuning uchun o'lchash vositalarining parametrlari vaqti-vaqti bilan tekshirilib turiladi va ularning tekshirish natijalari asosida bu o'lchash vositalarini bundan so'ng ham qo'llanishiga yaroqliligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. O'lchash vositalarining parametrlarini tekshirish, ularni tasdiqlash, qiyoslash (taqqoslash) va kalibrlash orqali amalga oshirildi. Bu operatsiyalar esa tasdiqlangan uslub asosida O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan o'tkaziladi.

O'lchash vositalarini qiyoslash to'g'risidagi asosiy qoidalar O'zRST 8.00-92 (O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchash vositalarini qiyoslash. Asosiy qoidalar)da belgilab berilgan. Ushbu standart talablari bo'yicha barcha o'lchash vositalari, shu jumldan, foydalanilayotgan, ishlab chiqarilayotgan, ta'mirlanayotgan va chetdan keltirilgan o'lchash vositalari davlat yoki tarmoq qiyoslashidan o'tkazilishi shart. Bunday vazifani bajarish davlat metrologik idoralari va belgilangan tartibda akkreditlangan xo'jalik sub'ektlari (tashkilotlar, konsernlar va boshqalar)ning metrologik xizmatlariga yuklatilgan.

Qiyoslash - bu me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan sharoitlarda o'lchash vositalarining yaroqliligini aniqlash maqsadida davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmuidir. SHunday ekan, qiyoslashning asosiy maqsadi o'lchash vositalarini foydalanish uchun yaroqliligini aniqlashdir. Qiyoslash paytida metrologik tavsiflarni baholash bilan bir qatorda, o'lchash vositalarining xavfsizlik tavsiflari ham baholanadi.

O'lchash vositalarini qiyoslash dastlabki, davriy, navbatdan tashqari, taftishli va ekspert qiyoslash turlariga bo'linadi.

Dastlabki qiyoslash deb, ishlab chiqarish yoki ta'mirlashdan chiqarilayotgan o'lchash vositalarini birinchi marta qiyoslashga aytiladi. O'lchash vositalarining har biri dastlabki qiyoslashdan o'tkaziladi.

Davriy qiyoslash deganda, dastlabki qiyoslashdan o'tkazilgan o'lchash vositalaridan foydalanish jarayonida, ularni majburiy davriy qiyoslashdan o'tkazish tushuniladi. SHunday zkan, davriy qiyoslashning asosiy maqsadi dastlabki qiyoslashdan o'tgan va ishlatilayotgan hamda vaqtincha saqlanib turgan o'lchash vositalarining yaroqliligini aniqlashdan iboratdir. Davriy qiyoslashning muddatlari O'zdavstandarti («O'zstandart» agentligi) tomonidan belgilanadi.

Namunaviy va ishchi o'lchash vositalari davlat qiyoslashi bo'yicha to'ziladigan shartnomalarda belgilangan muddatlarda va tarmoq qiyoslashi bo'yicha xo'jalik sub'ekti

rahbari tomonidan tasdiqlangan jadval yoki shunga o'xshash hujjatlar asosida o'tkaziladi.

O'lchash vositalarini *navbatdan tashqari qiyoslash* foydalanayotgan o'lchash vositalari bo'zilganda, o'lchash vositalarining dastlabki yoki davriy qiyoslashdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qolganda, saqlashdan so'ng ishlatilganda, ularning yaroqliligini tasdiqlovchi qiyoslash belgisi yoki hujjatning amal qilish muddati tugaganda va boshqa hollarda o'tkaziladi.

Taftishli qiyoslash deganda, o'lchash vositalarini ishlatish uchun yaroqliligini aniqlash bo'yicha davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o'lchash vositalarining holati, ularni qiyoslash va qo'llash qoidalarining bajarilishini tekshirish tushuniladi.

O'lchash vositalarini qiyoslash qat'iy belgilangan va bajariladigan ish tartibi (protsedura) hisoblanadi va yuqorida ta'kidlanganidek, O'zstandart agentligi tomonidan tasdiqlangan qiyoslash usullariga asosan amalga oshiriladi. Qiyoslashning ishonchliligi uchun javobgarlik qiyoslashni amalga oshiruvchi mansabdor shaxsga yuklatiladi. Qiyoslash natijalari esa o'lchash vositasiga maxsus (shaxsiy) belgi qo'yish yoki qiyoslash haqida guvohnoma berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspert qiyoslash o'lchash vositalari ma'lumotnomalarining ishonchliligi va foydalanish yoki ishlatish uchun yaroqliligi bo'yicha janjalli yoki munozarali masalalarni hal qilish maqsadida o'tkaziladi.

Ekspert qiyoslash xo'jalik sub'ektlarining arizalari yoki sud va tergov organlarining talablariga binoan metrologik xizmat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Bu paytda manfaatdor tomonlarning vakillari qatnashishi mumkin. Qiyoslashning natijalari bo'yicha yozma ravishda xulosalar qilinadi va ular davlat metrologik xizmat idoralari rahbarlari tomonidan tasdiqlangandan so'ng arizachi yoki tergov, yoki sud organlariga yuboriladi. Qiyoslashning boshqa turlarining natijalari dalolatnoma (akt) orqali rasmiylashtiriladi.

O'lchash vositalarining quyidagi turlari davlat qiyoslashidan majburiy ravishda o'tkaziladi:

- davlat metrologik xizmatlari va xo'jalik sub'ektlarining namunaviy o'lchash vositalari;
- namunaviy o'lchash vositasi sifatida ishlab chiqarilayotgan o'lchash vositalari;
- ion holatda nurlanadigan va tarkibida ion tariqasida nur ajratib chiqaradigan manbali o'lchash vositalari;
- boshqa xo'jalik sub'ektlari uchun ta'mirlashdan chiqarilgan o'lchash vositalari;
- milliy va xalqaro sportning eng yuqori natijalari (rekordlari)ni ro'yxatga oladigan o'lchash vositalari;
- davlat arbitraji tomonidan ekspertiza o'tkazishda va bojxona nazoratida qo'llaniladigan o'lchash vositalari;

- ishchi o'lchash vositasi sifatida qo'llaniladigan o'lchash vositalari;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'liqni saqlashda qo'llaniladigan hamda mehnat, transport harakati, xo'jaliklararo o'zaro hisob-kitob, savdo-sotiq va aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlarni ta'minlaydigan o'lchash vositalari.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan o'lchash vositalariga kirmagan boshqa o'lchash vositalari tarmoq qiyoslashidan o'tkaziladi.

O'lchash vositalari davlat metrologik xizmatlari tomonidan 15 kun muddat ichida o'tkazilishi kerak.

O'lchash vositalarini qiyoslash huquqi davlat yoki tarmoq qiyoslovchisi degan guvohnomaga ega bo'lgan shaxslarga beriladi.

Qiyoslashdan o'tgan barcha o'lchash vositalariga qiyoslash belgisi qo'yiladi va u belgi o'lchash vositasining qiyoslash omili va uning ishga yaroqliligini tasdiqlaydigan belgi hisoblanadi.

Agar jismoniy shaxslarning o'lchash vositalari individual mehnat uchun qo'llaniladigan bo'lsa, u holda ular davlat qiyoslashidan o'tkazilishi shart.

O'quv vositalari yoki indikatorlar guruhiga kiradigai o'lchash vositalari qiyoslashdan o'tkazilmaydi. Bunday o'lchash vositalarining old tomoniga O'zRH 51-008-93ga muvofiq «I» (indikator) yoki «U» (учебный) belgisi qo'yiladi va ularni kattaliklar qiymatlarini aniqlash uchun qo'llash taqiqlanadi.

Davlat metrologik tekshiruv va nazorati tomonidan belgilangan doiradan tashqari qo'llaniladigan o'lchash vositalari kalibrlashdan o'tkazilishi kerak. *O'lchash vositalarini kalibrlash* deb, o'lchash vositalarining haqiqiy metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmuiga aytiladi.

Kalibrlash ham dastlabki va davriy kalibrlash turlariga bo'linadi.

Dastlabki kalibrlash qiyoslash kabi ishlab chiqarish yoki ta'mirlashdan chiqarilayotgan va tasdiqlanishi lozim bo'lmagan o'lchash vositalari bo'yicha o'tkaziladi. *Davriy kalibrlash* ham qiyoslash kabi o'lchash vositalarining ishlatish jarayonlarida o'tkaziladi.

Yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini kalibrlash ishlarini bajarish huquqi O'zstavstandart («O'zstandart» agentligi)ning hududiy markazlari (HSMSM) tomonidan O'z RH 51-071-98 va O'z RH 51-081-99 talablariga muvofiq akkreditlanadi.

O'lchash vositalarini kalibrlash vazifasini bajaruvchi mutaxassislar qiyoslovchilar kabi majburiy davriy tayyorgarlik va attestatsiyadan o'tishlari kerak.

O'lchash vositalarini kalibrlash O'zstandart agentligining hududiy markazlari (HSMSM) bilan kelishilgan va korxonalar yoki tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlangan kalibrlash usuli (metodi) yordamida amalga oshiriladi.

O'lchash vositalarining kalibrlanganligi ularga *sertifikat berish yo'li* bilan tasdiqlanadi. Agar kalibrlash xaqidagi shartnoma shartlariga ko'ra o'lchash vositasini

faqat me'yoriy hujjatlar talabiga mos kelishini aniqlash ko'rsatilgan bo'lsa, u holda kalibrlash natijalari ijobiy bo'lganda kalibrlovchi shaxs o'lchash vositasiga o'zining shaxsiy kalibrlash tamg'asini bosadi.

O'zbekiston Respublikasining o'lchash vositalarini kalibrlash tizimining asosiy qoidalari O'zRST 8.016-97 standartida belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni va yuqorida ko'rsatib o'tilgan me'yoriy hujjatlar talablariga ko'ra qiyoslash hamda kalibrlashdan o'tmagan, qiyoslash haqidagi guvohnomalari bo'lmagan yoki kalibrlash haqidagi sertifikatlar bilan tasdiqlanmagan o'lchash vositalarining amalda qo'llanishi man etiladi.

O'lchash vositalarining ko'rsatkichlarini haqiqiy qiymatlari to'g'risida ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlar olish va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini ta'minlash maqsadida ular davlat sinovlaridan o'tkaziladi.

Davlat sinovlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublikada ishlab chiqarilayotgan yoki chetdan keltirilayotgan o'lchash vositalarining me'yoriy hujjatlarga mos kelishini tekshirish va ularning metrologik, texnik-iqtisodiy hamda foydalanish xususiyatlarini baholash;

- o'lchash vositalarining hozirgi zamon ilmiy-texnik darajasiga to'g'ri kelishini tekshirish va qiyoslash me'yoriy hujjatlari, qiyoslash va ta'mirlash me'yoriy vositalari bilan ta'minlanganligini tekshirish;

- respublikada o'lchash vositalarini seriyalab ishlab chiqarilishi yoki chetdan keltirilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash.

Barcha o'lchash vositalari *ikki xil* - davlat qabul qilishi va nazorat sinovlaridan o'tkaziladi.

Qabul qilish sinovi o'lchash vositalarining texnik topshiriq va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlaydi, texnik darajasini baholaydi hamda ishlab chiqarishga qo'yish uchun qaror chiqaradi va o'lchash vositalarini chetdan keltirish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. *Nazorat sinovlari esa*, respublikada seriyalab ishlab chiqarilayotgan o'lchash vositalari namunalarning tasdiqlangan xili, me'yoriy hujjatlar va texnik shartlarga mos kelishi hamda ishlab chiqarish korxonalarining metrologik tomondan ta'minlanganlik darajasini aniqlab beradi.

Respublikada seriyalab ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarining tajribaviy namunalari va chetdan keltiriladigan o'lchash vositalari davlat qabul qilish sinovlaridan o'tkaziladi va faqat ushbu sinov natijalari buyicha o'lchash vositalarining xillari tasdiqlanadi, ularni *Davlat reestriga kiritish*, seriyalab ishlab chiqarish yoki chetdan keltirish bo'yicha ruxsat beriladi.

Nazorat sinovlarining ijobiy natijalari respublikada o'lchash vositalarini seriyalab ishlab chiqarish yoki chetdan keltirish uchun asos bo'ladi va ularni ishlab chiqarish yoki chetdan keltirish uchun 5 yil muddatga ruxsatnoma beriladi.

Agar nazorat sinovlari bo'yicha salbiy natijalar olinsa, u holda o'lchash vositalarini Davlat reestridan chiqarish, ularni ishlab chiqarilishini to'xtatish va respublikada muomalaga chiqarmaslik haqida qaror qabul qilinadi.

Nazorat va davlat qabul qilish sinovlaridan o'tgan hamda Davlat reestriga kiritilgan o'lchash vositalari quyidagi paytlarda qaytadan sinovlardan o'tkaziladi:

- o'lchash vositalarining yangi seriyali partiyasi ishlab chiqarilganda;
- o'lchash vositalarini bir korxonadan ikkinchi (boshqa) korxonaga o'tkazishda;
- seriyalab ishlab chiqarish yoki chetdan keltirish bo'yicha ruxsatnoma muddati tugaganda;
- seriyalab ishlab chiqarilayotgan yoki chetdan keltirilgan o'lchash vositalarining sifati pasayganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lganda;
- o'lchash vositalarining konstruksiyasi yoki tayyorlash texnologiyasi yoki ularning metrologik tavsiflariga ta'sir etuvchi o'zgartirishlar kiritilganda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 avgustdagi 410-sonli qarori bilan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida standartlar va o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati to'g'risida»gi Nizomning 1-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasida davlat metrologik tekshiruvi va nazorati davlat metrologik xizmati idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi Qonuni va O'zRST 8.002-92 standartida belgilab berilgan. Ushbu hujjatlarda davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining ob'ektlari, turlari, shakllari va joriy etish doiralari belgilangan.

Davlat metrologik tekshiruvi deganda, o'lchash jarayonini boshqarish maqsadida ushbu jarayon elementlarini me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini baholash bo'yicha vakolatlangan idora va shaxslarning faoliyati tushuniladi. O'lchash jarayonining barcha elementlari: kattaliklar birliklari, o'lchashni bajarish uslublari, o'lchash vositalari, shu jumladan etolonlar, xom ashyo va materiallarning tarkibi, xossa va xususiyatlarining standart namunalari, o'lchash tizimlari, metrologik faoliyatni amalga oshirayotgan xodimlar davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining ob'ekti hisoblanadi.

Davlat metrologik nazorati - bu belgilangan metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya etilishini tekshirish bo'yicha davlat metrologik xizmatining vakolatlangan idoralari faoliyatidir.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati quyidagi doiralarda o'tkaziladi: sog'liqni saqlash, savdo-sotiq, moddiy resurslarni hisobga olish, mehnat, mahsulot, transport harakati xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, telekommunikatsion xizmatlar, zararli va tez olov oladigan, portlovchi hamda radioaktiv moddalarni saqlash, tashish va yo'q qilish, milliy va xalqaro musobaqalarning yuqori natijalari (rekorlari)ni ro'yxatga

olish, o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish, qiyoslash, kalibrlash va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida davlat nazorati O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologik tekshiruv va nazorating asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- metrologik qoidalarni o'z vaqtida tadbiiq qilinganligini tekshirish;
- belgilangan fizik kattaliklar birliklarini to'g'ri qo'llanishi, o'lchash vositalarining holati, ularni tayyorlash, saqlash, ta'mirlash, tekshirish va qo'llash, eskirgan o'lchash vositalarini ishlab chiqarishdan o'z vaqtida chiqarish va ularni yangilariga almashtirish sharoitlarini tekshirish;

- o'lchash vositalari ustidan o'tkazilgan davlat nazorati natijalarini umumlashtirish, metrologik qoidalarining bo'zish sabablarini tahlil qilish, o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati idoralarining ta'sirini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va o'tkazish;

- o'lchash uslublarini to'g'ri qo'llash bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;

- sinov laboratoriyalarining faoliyati bo'yicha davlat tekshiruv va nazoratini amalga oshirish.

Tayanch iboralar: Metrologiya, metrologik xizmatlar; metrologik tekshiruv va nazorat; O'z.RST 010-93; O'z.RST 8.001-98; nazariy metrologiya, qonunlashtiruvchi metrologiya, amaliy metrologiya; yagona o'lchash birligi, o'lchash vositasi, birlik etoloni, davlat etoloni; o'lchash vositalarini kalibrlash, litsenziya, kattaliklar; metralogik ta'minlash; mahsulot, raqobatbardoshlik, o'lchamlar birligi: o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi: uyg'unlashtirish; tan olish; ko'maklashish; potensial va milliy iqtisod; davlat egalonlari; egalonlar; davlat resstri; akkreditlash; metrologik ta'minotniig me'eri-y-huquqiy asoslari; qiyoslash, dastlabki va muntazam qiyoslash; navbatdan tashqari va taftishli qiyoslash; eksport qiyoslash: majburiy qiyoslash; qiyoslash muddati va belgisi: metrologik tekshiruv va nazorat; ob'ekt va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Metrologiya qachondan boshlab paydo bo'lgan va u qanday rivojlanib kelgan?

2. O'zbekistonda qaysi standartga asosan metrologiyaning vazifalari belgilab berilgan?
3. Metrologiya nechta qismdan tashkil topgan?
4. O'zbekiston Respublikasi «Metrologiya to'g'risida»gi qonun nechta bo'lim va moddalarni o'z ichiga oladi?
5. Metrologiyada ko'p qo'llaniladigan atama va tushunchalar nimalardan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi deb nimaga aytiladi?
7. O'lchamlar birligi va uni ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
8. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
9. Qiyoslash nima va uning qanday turlari mavjud?
10. O'lchash vositalarining qaysi turlari davlat qiyoslashidan majburiy o'tkaziladi?
11. Davlat sinovlarining asosiy vazifalari qaysilardan iborat?

Talabaning mustaqil ish topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni ahamiyati va vazifalari va metrologiya bo'yicha asosiy atamalar va tushunchalar bo'yicha etarli ma'lumotlarga ega bo'lishi va bilishi lozim.
2. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi to'g'risida to'liq bilimga ega bo'lishi kerak.
3. Metrologik xizmatlar va metrologik ta'minot me'yoriy-huquqiy asoslari haqida bilishi va uni chuqurroq o'rganishi kerak.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 11, 12, 14, 15.

14-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi, milliy idoralar va ularning vazifalari

1. Ma’ruzaning ta’lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual, axborot ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari 2. Sertifikatlashtirish qonuniy asoslari, asosiy atamalari 3. Sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idoralar va ularning vazifalari 4. Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi, mahsulotlarni sertifikatlashtirish
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi, milliy idoralar va ularning vazifalari bo‘yicha to‘liq ma’lumotlar berish.</p>	
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari, sertifikatlashtirish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari, to‘g‘risida ma’lumot beriladi. • Sertifikatlashtirish qonuniy asoslari, asosiy atamalari, ozik ovkat maxsulotlari, ekologik sertifikatlashtirish va boshqa atamalarga tushuncha beriladi. • O‘z davstandart («O‘z standart» agentligi), sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari, mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) majburiy sertifikatlashtirish sub’ektlari vazifalari haqida ma’lumotlar beriladi. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Sertifikatlashtirish milliy tizimi vazifalari, sertifikatlashtirish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari, to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishadi. • Sertifikatlashtirish asosiy atamalari, ozik ovkat maxsulotlari, ekologik sertifikatlashtirish va boshqa atamalar tushunchalariga ega bo‘ladi. • Sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari, mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) majburiy sertifikatlashtirish sub’ektlari vazifalari haqida ma’lumotlar olishadi. • Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi yoki akkreditatsiyadan o‘tish ya’ni muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash tartibi to‘g‘risida axborotga ega bo‘ladi.

•Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi,yoki akkreditatsiyadan o'tish ya'ni muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, laboratoriya va idora-larning layoqatligini baholash tar-tibi to'g'risida axborot beriladi.	bulishadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, xamkorlikda O'qitish texnikasi
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqich, Vaqi	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2- Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.O'zbekiston Respublikasi sertifikat-lashtirish milliy tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari, sertifikatlashtirish bo'yi-cha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy soslari, to'g'risida ma'lumot beriladi. 2.3.Sertifikatlashtirish qonuniy asoslari,asosiy atamalari, oziq ovqat maxsulotlari, ekologik sertifikatlashtirish va boshka atamalarga tushuncha beriladi. 2.4.O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi), sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari, mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) majburiy sertifikatlashtirish sub'ektlari vazifalari hakida ma'lumotlar beriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.
3- Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chiqaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi.	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari

Sertifikatlashtirish deb, mahsulot yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyatga aytiladi.

«Sertifikatlashtirish» iborasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «*to‘g‘ri qilingan*» degan ma‘noni bildiradi. Mahsulot, xizmat yoki jarayonning to‘g‘ri qilinganligi yoki bajarilganligi, ularning me‘yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishini ishlab chiqaruvchi va iste‘molchilarga tobe bo‘lmagan uchinchi tomon yordamida tekshirish orqali aniqlanadi. SHuning uchun ham me‘yoriy hujjatlar talablariga to‘liq mos keladigan mahsulot, xizmat yoki jarayon sertifikatlashtirishdan bimalol o‘tadi. Amalda mahsulotdan tashqari, shu mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonaning sifat tizimlari ham sertifikatlashtirishdan o‘tkaziladi. Sertifikatlashtirishdan asosiy maqsad – mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning me‘yoriy hujjatlar talablari yoki iste‘molchilar bilan to‘zilgan shartnomalarda ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ishonch hosil qilishdan iboratdir. SHuning uchun ham korxonalarining mahsulotlari va sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o‘tkazilishi milliy mahsulotimizni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni va O‘zRST 5.0:1998 (O‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar)da mahsulot, xizmat, jarayon yoki boshqa ob‘ektlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari hamda sertifikatlashtirishda qatnashuv-chi tomonlarning huquqlari, vazifalari va javobgarliklari belgilab berilgan.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi – bu sertifikatlashtirish bo‘yicha o‘zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib-qoidalariga ega bo‘lgan va davlat miqyosida amal qilinadigan tizim. Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi to‘liq, shakllangan va u amalda. Uning qoida va tartiblari ISO/MEK va ISO xalqaro standartlari, EN 45000 Evropa standartlari, sertifikatlashtirish bilan shu-g‘ullanuvchi boshqa xalqaro me‘yorlar hamda qoidalarga muvofiq to‘zilgan. Bunday choralar, o‘z navbatida sertifikatlashtirish idoralari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini chet mamlakatlarda ham tan olishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonun birgina respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga emas, balki chetdan keltirilgan mahsulotlar uchun ham taalluqlidir.

Sertifikatlashtirish sohasidagi asosiy atama va tushunchalarning mazmuni, respublikada sertifikatlashtirish jarayonlarini o'tkazish tartib va qoidalarini belgilash, *sertifikatlash milliy tizimining asosiy maq-sadi hisoblanadi*. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi esa, inson hayoti va sog'ligi va atrof-muhitni turli zararli ta'sirlardan saqlash ham-da tovarlar o'zaro almashuvi va muvofiqligi bo'yicha iste'molchilar manfa-atini himoya qilish, xalqaro tijorat ishlarida to'siqlarni bartaraf etish va milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. SHular-ni etiborga olgan holda, sertifikatlash milliy tizimi quyidagi masala-lar bo'yicha ish olib boradi:

- sertifikatlashtirish faoliyatida ishlatiladigan va me'yoriy hujjatlarda qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalarning nomlari va mazmunini belgilash;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha umumiy qoida va tartiblarini belgilash;
- sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlar o'tkazish qoida va tartiblarini aniqlash;
- sertifikatlashtirish jarayonida qo'llaniladigan me'yoriy va rahbariy hujjatlarni belgilash;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlari)ning akkreditlash qoidalarini belgilash;
- sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari (organlari) bilan o'zaro hamkorlik qilishini tashkil etish.

Sertifikatlashtirish mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi. Muvofiqlik turlari esa, O'zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimida belgilangan.

Mahsulotlarni sertifikalashtirish bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) o'tkazadi.

YUqorida ta'kidlagandek, sertifikatlashtirishning vazifalari ham uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun zararli yoki xavfli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan qat'iy nazorot o'rnatish;
- jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;
- milliy va qo'shma korxonalar hamda tadbirkorlarning xalqaro tijorat ishlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;
- iste'molchini mahsulot ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi)ning noinsofligidan himoya qilish;
- iste'molchilarning talablarida ko'rsatilgan talablarni mahsulot sifati orqali ta'minlash.

2. Sertifikatlashtirish qonuniy asoslari, asosiy atamalari

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuniga asosan *sertifikatlashtirish* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasi tomonidan tasdiqlanadigan majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning ro'yxati va qonun hujjatlari *talablari asosida o'tkaziladi*. Sertifikatlashtirish bo'yicha *qonun hujjatlarining asosini* O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi, «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavf-sizligi to'g'risida»gi, «O'simliklar karantini to'g'risida»gi va «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar tashkil qiladi va bu qonunlar talablariga ko'ra mahsulotlar majburiy sertifikatlash-tirishdan o'tkaziladi. Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ga yoki uning topshirig'i bo'yicha majburiy akkreditlashtirilgan holda sertifikatlashtirish bo'yicha boshqa idoralarga yuklatiladi.

O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi), sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari, mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) majburiy sertifikatlashtirish sub'ektlari hisoblanadi.

1996 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni sertifikatlashtirishga yana qo'shimcha huquqiy asoslar yaratib berdi. Ushbu qonunda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot realizatsiya qilinganda iste'molchiga mahsulotni sertifikatlashtirilganligi haqida axborot berilishi kerakligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Chunki, ushbu axborotning yo'qligi sababli davlat boshqaruv idoralarining ko'rsatmasi bo'yicha mahsulotning sotilishi to'xtatilishi mumkin.

«Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun yuqoridagi Qonun singari sertifikatlashtirish uchun qonuniy asoslardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu qonunda gigiena sertifikatini rasmiylashtirish zarurligi ko'rsatib berilgan bo'lib, uning asosida oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatdan o'tkaziladi va sertifikatlashtiriladi.

«O'simliklar karantini to'g'risida»gi Qonunga asosan 1997 yildan boshlab o'simlik mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va undan chiqarish qonun-qoidalari belgilangan. Ushbu Qonunda ko'rsatilishi bo'yicha respublika hududiga olib kiriladigan o'simlik mahsulotlariga *fitosanitariya* (o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspeksiyasi organi tomonidan beriladigan) sertifikatini rasmiylashtirish talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari ayrim rivojlangan davlatlar mahsulot (xizmat, jarayon)ni ekologik sertifikatlashtirish bo'yicha ham ma'lum darajada tajribalarga ega. O'zbekiston Respublikasi bu masala bo'yicha hali etarli darajada

tajribaga ega emas. SHunga qaramasdan, respublikada bu soha bo'yicha ma'lum darajada ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu sohada atrof-muhitni boshqarish va ekologik audit bo'yicha qo'llanmalarni o'z ichiga olgan ISOning 14000 seriyali xalqaro standartlarining qabul qilinishi O'zbekistonda ekologik nuqtai-nazardan mahsulotlar (xizmatlar yoki jarayonlar)ni sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ekologik sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi – tabiiy muhitni minimal darajada ifloslantiradigan va iste'molchi hayoti, sog'ligi, mol-mulki va yashash sharoiti uchun mahsulot xavfsizligi kafolatini beruvchi texnologik jarayonlar joriy etish va tovar ishlab chiqiruvchilarni rag'batlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi quyidagi yo'nalishlarga asoslangan holda o'z faoliyatini olib boradi:

- sertifikatlashtirish ob'ekti haqidagi axborotni ishonchliligi va belgilangan darajadagi aniqligini ta'minlash;

- sinov laboratoriyalari (markazlari)ning tayyorligi va iste'molchilarga nisbatan mustaqilligini ta'minlash;

- chet el iste'molchilariga nisbatan kamsitish kabi illatlarni bartaraf etish;

- arizachining sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari (markazlari)ni o'zining hohishiga ko'ra tanlash huquqini ta'minlash;

- sertifikatlashtirish tomonlari va ekspert-auditorlarning noto'g'ri harakatlari uchun qonun oldida javobgarligiga erishish;

- sertifikatlashtirish faoliyatida ISO/MEK tavsiyanomalari va qoidalari hamda boshqa xalqaro hujjatlardan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi turli kelishuvlar va bitimlar asosida sertifikatlashtirish bo'yicha chet el idoralari va sinov laboratoriyalarini akkreditlash, ularning sertifikatlari va muvofiqlik belgilarini tan olishga erishish;

- tijorat sirlari bilan bog'liq bo'lgan axborotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularga rioya qilish;

- kerak paytlarda sertifikatlashtirish ishlariga iste'molchilar jamiyatlarini jalb etish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida qo'llanishi shart bo'lgan atama va ta'riflar amaldagi O'z.RST 5.5-93 (O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar) standarti va O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan atamalar rasmiy hujjatlarda ham xuddi me'yoriy hujjatlarda qanday ko'rsatilgan bo'lsa, shunday yozilishi shart,

chunki bunday hujjatlarda standartlashtirilgan atamalar o'rniga ularning sinonimlarini qo'llash qat'iyan man etiladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha atamalar va tushunchalar quyidagicha ta'riflanadi:

Muvofiqlik - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir. Mahsulot muvofiqligini ishlab chiqaruvchi va iste'molchilardan manfaatdor bo'lmagan uchinchi tomon (tashkilot yoki shaxs) tasdiqlaydi. Odatda, bu holda uchinchi tomon vazifasini sinov laboratoriyalari (markazlari) bajaradi. Chunki, har qanday sinalgan namunaning ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjat talabiga mos kelishini sinov laboratoriyalari tasdiqlaydi. Bunday faoliyatga *muvofilikni sertifikatlashtirish* deyiladi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun o'z tartib qoidalariga ega bo'lgan tizim, sertifikatlashtirish tizimlari mintaka va xalqaro darajasida joriy etilishi mumkin. Sertifikatlashtirish tizimini bajaradigan va nazorat qiladigan markaziy idora sertifikatlashtirish sohasidagi o'z vakolati va muvofiqlikni sertifikatlashtirish huquqini boshqa idoraga berishi mumkin.

Mahsulot, xizmat yoki jarayonning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga asosan ishlab chiqarilganligini tasdiqlash uchun uchinchi tomon ham ma'lum bir tartibda faoliyat olib boradi. Bunday (uchinchi tomon) faoliyatning tarkibi va tartibi *sertifikatlashtirish sxemasi* deyiladi.

Muvofiqlik sertifikat - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishonitiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjat. Muvofiklik sertifikati, uchinchi tomondan mahsulot, xizmat yoki jarayonlar ularga belgilangan talablar asosida ishlab chiqarilganligini tasdiqlagan holda beriladi.

Muvofiqlik belgisi ham xuddi shu asosda beriladi. *Muvofiqlik belgisi* deb, ushbu mahsulot, xizmat yoki jarayonni ma'lum standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishonitiruvchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgiga aytiladi.

Majburiy sertifikatlashtirish – bu sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

O'zbekiston Respublikasida mahsulot (xizmat)ni sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Mahsulot (xizmat)larni majburiy sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni asosida ishlab chiqilgan. Ushbu Qonun xavfsizligini tasdiqlash talab etiladigan mahsulotlar, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini Respublika hududida olib kelish va ularni chetga chiqarish qoidalarini belgilaydi hamda bu

tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. SHuning bilan birgalikda sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlar ro'yxati ham har yili Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi va bu ro'yxatda sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning kodi ko'rsatiladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma - bu sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjat. Bu hujjat sifat sertifikati bilan birgalikda mahsuloti yoki xizmati sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan shaxs yoki idora (korxonalar, tashkilot)ga beriladi va bu hujjat (litsenziya) shaxs yoki idoraga undan tegishli ravishda foydalanish huquqini beradi.

Sifat sertifikati - bu etkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat.

Mahsulot, xizmat va jarayonlardan tashqari korxonalar yoki tashkilotning ishlab chiqarish sharoitlari ham sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. *Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish* - bu sertifikatlashtirish idorasi yoki boshqa maxsus vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur va etarli sharoitlar mavjudligini, unga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarning barqarorligi va sertifikatlashtirishda nazorat ostiga olinishini ta'minlashning rasmiy tasdiqidir.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish deganda, tizimning xalqaro yoki milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqali tasdiqlash haqidagi faoliyat tushuniladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish ta'minlovchining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishiga to'liq ishonch hosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

Mahsulotning tavsiflari milliy va xalqaro me'yoriy-texnik hujjatlarga mos kelishini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinovlarga *sertifikatlashtirish sinovlari* deb ataladi. Sertifikatlashtirish sinovlari uchun mahsulotdan namunalar olinadi va ushbu namunalar bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari o'tkaziladi.

Sinov laboratoriyalari (markazlari)ning ma'lum sinovlar yoki sinovlarning ma'lum xillarini amalga oshirish huquqlarini rasmiy jihatdan tan olish laboratoriyalarni akkreditlash deyiladi. Laboratoriyalarni akkreditlash uchun akkreditlovchi idoralar o'z ish tartibi va boshqarish qoidalariga ega bo'lishi lozim. O'z ish tartibi va boshqarish qoidalariga ega bo'lgan tizim *laboratoriyalarni akkreditlash tizimi* deb ataladi. *Laboratoriyalarni akkreditlash mezonlari* deganda esa, sinov laboratoriyasini akkreditlash uchun qanoatlantirishi lozim bo'lgan akkreditlash idorasi tomonidan ishlatiladigan barcha talablar majmuasi tushuniladi. Laboratoriyani akkreditlash maqsadida uning mezonlariga muvofiqligini tekshirish

orqali aniqlash *laboratoriyani attestatsiyalash* deb ataladi. Akkreditlashdan o'tgan sinov laboratoriyalari esa *akkreditlangan laboratoriya* deyiladi.

YUqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari sertifikatlashtirish sohasida «Ekspert-auditor», «Tekshiruvchan nazorat» kabi atamalar va «bir, ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar» degan tushunchalar ham ishlatiladi.

Ekspert-auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash hamda nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan va attestatsiyadan o'tgan shaxsga aytiladi. *Tekshiruvchan nazorat* deganda esa, sertifikatlashtirish uchun akkreditlangan idoralar sinov laboratoriyalarining faoliyati, mahsulotning sertifikatlashtirilganligi va ishlab chiqarilishini nazorat qilish tushuniladi.

Bir tomonlama kelishuv - bu birinchi tomon tarafidan ikkinchi tomonning ish natijalarini tan olish haqidagi kelishuv. *Ikki tomonlama kelishuv* esa, ikki tomonning ish natijalarini qamrab oluvchi o'zaro tan olish haqidagi kelishuvdir. Ikkidan ortiq tomonlarning ish natijalarini o'zaro tan olish haqidagi kelishuv *ko'p tomonlama kelishuv* deb ataladi. Bu tushunchalar asosan sertifikatlashtirish va boshqa mamlakatlarning sertifikatlarini tan olish jarayonida ishlatiladi.

Sertifikatlashtiriladigan mahsulotning xavfsizligi va sifati bo'yicha ishlatiladigan atama va tushunchalar O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi qonunida ifodalab berilgan.

SHu narsani ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni va sertifikatlashtirish bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga ko'ra sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini muvofiqlik sertifikatisiz yoki muvofiqlik belgisisiz realizatsiya qilish (sotish) qat'iy man etiladi.

3. Sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralar va ularning vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi O'zdavstandart O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunining 5-moddasida ko'rsatilgandek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi hisoblanadi va u quyidagi yo'nalishda o'z faoliyatini olib boradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha umumiy qoidalar belgilash va ular haqida rasmiy axborotlarni matbuotda bosib chiqish;

- respublikamizda sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni hukumat muhokamasiga taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro

sertifikatlashtirish tizimlariga qo‘shilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish hamda sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro tan olish to‘g‘risida bitimlar tuzish, sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va O‘zbekiston Respublikasini ushbu tashkilotlar faoliyatida qatnashishlarini ta‘minlash;

- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini belgilash;

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasi bo‘yicha nazorat qilish idoralari hamda sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarni akkreditlash;

- sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifatni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va ularni tayyorlashda ishlatiladigan jihozlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish hamda sinov laboratoriyalari va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

- muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini amal qilishini bekor qilish va to‘xtatish, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar (organlar)ning akkreditlanganligi haqidagi guvohnomalarini bekor qilish, sertifikatlashtirish bo‘yicha qonuniy me‘yorlarni bo‘zganligi uchun sinov laboratoriyalar (markazlari)ning faoliyatini to‘xtatib qo‘yish.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi) tomonidan akkreditlangan idoralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini tuzish va ularning amal qilinishini ta‘minlash;

- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o‘tkazish;

- milliy muvofiqlik yoki chet mamlakatlarning muvofiqlik sertifikat belgilarini berish va rasmiylashtirish;

- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan tekshiruvlarni amalga oshirish;

- respublikada sertifikatlashtirish milliy tizimining talablariga asosan sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlari va majburiy sertifikatlashtirish uchun me‘yoriy hujjatlarni belgilash;

- sertifikatlashtirish, akkreditlash va sinovlar bo‘yicha tizimining davlat ro‘yxatini olib borish;

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblarini aniqlash.

YUqorida ta‘kidlanganidek, respublika hududlarida sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idora (organ)lar vazifalarini standartlashtirish, metrologiya va

sertifikatlashtirish metrologik xizmatlar (SMSMX) bajaradi. Bu hujjatlar O‘zdavstandart vakolati asosida quyidagi ishlarni bajaradi:

- mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchilar va ta’minlovchilarga sertifikatlashtirish qoidalari to‘g‘risida rasmiy ravishda xabar berish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan davlat tekshiruvi va nazorati hamda ular tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning inspeksion tekshiruvini amalga oshirish;

- ushbu hududda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar reestrini yuritish;

- O‘zdavstandart topshirig‘iga asosan sertifikatlashtirish bo‘yicha hududiy idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash bo‘yicha komissiyalar tashkil qilish, ularning ishi, idora va laboratoriyalari (markazlari) hamda inspeksion tekshiruvlarida ishtirok etish.

YUqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zdavstandart ilmiy-tadqiqot, sinov tashkilotlari, ilmiy-texnik va jamoa tashkilotlari hamda iste’molchilar jamiyatlarini jalb etadi.

4. Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi, mahsulotlarni sertifikatlashtirish

Barcha sertifikatlashtirish idoralari va sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazuvchi laboratoriyalar (markazlar) majburiy ravishda akkreditatsiyadan o‘tishadi.

Akkreditlash yoki akkreditatsiyadan o‘tish deganda, muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, shuningdek inson faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, texnik va boshqa turli sohalarida sertifikatlashtirishni amalga oshirayotgan laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash hamda tan olishning xalqaro amaliyotida tan olingan usuli tushuniladi.

Har qanday laboratoriya, uning qaysi tarmoq yoki mulk shakliga mansub bo‘lishi yoki qaysi idoraga bo‘ysunishidan qat’iy nazar mahsulotni sertifikatlashtirish uchun akkreditlanishi mumkin. Buning uchun laboratoriya holisona sinov natijalarining ishonchliligi va aniqligini taminlaydigan huquqiy hamda tashkiliy holat va sifat tizimiga ega bo‘lishi kerak. Bunday laboratoriyalar belgilangan tartibda O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi)ga buyurtmalar beradi va unga «Akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyasi to‘g‘risida» Nizomning loyihasi laboratoriya pasporti va to‘ldirilgan anketa savolnomasi ilova qilinadi. So‘ngra talabnoma (buyurtma) ilovalari bilan O‘zdavstandart («O‘zstandart» agentligi) yoki uning topshirig‘i bo‘yicha sertifikatlashtirish uslubiy markazi O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohasidagi tadqiqotlar va mutaxassislar tayyorlash instituti (O‘zTMTI) tomonidan ko‘rib chiqiladi. Buyurtmaga ilova qilingan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazadi va ekspertiza natijalari bo‘yicha O‘zdavstandart («O‘zstandart»

agentligi) tegishli qaror qabul qiladi va qaror to'g'risida talablar laboratoriya hamda sertifikatlashtirish idorasiga xabar beradi. Agar ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinsa, u holda O'zdavstandart yoki uning topshirig'iga asosan sertifikatlashtirish idorasi laboratoriyani tekshirish bo'yicha tarkibi O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan tasdiqlangan maxsus komissiya to'ziladi va bu komissiya tarkibiga O'zstandart («O'zstandart» agentligi) yoki sertifikatlashtirish idorasining vakili yoki xodimi (rais), O'zTMTIning mutaxassisi, ishlab chiqaruvchi va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda sertifikatlashtirish davlat tizimining ekspert auditorlari kiradi.

Ushbu komissiya akkreditlanadigan laboratoriya holatini asosiy hujjatlar va akkreditlashtirish talablariga javob berish darajasi, texnik layoqatligi va holisligini tekshiradi. SHuning bilan birgalikda laboratoriyaning texnik layoqatligini baholash paytida laboratoriyaning tashkiliy va boshqaruv darajasi, rahbariyatning javobgarlikni hal qilishi, mutaxassislar bilan ta'minlanganligi va xodimlarning malakasi, ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro manfaatlik joylarining yo'qligi ham tekshiriladi.

YUqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari komissiya tomonidan laboratoriyaning quyidagi ko'rsatkichlari ham tekshirishdan o'tkaziladi:

- sinovlar o'tkaziladigan joylarda natijalarning aniqliligi va o'lchash natijalariga ta'sir etadigan atrof-muhit omillari (harorat, namlik, havoning tozaligi, tovush, tebranish, elektr-energiya va boshqalar);

- laboratoriyada qo'llaniladigan sinash usullarining me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar, sanitariya me'yori va qoidalari, texnik va yong'in xavfsizligi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga javob berish darajalari;

- sinov jihozlari va o'lchash vositalarining holati;

- har bir jihoz va o'lchash vositalarining ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar (varaqa, karta va shunga o'xshashlar);

- jihoz va o'lchash vositalarining nomi, turi, ishlab chiqargan korxonaga yoki firma, zavod va inventar tartib raqamlari (nomerlari), ishlab chiqilgan sanasi, ishlatilib boshlangan sanasi, sotib olingan vaqtidagi holati (yangi, ta'mirlangan, avval foydalanilgan), o'rnatilgan joyi, ko'rikdan o'tganligi va boshqalar;

- sinaladigan mahsulot uchun texnik talablar belgilaydigan hujjatlar, qo'llanayotgan o'lchash vositalarini davlat ko'rigidan va sinash jihozlarini attestatsiyadan o'tkazish uslublari, sinash natijalari tizimini belgilaydigan hujjatlar (qarorlar, ishchi jurnallar, hisobotlar va boshqalar).

Komissiya o'tkazilgan tekshirish natijalari asosida belgilangan tartibda dalolatnoma to'zadi va unga barcha komissiya a'zolari imzo chekkanlaridan so'ng uning bir nusxasi akkreditlanayotgan laboratoriya rahbariga tanishtirish uchun yuboriladi.

Agar tekshirish natijalari bo'yicha akkreditlanayotgan laboratoriyaning texnik layoqatlighi va holisligi bo'yicha yoki faqat texnik layoqatlighi bo'yicha akkreditlash uchun komissiya tomonidan qaror qabul qilinsa, u holda laboratoriyaga u yoki bu ko'rsatkichi bo'yicha muvofiqlik sertifikatini beriladi.

Akkreditlash attestatsiyasi 5 yil muddatga beriladi va shuning bilan birgalikda akkreditlashdan o'tgan sinov laboratoriya to'g'risidagi «Nizom» loyihasi ham O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ning bosh direktori yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Akkreditatsiyadai o'tgan sinov laboratoriyasi Davlat reestri (ro'yxati)ga kiritiladi va shu kundan boshlab sinov laboratoriyasi attestatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.

Davlat reestridan o'tgan akkreditlash haqidagi attestat va O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan tasdiqlangan «Nizom» loyihasi akkreditlangan sinov laboratoriyasiga yuboriladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohasidagi tadqiqotlar va mutaxassislar tayyorlash instituti (O'zTMTI) O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining ilmiy-uslubiy markazi sifatida mahsulotlarni sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqadi. Sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari (markazlari) da ishlaydigan mutaxassislar hamda ekspert-auditorlar malakasini oshirish, ularni tayyorlash va sertifikatlashtirish idoralariga bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatadi.

YUqorida ta'kidlab o'tilganidek, mahsulotlarni sertifikatlashtirishga tayyorlash va uni o'tkazish akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o'tkazish bo'yicha O'zdavstandart tomonidan umumiy qoidalar belgilangan va ular milliy hamda chet el sertifikatlashtirish obektlari uchun ham tegishlidir.

O'zbekiston muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarini chet elda ham tan olish imkoniyatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'zSMT) qoidalari ISO/MEK, ISO xalqaro standartlari, EN 45000 Evropa standartlari, sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirayotgan boshqa xalqaro me'yorlar va qoidalarga asosan to'zilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tajribaga asoslangan milliy va import qilinayotgan mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishning umumiy tartibi va sertifikatlashtirish sxemalarini belgilaydigan O'zbekiston davlat standarti O'zDSt 5.7:2003 qabul qilingan va u 2004 yildan buyon amalda.

O'zDSt 5.7:2003 O'zbekiston davlat standarti bo'yicha barcha mahsulotlarni O'zbekiston milliy standartlashtirish tizimida majburiy va ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun 10 ta (1.1^a; 2.2^a; 3.3^a; 4.4^a; 5; 6; 7; 8; 9.9^a; 10.10^a) sertifikatlashtirish sxemasi nazarda tutilgan. SHulardan 1-6, 9^a 10^a sxemalari muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davrida seriyalab ishlab chiqariladigan, 7, 8 va 9 sxemalar sertifikatsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlar partiyasi va onda-sonda ishlab chiqariladigan buyumlarni sertifikatlashtirishdan o'tkazishda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tomonidan qabul qilingan sertifikatlashtirish sxemalari quyidagilardan iborat:

1-sxema. Mahsulot namunasini sinovdan o'tkazish. Bu sxema yordamida faqat mahsulot namunalarning turlarini me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini (muvofiqligini) maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlari (idoralari)da sinovdan o'tkaziladi, ya'ni sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi, xolos. Bu sxema bo'yicha sertifikatlashtirish natijalari mahsulot sifatining doimiylikni kafolatlay olmaydi. Sertifikat beruvchi idora sinovdan so'ng hech qanday tekshiruv yoki nazoratni tashkil qilmaydi. Bu sxema o'zining oddiyligi va kam chiqimliliigi sababli milliy hamda xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan.

2-sxema. Bu sxema bo'yicha mahsulot namuna turlari maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkaziladi, so'ngra uning sifatini savdo shahobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalarda asosida nazorat qilib turiladi. Bu sxema yordamida taqdim etilayotgan namunalarning sifatini baholash bilan bir qatorda chetdan keltirilgan seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ham baholash mumkin. Buhol uning afzalligini bildiradi. Agar nazorat sinovlari natijasi bo'yicha mahsulotning sifati me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq kelmasa, u holda mahsulotni savdo shahobchalaridan chiqarib tashlash mumkin bo'lmaydi yoki uni chiqarib tashlash uchun ayrim qiyinchiliklar tug'iladi, u holda bu sxemaning kamchiligi hisoblanadi.

3-sxema. Bu sxema namunalarga sertifikat berilgandan so'ng sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan oldin vaqti-vaqti bilan tayyorlovchi korxonaning tayyor mahsulotlar omboridan olinadigan namunalarni sinash yo'li bilan inspeksion tekshiruv o'tkazishni nazarda tutadi. Bu sxemaning 2-sxemadan farqi shuki, mahsulot savdoga tushmasdan turib sinov nazoratidan o'tkaziladi va me'yoriy hujjat talablariga muvofiq bo'lmasa, u holda mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatilib, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishning oldi olinadi.

Bu sxema bo'yicha sertifikat 12 oy muddatga beriladi va har 6 oyda bir marta nazorat qilinadi.

4-sxema. Bu sxema 3-sxemadan shunisi bilan farq qiladiki, bunda qo'shimcha ravishda sotuvchidan olinadigan namunalarning ham inspeksion tekshiruvini o'tkaziladi. 4-sxema seriyali ishlab chiqarish mahsulotlarini har tomonlama va qat'iyroq inspeksiya tekshiruvini o'tkazish zarur bo'lganda qo'llaniladi.

5-sxema. Sertifikatlashtirishning bu usuli faqat mahsulot sifatini nazorat qilibgina qolmasdan, balki korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini kerakli darajada bo'lishini ham nazorat qiladi. Bu sxema sanoati rivojlangan davlatlarda ham xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan sxema hisoblanadi.

5-sxemaning boshqa sxemalardan farqi uning murakkabligi va nisbatan ko'p chiqim talab qilishida, uning faolligi esa iste'molchining mahsulot sifat darajasining yuqori ekanligiga ishonch hosil qilishidadir. Bu esa asosiy mezon hisoblanadi.

6-sxema. Bu usul ayrim paytlarda korxonatayyorlovchini attestatsiyalash usuli ham deb ataladi va u faqat korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlash orqali tizimni baholanishini o'tkazishiga asoslangan (mo'ljallangan) bo'lib, faqat korxonaning belgilangan sifat darajasidagi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini baholaydi.

7-sxema. Bu sxema tovarlar partiyasini sinash uchun mo'ljallangan. Bunda korxonada ishlab chiqarayotgan yoki chetdan keltirilgan (import bo'yicha) tovarlar partiyasidan belgilangan qoidalar bo'yicha o'rtacha kichik namunalarni tanlab olinadi va akkreditlangan laboratoriyada sinovlardan o'tkaziladi, so'ngra sertifikat berish protsedurasi bajariladi, inspeksion tekshiruv o'tkazilmaydi.

8-sxema. Bu usul tayyorlangan har bir yoki ayrim buyumlarning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini sinovlar o'tkazish yo'li bilan aniqlashga asoslangan bo'lib, mahsulotni iste'mol qilish jarayonlarida uning me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelmasligi natijasida iste'molchiga katta iqtisodiy zarar etkazganidan qo'llaniladi. Sertifikatlashtirishning bu usuli ko'proq qimmatbaho metallar va qotishmalardan tayyorlangan buyumlarda qo'llaniladi, chunki bu erda qimmatbaho metallarning belgilangan miqdori, tarkibi va ularning tozaligi tekshiriladi. Mahsulot sifatini etkazib beruvchi tashkilot deklaratsiyasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelish-kelmasligini tasdiqlash uchun 9-10 sertifikatlashtirish sxemalari qo'llaniladi. Agar sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idora ushbu mahsulotni korxonada ishlab chiqarilishi mumkinligi va uning sinovlar natijasida tasdiqlangan tavsiflarining barqarorligi haqida aniq ma'lumotlar bo'lmasa, u holda 1, 2, 3, 4, 9 va 10 sertifikatlashtirish sxemalari 1^a, 2^a, 3^a, 4^a, 9^a va 10^a sxemalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Bunday hollarda korxonaning ishlab chiqarish holati, sifat tizimi yoki mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlar tomonidan tahlil qilinishi kerak bo'ladi. Mahsulotni 1^a, 2^a, 3^a, 4^a, 9^a va 10^a sxemalari bo'yicha majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazish paytida ishlab chiqaruvchining sifat tizimi yoki ishlab

chiqarishga muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lsa, u holda ishlab chiqarish holati qaytadan baholanmaydi.

Tayanch iboralar: korxonalar sifat tizimi; ISO/MEK, ISO, EN 45000; tizim maqsadi; korxonalar sifat tizimi; vijdotsizlik; qonun hujjatlari; fitosanitariya sertifikatini; axborot ishonchliligi; axborot maxfiyligi; muvofiqlik, muvofiqlik sertifikat va belgisi; sertifikatlashtirish tizimi va idorasi; majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish; sertifikatlashtirish sohasida guvohnoma (litsenziya); sifat sertifikatini; laboratoriyani akkredit-lash, akkreditlangan laboratoriya; sertifikatsiya sinovlari; ekspert-auditor; sertifikatlashtirish uchun namuna; bir, ikki va ko'p tomonlama kelishuv; tekshiruvchan nazorat; milliy idora yo'nalishlari va vazifalari; CMCXM vazifalari; «O'zstandart» agentligi va maxsus komissiya; laboratoriyaning texnik layoqatligi va holisligi; Davlat reestri; ariza-deyuratsiya; namuna; sertifikat; muvofiqlik belgisi va sertifikat; sinov laboratoriyasi va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Sertifikatlashtirish deb nimaga aytiladi va uning ma'nosini tushuntiring?
2. Sertifikatlashtirish milliy tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Sertifikatlashtirish milliy tizimining asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish qanday idoralar tomonidan amalga oshiriladi?
5. Sertifikatlashtirishning vazifasi nimalardan iborat?
6. Sertifikatlashtirish bo'yicha qonun hujjatlarining asosiysi qaysi qonunlarni tashkil etadi?
7. Ekologik sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
8. Sertifikatlashtirish bo'yicha atama va tushunchalar qanday ta'riflanadi?
9. Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma qanday hujjat hisoblanadi?
10. Ixtiyoriy, sifat va ishlab chiqarish sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
11. O'zbekistonda sertifikatlashtirish milliy idorasi qaysi tashkilot hisoblanadi?
12. Akkreditlash va akkreditatsiyadan o'tish deganda nimani tushunasiz?
13. O'zTMTning vazifasi va u qanday hujjatlarni ishlab chiqadi?
14. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tomonidan qanday sertifikatlashtirish sxemalari qabul qilingan?

Talabning mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tushun-chasi, maqsadi va vazifalari bo'yicha etarlicha bilimga ega bo'lishi va bilish kerak.
2. Sertifikatlashtirish qonuniy asoslari, asosiy atamalari, milliy idoralar va ularning vazifalari haqida bilim shva ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
3. Sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi, mahsulotlarni sertifikatlash-tirish to'g'risida tushunchalarga etarlicha ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 13, 14, 15, 17

15-mavzu. Mahsulotlar sertifikatligi va uning nazorati

1.Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqti - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, axborot ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1.Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish</p> <p>2.Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari</p> <p>3.CHet el mamlakatlarining sertifikatlashtirish ahamiyati</p> <p>4.Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat</p>
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>Mahsulotlar sertifikatligi sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari, sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorati bo'yicha ma'lumotlar berish.</p>	
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish majburiy sertifikatlashtirish bosqichlari:deklaratsiya,namunalar tanlash,ishlab chiqarish yoki sifat,muvofiqlik sertifikatligi muvofiqlik belgisi berish va Davlat ro'yxatiga (reestriga) kiri-tish haqida ma'lumotlar beriladi. • Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirishning tartibi va qoidalari, konuniy asoslari bilan tanishtiriladi. • CHet el mamlakatlarining sertifikatlashtirish ahamiyati, ularning idoralari bilan xamkorlik, chetel tajribalaridan foydalanish haqida axborot beriladi. • Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazoratning o'tkazilishi tartibi va uning davriyligi mahsulotning turi, uning o'ziga xos 	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> •majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish bosqichlari va Davlat ro'yxatiga (reestriga) kiritish haqida ma'lumotlar oladi. • Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirishning tartibi va qoidalari, konuniy asoslari bilan tani-shadi. • CHet el mamlakatlarining sertifikatlashtirish idoralari bilan xamkorlik, chetel tajribalaridan foydalanish haqida axborot oladi. • Mahsulot ustidan inspeksion nazoratning o'tkazilishi tartibi va uning davriyligi mahsulotning turi, uning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish muddati, hajmi va boshqa omillarga bog'liqligi va o'tkazilish idoralari haqida ma'lumot oladi.

xususiyatlari, ishlab chiqarish muddati, hajmi va boshqa omil-larga bog'liqligi va o'tkazish idoralari haqida ma'lumot beriladi.	
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, amkorlikda O'qitish texnikasi,
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organay-zerlar
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

3. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqi	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar,javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish bosqichlari: Davlat ro'yxatiga (reestriga) kiritish haqida ma'lumotlar beriladi. 2.3.Milliy mahsulotlarni sertifikat-lashtirishning tartibi va qoidalari, qo-nuniy asoslari bilan tanishtiriladi. 2.4.CHet el mamlakatlarining sertifikat-lashtirish ahamiyati, ularning idoralari bilan xamkorlik, chet el tajribalaridan foydalanish haqida axborot beriladi. 2.5.Sertifikatlashtirilgan mahsulot us-tidan inspeksion nazoratning o'tkazilishi tartibi va uning davriyligi mahsulot-ning turi, uning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish muddati, hajmi va boshqa omillarga bog'liqligi va o'tkazish idoralari haqida ma'lumot beriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'-tibor beradilar: «bilaman-bil-dim» jadvali-ning 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3.Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar. 2.5.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida to'xtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar.

1. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish

Ma'lumki, sertifikatlashtirish mahsulotning iste'molchi sog'ligi, uning mol-mulki va atrof-muhit uchun zararli xususiyatlarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan majburiy talablarga mos kelish darajasini o'rganadi. Undan tashqari, sertifikatlashtirish sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat nazoratini ham olib boradi. Ana shu ko'rsatkichlari bilan u mahsulot sifatini nazorat qilishdan farq qiladi. SHuningdek, sertifikatlashtirish sinovlarini bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish maqsadida akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari), mahsulot sifatini nazorati esa davlat nazorat idoralari tomonidan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarini sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuniga asosan mahsulot (xizmat)ni sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralarga yoki milliy idora O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlashtirish tizimida ikki xil sertifikatlashtirish turlari ishlatiladi: majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish. Mahsulot (xizmat)larni u yoki bu turdagi sertifikatlashtirishga mansubligi, ularning tashqi muhit, inson salomatligi va mol-mulkiga zararli ta'siri asosiy me'zon bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham atrof-muhit, inson sog'ligi va uning mol-mulkiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulot (xizmat)lar, albatta majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi, qolgan mahsulotlar esa ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 avgustdagi 409-sonli «O'zbekiston Respublikasi hududiga keltiriladigan va uning hududidan chetga chiqariladigan, xavfsizligini ta'minlash uchun majburiy sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini, sertifikatlashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori bilan mahsulotlar, shu jumladan sertifikatlashtirish va xavfsizligini ta'minlash kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarinn Respublika hududiga kiritish yoki ularni respublika hududidan chetga olib chiqib ketish tartib-qoidalari ko'rsatib berilgan. SHuningdek, ushbu qaror bilan majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlar ro'yxati ham tasdiqlangan.

Ushbu qarorga asosan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlari majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Majburiy sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish va o'tkazish O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi O'zdavstandartga yoki uning topshirig'iga ko'ra boshqa akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish idoralari (organlari) zimmasiga yuklatiladi.

SHu narsani alohida ta'kidlash lozimki, agar inson hayoti, sog'ligi va uning mol-mulki hamda atrof-muhitga zapapi ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahsulotlar tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish va saqlash xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar bo'lmasa, u holda davlat boshqaruvining tegishli idora

(organ)lari bunday talabnomani kechiktirmasdan ishlab chiqishi va uni amalda qo'llashi shart.

Milliy mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qoida va tartiblari O'zbekiston Respublikasining rahbariy hujjati (O'zRH 51-062-97 (O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o'tkazish tartibi. Umumiy talablar) da belgilab berilgan.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulot, jarayon yoki xizmatning me'yoriy hujjatlarda belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish *bosqichlarini* shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

- *deklaratsiya* - talabnoma berish va u asosida qaror qabul qilish;
- *namunalar tanlash* (olish), identifikatsiyalash va sinovdan o'tkazish;
- *ishlab chiqarish* yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish (agar sertifikatlashtirish tartibi bo'yicha sertifikatlashtirish lozim bo'lsa, yoki arizachi talabiga ko'ra);

-*muvofiqlik sertifikati* muvofiqlik belgisi *berish* va mahsulotni *Davlat ro'yxatiga* (reestriga) kiritish;

Respublika hududida majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, lekin muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan holda xilof ravishda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni sotish (realizatsiya qilish) man etiladi.

Tayyorlovchi (ta'minlovchi yoki tadbirkor) larning *mahsulotlari* majburiy sertifikatlashtirishdan o'tishi lozim bo'lganda, ular quyidagi qoida va tartiblarga amal qilishlari kerak:

-majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun taqdim etish;

-mahsulotlarni sertifikatlashtirish idora (organ) lari yoki ular tan olgan idoralar tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati yoki belgisi mavjud bo'lgandagina realizatsiya qilish yoki sotish;

- agar sertifikatlashtirilgan mahsulot belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga javob bermasa yoki ushbu mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikati yoki belgisining amal qilish muddati tugagan bo'lsa, u holda mahsulotni realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yish:

-mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga texnik yoki boshqa o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida sertifikatlashtirish idoralariga belgilangan tartibda xabar berish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunining 17-moddasida ko'rsatilganidek, har qanday mahsulot yuridik

va jismoniy shaxslarning tashabbusi bilan uning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

YUqorida qayd kilinganidek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish tizimi mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirishdan tashqari, ixtiyoriy sertifikatlashtirishni ham amalga oshiradi.

YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, majburiy sertifikatlashtirish ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar ta'minlovchi (tadbirkor, bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchining shaxsiy tashabbusiga ko'ra ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki iste'molchining tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va o'zini sifat tizimiga ishonch hosil qilishidan iborat. SHuningdek, ixtiyoriy sertifikatlashtirish o'ziga xos reklama vazifasini ham bajaradi.

O'z mahsulotini sertifikatlashtirishdan o'tkazgan talabgor (arizachi) ixtiyoriy sertifikatlashtirish qonun-qoidalariga binoan o'zining hohlagan me'yoriy hujjatini tanlash huquqiga ega.

SHuningdek, talabgor (arizachi, yuridik yoki jismoniy shaxs) o'z mahsulotini qanday ko'rsatkichlar va sinash uslublari bo'yicha sertifikatlashtirishni ham o'zi tanlaydi.

Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish qonun-qoidalarini va tartiblari ham mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qonun-qoidalarini va tartiblariga o'xshash bo'lib, ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tgan mahsulotga ham muvofiqlik sertifikati beriladi.

YUqorida ta'kidlanganidek, chetdan keltirilgan va sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar ham majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Jumladan, chet ellik talabgor yoki arizachi (jismoniy yoki yuridik shaxs) ham o'zining mahsulotlarini ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirishdan o'tkazishi mumkin. Bunda mahsulotni ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazish to'g'risidagi qarorni belgilangan tartib-qoidalar asosida talabgor yoki arizachining o'zi qabul qiladi. CHet ellik arizachining mahsuloti u hohlagan me'yoriy hujjat (milliy, xalqaro, davlatlararo yoki hohlagan rivojlangan mamlakat me'yoriy hujjatlar) talablariga asosan sertifikatlashtiriladi. Bunday mahsulotlarga ham muvofiqlik sertifikati berilib, respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat ro'yxati (reestri) dan o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirish tartib va qoidalarini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimi O'z davstandart («O'zstandart» agentligi) bilan kelishilgan holda akkreditlangan idoralar tomonidan belgilanadi.

2. Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari

YUqorida aytib o‘tilganidek, sertifikatlashtirishdan majburiy o‘tkazilishi lozim bo‘lgan, ammo xali sertifikatlashtirishdan o‘tmagan barcha mahsulot respublika hududida realizatsiya qilinishi (sotilishi) man etilgan.

Sertifikatlashtirishni O‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida o‘tkazish uchun respublika yoki chet el so‘rovchi (arizachi)si bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan muvofiqlik idorasiga deklaratsiya - *buyurtmanoma* yuboradi. Deklaratsiya – talabnomaga sertifikatlashtirish bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish, sertifikatni rasmiylashtirish va uni Davlat ro‘yxati (reestri)dan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar ilova qilinadi. Sertifikatlashtirish bo‘yicha idora deklaratsiya - buyurtmanomani ko‘rib chiqadi, ularni tekshiradi va tahlil qiladi, so‘ngra 15 kundan kechiktirmasdan (hujjat kelib tushgandan so‘ng) sertifikatlashtirish bo‘yicha barcha asosiy shartlarni o‘z ichiga olgan, ya’ni sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlashtirish o‘tkaziladigan meyoriy hujjatlar ko‘rsatilgan qarorni so‘rovchi (arizachi)ga xabar qiladi. Undan tashqari qarorda sinovlarni o‘tkazadigan akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) va sifat tizimi yoki ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish (agar bu sertifikatlashtirish sxemasi bilan nazarda tutilgan bo‘lsa) kim tomonidan o‘tkazilishi ham ko‘rsatiladi. Sertifikatlashtirish idorasining ijobiy qarorini olgan arizachi (talabgor) qarorda ko‘rsatilgan sinov laboratoriyasi (markazi) bilan sinov o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni to‘lash haqida xo‘jalik shartnomasini to‘zadi. Sertifikatlashtirishning umumiy muddati bir oydan oshmasligi kerak.

Sinovlarni o‘tkazish uslublari, sinovlar uchun namunalar olish (tanlash) qoidalari va ularning maqsadi hamda identifikatsiyalash (tenglashtirish, o‘xshatish) va ularni saqlash me‘yorlari sertifikatlashtirish me‘yoriy hujjatlarida belgilab berilgan. Sinov namunalari O‘zRH 51-094-98 (O‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatlash-tirish bo‘yicha yo‘riqnoma) rahbariy hujjat talablariga binoan identifikatlashtiriladi.

Sinovlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad – mahsulot sifat ko‘rsatkichlarining xaqiqiy qiymatlari haqida ob‘ektiv va ishonchli axborot olish va ularni ushbu mahsulotni me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholashdan iborat.

Namunalar tanlab olish sertifikatlashtirish bo‘yicha idora yoki sinov laboratoriyasi tomonidan so‘rovchining ishtirokida amalga oshiriladi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Agar uning maxfiylikiga rioya qilish kerak bo‘lsa, u holda tanlab olingan namunalar yopiq idishlarga solinib, muhrlanishi va kodlanishi mumkin.

Bu paytda dalolatnoma uch nusxada to‘ziladi va ikkita nusxasi bojxona idorasiga yuboriladi.

O'tkazilgan sinov natijalari bo'yicha sinov laboratoriyasi (markazi) qaror qabul qiladi va u vakolatlangan mutaxassislar tomonidan imzo qo'yilgandan so'ng laboratoriya (markaz) boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Agar sinov natijalari salbiy bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish idorasi arizachi (so'rovchi)ga sertifikat bermaslik to'g'risidagi rad xulosasi (javobi)ni yuboradi.

Arizachi va sinov laboratoriyasi (markazi) o'rtasida sinov o'tkazish bo'yicha to'zilgan xo'jalik shartnomasiga asosan sinov namunalari saqlanadi, utillashtiriladi yoki arizachi (so'rovchi)ga etkazib beriladi.

Sertifikatlashtirish idorasi o'tkazgan sinov natijalari bo'yicha to'zilgan qarorni ko'rib chiqadi va u ijobiy bo'lsa, mahsulotga muvofiqlik sertifikat berish to'g'risida qaror qabul qiladi. So'ngra rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikati sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat ro'yxatiga (reestriga) kiritiladi va unga ro'yxatga olingan tartib raqami (nomeri) qo'yiladi. Aks holda, u haqiqiy deb hisoblanmaydi. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati uch yildan oshmasligi kerak.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar davriy ravishda O'zstandart («O'zstandart» agentligi)ning bosma idoralari tomonidan berilib turiladi.

Bojxona ta'minotida bo'lgan chetdan keltirilgan (import bo'yicha) mahsulotdan namunalar tanlab olish bojxona idorasining ruxsati bilan bojxona inspektori va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida sertifikatlashtirish bo'yicha idora vakillari tomonidan bajariladi. Bunda uch nusxada tanlab olish dalolatnomasi to'ziladi, ulardan ikkinchi nusxasi bojxona idorasiga topshiriladi. Qolgan protseduralar (ish tartibi) yuqorida qayd etilganidek amalga oshiriladi.

3. CHet el mamlakatlarning sertifikatlashtirish ahamiyati

Mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlar xavfsizligini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan ishlar butun jahon miqyosida amalga oshiriladi. Mahsulot xavfsizligini tasdiqlash esa, mahsulotni sertifikatlashtirish orqali yoki sertifikatlarni tan olish hamda respublikadan tashqarida tovar ishlab chiqaruvchilarga tovarlari uchun berilgan tashqi muvofiqlik guvohnomalari orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda turli idora (tashkilot)lar tomonidan bajariladigan mahsulot xavfsizligini tekshirishning ko'plab protseduralari va uslublari mavjud. Bularga standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati, sanitariya-gigiena nazorati, mahsulotni mahkama (uchrejdienie) tekshiruvi va uni qabul qilish, milliy iste'molchi tashkilotlar tomonidan bajarilayotgan mahsulot sifati va xavfsizligini tekshirish bo'yicha faoliyatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

CHet mamlakatlarda xavfsizlik va xususiy biznesning paydo bo'lgan an'analari sohasida yaxshi rivojlangan qonunchilikning mavjudligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot xavfsizligi, uni tekshirish, sinash va yaroqsizlantirish (utilizatsiya) javobgarligi ishlab chiqaruvchiga yuklatilgan. Davlatning tekshiruvchi idoralari yalpi tekshiruvlarni amalga oshirmaydi, ular faqat jabrlangan tomon yoki uning vakilini murojaati bo'yicha noinsof ishlab chiqaruvchilarga nisbatan sud tartibida zarur choralar qo'llaydi. Ko'plab chet mamlakatlarning qonunchiligi mahsulotning muayyan (mavjud) turlari va guruhlariga bo'lgan talablarni belgilovchi alohida qonunlardan tashkil topgan. Masalan, sertifikatlashtirish bo'yicha franso'z assotsiatsiyasi (AFNOR) ning ma'lumotlariga qaraganda, Evropa iqtisodiy hamjamiyati (EIH) a'zo mamlakatlarida va Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EESA) da 500 dan ortiq buyumlar sertifikatlashtiriladi, 300 dan ortiq sertifikatlashtirish tizimlari va 700 dan ortiq sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ko'pdan buyon va keng miqyosda qo'llanilayotgan sertifikatlashtirish o'z mamlakatlari va o'z bozorlariga milliy standartlar yoki mamlakatda amal qilayotgan boshqa texnik me'yoriy hujjatlarga muvofiq kelmaydigan mahsulotlarni kirib qolishidan himoya qiladi. SHu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, chet mamlakatlarda bitta mahsulot uchun mo'ljallangan standartlar va boshqa *turli texnik me'yorlar* bir-biridan farq qiladi, natijada ular *xalqaro savdoda texnik to'siqlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi*. SHuning uchun ham jahon bozorida raqiblarni teng huquqli sherikchiligini ta'minlash uchun ularni muvofiqlashtirishni taqoza etadi. Barcha chet mamlakatlarda sertifikatlashtirish idoralaridan tashqari ularning chegaralarida joylashgan maxsus xizmatlar ham mavjud. Bu xizmatlar chetdan olib kirilayotgan mahsulotning *veterinariya* (chorva va chorvachilik mahsulotlari), tez bo'zuluvchi mahsulotlar, alohida xavfli kimyoviy moddalar, transport vositalarini tekshiruv kabi tekshirish turlarini amalga oshiradi. 1947 yildan boshlab ta'riflar va savdo bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan bosh bitim (TSBB) jahon savdo qoidalarini ishlab chiquvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. 1993 yilning dekabrda TSBB tarkibidagi Urugvay ko'p tomonlama savdo mo'zokaralarida TSBBni jahon savdo tashkiloti (JST)ga o'zgartirish to'g'risida taklif kiritdi va uni o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Hozirgi kunda 25 davlat ushbu tashkilot a'zosi hisoblanadi, ularning umumjahon tovar oborotini 90 foizini tashkil qiladi. Undan tashqari 20 ga yaqin davlatlar Bosh bitimga qo'shilish arafasida turibdi. Sinov tashkilotlarini o'zaro tan olish va akkreditlash sohalarida xalqaro darajada davlatlar orasidagi hamkorlik 1977 yilda chiqarilgan sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha xalqaro konferensiya (ILAK) doirasida amalga oshiriladi. ILAK – bu xalqaro forum bo'lib, uning vazifasiga laboratoriyalar (markazlar)ni akkreditlash mezonlarini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish, xalqaro savdoda texnik to'siqlarni bartaraf qilishga

ko'maklashish, xalqaro va milliy darajada amal qilayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar (organlar) bilan faol hamkorlik qilish kiradi.

4. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat

SHu narsani ta'kidlash joizki, mahsulotga berilgan har qanday muvofiklik sertifikati ham o'zining amal qilish davrida korxonada sifatli, inson sog'ligi, uning hayoti va atrof-muhit uchun xavfsiz mahsulot ishlab chiqarilishini kafolatlay olmaydi. SHuning uchun ham sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o'tkaziladi. Masalan, mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning 28-bandiga asosan seriyalab ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustidan yiliga kamida bir marta inspeksion nazorat o'tkaziladi. Inspeksion nazoratning o'tkazilishi na uning davriyligi mahsulotning turi, uning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish muddati, hajmi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan tavsif va me'yorlarini me'yoriy hujjatlar talablari asosida nazoratdan o'tkazish yo'li bilan ularning barqarorligiga ishonch hosil qilish inspeksion tekshiruvning asosiy maqsadi hisoblanadi. Agar mahsulot sifati me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelmasa, u holda inspeksion nazorat natijasi bo'yicha berilgan muvofiklik sertifikatining muddati vaqtincha to'xtatiladi.

Inspeksion nazoratning asosiy vazifasi – sertifikatlash-tirilgan mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlashdan iborat.

Mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasiga asosan inspeksion nazoratning ob'ekti quyidagilar bo'lishi mumkin:

- mahsulotga belgilangan me'yoriy hujjatlar, mahsulot tavsiflarini sinash usullari va ishlab chiqarish texnologiyasi;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot tavsiflari;
- ishlab chiqarish holati va sifat tizimlari;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish korxonalari va savdo tashkilotlarida saqlanish sharoiti;
- markalash va tashish jarayonlari;
- mahsulotga takdim etiladigan (soprovajdayumie) hujjatlar;
- mahsulotni muvofiklik belgisi bilan markalanishi.

Inspeksion nazorat o'tkazishda mahsulotga muvofiklik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish idorasi yoki uning topshirig'iga ko'ra akkreditlangan boshqa nazorat idoralari xodimlari ishtirok etishadi. Agar mahsulot 5 va 6 sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha sertifikatlash-tirishdan o'tkazilgan bo'lsa, u holda inspeksion nazoratga korxonada sifat tizimini yoki ishlab chiqarish holatini sertifikatlashtirishda ishtirok etgan idora xodimlari ham jalb etiladi. Bu jarayonda sertifikatlashtirish, standartlashtirish va metrologiya sohasi bo'yicha katta tajribaga

ega bo'lgan ekspert-auditorlar qatnashadi. Agar zarur bo'lsa, shartnoma asosida boshqa tashkilotlarning mutaxassisleri ham qatnashishi mumkin. Respublikada sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining O'zRH 51-104:2000 (O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlash-tirilgan mahsulotlarni inspeksion tekshiruvini o'tkazish tartibi) rahbariy hujjati bilan belgilanadi. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat boshlash uchun muvofiqlik sertifikati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilayotgan korxonada va sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida to'zilgan shartnoma asos bo'ladi. SHartnomada bajariladigan ish turlari, ularni bajarish muddati va nazorat xizmatlari uchun to'lov shartlari ko'rsatiladi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat quyidagi tartib va bosqichlarda amalga oshiriladi:

- nazoratga tayyorlanish;
- nazorat ob'ektlarining muvofiqligini baholash;
- nazorat natijalarini rasmiylashtirish;
- nazorat natijalari bo'yicha qaror va chora-tadbirlar qabul qilish.

Nazoratga tayyorlanish bosqichida sertifikatlashtirish idorasining inspeksion nazoratga jalb etilgan xodimlari tomonidan korxonaning ishlab chiqarish holati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, amaldagi sifat tizimi, sertifikatlashtirilgan mahsulotdan foydalanish, ularni tashish, ishlab chiqarish korxonasi va savdo tashkilotlarida saqlanish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga majburiy talablar qo'yadigan me'yoriy hujjatlar to'liq o'rganib chiqiladi. Natijada nazorat turlari, mahsulotni sinash usullari aniqlanadi va inspeksion nazorat dasturi, anketa-savolnomalari to'ziladi. Ularning bir nusxasi esa nazoratdan o'tadigan korxonaga beriladi. Inspeksion nazorat dasturi nazorat ishtirokchilari bilan kelishilgandan so'ng sertifikatlashtirish idorasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi va u inspeksion nazoratini boshlash uchun asos hisoblanadi. Inspeksion nazorat dasturi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: komissiya tarkibi, nazorat o'tkazish muddati va joyi, nazorat maqsadi va ob'ekti, nazorat ishlarining hajmi, mazmuni va nazorat natijalarining maxfiylikiga qo'yiladigan talablar. Bular inspeksion nazorat dasturining quyidagi bandlarida o'z aksini topadi:

- umumiy ma'lumotlar;
- ishlab chiqarishni nazorat qilish;
- mahsulotni nazorat qilish;
- litsenzion shartnomalar shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- nazorat dalolatnomasini rasmiylashtirish.

Inspeksion nazoratning «*Tekshiruvni o'tkazish*» bosqichida nazorat

dasturining «Umumiy ma'lumotlar», «Ishlab chiqarishni nazorat qilish», «Mahsulotni nazorat qilish», «Litsenzion shartnomalariga rioya etilishini nazorat qilish» bandlaridagi ishlar bajariladi.

Inspeksion nazorat dasturining «*Umumiy ma'lumotlar*» bandida sertifikatlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonada rekvizitlari, inspeksion nazoratni o'tkazish joyi va vaqti, nazoratning asosiy maqsadi va vazifalari hamda nazorat komissiyasining tarkibi ko'rsatiladi.

«*Ishlab chiqarishni nazorat qilish*» bandida mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasiga asosan quyidagi ishlarni bajarish rejalashtiriladi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulotga belgilangan me'yoriy va texnik hujjatlarning mavjudligi va ularga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilganligini nazorat qilish;
- bekor qilingan standart va texnik shartlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish;
- muvofiqlik belgisini to'g'ri qo'llanilishi, muvofiqlik sertifikatining asl nusxasi va nusxalardan to'g'ri foydalanishni aniqlash;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotga berilgan reklamatsiya va iste'molchilarning narozichiliklarini hisobga olib borilganligi va ro'yxatdan o'tkazilganligi hamda ular to'g'risida o'z vaqtida sertifikatlashtirish idoralariga xabar qilinganligini tahlil qilish;
- korxonada omborlarida xom ashyo va butlovchi buyumlarning ehtiyoj zahirasining mavjudligi va ularni saqlash sharoitini nazorat qilish;
- ish joylarida konstruktorlik va texnologik hujjatlar va korxonada ajratilgan sifatsiz mahsulotlarni saqlash uchun maxsus xonalarning mavjudligini o'rganish;
- sinov jihozlarining holati, sinov usullarining to'g'ri tanlanganligi, o'lchash asboblari va sinov jihozlarining mavjudligi hamda ularning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;
- texnologik jarayonlarga rioya qilinishi, shu jumladan texnologik operatsiyalarning to'g'ri bajarilishini aniqlash;
- texnologik jihozlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni rasmiylashtirilganligini tahlil qilish;
- mahsulotni ortish, tashish, tushirish, saqlash va omborlarda joylashtirish usullarini aniqlash;
- kirish nazoratining o'tkazilishi, xom ashyo va materiallari hamda yordamchi buyumlardan foydalanishning to'g'riligini o'rganib chiqish;
- sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tasdiqlangan kamchiliklarni to'zatishtirish chora-tadbirlari bo'yicha ishlarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

Inspeksion nazorat dasturining «*Mahsulotni tekshirish*» bandi mahsulotga belgilangan amaldagi me'yoriy hujjatlarni nazorat qilish, sinovlar uchun

namunalar olish tartibi, sinovlar hajmi va sharti, sinovlar o'tkazish joyi, oldinlari o'tkazilgan sinov natijalaridan foydalanish choralari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni identifikatsiyalash tartibi va muvofiqlik sertifikat bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini aniqlashni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dasturning «*Litsenzion shartnomalar shartlariga rioya qilish*» bandida quyidagi masalalarni o'rganish rejalashtirilgan:

-sertifikatlashtirilgan mahsulotda muvofiqlik belgisining mavjudligi va uni to'g'ri qo'yilishi;

- muvofiqlik belgisini qo'llanganligi va litsenzion shartnomaning boshqa shartlariga rioya qilinganligi uchun litsenzion to'lovlarning to'g'riligi va muntazamligi.

Inspeksion nazorat dasturining «*Ishlab chiqarishni tekshirish*» bandida ko'rsatilgan savollar bo'yicha sertifikatlashtirilgan mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning holatini tekshirish sertifikatlashtirish sxemalari asosida, mahsulotni nazorat qilish esa nazorat dasturining tegishli bandidagi savollari asosida amalga oshiriladi. Namunalar olish maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ularni sinovdan o'tkazish esa akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sinov laboratoriyalari (markazlari)da amalga oshiriladi.

Bordiyu sinov laboratoriyalari bo'lmasa, u holda sinovlar belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan ishlab chiqarish korxonasining laboratoriyasida ham o'tkazilishi mumkin. Bunday hollarda sinov o'tkazish paytida inspeksion nazorat guruhi a'zolari hamda sertifikatlashtirish idorasining masul xodimi ishtirok etadi. So'ngra sinov natijalari asosida bayonnoma to'ziladi.

Litsenzion shartnomalar shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish muvofiqlik belgisining mavjudligini aniqlashdan va uning buyumga, taraga, o'rabog'lash materialiga va ko'zatuv hujjatlariga to'g'ri qo'yilganligini o'rganishdan boshlanadi.

Nazorat bevosita ishlab chiqarish korxonasi yoki savdo tashkilotida o'tkaziladi. Inspeksion nazorat dalolatnomasini tuzish va nazorat obektlarining muvofiqligini baholash ishlab chiqarish, mahsulot va muvofiqlik belgisini nazorat qilish natijalari asosida amalga oshiriladi.

SHu narsani alohida ta'kidlash joizki, nazoratdan o'tkazilgan ob'ektlarni baholash bo'yicha xulosalar (qarorlar) aniq va shubhasiz to'g'ri bo'lishi kerak. Inspeksion nazorat dalolatnomasida esa alohida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning muhim tavsiflari baholari va sertifikatlashtirilgan mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishi haqidagi xulosalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu dalolatnoma inspeksion nazorat dasturining «*Tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish*» bandining talablari asosida rasmiylashtiriladi va

uning birinchi nusxasi (ilovalari bilan) nazorat o'tkazilgan korxonalar, ikkinchisi sertifikatlashtirish idorasiga beriladi.

Agar dalolatnoma ijobiy to'zilgan bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikati va belgisini qo'llashga huquq beradigan litsenzion shartnomani 15 kun maboynda tasdiqlaydi. Bordiyu iisneksion nazorat natijasida mahsulotning xavfsizligiga ta'sir qilmaydigan tavsiflarida kamchiliklar aniqlangan bo'lsa va ular me'yoriy hujjatlarning majburiy talablari bilan bog'liq bo'lmasa, u holda ham sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikati va litsenzion shartnomani qayta tasdiqlab, mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun ishlab chiqarish korxonasiga muddat beradi.

Agar inspeksion nazorat natijasi bo'yicha mahsulotni me'yoriy hujjatlarning majburiy talablariga muvofiq kelmaganligi aniqlansa, u holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikating amal qilishini vaqtincha to'xtatadi va davlat nazorat idoralari ishlab chiqarishni to'xtatilishi va mavjud kamchiliklarni to'zatisish uchun kerak vaqtini kelishib olish to'g'risida qaror yuboradi. Agar korxonadan kamchiliklarni to'zatisish bo'yicha to'zilgan chora-tadbirlar belgilangan muddatda bajarilmasa, u holda sertifikatlashtirish idorasi mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikatini bekor qilish haqida qaror qabul qiladi va qarorni o'zining kitobida ro'yxatdan o'tkazadi.

So'ngra qarorni mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaga va 5 kun muddat ichida O'z davstandart («O'zstandart» agentligi), bo'jxona idoralari va kerak bo'lsa ommaviy axborat vositalariga beradi. Muvofiqlik sertifikati bekor qilingan ishlab chiqarish korxonasi qarorini dalolatnoma orqali sertifikatlashtirish idorasiga qaytarib, tezlik bilan mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatadi.

Agar savdo korxonalarida sotilmasdan qolgan mahsulot bo'lsa, ularni qaytarib oladi. SHuning bilan birgalikda ispeksiop nazoratdan o'tkazilayotgan mahsulot ilgari 5 va 6 sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha sertifikatlashtirilgan bo'lsa, u holda unga berilgan muvofiqlik sertifikati va litsenzion shartnomasining amal qilish muddati ishlab chiqarish yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha idora qarori bilan ham vaqtincha yoki butunlay to'xtatilishi mumkin.

Buning uchun ishlab chiqarish yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish idorasi ishlab chiqarish yoki sifat tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikating amal qilish muddatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatisish bo'yicha qaror qabul qilishi kerak. Bunday hollarda mahsulotga muvofiklik sertifikatini bergan idora uning amal qilish muddatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatisish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Tayanch iboralar: 1994 yil 14 avgustdagi 409-sonli qaror; majburiy sertifikatlashtirish; ro'yxatga kiritilmagan mahsulot; me'yoriy hujjatni tanlash; ixtiyoriy sertifikatlashtirish; Davlat ro'yxati (reestri); ISO/MEK, ISO; EN 45000;

deklaratsiya buyurtma; xo‘jalik shartnomasi; identifikatsiyalash; ijobiy qaror, rad javobi; namuna; AFNOR, EIH, EESA, TSBB, JST, ILAK; inspeksion nazorat ob‘ekti va bosqichlari; tekshiruvga tayyorgarlik; inspeksion nazorat ob‘ekti va bosqichlari; tekshiruvga tayyorgarlik; mahsulotni tekshirish; nazorat dasturi va dalolatnomasi; litsenzion shartnoma; muvofiqlik sertifikat; namuna olish dalolatnomasi; idora qarori va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Qaysi qonunga asosan «O‘zstandart» agentligiga sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish yuklatiladi?
2. Majburiy sertifikatlashtirish nima va uning qanday bosqichlari mavjud?
3. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish nima?
4. Deklaratsiya nima, u qanday amalga oshiriladi?
5. Sinovlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad nimalardan iborat?
6. CHet el mamalakatlarining sertifikatlashtirish ahamiyatlari nimalardan iborat?
7. ILAK nima va uning vazifalari nimalardan iborat?
8. Qaysi nizomga asosan inspeksion nazorat qachon o‘tkaziladi?
9. Mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasiga asosan inspeksion nazoratning ob‘ektlari qaysilarni tashkil qiladi?
10. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat qanday tartib va bosqichlarda amalga oshiriladi?
11. Inspeksion nazorat dasturi qanday ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va ular dasturning qaysi bandlarida keltirib o‘tilgan?
12. Inspeksion nazorat dalolatnomasini tuzish va nazorati qanday amalga oshiriladi?

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi.
2. Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘ladi va uni kengroq o‘rganadi.
3. CHet el mamlakatlarining sertifikatlashtirish ahamiyati va sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat haqida etarli bilimga ega bo‘lishi va u yanada chuqurroq o‘rganishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 13, 14, 15, 16, 18

16-mavzu. Sertifikatlangan mahsulotlar sifatini ta'minlash va boshqarish

1. Ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, axborot ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mahsulotlar sifati to'g'risida tushuncha 2. Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sertifikatlashtirishning ahamiyati 3. Sifatni boshqarish tizimlari 4. Sifat tizimlarining sertifikatlash-tirishdan o'tkazish
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Sertifikatlangan mahsulotlar sifatini ta'minlash va boshqarish to'g'risida tushunchalar berish.	
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Mahsulot sifati, istemol tovarlarning sifati, sifatni oshirish yoki yaxshilash tushunchalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. • Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sertifikatlashtirishning ahamiyati, mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar ham standartlar va standartlashtirishning boshqa me'yoriy hujjatlari orqali belgilanishi yoritiladi. • Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sifatni boshqarish tizimlari ularning talabi haqida axborot beriladi. • Sifat tizimlarining sertifikatlash-tirishdan o'tkazish • tartibi va talablari bilan tanishtiriladi. 	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mahsulot sifati to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'lishadi. • Sertifikatlashtirishning ahamiyati, mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar, standartlar va standartlashtirishning boshqa me'yoriy hujjatlari bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar. • Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sifatni boshqarish tizimlari ularning talabi haqida axborotga ega buladilar. • Sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o'tkazish • tartibi va talablari bilan tanishadilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, hamkorlikda o'qitish texnikasi,.
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Mahsulot sifati, istemol tovarlarning sifati, sifadni oshirish yoki yaxshilash tushunchalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. 2.3. Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sertifikatlashtirishning ahamiyati, mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar ham standartlar va standartlashtirishning boshqa me'yoriy hujjatlari orqali belgilanishi yoritiladi. 2.4.Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sifadni boshqarish tizim-lari ularning talabi haqida axborot beriladi. 2.5.Sifattizimlarining sertifikatlash-tirishdan o'tkazish tartibi va talablari bilan tanishtiriladi.	2.1.Muammolisavollarga e'tibor beradilar: bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4. Eshitadilar, yozadilar. 2.5. Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi.	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Mahsulotlar sifati to'g'risida tushuncha

Ma'lumki, mahsulot sifati uning hayotiy bosqichlarida-tadqiqot qilish va loyihalash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishda (muomalada) shakllanadi.

Sifat - bu obektning ta'rif yoki tavsiflari majmui bo'lib, belgilangan va ko'zda tutilgan talablarni qondirish xususiyatidir yoki bo'lmasa *sifat* deb, iste'molchi talabini qondirish darajasiga aytiladi.

Ishlab chiqarish ob'ektlarida mahsulot sifati deganda, ushbu mahsulotni me'yoriy hujjatlar talabiga muvofiqligi tushuniladi.

Iste'mol tovarining sifati deb, uni nominal sharoitda o'z vazifasi bo'yicha iste'mol qilishda yoki ishlatishda xaridorlar (iste'molchilar)ning malum ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlarining majmuiga aytiladi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, sifat bu mahsulotning ijobiy ko'rsatkichlari yig'indisi yoki sifat mahsulotning iste'mol xususiyatlarini belgilab beruvchi mezonlar majmui ekan.

«Sifat» tushunchasiga assortiment to'laligi va xilma-xilligini ham qo'shish mumkin, chunki bular iste'molchilar talablarini to'liq qondirishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Agar sifatni faqat tovarning me'yoriy hujjatlar tomonidan belgilangan talablarga mos kelishini belgilovchi omil sifatida qaraydigan bo'lsak, u holda biz faqat ishlab chiqarish sifati tushunchasini ta'riflagan bo'lamiz, xolos. SHuning uchun ham «sifat» tushunchasi keng ma'noga ega.

Mahsulot sifatiga talab va taklif ham bog'liq bo'ladi.

CHunki, yuqori sifatli mahsulot yoki tovar aholi talabini qondiradi va yuqori talabga ega bo'ladi. Sifatsiz tovar esa, savdo shaxobchalarining peshtoqlarida turib qoladi va aholi talabiga ega bo'lmasdan, natijada korxonalar yoki xususiy tadbirkorni inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash - bu respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biridir. Tayyor mahsulot sifatini yaxshilash yoki bajarish bilan uning iste'mol qilish muddati o'zayadi, tannarxi va mehnat sarfi kamayadi, jahon bozorida raqobatbardoshligi oshadi, korxonalar iqtisodiyoti yaxshilanadi va iste'molchining talabi to'laroq qondiriladi.

SHuning uchun ham tovar (mahsulot) sifati davlat miqyosida rejalashtirish va sifatni boshqarish ob'ekti hisoblanadi. SHuningdek, mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.

Tovar (mahsulot) sifatining yuqoriligi u yoki bu ishlab chiqarish tarmog'ida fan, texnika va texnologiyaning yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bu vazifa bozor iqtisodiyoti yoki munosabatlarining talablaridan kelib chiqadi.

Respublikada amal qilayotgan qonun qoidalarga asosan iste'molchilar talabi va amaldagi moddaga mos kelmaydigan past sifatli mahsulot ishlab chiqargan korxonaga nisbatan iqtisodiy jarima (sanksiya)lar qo'llaniladi. Agar bunga ishchilar aybdor bo'lsa, u holda ularga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy jazolar qo'llaniladi.

Mahsulot sifatining shakllanishida unga juda ko'plab omillar ta'sir etadi va bu omillar shartli ravishda texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bo'linadi. Bu omillar o'z navbatida ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ajratiladi. *Ob'ektiv omillarga* ko'proq texnik omillar kiradi: buyum konstruksiyasi, ishlab chiqarishni mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish bazasining texnik darajasi, nazoratning texnik vositalari, zamonaviy texnologiya va boshqalar.

Sub'ektiv omillarga inson faoliyati bilan bog'liq omillar (kishilarning qobiliyati, ishlab chiqarish vazifalari (funksiyalari)ni bajarishga munosabati) kiradi.

Texnik omillarga asbob-uskunalarining jihozlanishi, nazorat vositalari va texnik hujjatlarning holati, dastlabki materiallar hamda yarim fabrikatlarning siyosati yangi texnik vositalar (jihozlar)ning mavjudligi, dastlabki materiallar hamda yarim fabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillar rejali va bir maromda ishlash, texnik xizmat va jihozlarni ta'mirlash, materiallar, butlovchi buyumlar, jihozlarni texnologik hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy omillar mehnatga xaq to'lash shakllari, oylik maoshining miqdori, yuqori sifatli mahsulot va ishni rag'batlantirish, mahsulot yaroqsizligi uchun ish haqidan ushlab qolish, mahsulotning sifat darajasi, tannarxi va bahosi kabi omillardan tashkil topadi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, malaka oshirishni tashkil qilish, ilmiy texnik ijod, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, jamoaning turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit va tarbiyaviy ishlar kiradi.

Bu omillar sifatiga alohida yoki birgalikda ta'sir etishi mumkin.

2. Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarishda sertifikatlashtirishning ahamiyati

Mahsulot sifatini ta'minlash, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va uni boshqarish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni hal etishda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki faoliyatning bu yo'nalishi mahsulot sifatini oshirish va ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga va dunyo standarti darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqishini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish hamda ichki bozorni egallashga yo'l ochib beradi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasida so'zlagan nutqida respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim masalalari hakida: «YA'ni, bir dolzarb masala ishlab chiqarishni kengaytirish, dunyo standarti darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning raqobatbardoshligini oshirishdir» degan edi.

Prezidentimizning ushbu so'zlari mamlakatimizni bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishida dasturi amal bo'ladi desak, xato qilmagan bo'lamiz, chunki bozor munosabatlarining talablaridan biri, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish va ta'minlashdan iborat. Albatta, bu muammolarni hal etishda standartlashtirishning ham o'z roli bor. Standartlashtirish mahsulot (xizmat)ning belgilangan darajada funksional vazifasiga mos kelishi darajasini oshirish, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish va ilmiy-texnik o'sishni ta'minlaydi. SHuningdek, mahsulot (xizmat) sifatga talablar va me'yorlar belgilaydi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish mahsulot sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Metrologiya mahsulot (xizmat)lar sifatini ilmiy-texnik nazorat qilishning asosi hisoblanadi. Qaerda mahsulot holati, o'lchamlari zamonaviy ishlash va o'lchash vositalari orqali aniqlansa, o'sha erda yuqori sifatga erishish mumkin.

Mahsulot (xizmat)ni sertifikatlashtirish esa ularni standartlar talablariga javob berishini isbotlovchi ish tartiblarini belgilaydi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash gorovi hisoblanadi.

Mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar ham standartlar va standartlashtirishning boshqa me'yoriy hujjatlari orqali belgilanadi. Standartda fan, texnika va xalqaro tajribaning ilg'or yutuqlari shakllanadi, chunki standartlarni tuzishda mahsulot sifatiga qo'yiladigan ichki va tashqi bozor, inson hayoti, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizlik talablari belgilanadi. SHuningdek, milliy standart va texnik shartlarning xalqaro, mintaqaviy va MDH davlatlararo standartlari bilan uyg'unlashtirish ham sifatni yaxshilash, uni ta'minlash va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mahsulot uchun mo'ljallangan standart talablariga

qat'iy rioya qilish (ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish paytlarida) mahsulot sifatini talab darajada ta'minlashga ko'plab imkon yaratib beradi. Standartlar mahsulot sifatini ta'minlash uchun: birinchidan - mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'p marta takrorlanib turiladigan texnologik jarayonlar va uning sifatiga qo'yiladigan talablarni aks ettirishi; ikkinchidan - eng yaxshi maqbul echimga asos bo'lishi; uchinchidan - amalga kiritilgan standart ma'lum muddat davrida o'zgarmaydigan hamda samarali bo'lishi va shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi shart.

Standartlashtirishning ushbu xususiyatlaridan oxirgisi (o'zgarmaydigan va samarali bo'lishi) e'tiborga ko'proq loyiq, chunki standart tez-tez o'zgaruvchan va samarasi pasaysa, u holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati ham pasayadi, sifatni ta'minlab bo'lmaydi va oxirida ishlab chiqarishning ham samaradorligi kamayadi, nihoyatda uni inqirozga uchrashiga ham sabab bo'ladi. SHuning uchun standartlar ham muntazam ravishda baholanib turiladi, kerak bo'lsa qayta ko'rib chiqiladi, kerakli o'zgartirishlar kiritiladi, bekor qilinadi yoki uning o'rniga fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga asoslangan yangi standartlar yaratiladi.

Hozirgi kunda ham yangi ishlab chiqariladigan va amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan mahsulotning sifatini yanada yaxshilash va uni ta'minlash hamda boshqarish ustida samarali ishlar olib borilmoqda. Bunday chora-tadbirlar ichki va tashqi bozor, inson hayoti, uning mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz va jamiyat talablariga muvofiq keladigan mahsulot ishlab chiqarishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ko'plab me'yoriy hujjatlar va ilmiy manbalarda mahsulot yoki xizmatga nisbatan «sifatni oshirish yoki yaxshilash», «sifatni ta'minlash», «sifatni boshqarish» kabi atamalar yoki tushunchalar ishlatiladi.

Sifatni ta'minlash deb, mahsulot yoki xizmat sifatiga belgilangan ma'lum talablarni qondirishga ishonch hosil qilish uchun davriy ravishda rejalashtiriladigan va o'tkaziladigan chora-tadbirlar majmuiga aytiladi.

Sifatni ta'minlash bo'yicha o'tkaziladigan chora va tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- bozorni o'rganish;
- xom ashyo va materiallar etkazib beruvchi korxonalarini qayta tayyorlash;
- ishchi xodimlar va mutaxassislarni yangi texnologiya talablariga muvofiq malakasini oshirish;
- texnologik jihozlar qismlarini o'z vaqtida almashtirish va ularga texnik xizmatlar ko'rsatish;
- o'lchash vositalarining holatini o'rganish va ularni qiyoslashdan o'tkazish;
- sifat tizimlarini qayta ko'rib chiqish va ularni xalqaro sifat tizimlari bilan uyg'unlashtirish va boshqarish.

Mahsulotni yaratish, ishlatish yoki iste'mol qilish davrida uning sifatini aniqlash, ta'minlash va etarli darajada saqlash bo'yicha o'tkaziladigan ishlar majmuini sifatli boshqarish jarayonini tashkil etadi.

Mahsulot sifatini boshqarish sifat tizimi bo'yicha belgilangan xalqaro standartlarni qo'llash orqali mahsulot (xizmat) sifati va raqobatbardoshligini oshirish choralari ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiiq etishda ijobiiy yondashishni ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hayotiiy davriniig boshlang'ich, ya'ni tadqiqot va loyihalash hamda ishlab chiqarish bosqichlarida bajariladigan texnik va boshqa jarayonlarni puxtalik bilan amalga oshirishga qaramasdan, mahsulotni ko'p partiiyali yoki seriiyali ishlab chiqarishda uning sifati bo'yicha ayrim kamchiliklar (cheklanishlar) paydo bo'lishi mumkin. Bu kamchiliklar yoki cheklanishlarning kelib chiqishiga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish texnologiiyasining talab darajasida emasligi yoki eskirishi, jihoz va asbob-uskunalarining eskirishi yoki bo'zilishi, ishlab chiqarish bazasining texnik, darajasining talabga javob bermasligi, ishchi xodimlar va mutaxassislar malakasining pastligi yoki ularning o'z vazifalariga layoqatlik bilan qarashi, xom ashyo va materiallar sifatining talab darajasidan pastligi, tayyor mahsulotni saqlash rejiminiing bo'zilishi va boshqalar.

Mahsulot sifatini pasayishi yoki uning sifatida ayrim cheklanishlarning kelib chiqishi ishlab chiqarish korxonasiidagi davlat, ishlab chiqarish va texnologik intizomning bo'zilishi hamda ishchi va rahbar xodimlarning mahsulot sifati ta'minlashdagi mas'uliyatlari bilan o'zaro bog'liq.

Har bir mahsulot sifatidagi cheklanishlar yoki ayrim kamchiliklar me'yoriiy hujjatlarda belgilangan chegaradan chiqmasa, u holda bunday cheklanishlar *pyxsat etiladigan cheklanishlar* deyiladi va bu mahsulot realizatsiiya qilish uchun yaroqli hisoblanadi. Aks holda esa, mahsulot *nuqsonli* deb ataladi va bunday mahsulotni realizatsiiya qilish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Mahsulot sifatida to'zatib bo'lmaydigan nuqsonlar (kamchiliklar) mavjud bo'lsa, bunday mahsulot *sifatspaz* (yaroqsiz) yoki *brak* deyiladi. Bunday mahsulotni muomalaga chiqarish mumkin bo'lmaydi.

SHunday qilib, sifatni boshqarish yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish, ya'ni mahsulot sifatini me'yoriiy hujjatlarda belgilangan talablariga moslashtirish bo'yicha qo'llaniladigan uslublar va faoliyatdan iborat ekan.

Sifatni boshqarish bir vaqtning o'zida jarayonni boshqarish va maqbul iktisodiiy samaraga erishish uchun mahsulot hayot davrining tegishli bosqichlarida qilingan noto'g'ri harakat sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tezkor xarakterdagi uslub va faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi.

Sobiq ittifoq respublikalarida qabul qilingan metodologiya cheklanishlarni aniqlash, ularning sabablarini bartaraf etish, mahsulotni nazoratdan o'tkazish, cheklanish va iste'molchilar takliflarini inobatga olish hamda ular asosida qarorlar qabul qilishga asoslangan.

Sifatni boshqarish bo'yicha qarorlar kundalik mavjud va bundan oldin to'plangan malumotlar asosida to'zilib, cheklanishlar sabablarini bartaraf etishga qaratilgan va aniq yozilgan bo'lishi kerak. Qarorda mas'ul xodimlar va bajarish muddatlari ko'rsatilishi shart. Bunday qarorlar mahsulot hayot davrining har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida qabul qilinadi.

Ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasida ishlab chiqarish texnologiya jarayonlarini boshqarish nazorat kartalarini qo'llash asosida statistik uslublar yordamida amalga oshiriladi. Bunday usul mahsulot sifati va boshqa ko'rsatkichlaridagi cheklanishlarning sababini oldindan bartaraf etish hamda sifatsiz (nuqsonli) mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun imkon yaratib beradi.

Demak, mahsulotdagi mavjud nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini maksimal darajada bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish sifatni boshqarishning asosiy mohiyati hisoblanar ekan.

Sifatni boshqarish ob'ektiga qayta ishlab chiqarishni shakllantirish jarayonlari, boshqarishning barcha darajalarida mahsulot sifatini saqlash va qayta tiklash hamda mehnat vositalari va predmetlari, mehnat resurslari, mehnat sifati, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar kiradi.

Sifatni boshqarish ob'ektiga 9000 seriyali xalqaro standartlarning mafkurasi (ideologiyasi)ga asosan korxonalar (kompaniya) yoki tashkilotning sifat tizimlari ham kiradi, chunki sifatni ta'minlash bo'yicha ularda belgilangan chora-tadbirlar bozor va iste'molchi talablari va texnologik jarayonlarning o'zgarishi asosida o'zgartiriladi.

Sifatni boshqarish me'yori yoki vositalariga quyidagilar kiradi: mahsulot sifat ko'rsatkichlari va maqsad muvofiqligiga reglament belgilovchi me'yoriy hujjatlar, mehnat jarayonlarini boshqarish va tashkil qilish vazifalari (funksiyalari), nazorat-sinov, o'lchash, ma'lumotlar beruvchi (spravochnye) va hisoblash vositalarini o'z ichiga oluvchi axborotlar va metrologik ta'minotlar.

Mahsulot sifatini rejalashtirish va prognoz qilish, mahsulotni attestatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarishini tadbiq qilish va yo'lga qo'yish, sifatni oshirganligi uchun iqtisodiy rag'batlantirish, sifatni nazorat qilish va metrologik ta'minot *sifatni oshirish elementlari* hisoblanadi.

3. Sifatni boshqarish tizimlari

Har bir korxonada (kompaniya) yoki tashkilot o'zining sifatli mahsulot ishlab chiqarishi yoki yaxshi xizmat ko'rsatishidan manfaatdor bo'ladi, chunki bu bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir. SHuningdek, har qanday sifatli mahsulot yoki xizmat quyidagi talablarga muvofiq kelishi kerak:

- iste'molchining ma'lum bir ehtiyojini qondirishi;
- ekspluatatsiya qilinishini maqsadga muvofiq kelishi;
- iste'molchilarning talablarini to'liq qondirishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari va harakatdagi qonun-qoidalar hamda jamiyatning boshqa talablariga javob berishi;
- iste'molchilarga raqobat narxida taklif qilinishi;
- korxonada tomonidan foyda olinishini ta'minlash va boshqalar.

Bu vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga ta'sir etuvchi barcha texnik, texnologik, ma'muriy, ijtimoiy, tarbiyaviy va boshqa omillarni korxonada (kompaniya) yoki tashkilot rahbarlari hamda sifat uchun mas'ul xodimlarning doimiy nazoratida bo'lishi kerak. SHuningdek, ishlab chiqarilgan sifatsiz mahsulot miqdorini aniqlash, nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini keskin qisqartirib borish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish ham korxonada (kompaniya) yoki tashkilot rahbarlarining kundalik rejasi bo'lishi kerak. U holda, korxonada (kompaniya) yoki tashkilot mahsulot sifatini boshqarish faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Sifatni boshqarish xalqaro tizimlarining milliy sifat tizimlaridan farqi ham aynan yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsad va vazifalarni nazarda to'tishidir.

Ko'p hollarda mahsulot (xizmat) sifatini ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- korxonada (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni ta'minlashga erishgan darajasi hamda sifat sohasidagi siyosatining maqsadi;
- sifatni ta'minlash bo'yicha mas'ul xodimlarning mas'uliyatlikni sezish darajalari;
- texnik, texnologiya, ma'muriy, insoniy, ijtimoiy va tarbiyaviy tadbirlar kompleksida sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi omillarni to'liq qamrab olish va boshqalar.

Demak, har bir ishlab chiqarish korxonasi (kompaniyasi) sifatni doimo ta'minlash va unga samaraliroq rahbarlik qilish maqsadida umumiy tizimga ega bo'lishi shart va u korxonada (kompaniya) sifatini boshqarish bo'yicha belgilangan maqsadga erish uchun xizmat qilishga qaratilishi kerak. Sifatga umumiy rahbarlik

qilish tizimining mazmuni esa korxonalar (kompaniyalar) faoliyati yoʻnalishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot assortimentining murakkabligiga bogʻliq boʻladi.

Maʼlumki, korxonalar (kompaniyalar) yoki tashkilotning umumiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini belgilangan darajasiga erishish va uni saqlab turishiga qaratilgan boʻladi. Buning uchun korxonalar (kompaniyalar) yoki tashkilot oʻzidagi mavjud texnik, texnologiya, insoniy va boshqa resurslarini toʻgʻri rejalashtirishi va ulardan samaraliroq foydalanishi kerak. Bulardan tashqari korxonalar (kompaniyalar) yoki tashkilot oʻzi ishlab chiqarayotgan mahsulot (xizmat)ning yuqori sifatli ekanligi va bu sifatni saqlab tura olish imkoniyatiga ega ekanligi toʻgʻrisida isteʼmolchida ishonch hosil bildirilishiga erishish kerak. Bu muammolarning echimi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar (kompaniyalar) yoki xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlarning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzaro bogʻliq. SHuning uchun ham mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar (kompaniyalar) yoki xizmat koʻrsatuvchi tashkilotning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimlari korxonalar (kompaniyalar) yoki tashkilot ehtiyoji va talablari hamda isteʼmolchilar ehtiyojlari va talablari bilan oʻzaro bogʻliq boʻlishi kerak.

Korxonalar (kompaniyalar) yoki kompaniyaning sifat tizimi sifatga umumiy rahbarlik qilish faoliyatining asosini tashkil etadi va bu asos korxonalar (kompaniyalar) yoki tashkilotning sifat boʻyicha siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida qoʻllaniladi va u boshqarishning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib hisoblanadi.

Tizim deganda, bir-biri bilan oʻzaro munosabatda va bogʻliq boʻlgan hamda maʼlum bir butunlikni (umumiylikni) hosil qiluvchi elementlar toʻplami tushuniladi yoki *tizim* - bu umumiy belgilari boʻyicha birlashgan qandaydir elementlar yoki birliklar majmuidir.

Demak, tizim deyilganda, bir-biri bilan oʻzaro oʻzviy bogʻlangan elementlar yoki birliklar toʻplami tushunilar ekan. Toʻplanning har bir elementi yoki birligi esa tizimning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

«Tizim» tushunchasi texnika va texnologiya sohasida grafik shaklida ifodalanadi va u xalqaro tajribada ham qoʻllaniladi.

Tashkiliy tuzilish, maʼsuliyatlar, bajariladigan vazifalar va ishlar, jarayonlar, xom ashyo va insoniy resurslar mahsulot sifati tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning soni mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatishda qoʻllaniladigan texnologiya va jihozlar hamda asbob-uskunalarining murakkabligi, nazorat va mahsulot turlariga bogʻliq boʻladi, chunki bu omillar qancha keng va zamonaviy boʻlsa, tizim elementlari shuncha koʻp boʻladi. ISO 8402-86 (Kachestvo. Slovar) xalqaro standartida «sifat tizimi» quyidagicha taʼriflanadi. *Sifat tizimi* - bu sifat boʻyicha umumiy rahbarlikni taʼminlaydigan tashkiliy tizimlar, masʼuliyatlar, ishlar (vazifalar), jarayonlar va resurslar majmuidir.

Yana boshqa bir talqinda «sifat tizimi» quyidagicha ta'riflanadi. *Cifat tizimi* - bu birinchi navbatda korxonada (kompaniya)da istemolchiga kerak bo'lgan mahsulotni etkazib berish yoki tashkilotga xizmat ko'rsatishga imkon yaratib beruvchi ishlarni tashkil etishdagi muayyan usuldir.

«Sifat tizimi» haqidagi bu ikkala ta'rifning ham ma'nosi deyarli bir xil, chunki ular birinchidan - sifatli mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'molchiga etkazib berish; ikkinchidan - istemolchiga yaxshi va sifatli xizmat ko'rsatish va uchinchidan sifat bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlashga qaratilgan.

Demak, sifat tizimi korxonada (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni boshqarish bo'yicha faoliyati, jamiyat va iste'molchilar talablari asosida to'zilar ekan.

Jahon amaliyotida ko'pchilik firmalar va kompaniyalar o'zlarining ta'minlovchilari bilan allaqachonlar sifat tizimlari asosidagi o'zaro munosabatlarga o'tishgan.

Sifatni boshqarish tizimlarida «sifat tizimi», «tizim» kabi tushunchalardan tashqari «jamiyat talablari», «iste'molchi», «kompaniya», (korxonada), «tashkilot» kabi tushunchalar ham ko'p ishlatiladi. Ushbu tushunchalarga ISO 8402-86 (Kachestvo. Slovar) xalqaro standartida to'liq ta'riflar berilgan.

Tashkilot - bu filial yoki mustaqil bo'lgan jamoa yoki shaxsiy kompaniya, korporatsiya, firma yoki korxonada. *Kompaniya* - bu mahsulot yoki xizmat bilan ta'minlovchi birinchi tomon.

Iste'molchi - bu foydalanuvchi, buyurtmachi, mijoz yoki qabul qilib oluvchi shaxs yoki korxonada (faoliyat).

Jamiyat talablari - qonunlar, qonun hujjatlari, qonunlar to'plami, jamiyat talab va qoidalari, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson sog'ligini saqlash, xavfsizlik omillari hamda energiya va materiallarni tejash mezonlaridir.

Mahsulot sifatini ta'minlash, uni boshqarish va oshirish bo'yicha mas'uliyatlar, resurslar (insoniy, texnik, mehnat va boshqalar), texnologik jarayonlar, sifatni boshqarish yo'nalishlari va mahsulot hayotining umumiy davri *sifat tizimi elementlari* hisoblanadi. SHuning uchun ham sifat tizimining elementlari va mahsulot sifatini ta'minlash, oshirish hamda boshqarish bo'yicha bajariladigan vazifalar (ishlar) korxonada (kompaniya) ishlab chiqarayotgan mahsulot assortimenti va texnologik jarayonlarining murakkabligi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

ISO 9004-87 (Общее руководство качеством и стандарты по обеспечению качества) xalqaro standartida ko'rsatilishi bo'yicha korxonada sifat tizimlarini ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin bo'lgan elementlar quyidagilardan iborat:

- dalillar (isbotlar);
- korxonada sifat tizimida ishlatiladigan asosiy tushunchalar;

- sifat bo'yicha rahbariyatning mas'ulligi yoki mas'uliyatlar;
- sifat tizimining yo'nalishlari (tamoyillari);
- iqtisod va sifatni ta'minlash harajatlari bo'yicha fikr va mulohazalar;
- marketing doirasidagi sifat;
- texnik shartlarni loyihalash va ularni ishlab chiqishdagi sifat;
- moddiy texnik-ta'minot sifati;
- ishlab chiqarish jarayonidagi sifat;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- mahsulot nazorati yoki tekshiruvi;
- nazorat - o'lchash texnik vositalari va sinash jihozlarini ta'minlash bo'yicha ishlar;
- nomuvofiqlik;
- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar;
- mahsulotni ortish va tushirish ishlari hamda ishlab chiqarishdan so'nggi operatsiyalar;
- hujjatlar va sifat to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish;
- xodimlar (ishchi, mutaxassis, rahbar);
- mahsulot xavfsizligi va yuridik mas'uliyat;
- statistik uslublarni qo'llash.

Sifat tizimining «Dalillar (isbotlar)» moddasida korxonada sifat tizimini ishlab chiqishda foydalaniladigan quyidagi me'yoriy hujjatlar manbalari ko'rsatilgan:

- ISO 8402. Sifat. Lug'at;
- ISO 9000. Sifatga umumiy rahbarlik qilish va sifatni ta'minlash bo'yicha standartlar. Tanlash va qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar;
- ISO 9001. Sifat tizimlari. Loyihalash va tuzish, ishlab chiqarish, montaj qilish va xizmat ko'rsatishda sifatni taminlash uchun andoza (model);
- ISO 9002. Sifat tizimlari. Ishlab chiqarish va montaj qilishda sifatni ta'minlash uchun andoza (model);
- ISO 9003 Sifat tizimlari. Oxirgi nazorat va sinashda sifatni ta'minlash uchun andoza (model);

Sifat tizimining «Korxonada sifat tizimini ishlab chiqishda qo'llaniladigan tushunchalar» moddasidagi tizimda qo'llaniladigan atama va tushunchalarning ta'rifi berilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- tashkilot - filial yoki mustaqil bo'lgan jamoa yoki shaxsiy kompaniya, korporatsiya, firma yoki korxonada;
- kompaniya (korxonada) - mahsulot yoki xizmatni etkazib beruvchi (ta'minlovchi) birinchi tomon;

- jamiyat talablari - qonunlar, qonun hujjatlari, qonunlar to'plami, jamiyat talablari va qoidalari, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson sog'ligini saqlash, xavfsizlik omillari, energiya va materiallarni tejash mezonlari;

- iste'molchi - oxirgi iste'mol qiluvchi, foydalanuvchi, buyurtmachi, mijoz, oluvchi yoki ikkinchi tomon.

Ushbu standartning «Sifat bo'yicha rahbariyat mas'uliyati» moddasida korxonalar (kompaniya) rahbariyatining sifat sohasidagi korxonalar siyosati va uning maqsadini shakllantirishdagi mas'uliyatlari hamda sifat tizimining ishlash shartlari ko'rsatilgan. «Sifat tizimlari yo'nalishlari (tamoyilari)» moddasida esa, sifat tizimiga asos qilib olingan yo'nalishlar, mahsulotning hayot davri bosqichlari, sifat tizimining tuzilishi, tizim hujjatlari, sifat tizimini nazorat qilish, sifat bo'yicha umumiy rahbarlik, tahlil qilish va baholash me'zonlari ko'rib chiqilgan.

Sifat tizimining «Iqtisod va sifatni ta'minlash harajatlari bo'yicha mulohazalar» moddasida kerakli tizim elementlarini tanlash, sifat bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan harajatlarga umumiy tushunchalar va ularni ta'minlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar tartibi ko'rsatilgan. «Marketing doirasida sifat» moddasida esa mahsulot sifatini belgilovchi iste'molchilar va bozor talablari hamda iste'molchilar tomonidan mahsulot sifati to'g'risida ma'lumotlar olish va tahlil qilish tartiblari ko'rsatib berilgan.

«Nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun ta'sir etish tartiblari» moddasida kamchilik yoki nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun mas'ul xodimlar tayyorlash, ularning muhimligini baholash, umuman nomuvofiqliklar muammosini o'rganish va ularni oldini olish chora-tadbirlari hamda texnologik jarayonlarni boshqarish bo'yicha harakat turlari va nomuvofiq mahsulotlarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish tartiblari ko'rsatib berilgan.

Sifat tizimining «Ortish va tushirish ishlari va ishlab chiqarishdan so'nggi operatsiyalar» moddasida ortish-tushirish ishlari, omborga joylash, ajratish, markalash, o'rab-bog'lash, qadoqlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan ishlar to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. «Hujjatlar va sifat to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish» moddasida boshqarish jarayonlarida ishlatiladigan va ro'yxatdan o'tkaziladigan hujjatlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu tizimning «Xodimlar» moddasida xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini baholash va rag'batlantirish tartiblari ko'rsatib berilgan.

«Mahsulot xavfsizligi va yuridik mas'uliyat» moddasida mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yuridik mas'uliyatlar va «Statistik usullarni qo'llash» moddasida ushbu uslublarni qo'llash sohalari ko'rib chiqilgan va boshqalar.

4. Sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o'tkazish

Sifat tizimini sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun korxonaga (kompaniya) sertifikatlashtirish idorasiga buyurtmanoma va unda qilingan ilova yuboriladi. Ilovada sifat bo'yicha qo'llanma, sifat haqidagi axborot, reklamalar haqidagi ma'lumotlar, muvofiqlik sertifikat va shunga o'xshash hujjatlar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish idorasining iltimosiga ko'ra, korxonaga sifat tizim haqida boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etilishi mumkin.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish quyidagi ikki asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

- sifat tizimini dastlabki tekshirish (ISOga aynan o'xshashlik auditori);
- sertifikatlashtirish auditori va muvofiqlik sertifikatini berish.

Sifat tizimini dastlabki tekshirish (baholash) bosqichi sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni keyinchalik o'tkazilishini maqsadga muvofiqligini aniqlash va sifat tizimining audit dasturini ishlab chiqishi uchun amalga oshiriladi. Auditni o'tkazish uchun esa tekshiruv rahbari (bosh ekspert-auditor) boshqaradigan komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga sifat tizimlarini sertifikatlashtirishdan o'tkazish huquqiga ega bo'lish uchun attestatsiyalangan ekspert-auditorlar ham kiradi.

Sifat tizimini dastlabki baholanishi (tekshirish) sertifikatlashtirish auditori o'tkazish haqidagi bayonnoma (qaror) hamda so'rovchi (arizachi) va sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida shartnoma tuzilishi bilan yakunlanadi. Audit dasturi audit boshlanishidan oldin so'rovchi (arizachi) bilan kelishib olinadi.

Ikkinchi bosqich yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun va qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Sifat tizimlarini joriy etish va ularni sertifikatlashtirish korxonaga (kompaniya) yoki tashkilotga quyidagi afzalliklarni beradi:

- samarali boshqarish ta'minlanadi;
- mahsulot sifatining barqarorligiga rahbariyatda ishonch hosil bo'ladi;
- iste'molchilardan mahsulotni qaytib kelish shikoyatlari kamayadi;
- korxonaga xodimlariga qiziqarli, barqaror va ko'p haq to'lanadigan ish shakllanadi;
- korxonaga obruyi va davlat buyurtmasini olish istiqbollari oshadi;
- korxonaning raqobatbardoshligini oshishi va ekspert potentsiali rivojlanadi;
- ishlab chiqarishni ko'paytirish, sarf-harajatlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hisobiga korxonaga daromadini jiddiy o'sishi va boshqalar.

Tayanch iboralar: Samara va samaradorlik; sifatni ta'minlash; uyg'unlashtirish; sifat va ishlab chiqarish sifati; tovar sifati; assortiment; ob'ektiv va sub'ektiv omillar; texnik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy omillar; sifatni boshqarish; sifatni boshqarish ob'ekti; cheklanishlar; ruxsat etilgan cheklanish; yaroqli va yaroqsiz mahsulot; nazorat kartalari; mehnat resursi va predmetlari; prognoz qilish; mahsulotni atesstatsiyalash, spravochnik; ehtiyoj; bevosita va bilvosita tasir etuvchi omillar; sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimi; korxonalar, kompaniya, tashkilot; iste'molchi; jamiyat talablari; dalillar; tushunchalar, ma'suliyat; marketing va sifat; moddiy texnik ta'minot; nomuvofiqlik; xodimlar statistik usullar; model; sifat tizimini dastlabki tekshirish; qaror va boshqalap.

Nazorat uchun savollar:

1. Sifat deganda nimani tushunasiz va uning vazifalari nimalardan iborat?
2. Mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash nima?
3. Mahsulot sifatining shakllanishida qaysi omillar ta'sir qiladi?
4. Sifatni ta'minlash nima va ular bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
5. Sifatni boshqarishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
6. Sifatli mahsulot va xizmatlar qanday talablarga muvofiq kelishi kerak?
7. Mahsulot (xizmat)ning sifatini ta'minlashda qanday omillarga bog'liq bo'ladi?
8. Tizim deganda nimani tushunasiz?
9. Sifat tizimiga qanday ta'riflar beriladi?
10. Qaysi xalqaro standartga asosan korxonaning sifat tizimlarini ishlab chiqarishda qanday elementlar qo'llaniladi?
11. Sifat tizimlari bo'yicha qanday xalqaro standartlar mavjud?
12. Sifat tizimlari qanday sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi?

Talabaning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Mahsulotlar sifati to'g'risida tushuncha, sifatini ta'minlash va boshqarishda sertifikatlashtirishning ahamiyati bo'yicha etarli bilimga ega bo'ladi.
2. Sifatni boshqarish tizimlari haqida ma'lumotlarni o'rganadi va ma'lumotlarni to'playdi.
3. Sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o'tkazish haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 14, 15, 17, 18.

17-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimi istiqbollari

1. Ma’ruzaning ta’lim texnologiyasi

Vaqti - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar	
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual, axborot ma’ruza	
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish yo‘llari 2. Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi 3. Mahsulot va xizmat sifatini ta’minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati 4. Xalqaro tizim standartlarining turlari va ularni qo‘llash sohalari 5. Mahsulot haqidagi ma’lumotlarni standartlashtirish va kodlash 	
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimi istiqbollari, sifatni boshqarish xalqaro tizimlari va mahsulot to‘g‘risida ma’lumotlarni standartlashtirish va kodlash haqida bilimlar berish.</p>		
<p><i>Pedagogii vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish yo‘llari, xalkaro alokalar, tizimning muntazam takomillashtirilishi haqida ma’lumotlar beriladi. • Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi chora-tadbirlari Dasturi»ni to‘liq amalga oshirish bilan me’yoriy hujjatlarining darajalarini xalqaro standartlar daraja-siga tenglashtirishga imkoni ko‘rsatiladi. • Mahsulot va xizmat sifatini ta’minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati, tizim standartlarining turlari va ularni qo‘llash sohalari, mahsulot haqidagi ma’lumotlarni standartlashtirish va kodlash haqida axborotlar keltiriladi. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish bilan tizimning mun-tazam takomillashtirilishi haqi-da ma’lumotlar oladilar. • Konsepsiyadagi chora-tadbirlar Dasturi bilan tanishadi va me’yoriy hujjatlarining daraja-larini xalqaro standartlar dara-jasiga tenglashtirishga kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. • Ishlab chikarilayotgan mahsulot va xizmat sifatini ta’minlashda ISO 9000 xalqaro standartlari-ning talablari, uning turlari va O‘zbekistonda qo‘llanilishi 	

	bo'yicha axborotlarga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma'ruza, insert, xamkorlikda o'qitish texnikasi
O'qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2.Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish yo'llari, xalkaro alokalar, tizimning muntazam takomillashtirilishi haqida ma'lumotlar beriladi. 2.3.Standartlashtirish va sifatni ta'min-lash tizimini rivojlantirish va takomil-lashtirish konsepsiyasi chora-tadbirlari Das-turi»ni to'liq amalga oshirish bilan me'yoriy hujjatlarining darajalarini xalqaro stan-dartlar darajasiga tenglashtirishga imkoni ko'rsatiladi. 2.4. Mahsulot va xizmat sifatini ta'-minlashda ISO 9000 xalqaro standart-larining ahamiyati, uning O'zbekistonda qo'l-lanilishi bo'yicha axborotlar keltiriladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: bilaman-bildim» jadvali-ning1-ustunini to'l-diradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3.Eshitadilar, yozadilar. 2.4.Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish yo'llari

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda standartlashtirishni muntazam ravishda rivojlantirib va takomillashtirib borilishi

aholi sog'ligi, uning mol-mulki va atrof-muhitni qanday salbiy ta'sirlardan himoya qilishda va aholining moddiy hamda ma'naviy farovonligini oshirishida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Xaqiqatdan ham standartlashtirish, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, mahsulot (xizmat)ning aholi hayoti, sog'ligi, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlashda, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikda uchraydigan texnik to'siqlarni bartaraf etishga hamda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan eng samarali vosita hisoblanadi. Demak, standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega ekan. SHu sababli «O'zdavstandart» markazi va uning vorisi bo'lgan «O'zstandart» agentligi, vazirliklar, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, tayanch tashkilotlar respublikamizda milliy standartlashtirish tizimini barpo etish va standartlashtirish infrastrukturasi shakllantirish bo'yicha ma'lum darajada ishlarni amalga oshirib kelmokda. Buning natijasida respublikamiz va xalqaro tajribaga asoslangan standartlashtirishni boshqarishning o'ziga xos modeli yaratildi. Mamlakatda milliy standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini isloh qilish 1997 yildan boshlangan va O'zbekistan hamda Jahon savdo tashkiloti bilan savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha to'zilgan bitim bilan bevosita bog'liq. Isloh qilishning asosiy maqsadi esa respublikamizni Jahon Savdo Tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishga tayyorlashdai iborat.

SHu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, Evropa ittifoqli ekspert o'zining hisobotida respublikamizning standartlashtirish bo'yicha qonunlari Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va Evropa ittifoqning qonunlariga to'liq muvofiqlashtirilmaganligi ko'rsatib o'tilgan. SHuning uchun respublikamizning amaldagi qonunlariga JSTning asosiy tamoyillari va me'yoriy hujjatlaridagi farqlarni hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritilishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Hozirgi kunda Evropa ittifoqi ekspertining ko'rsatib o'tgan kamchiliklari bo'yicha respublikamizning amaldagi qonunlariga standartlashtirish, sertifikatlashtirish tizimlari-ning asosiy qoidalariga qo'shimchalar kiritilgan.

Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini takomillashtirish xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro standartlarni qo'llash va ularning talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun shartsharoitlar yaratib beradi.

Demak, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlar bilan bir qatorda milliy standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni etakchi chet el mamlakatlarining me'yoriy hujjatlari bilan ham uyg'unlashtirishni taqoza etadi. Buning uchun

«O‘zstandart» agentligi xalqaro va etakchi chet el mamlakatlarining standartlashtirish tashkilotlari bilan standartlarning qo‘llanilish qonuniyligi va ularga kiritiladigan o‘zgartirishlarni bip-biriga muntazam ravishda takdim etilishi to‘g‘risida ikki va ko‘ptomonlama bitimlar tuzishi kerak bo‘ladi.

2. Standartlashtirish va sifatni ta‘minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi

YUqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, respublika standartlashtirish tizimlaridagi ayrim nomuvofiqlarni e‘tiborga olgan holda va uni bartaraf etish maqsadida hamda xalqaro standartlashtirishning hozirga va kelajakdagi talablar asosida O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta‘minlash tizimlarini yanada takomillashtirish maqsadida «O‘zstandart» agentligi tomonidan 2003-2010 yillarga mo‘ljallangan «O‘zbekiston Respublikasida 2003-2010 yillarda xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda standartlashtirish, sifatini ta‘minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish «Konsepsiyasi» va uni amalga oshirish chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilgan va u standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha Idoralararo kengashning 2003 yil 26 martda bo‘lib o‘tgan majlisida qabul kilingan.

Hozirgi kunda respublika davlat boshqaruv idoralari, yuridik shaxslar birlashmalari va boshqa tegishli tashkilotlar mahsulot (xizmat)larga belgilangan me‘yoriy hujjatlarning barcha fondini Jahon Savdo Tashkiloti talablariga muvofiq xalqaro standartlari asosida ilmiy-texnik ekspertizadan o‘tkazish ishlari tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida amalga oshirilmokda.

«Konsepsiya»da standartlashtirishning qonuniy, me‘yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, milliy standartlar maqomini xalqaro standartlar maqomiga yaqinlashtirish, mahsulot (xizmat)larini sertifikatlashtirish tizimini qayta ko‘rib chiqish va soddalashtirish, xalqaro standartlarni milliy standartlar sifatida qabul qilish masalalari, xavfsizlik va ekologiya, axborot texnologiyalari, resurslarni tejash va mahsulot sifatini ta‘minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar o‘z ifodasini topgan.

Respublikada «Konsepsiya chora-tadbirlari Dasturi»ni to‘liq amalga oshirilishi milliy standartlashtirish va sifatini ta‘minlash tizimlari me‘yoriy hujjatlarining darajalarini xalqaro standartlar darajasiga tenglashtirishga imkon yaratib berish bilan bir qatorda O‘zbekistonni Jahon Savdo Tashkilotiga teng huquqli a‘zo bo‘lib kirishi uchun ham barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi.

Standartlashtirish va sifatni ta‘minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish Konsepsiyasi kirish qismi va 9 bo‘limdan to‘zilgan bo‘lib, uning 1-bo‘limi «Mahsulot raqobatbardoshligini va sifatini oshirishning qonuniy va me‘yoriy huquqiy asoslarining hozirgi holati va uni takomillashtirish vazafalari» deb ataladi.

Unda amaldagi me'yoriy hujjatlar darajasi va ularning xalqaro standartlar talablariga muvofiqdigi aniqlash, texnik reglamentlararo standartlashtirish tizimlarini shakllantirish va qo'llash, me'yoriy hujjatlarni xalqaro texnik reglamentlar va standartlarga muvofiqligini aniqlash protsedurasi (ish tartibi) to'g'risidagi vazifalar rejalashtirilgan.

Konsepsiyaning «*Respublikani Jahon Savdo tashkilotiga kirishga tayyorlash sharritida xalqaro tajribani hisobga olgan holda davlat standartlashtirish tizimini takomillashtirish*» deb nomlangan 2 bo'limida Jahon Savdo Tashkiloti a'zolari bo'lgan davlatlar bilan axborotlar almashish usullari, texnik qonunlar majmuini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari, xavfsizlik va ekologiya, axborotlar texnologiyalari, resurslarni tejash, mahsulot sifatini me'yoriy ta'minlash, tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari, xizmatlari va standartlashtirishning eng muhim yo'nalishlari sohalaridagi vazifalar ko'rsatib berilgan.

Konsepsiyaning 3 - «*Standartlashtirish sohasida xalqaro x,amkorlik*» bo'limida Respublikaning ushbu sohada xalqaro hamkorligidagi asosiy vazifalari belgilangan. Ushbu Konsepsiyaning 4-bo'limida standartlashtirishni axborotlar bilan ta'minlanishi va mahsulotni kataloglash davlat tizimining ishlab turishini ta'minlash masalalari o'z aksini topgan. Mudofaa mahsulotlarini standartlashtirish masalalari ushbu konsepsiyaning 5-bo'limida ko'rsatib berilgan.

Konsepsiyaning 6 - «*Standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati*» bo'limida standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini kelajakda texnik reglamentlarga rioya qilish ustidan nazorat qilishga aylanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Konsepsiyaning «*Mahsulot va xizmatlarning muvofiqligini tasdiqlovchi milliy tizimni takomillashtirish*» deb nomlangan 7-bo'limida muvofiqlikni tasdiqlashning amaliy yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Konsepsiyaning 8-bo'limida Xalqaro standartlar darajasida ishlab chiqarishni o'zlashtirganligi va mahsulot ishlab chiqarganligini rag'batlashtirish masalalari o'z aksini topgan.

Konsepsiyaning «*Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish*» deb nomlangan 9-bo'limida O'zbekistonni Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga tayyorlash davrida o'quv jarayonini kompleks boshqarish masalalariga etibor qaratilgan.

Konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlar Dasturi uch qismga ajratilgan:

- «Standartlashtirishni takomillashtirish»;
- «Ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishni takomillashtirish»;
- «Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish».

Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha Konsepsiyada ko'rsatilgan ishlarning aksariyat qismini bajarilish muddati 2003-2005 yillarga mo'ljallangan.

Dastlabki qabul qilingan Milliy sertifikatlashtirish davlat tizimi respublikada ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan mahsulot turlarining barchasini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishni nazarda tutar edi. Bu hol o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni haddan tashqari oshib ketishiga olib keldi. Bundan tashqari, qabul qilingan sertifikatlashtirish tartibi juda ko'p vaqtni talab qilar edi. SHu sababli kelgusida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun qo'layliklar yaratish, sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2004 yilning 6 iyulida «Mahsulotni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 318-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida birinchi marta majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlar turlari deyarli 1/3 barobarga qisqartirilgan.

Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxatiga kirmagan mahsulotlarni 2004 yilning 1-oktyabridan boshlab deklaratsiya orqali belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanish zarurligi nazarda tutilgan. SHuning bilan birgalikda chetdan keltirilgan mahsulotlarning sinovlari uchun namunalarning eng yuqori chegaralangan miqdori belgilangan hamda sertifikatlashtirish xizmatlari uchun harajatlar to'lovi tartibini o'zgartirish ham nazarda tutilgan. Ana shularni hisobga olgan holda «Mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazishning tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi (yaratildi) va Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatib o'tilgan 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. Mahsulot va xizmat sifatini ta'minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodni islohatlar natijasida respublikamizning ichki bozorida tovar va xizmatlariing erkin aylanishi va bozor mexanizmlaridan foydalanish uchun kerakli sharoitlar shakllantirildi, bozor infrastrukturasi (to'zilmesi) va raqobat muhiti yaratildi.

SHu asosda ishlab chiqarish madaniyati hamda mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqaruvchilar va boshqa tovar etkazib beruvchilarning ham mas'uliyatlari oshib bormokda. SHuning bilan birgalikda rsspublikamiz milliy korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari va ko'rsatadigan xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uning bilan tashqi bozorda qatnashishni ta'minlash ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilash va korxonada ko'proq foyda olishni ta'minlaydigan sifat tizimini yaaratishga imkoniyat yaratib beradi.

Bundan sifat tizimlarini yaratishda esa ISO 9000 seriyali xalqaro standartning roli juda katta. Chunki, barcha rivojlangan mamlakatlarda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ajralmas qism, tashqi bozor eshigini ochuvchi «kalit» sifatida xizmat qiladi. SHuning bilan birgalikda respublikamizda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablari asosida milliy korxonalar sifatni boshqarish tizimlarini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish, yuqori sifatli, inson hayoti uchun zararsiz mahsulot va xizmatlar yaratish, ularning tashqi bozorda chet mamlakatlarda ishlab chikarilgan o'xshash mahsulotlar bilan raqobatda katnashish va mahsulotni import qilinadigan mamlakatlar hududlarida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim texnik to'siqlarni kamayishiga imkon yaratadi. YAna shu narsani ta'kidlash joizki, ISO 9000 xalqaro standart oilasiga kiruvchi standartlarning joriy etilishi birgina ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilab va uning xavfsizligini ta'minlab qolmasdan, balki ular universal harakterga ega bo'lganligi sababli, ularni har qanday ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ham qo'llash mumkin.

Respublikamizning ishlab chiqarish korxonalarida ISO 9000 xalqaro standarti bazasida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun yuqorida takidlab o'tilganidek, ko'plab qo'layliklar yaratadi.

SHuningdek, ISO 9000 xalqaro standartlari bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun ham ma'lum darajada foyda olish garovi hisoblanadi. Masalan, Jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlar tajribasida mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni etkazib beruvchilar uch guruhga ajratiladi:

1) etkazib berilgan torvar sifati bo'yicha mutloq ishonchli (korxonalar). YA'ni, bunday guruhga ISO 9000 standartlari talablari asosida sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari mavjud korxonalar kiradi. Ular shartli ravishda «A» guruh korxonalarini deyiladi.

2) etkazib berilgan tovar sifati bo'yicha nisbatan ishonchli korxonalar. Bu guruhga kiruvchi korxonalar ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlarini endigina amalga oshirayotgan korxonalar kiradi va shartli ravishda ular «V» guruh korxoialari deyiladi.

3) etkazib berilgan tovar sifati bo'yicha ishonchsiz korxonalar. Ularga ISO 9000 standarti talablari asosida sifat tizimlari yaratilmagan korxonalar kiradi va ular shartli ravishda «S» guruhi deb ataladi.

Bozor ekspertlarining ma'lumotlariga qaraganda, «A» guruhiga kiruvchi korxonalarining mahsulotlari «S» guruhiga kiruvchi korxonalarining mahsulotlariga nisbatan deyarli 50 foizga ortig'i bilan sotilar ekan.

ISO 9000 xalqaro standartlarining yuqorida ta'kidlab o'tilgan afzalliklarini hisobga olgan holda, ayrim Mustaqil Davlat Hamdo'stligi davlatlarida ularni joriy etish korxonalariga qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmalari faqat ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlari sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan korxonalariga beriladi.

4. Xalqaro tizim standartlarining turlari va ularni qo'llash sohalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifati ichki va tashqi bozorda uning raqobatbardoshligini belgilovchi o'lchov (mezon) hisoblanadi. SHuning uchun ham respublikada O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga mo'ljallangan me'yoriy hujjatlar (standartlar, texnik shartlar) talablarini xalqaro standartlar va jahon bozori bilan muvofiqlashtirish siyosatini olib bormoqda. Bunday tadbirlar milliy va qo'shma korxonalar mahsulotlarini chet mamlakatlardan keltirilayotgan mahsulotlar sifatidan past bo'lmasligiga kafolat bo'ladi.

YUqorida ta'kidlanganidek, mahsulot sifati iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondirish, me'yoriy hujjatlar, amaldagi qonunchilik, ekologik va xavfsizlik talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. SHuningdek, mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaga iqtisodiy samara keltirishga ham qaratilgan bo'lishi kerak. SHu boisdan ham mahsulot ishlab chiqarayotgan har bir korxonada (kompaniya)da sifatni ta'minlash tizimi ishlab chiqarilishi lozim.

Jahon amaliyotida ko'pchilik firma va kompaniyalar o'zlarining ta'minlovchilari bilan ko'pdan buyon sifat tizimlari asosida o'zaro munosabatlarga o'tishgan.

Sifat tizimining birinchi standartlari Buyuk Britaniyada 1970 yillarla ishlab chiqilgan edi, 1987 yilda AQSH, GFR, Kanada va boshqa mamlakatlar ishtirokida standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot ISO tomonidan mahsulot sifatini ta'minlash tizimlariga aniq talablar qo'yadigan 9000 seriyali beshta xalqaro standartlar ishlab chiqildi, tasdiqlandi va joriy etildi. Bu standartlarda sifat tizimini yaratish bo'yicha xalqaro tajribalar umumlashtirilgan.

Ushbu standartlar jahonning ko'plab davlatlari (Avstriya, AQSH, GFR, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Fransiya, SHvetsiya, SHveysariya va boshqalar)

o'zlarining milliy standartlari sifatida qabul qilib olishgan. 1988 yilda 9000 seriyali xalqaro standartlar sobiq Ittifoqda ham milliy standartlar sifatida qabul qilingan edi va ularni qo'llash bo'yicha tegishli me'yoriy-uslubiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Masalan, GOST 40. 9001-88, GOST 40. 9002-88 va GOST 40. 9003-88 raqamli standartlar.

Quyidagi sifat tizimi standartlari xalqaro standartlar tarkibiga kiritilgan;

- ISO 9000-87 Sifatni boshqarish bo'yicha umumiy qo'llanma va sifatni tanlash bo'yicha standartlar;

- ISO 9001-87 Sifat tizimlari. Loyihalash yoki tayyorlashda, ishlab chiqarish, montaj qilishda va xizmat ko'rsatishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9002-87 Sifat tizimlari. Ishlab chiqarish va montaj qilishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9003- 87 Sifat tizimlari. Oxirgi nazorat va sinovdan o'tkazishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9004-87 Sifatni umumiy boshqarish va sifat tizimining elementlari.

- ISO 9001, ISO 9002 va ISO 9003 xalqaro standartlari mahsulot hayotiy davriniig turli bosqichlari uchun sifat tizimiga bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

- ISO 9004 standarti sifat tizimiga qo'yiladigan talablarni izohlovchi rahbariy ko'rsatmalarni ifoda etadi va tizimni ishlab chiqish va joriy etishda tayyorlovchi korxonadan qo'llanishga mo'ljallangan.

- ISO 8402-86 (Sifat. Lug'at) xalqaro standarti atamashunoslik standarti hisoblanadi.

Keyingi yillarda uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiluvchi yana o'ndan ortiq standartlar ishlab chiqilgan. Masalan, ISO ning 10011 standarti auditni o'tkazish bilan bog'liq. Bugungi kunda ushbu seriyaning 20 ta standartlari amal qilishmoqda.

ISO ning boshqa standartlari singari ISO ning 9000 seriyali standartlari ham ularni aktallashtirish maqsadida vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi. Jumladan, 1994 yilda ISO ning 9001, 9002 va 9003 standartlari qayta ko'rib chiqildi va ularga aniqliklar kiritildi hamda standartlarni o'zaro bog'lanishini ko'zatib borishligi soddalashtirildi.

Hozirgi vaqtda 2000 yil tarixidagi ISO 9001 standarti joriy etilgan va u ISO 9001, 9002 va 9003 standartlarini umumlashtirgan.

ISO 9000 seriyali standartlari quyidagi hollarda qo'llanishiga mo'ljallangan:

- a) raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida ma'muriy boshqarish uchun;

- b) birinchi va ikkinchi tomonlar orasidagi shartnoma (kontrakt) sharoitlarida sifat tizimining ayrim elementlarini tekshirish uchun;

v) etkazib beruvchining sifat tizimini ISO standartining barcha elementlari bo'yicha iste'molchi tomonidan baholanishidan iborat bo'lgan shartnoma talablari bo'yicha;

g) uchinchi tomondan sertifikatlashtirish uchun.

5. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash

Agar biz do'kondan yoki boshqa bir savdo korxonalaridan tovar xarid qiladigan bo'lsak, albatta tovar etiketkasi yoki uning yonidagi har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shaklni ko'ramiz, chunki hozirgi paytda tovarlar(mahsulotlar)ning aksariyat qismi shunday belgili shakllar bilan muomalaga chiqarilmokda. Bunday belgining nomi *shtrixli kod* deb yuritiladi. Ammo bu belgili shakl yoki shtrixli kod haqidagi ma'lumotlar ko'pchilik iste'molchilarga hali to'laligicha etib borgan emas. SHuning uchun ham biz ushbu savolni yoritish uchun shtrixli kodlash haqida etarlicha ma'lumotlar berishga harakat qilamiz.

SHtrixli kodlash to'g'risida berilgan tariflar ko'p lekin ularning asl ma'nosi bir xil. SHulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

SHtrixli kod - bu optik usulda, ko'ndalang kanerlash yo'li bilan o'qiladigan har xil qalinlik va qadamlarga (shag) ega bo'lgan parallel shtrixlar (chiziqlar) to'plami yordamida tashkil topgan kod.

SHtrixli kodlash - bu maxsus ishlab chiqilgan xalqaro axborotlashtirish tizimi yordamida mahsulotlarning asosiy parametrlarini belgilovchi uslub.

YOki *shtrixli kod* - bu belgilar, raqamlar va harflarni shtrix (chiziq) va oraliqlar ketma-ketligi ko'rinishidagi kodlash yo'li bo'lib, axborotni tez va aniq kompyuterga kirgizish uchun xizmat qiladigan shakl. YOki shtrixli kodlash - bu belgilangan shakl, o'lcham, rang.

Boshqa bir talqinda *shtrixli kod* (SHK) - bu har xil kenglikdagi qora va yorug' (yoki oq) chiziqlarning almashib turishidir deb tushuntiradi.

Haqiqatdan ham yuqorida shtrixli kod (SHK) haqida keltirilgan talqinlar har xil bo'lishiga qaramasdan ularning ma'nosi bir-biriga juda yaqin va o'xshash.

SHakldagi ma'lum bir kenglikdagi yo'l-yo'l chiziqlar hamda ularning birligi (birga qo'shilishi) axborot tarqatuvchilar hisoblanadi.

Tovarning shtrixli kodi o'zicha uning sifati haqida ma'lumot yoki axborot bermaydi, u faqat ushbu tovar to'g'risidagi barcha axborotlarni saqlovchi elektr hisoblash mashinasi (EHM) xotirasi uyachalarining adresi hisoblanadi, xolos. Bu ma'lumotlar to'plami tovar haqidagi ma'lumotlar bazasini hosil qiladi.

SHtrixli koddagi «Davlat bayrog'i» deb ataluvchi yoki tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlash imkoniyati iste'molchi uchun eng muhim hisoblanadi.

SHtrixli kodda joylashgan barcha qolgan axborotlar maxsus optik asbob - skaner orqali hisoblanishi (o'qilishi) yoki EHM ga berilishi mumkin.

Skanerdagi dekoder yordamida shtrixli kodda kodlangan ma'lumotni olish mumkin. EHM o'z navbatida olingan axborotlarni hisoblaydi, qayta ishlaydi va olingan natija bo'yicha tovar harakatini aniqlaydi.

SHtrixli kodni mahsulotlarga nisbatan tadbiq etish (qo'llash) g'oyasi ilk bor 1930 yillarda AQSHning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalanish 1960 yildan boshlangan. SHtrixli kodlash ilk bor iste'mol tovarlarini kodlash uchun ishlatilgan.

Izlanishlar natijasida tovar harakatini jadallashtirish (intensifikatsiyalash) va hujjatlashtirishni seriyalashtirish maqsadida 1960 yillarning oxirlarida tovarlarni tartib raqami (nomeri) bo'yicha aynan o'xshatishga (identifikatsiyalashga) asoslangan universal tizimlar yaratish haqida birinchi g'oyalar paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1973 yili AQSHda *Mahsulotning Universal Kodi (UPS)* qabul qilindi va 1977 yildan boshlab esa *Evropa Kodlash tizimi* (nomerlash assotsiatsiyasi) (EAN) ta'sis etildi.

Bu tizim (assotsiatsiya)ga yana boshqa mamlakatlar ham a'zo bo'lib kirganligi sababli, 1981 yildan boshlab nomerlash assotsiatsiyasi *Xalqaro nomerlash assotsiatsiyasi* deb atala boshlandi.

Bugungi kunda uning tarkibiga 80ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib kirgan. SHu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham 1999 yildan boshlab, bu tashkilotning haqiqiy a'zosi hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo mamdakatlarida 30 dan ortiq har xil tipdagi shtrixli kodlar qo'llanilmoqda. SHulardan EAN kodlash tizimi universal bo'lib, amalda har qanday turdagi tovarga qo'llanishi va har qanday «ishlab chiqaruvchi – ulgurji korxonasi - chakana savdo korxonasi» shaklidagi zanjir (sep) ning nuqtasida qo'llanishi mumkin. EAN tizimi doirasida axborotlarni elektron usulda almashtirish standarti (EANCOM) ishlab chiqilgan (yaratilgan) va u jahonning ko'plab davlatlarida keng qo'llanilmokda.

SHK o'ziga xos sifat belgisi hisoblanadi, ya'ni tovarga shtrixli kod berishda uni xalqaro standartlarga mos kelishi tekshirib ko'riladi. SHKning mavjudligi sababli, bu sifat belgisi ko'pdan buyon jahonning aksariyat davlatlarida me'yor (norma) bo'lib qolgan.

Jumladan, AQSH, G'arbiy Evropa va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida tovarning upakovkasi yoki etiketkasiga SHK qo'yish majburiy talab bo'lib qolgan va bu mamlakatlarning aksariyat qismida shtrixli kodi bo'lmagan mahsulotlarni chetdan olish va bozorda sotish man etilgan. Masalan, ES (Evropa ittifoqi) tarkibiga kiruvchi davlatlarga 1994 yildan boshlab shtrixli kodi bo'lmagan import mahsulotlarini kiritish man etilgan.

SHKning mohiyatlaridan biri shuki, tovar to'g'risidagi barcha axborotlarni (ma'lumotlarni) kompyuterga joylashtirish mumkin. SHtrixli kod juda aniq bo'lib, ular qo'l yordamida ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklarni oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, SHtrixli kodlarni o'qishda xatoliklar foizning mingdan bir bo'lagidan kam ekanligini ko'rsatib bergan. O'tkazilgan testlar natijasi esa, shtrixli kod yordamida kodlangan ma'lumotlar 10 mln. belgiga 1 ta xato to'g'ri kelishini isbotlab berdi. Qo'l yordamida kiritilgan ma'lumotlarda 10 belgiga 1 ta xato to'g'ri keladi. Endi ularni taqqoslab ko'radigan bo'lsak, shtrixli kodlashning ahamiyati juda ham katta va muhim zkanligiga ishonch hosil qilamiz.

SHtrixli kodlash - bu ma'lumotni tez kiritish demakdir. SHtrixli kodlar tez va oson hosil qilinadi va umumiy ishlatiladigan printerlar yordamida bosilishi mumkin. Bu uslub birgina xatoliklarni kamaytiribgina qolmay, balki u axborotni tez va arzon yig'adi, saqlaydi va qidiradi hamda samarali aloqani ta'minlaydi.

Bu xususiyatlar unumdorlik va axborot aniqligini oshiradi, etkazib berish jarayonlari jadvali (grafigi)ni yaxshilaydi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan vaqt, kuch, ishchi resurslari, material va mablag'lar harajatini kamaytiradi. Undan tashqari, shtrixli kod - ma'lumot yig'ishda sanoat va savdo manfaati uchun xizmat qiladi, xalqaro ahamiyatga ega, boshqa foydalanuvchilarga bog'liq emas, jahon miqyosida ko'p mohiyatli kod yordamida har qanday tovar birligini aynan o'xshatish (indetifikatsiyalash) ishlarini bajaradi va hokazolar.

SHtrixli kod - bu ishlab chiqaruvchisining vizit kartochkasidir, deb ta'kidlanadi yana bir manbada. Haqiqatdan ham ushbu ta'rif aynan unga juda monand.

SHtrixli kodlashdan kompyuterga ma'lumotlarni qo'lda kiritiladigan barcha joyda foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo qiluvchilar, moliya xizmati, maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, telefon kompaniyalari, davlat agentliklari, sog'liqni saqlash muassasalari, transport kompaniyalari va boshqa tarmoqlarda kompyuterga axborotni qo'lda kiritmaslik uchun shtrixli kodlardan foydalanishadilar. Ayniqsa, shtrixli kodlash xom ashyo va tayyor mahsulotni hisobga olish, tovar ayirboshlash va ishlab chiqarish sohalarida ko'proq qo'llaniladi.

SHtrixli kodlarning elementlari shtrixlar va oraliqlar, kishilar o'qiydigan belgilar va yorug' zonalardan tashkil topgan. Bulardan shtrixlar va oraliqlar ma'lumotlarni kodlash shablonini belgilaydi (aniqlaydi). Inson o'qiydigan belgilar bu - shtrixlar va oraliqlar yordamida kodlangan axborotlar (ma'lumotlar)ni kishilar o'qishi uchun matn sifatida berilishidir. YOrug' zonalari esa shtrixlar va oraliqlargacha va undan keyingi toza maydon bo'lib, bu zonalarning mavjudligi

shtrixli kodni o‘qish uchun eng zarur elementlaridan biri bo‘lib hisoblanadi (18.1-rasm).



17.1-rasm. 13 razryadli EAN kodi.

Do‘konlar va xaridorlar bilan hisob-kitob qilish nuqtalarida 90 foiz atrofidagi muammolar shtrix kodning ikki tomonidagi (chekkasidagi) yopyg‘ maydonni kichrayishidan kelib chiqadi.

SHuning uchun nominal o‘lchamda nashr (chop) qilingan shtrixli kod EAN-13 uchun o‘zidan chap tomondan 3,63 mm va o‘ng tomonidan 2,31 mm yorug‘ maydon qolishi kerak. SHtrixli kod EAN--8 uchun esa, chap va o‘ng maydonlar 2,31 mm dan kichik bo‘lmasligi kerak.

SHtrixli kodning nazorat raqami ma’lumot yoki axborotlarni to‘g‘ri o‘qilayotganligini tekshirib turadi. Nazorat raqami kodlangan raqamlarning oxiriga qo‘shiladi (18.1-rasm).

Hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan shtrixli kodning ikkita asosiy turi - EAN va Amerika kodi - UPC mavjud bo‘lib, bularning ichida eng ko‘p ishlatiladigan kod – EAN-13 va EAN-8 hisoblanadi. Bu kodlarni biz chakana savdoga kelayotgan barcha tovarlarda uchratamiz. CHunki, 70 yillar boshida paydo bo‘lgan bu shtrixli kod butun dunyoga yoyilib ketgan va ular bir xilda o‘qiladi.

EAN-13 va EAN-8 kodlari chakana savdoga kelayotgan tovarlar uchun standart shtrixli kod hisoblanadi. Bu kod faqat 13 yoki 8 xonali raqamlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Bu atamada EAN (European Article Number) so‘z to‘plamining abbreviaturasi (qisqartma so‘z, masalan, pochta), xolos.

13 raqamga ega bo‘lgan kod *EAN-13* deb ataladi. Bunday 1, 2 va 3 raqamlar EAN assotsiatsiyasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda beriladi va ular *mamlakat (davlat) kodini* bildiradi. Keyingi to‘rtta raqam - *tovar tayyorlovchisining indeksi*.

Kodning qolgan beshta raqami ishlab chiqaruvchiga o‘zining xohishi bo‘yicha mahsulotni kodlash uchun taqdim etiladi. Bunda kodni nuldin boshlab, 99999 gacha davom ettirishi mumkin. Kodning oxirgi 13 - raqami *nazorat raqami* deyiladi.

EAN kodi 1998 yili O‘zbek standartlari (O‘zDSt 6.17 01:1999, O‘zDSt 6-17 04:2000) ga kiritilgan va bu kodlar xalqaro standartlarga asoslanganligi uchun, ular Evropa, Osiyo, Markaziy va Janubiy Amerika va Okeaniya davlatlarida qo‘llaniladigan EAN kodlari bilan o‘zaro almashuvchidir.

Har bir davlatda kodning tuzilishi har xil bo‘lishi mumki. Masalan, O‘zbekistonda kodning birinchi uch raqami - *milliy tashkilotning prefiksi*, keyingi oltita raqam - *korxonaga mahsulot egasining raqami*, undan keyingi uchta raqam - *tovarni indentifikatsiyalashtirish* (aynan o‘xshatish yoki tenglashtirish) *bloki va oxirgi raqam nazorat raqami*.

EAN-13 kodning tarkibi quyidagi kodlardan iborat:

- davlat kodi ("davlat bayrog‘i");
- korxonaga (firma, kompaniya) - tayyorlovchi kodi;
- mahsulot kodi;
- nazorat soni (18.1-rasm).

EAN assotsiatsiyasi tomonidan har bir davlat (mamlakat) uchun kodlar diapozonlari beriladi. Kodlar ko‘pincha ikki belgidan to‘ziladi (masalan, Fransiya 30-37, AQSH va Kanada 00-09, YAponiya 45-49), lekin tayyorlovchi kodni bir belgiga qisqartirish hisobiga uch belgili ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Rossiya 460-469, Germaniya 400-440 va boshqalar (18.1-jadval).

SHK haqida axborotlar joylashgan banklar - davlatlar kodi haqidagi ma’lumotlar.

17.1-jadval

Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi
AQSH va Kanada	00-09	SHvetsiya	73	Latviya	4605
Fransiya	30-37	Meksika	750	Tayvan	471
Bolgariya	380	Venesuela	759	Estoniya	474
Germaniya	400-440	SHveysariya	76	Fillipin	480
Rossiya	460-469	Argentina	779	Malta	535
Syangan	489	CHili	780	JAR	600-601
YAponiya	45-49	Braziliya	789	Marokko	611
Buyuk Britaniya	50	Italiya	80-83	Tunis	619
Gretsiya	520	Ispaniya	84	Gavtemala	740-745
Kipr	529	O‘zbekiston	478	Salvador	740-745
Irlandiya	539	Kuba	850	Gonduras	740-745
Belgiya va	54	CHexiya	859	Panama	740-745

Lyuksembo‘rg					
Portugaliya	560	YUgoslaviya	860	Nikaragua	740-745
Islandiya	559	Turkiya	869	Kosta-Rika	740-745
Daniya	57	Niderlandiya	87	Kolumbiya	770
Polsha	590	Janubiy Koreya	880	Urugvay	773
Vengriya	599	Singapur	889	Peru	775
Finlyandiya	64	Avstriya	90-91	Ekvador	786
Xitoy	690	Avstraliya	93	Tayland	885
YAngi Zelandiya	94	Sloveniya	383	Indoneziya	899
Isroil	729	Xorvatiya	385	Malayziya	955

EAN - 8 kod quyidagi kodlar tarkibidan iborat:

- davlat kodi («davlat bayrog‘i»);
- korxonona (firma) - tayyorlovchi kod;
- nazorat soni (18.2-rasm).



17.2-rasm. 8 razryadli EAN kodi.

EAN-8 kodida ba‘zan, tayyorlovchi korxonona kodining o‘rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami (nomeri) ham keltirilishi mumkin.

Bu kod (EAN-8) markalashtirish, joylash yoki uncha katta bo‘lmagan tovarlar uchun ishlatiladi (qo‘llaniladi). Ushbu tipdagi SHK EAN-13 tipdagi SHK dan qisqartirilgan axborotlar va kichik o‘lchamlari (razmerlari) bilan farq qiladi. SHuning uchun ham uning raqamlari to‘liq joylashmaganligi sababli kichik (mayda) gabaritli tovarlarga bosiladi.

EAN-13 har qanday upakovka yoki tovarlarga bosiladi (agar uning maydoniga sig‘sa).

EAN-14 faqat transport (yukli) upakovkalari uchun qo‘llanadi. Bu SHK nisbatan yirikroq bo‘lganligi sababli uni bosish (chop etish) uchun yuqori sifatli

pechat talab etilmaydi. Agar tovar upakovkasi bilan sotilsa, u holda faqat EAN-13 qo'llaniladi, chunki EAN-14 tovar haqida axborotga ega emas va do'konda o'rnatilgan skanerlovchi moslamada hisoblab yoki sanab (o'qib) bo'lmaydi.

Koddagi raqamlar qatori skaner uchun emas, balki xaridor (iste'molchi) uchun mo'ljallangan. Xaridor uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlar va axborotnomalarda bosilib turiladi yoki axborot bazalari va banklarda saqlanishi mumkin.

To'liq SHK esa, tashqi savdo tashkilotlari yoki savdo ob'ektlariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish va kerak bo'lgan hollarda mahsulotning shartnoma (kontrakt) talablariga mos kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari haqida aniq bir manzilga (nuqtaga) *radiya* yoki *norozilik* bildirish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda respublikamizda ham shtrixli kodlashni keng miqyosda tadbiq etish bo'yicha ma'lum darajada ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 1999 yilda O'zdavstandart qoshidagi O'zbekiston standartlashtirish metrologiya, sertifikatlash va mahsulot sifatini boshqarish sohasida kadrlar tayyorlash va tadqiqotlar instituti (O'zTMTI)da shtrixli kodlash (kodlar) bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Bu markazning asosiy maqsadi mahsulotni avtomatlashtirilgan tarzda indentifikatsiyalash (aynan o'xshatish, tenglashtirish yoki birday qilish) bo'yicha muammolarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib qilishdan iborat.

Tayanch iboralar: «O'zstandart» agentligi; O'zdavstandart markazi; Jahon Savdo Tashkiloti; Evropa ittifoqi; Konsepsiya; chora-tadbirlar Dasturi; Mahsulot raqobatbardoshligi; standartlashtirishni takomillashtirish; 318-son qaror; deklaratsiya; ISO 9000; «L», «V» va «S» guruhlari. ISO 9000-87; sertifikatlashtirish; ISO 9001, 9002, 9003, 9004-87 va ISO 8402-86 qo'llanilishi; shtrixli kod; shtrixli kodlash; zona; prefiks; tovar kodi; korxonalar raqami; nazorat soni; tovar ayraboshlash; ishlab chiqarish; EAN – 8, 13, 14; skaner; dekoder va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish yo'llarining ahamiyati nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish qaysi yilarga mo'ljallangan?
3. Takomillashtirish konsepsiyasida qanday chora-tadbirlar dasturi keltirib o'tilgan va uning nechta bo'limi mavjud?
4. ISO 9000 xalqaro standartining mahsulot va xizmatni ta'minlashdagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni etkazib beruvchilar nechta guruh ajratiladi?
4. Sifat tizimining birinchi standarti qaerda va qachon ishlab chiqilgan?
5. Sifat tizimi standartlari qaysi xalqaro standartlar tarkibiga kiritilgan?
6. ISO 9000 xalqaro standarti qaysi hollarda qo'llaniladi?
7. SHtrixli kodlarga ta'rif bering.
8. SHtrixli kod ilk bor qaerlarda ishlatila boshlangan?
9. Hozirgi vaqtda shtrixli kodning nechta asosiy turi mavjud?
10. EAN-13 va EAN-8 shtrixli kod nimalardan tarkib topgan?
11. Nechanchi yilda O'zbekistonda shtrixli kod bilan shug'ullanuvchi qanday markaz tashkil etilgan?

Talabaning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish yo'llari, uni rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida etarlicha bilimlarga ega bo'lishi va uni o'rganishi lozim.
2. Mahsulot va xizmat sifatini ta'minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.
3. Xalqaro tizim standartlarining turlari va ularni qo'llash sohalari bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va uni chuqurroq o'rganadi.
4. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash haqida bilimga ega bo'lishi va uni bilishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 11, 14, 15, 17, 18.

4 –BOB. LITSENZIYALASH.

19-mavzu. Litsenziya, litsenziyalash va uni olish tartibi

1. Ma’ruzaning ta’lim texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 5-10 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual, axborot ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	1. Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi 2. Litsenziyalashning qonuniy asoslari 3. Litsenziya olish tartibi
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Litsenziya va ularning sotib olinishi va sotilishi, moliyaviy munosabatlar haqida etarlicha bilimlar berish.	
<i>Pedagogii vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi va litsenziyalarning turlari-shi namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo‘lishi, litsenziyalarni berish tartibi, qoidalari, organlari haqida axborot beriladi. • Litsenziyalashning qonuniy asoslari, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, litsenziyalashning o‘zi-ga xos jihatlari, muddati qonun bilan belgilanishi tushuntiriladi. • Litsenziya olish tartibi, litsenziya olish uchun litsenziya da’vogari tegishli litsenziyalovchi organga taqdim etadigan xujjatlar, litsenziyani amal qilishni to‘xtatib turish yoki to‘la tugatish yoki umuman bekor etish haqida ma’lumotlar beriladi. 	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: <ul style="list-style-type: none"> ○ Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi va litsenziyalarning turlari-shi, litsenziya berish organlari haqida axborot oladi. • Litsenziyalashning qonuniy asoslari, litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, litsenziyalashning o‘ziga xos jihatlari, muddati qonun bilan belgilanishi bilib oladi. ○ Litsenziya olish tartibi, litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga taqdim etadigan xujjatlar, litsenziyani amal qilishni to‘xtatib turish yoki to‘la tugatish yoki umuman bekor etish haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Axborot-ma’ruza, insert, xdmkorlikda O‘qitish texnikasi,.
O‘qitish shakli	Frontal, guruhlarda
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, proektor, grafik organayzerlar.
O‘qitish shart-sharoiti	Namunadagi auditoriya

2. Ma'ruzaning texnologii xaritasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon kilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-Bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi va litsenziyalarning turlanishi namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo'lishi, litsenziyalarni berish tartibi, qoidalari, organlari haqida axborot beriladi. 2.3.Litsenziyalashning qonuniy asoslari, faoliyatning ayrim turlarini litsen-ziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlari , litsenziyalashning o'ziga xos jihatlari, muddati qonun bilan belgilanishi tushuntiriladi. 2.4.Litsenziya olish tartibi, litsenziya olish uchun litsenziya da'vogari tegishli litsenziyalovchi organga taqdim etadigan xujjatlar, litsenziyani amal qilishni to'xtatib turish yoki to'la tugatish yoki umuman bekor etish haqida ma'lumotlar beriladi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi, huquqiy jihatdan muhofaza etish mohiyati yoritiladi.	2.1.Muammoli savollarga e'tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini to'ldiradilar. 2.2.Eshitadilar, yozadilar. 2.3Eshitadilar, yozadilar. 2.4. Eshitadilar, yozadilar.
3-Bosqich. YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga xulosa chikaradi. Asosiy masala ustida tuxtaladi. 3.2.Mustakil ish uchun topshiriqlar beradi:	3.1.Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlarni yozib oladilar.

1. Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi

Litsenziyalashda asosiy tushunchalariga quyidagilar kiradi:

litsenziya — litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq) tushuniladi.

Litsenziyalarning turlanishi namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo‘lishi mumkin.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar jumlasiga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi, agar ushbu shaxslar tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo‘yiladigan yagona shartlar va talablarga javob bersalar.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziatlarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi. Yakka tartibdagi litsenziyalar amal qilish hududi, faoliyat ob‘ekti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan boshqa asoslarga ko‘ra miqdoriy cheklanadi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish, qoida tariqasida, tanlov (tender) asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish tartibi va shartlari, shu jumladan tanlovlarni (tenderlarni) o‘tkazish shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi — O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

litsenziyalash — litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi;

litsenziya talablari va shartlari — faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;

litsenziyalovchi organlar — qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

litsenziya da‘vogari — litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziat — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziya shartnomasi — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida to'ziladigan shartnoma;

litsenziyalar reestri — berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

litsenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reestrini yuritish tartibini belgilash;

faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash sohasidagi qonun hujjatlariga litsenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

litsenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

Litsenziyalovchi organlarning vakolatlariga esa, faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalash, qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, litsenziya talablari va shartlariga litsenziyatlar rioya etishini nazorat qilish, litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish, litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash, litsenziyalarning amal qilishini tugatish, litsenziyalarni bekor qilish, litsenziyalar reestrini yuritish kiradi.

Litsenziyalovchi organlar shu organlar litsenziyalaydigan faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tuzishga yoki ular faoliyatida muassislar (qatnashchilar) sifatida ishtirok etishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2. Litsenziyalashning qonuniy asoslari

O'zbekiston Respublikasining «**Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida**»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 142-modda; 2003 y., 1-son, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 14-son, 110-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda) Qonuni faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Faoliyatning ba'zi bir turlarini litsenziyalashning o'ziga xos jihatlari qonun bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilishni litsenziyalashda, intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanishda, shuningdek kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari jumlasiga (7-modda) amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonunlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyatning litsenziyalanadigan ayrim turlarini amalga oshirishini taqiqlab qo'yishi mumkin, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'zilan davlat unitar korxonalar va muassasalari, basharti ularni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlarda faoliyatning mazkur turini amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa, faoliyatning litsenziyalanadigan turini tegishli litsenziyani olmasdan amalga oshirishga haqlidir. Mazkur qoida ko'rsatilgan korxonalar va muassasalarni litsenziya talablari va shartlarini, shuningdek faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish bilan bog'liq, qonun hujjatlariga muvofiq qo'yiladigan boshqa talablarni bajarishdan ozod etmaydi.

Litsenziyaning amal qilishi (11-modda) har bir litsenziyalanadigan faoliyat turi uchun alohida beriladi. Litsenziya da'vogarining arizasiga muvofiq litsenziya litsenziyalanayotgan faoliyat turining bir qismiga (qismlariga) berilishi mumkin.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya olingan faoliyat turi faqat litsenziyani olgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Litsenziyalarni yoki ularga doir huquqlarni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya berilgan faoliyat, agar litsenziya talablari va shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilish muddati (12-modda) qoida tariqasida, cheklanmaydi.

Litsenziya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziya da'vogarining arizasida ko'rsatilgan muddatga beriladi. Qonun hujjatlarida litsenziyaning cheklangan amal qilish muddati belgilanishi mumkin, lekin bu muddat besh yildan kam bo'lmasligi lozim.

Litsenziyaning amal qilish muddati tugagach, u litsenziyaning arizasiga binoan o'zaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini o'zaytirish to'g'risidagi ariza litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddati tugashidan kamida ikki oy oldin berilishi lozim. Litsenziyaning amal qilish muddatini o'zaytirish litsenziyani beruvchi uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziya talablari va shartlari qonunning 13-moddasida keltirilgan.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishda rioya etiladigan litsenziya talablari va shartlari faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanib, ular quyidagi normalarni o'z ichiga olishi lozim:

litsenziyaning qonun hujjatlariga rioya etishi shartligi to'g'risidagi;

faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishga da'vogar shaxslarga qo'yiladigan malaka talablari, jumladan maxsus bilimlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi;

faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishning maxsus shartlariga qo'yiladigan talablar, jumladan foydalaniladigan moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda litsenziyalanayotgan faoliyat turi xususida qo'shimcha litsenziya talablari va shartlari nazarda tutilishi mumkin.

3. Litsenziya olish tartibi

Litsenziya olish uchun litsenziya da'vogari tegishli litsenziyalovchi organga quyidagilarni taqdim etadi:

litsenziya berish to'g'risidagi ariza – unda: yuridik shaxs uchun - yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan eri (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisobvarag'i raqami; jismoniy shaxs uchun - familiyasi, ismi va otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari; yuridik yoki jismoniy shaxs amalga oshirishni

mo'ljallagan faoliyatning litsenziyalanayotgan turi (uning bir qismi), shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda faoliyatning mazkur turi.

yuridik shaxslar uchun - yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi; jismoniy shaxslar uchun - yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqishi uchun litsenziya da'vogari yig'im to'laganligini tasdiqlovchi hujjat;

faoliyatning ayrim turiga litsenziya olish uchun qo'yiladigan talablar va shartlarni litsenziya da'vogari bajarishi mumkinligini tasdiqlovchi hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan boshqa hujjatlar.

Litsenziya da'vogaridan ushbu Qonunda hamda faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi o'zga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlar litsenziya da'vogari tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali, ular olingani haqidagi tasdiqni olgan holda, etkazib beriladi.

Litsenziya olish uchun tegishli litsenziyalovchi organga yuborilgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinib, ro'yxatning nusxasi mazkur organ tomonidan hujjatlar qabul qilib olingan sana ko'rsatilgan holda arizachiga yuboriladi (topshiriladi).

Noto'g'ri yoki bo'zib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun litsenziya da'vogari qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanligi uchun yig'im (15-modda) undiriladi.

Litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im miqdori har bir litsenziyalanadigan faoliyat turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bunda yig'imning eng ko'p miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravaridan oshib ketishi mumkin emas.

Litsenziya da'vogarlarining arizalarini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im summalari litsenziyalovchi organ hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Litsenziya da'vogari bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Litsenziya da'vogarining arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga olgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan oshmagan muddat ichida litsenziyalovchi organ namunaviy (oddiy) litsenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Namunaviy (oddiy) litsenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishning eng kam muddatlari faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilab qo'yilishi mumkin.

Litsenziyalovchi organ, zarur holda, o'z mablag'lari hisobidan tegishli xulosalarni tayyorlash uchun ekspertlarni shartnoma asosida jalb etishga haqli.

Litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarini qabul qilingan qaror to'g'risida mazkur organ tegishli qarorni qabul qilganidan keyin uch kun ichida xabardor qilishi shart.

Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda bank hisobvarag'i rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda, rad etishning sabablari va litsenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya da'vogari litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziya da'vogarining arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga olgan kundan e'tiboran o'n kundan oshmagan muddat ichida litsenziyalovchi organ hujjatlarni qayta ko'rib chiqadi. Litsenziya da'vogarlarining arizalarini qayta ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi. Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgach, berilgan ariza — yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Litsenziya da'vogari davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan taqdirda hamda u litsenziya shartnomasini imzolaganidan keyin litsenziya beriladi.

Agar litsenziat unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida litsenziyalovchi organga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki litsenziya shartnomasini imzolamagan bo'lsa, litsenziyalovchi organ mazkur litsenziyani bekor qilishga haqli.

Qonunning 17-moddasiga binoan litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

litsenziya da'vogarining hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmay taqdim etishi;

litsenziya da'vogari taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki bo'zib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

litsenziya da'vogarining litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek tanlov (tender) shartlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan litsenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya da'vogari litsenziyalovchi organning litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan, shuningdek litsenziyalovchi organ mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Litsenziyalar tegishli blanklarda rasmiylashtiriladi (18-modda). Litsenziyalarning blanklari qat'iy hisobot hujjatlari hisoblanadi, ular hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lishi lozim. Litsenziya blanklarining namunalari va ularni tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Litsenziya yo'qolgan taqdirda, litsenziyatning arizasiga binoan uning dublikati beriladi. Dublikat berishda ushbu Qonunning 15-moddasida nazarda tutilgan yig'im summasining yarmi undiriladi.

So'ng litsenziya shartnomasi to'ziladi. Litsenziya shartnomasi litsenziyalovchi organ va litsenziyatning o'zaro huquqlari va majbo'riyatlarini belgilovchi hujjatdir.

Litsenziya shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim:
shartnomani imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;

tarablarning rekvizitlari;

amalga oshirilishi uchun litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;

litsenziyatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;

cheklangan amal qilish muddatiga beriladigan litsenziyalar uchun — litsenziyaning amal qilish muddati;

litsenziya shartnomasining talablari va shartlarini bo'zganlik uchun tarablarning javobgarligi;

litsenziya shartnomasining talablari va shartlarini litsenziyat qanday bajarayotganligining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi;

faoliyatning ayrim turini litsenziyalash to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa ma'lumot.

Litsenziya shartnomasi ikki nusxada — litsenziyat hamda litsenziyalovchi organ uchun bittadan nusxada to'ziladi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish ham mumkin. Bunda yuridik shaxs bo'lmish litsenziyat qayta to'zilgan, uning nomi yoki joylashgan eri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziyat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir haftalik muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart. Jismoniy shaxs bo'lmish litsenziyat familiyasi, ismi va otasining ismi yoki

turar joyi o'zgargan taqdirda, litsenziat qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir haftalik muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Hujjatlar litsenziat tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali, ular olingani haqidagi tasdiqni olgan holda, etkazib beriladi.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar litsenziat unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilganda litsenziyalovchi organ litsenziyalar reestriga tegishli o'zgartishlarni kiritadi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani olgan kundan e'tiboran besh kun ichida amalga oshiriladi. Litsenziya qayta rasmiylashtirilganda litsenziya da'vogarining litsenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Litsenziyalanadigan faoliyatni ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlaridagi talablarni bo'zgan holda amalga oshirish faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda litsenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga etadirlar:

litsenziatlar litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshiruvlar o'tkazish;

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari bo'zilganligidan guvohlik beruvchi faktlar mavjud bo'lgan hollarda, litsenziat litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilayotganda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha litsenziatdan zarur ma'lumotlarni talab qilish va olish;

tekshiruv natijalari asosida litsenziat yo'l qo'ygan litsenziya talablari va shartlarining aniq qoidabo'zilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabo'zarliklarni bartaraf etish majbo'riyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabo'zarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish.

Litsenziyalovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari bo'zilishlariga yo'l qo'yilganligini aniqlaganlari taqdirda o'z vakolatlari doirasida litsenziyani bergan litsenziyalovchi organga aniqlangan qoidabo'zarliklar haqida xabar qiladilar.

Litsenziyani amal qilishni to'xtatib turish yoki to'la tugatish yoki umuman bekor etish mumkin.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlarini bo'zganligi aniqlanganda;

litsenziyalovchi organning aniqlangan qoidabo'zarliklarni bartaraf etish majbo'riyatini litsenziat zimmasiga yuklovchi qarori litsenziat tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish litsenziyalovchi organ yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziyalovchi organ tomonidan o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud tomonidan esa o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin. Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi sud qarori litsenziatga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi. Litsenziyalovchi organ yoki sud litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilashi shart. Bunda litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun sud qarorida belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan litsenziyalovchi organ yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida o'n kun muddat ichida qaror qabul qilishi shart. Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishni asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida unga etkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tiklash to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik shaxs tugatilganda - tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda - qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;

yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;

yakka tartibdagi tadbirkorning muomalaga layoqatliligi belgilangan tartibda cheklanganda yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablarini va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda bo'zgan;

litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni litsenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

litsenziyalovchi organning litsenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;

litsenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish litsenziyalovchi organ qaroriga binoan amalga oshiriladi, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish ushbu moddaning birinchi qismi oltinchi-sakkizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda sud tartibida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi. Litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi sud qarori litsenziatga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sud litsenziyaning amal qilishini tugatishni asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida unga etkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

ushbu Qonun 16-moddasining to'qqizinchi qismida nazarda tutilgan holda; litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda; litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Litsenziyani bekor qilish ushbu moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda sud qaroriga, boshqa hollarda esa, litsenziyalovchi organning qaroriga binoan amalga oshiriladi. Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay etkaziladi. Litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori litsenziatga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi. Litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak. Litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak. Litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, litsenziya u berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi. Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud litsenziyaning bekor qilinishini asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida unga etkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi».

Litsenziyalovchi organlar o'zlari litsenziyalashni amalga oshirayotgan faoliyatning har bir turi uchun alohida litsenziyalar reestrlarini yuritadilar.

Litsenziyalar reestrining har birida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

litsenziatlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;

litsenziyalar berilgan sana va litsenziyalarning tartib raqamlari;

cheklangan amal qilish muddatiga beriladigan litsenziyalar uchun - litsenziyalarning amal qilish muddatlari;

litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va qayta tiklash asoslari hamda sanalari;

litsenziyalarning amal qilishini tugatish asoslari va sanalari;

litsenziyalarni bekor qilish asoslari va sanalari;

faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilangan boshqa ma'lumotlar. Litsenziyalar reestrlarida mavjud bo'lgan axborot yuridik va jismoniy shaxslar tanishishi uchun ochiq bo'lib, ular haq evaziga litsenziyalovchi organlardan litsenziyalar reestrlaridan muayyan litsenziatlar to'g'risida ko'chirmalar tariqasida axborot olishga haqlidirlar. Mazkur axborotni taqdim etganlik uchun haq olish tartibi va uning miqdori faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi. Litsenziyalovchi organlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga litsenziyalarning

reestrlaridan axborotni bepul berishlari shart.Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini o‘zaytirganlik uchun davlat boji undiriladi.Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini o‘zaytirganlik uchun davlat boji miqdorlari va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.Faoliyatning litsenziyalanadigan turining bir qismi uchun litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini o‘zaytirganlik uchun davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari belgilanishi mumkin. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bo‘zganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.Litsenziyaga bog‘liq barcha ishlar Patent idorasining 21.09.2006 yil №56 “Patent egasining ochiq litsenziya va shu to‘g‘rida ariza ma’lumotlari haqida arizalarning berilishi va ko‘rilishi haqidagi Qoida” asosida olib boriladi.Ushbu qoida uch paragrafdan 14 punktdan iborat bo‘lib, umumiy qoidasida: “Ixtirolar, foydali model va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan (30 modda) patent egasiga litsenziya ochish haqida Patent idorasiga ariza berish huquqi berilgan. Lekin agar, patent litsenzion shartnomada bo‘lsa, uning tugashi muddatigacha ariza berilmaydi, berilgan taqdirda u ko‘rib chiqilmaydi.Litsenziya ishlarini patent egasi mustaqil ravishda olib boradi, rasmiylashtirilishi qonun va Patent idorasining qoidasi bo‘yicha olib boriladi. Barcha litsenziya ishlari uchun ham ma’lum miqdorda patent boji to‘lanadi.Patent egasining hohlaganicha sanoat mulkidan foydalanishga huquq – litsenziya berish uchun Patent idorasiga quyidagi hujjatlar topshiriladi:

a) forma asosida litsenziya ochish to‘g‘risida ariza. Ariza o‘zbek va rus tilida bo‘lishi mumkin.

Bitta patentga bitta ariza beriladi va hamma mualliflar qo‘l qo‘yish shart;

b) patentning haqiqiy o‘zi;

v) merosxo‘rlik haqidagi hujjat;

g) vakillikga ishonchnoma (agar bo‘lsa);

d) patent bojlari to‘langanligi haqida hujjat.

Ushbu o‘z vaqtida topshirilmasa, ariza ko‘rib chiqilmaydi.

Barcha hujjatlar topshirilgandan so‘ng Patent idorasi, hujjat kelgan kundan 15 kun ichida hujjatlar tekshirilib qabul qilinishi yoki yo‘qligi ma’lum qilinadi. Agar biror hujjat etishmasa 3 oy muddatda berilishi kerak bo‘ladi.Patent idorasi byulleteniga, qabul qilingan patent nomeri, ariza nomeri, registratsiya haqidagi ma’lumotlar va Xalqaro patent klassifikatsiyasi indeksi (MPK), sanoat mulki patenti ob‘ektining nomi, patent egasi va yozish uchun adreslar byulletenda e‘lon qilinadi.Patent litsenziyalarining sotilishi, olinishi qonunda va qoidada ko‘rsatilgan tartibda shartnoma asosida bajariladi, shartnomada ko‘rsatilgan muddat asosida, kelishilgan sharoitda foydalaniladi.

Tayanch iboralar: Litsenziya; litsenziyalash; litsenziyalash tushunchasi; litsenziya shartnomasi; litsenziya reestri; faoliyatning litsenziyalanayotgan turi; litsenziat; litsenziya bo'yicha qonunlar; patent olishdagi litsenziya.

Nazorat uchun savollar:

1. Litsenziyalashning asosiy tushunchalari qaysilarni tashkil qiladi?
2. Litsenziyaning necha xil turi mavjud?
3. Dizenziyalash deganda nimani tushunasiz?
4. YAkka tartibdagi litsenziyalarni berish tartibi qaysi organ tomonidan va qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?
6. Litsenziyalashning qanday qonuniy asoslari mavjud?
7. Litsenziya olish uchun da'vogar litsenziya beruvchi organga qanday hujjatlarni taqdim etadi?
8. Litsenziyani berishni rad etish qanday hollarda amalga oshiriladi?
9. Litsenziyaning amal qilishi qaysi vaqtlarda to'xtatiladi?
10. Litsenziya qanday hollarda bekor qilinadi?
11. Litsenziyaga davlat bojii va uni to'llash tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?
12. Litsenziyaga bog'liq ishlar qaysi idora tomonidan olib boriladi?

Talabning mustaqil ish topshiriqlar:

1. Litsenziya, litsenziyalash tushunchasi bo'yicha bilimga ega bo'ladi va uni chuqur o'rganadi.
2. Litsenziyalashning qonuniy asoslari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.
3. Litsenziya olish tartibi haqida to'la bilishi va u haqda etarli ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati: 19, 20.

GLOSSARIY.

Analog(uxshash, mos) – uxshash bulmagan ob'ektlarning ayrim jixatlari, xossalari va munosabatlaridagi uxshashlik.

Asar nusxasi – asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko'chirmasi;

Asarni omma oldida namoyish etish – asarning asl nusxasi yoki nusxasini bevosita texnika vositalari orqali ekranda ko'rsatish, shuningdek ayni bir oila a'zolari bo'lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo'lgan joyda ko'rsatish;

Asarni oshkor qilish – muallifning roziligi bilan amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga o'zatishtirish yoki boshqacha usulda yuborish yo'li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo'lishi uchun imkon beradigan harakat;

Audiovizual asar – bir-biri bilan bog'langan tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo'lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko'rib va eshitib idrok etish uchun mo'ljallangan asar.

Audiovizual asarni tayyorlovchi – shunday asarni tayyorlash tashabbusi va mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Atrof-muhitni muhofazasi - atrof-muhit, mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga aytiladi.

Amaliy metrologiya - kvalimetriya nazariy metrologiya nazariyalari va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo'llash bo'yicha metrologiyaning bir qismi hisoblanadi

Akkreditlash yoki akkreditatsiyadan o'tish - muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, shuningdek inson faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, texnik va boshqa turli sohalarida sertifikatlashtirishni amalga oshirayotgan laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash hamda tan olishning xalqaro amaliyotida tan olingan usuli tushuniladi.

Boshlang'ich tekst – dasturlash tilida yozilgan, kompilyator yordamida qayta ishlovi mumkin bo'lgan teks

Baza dasturlarini adaptatsiyasi (qayta ishlovi) – boshlang'ich tekstni o'zgartirmagan holda kiritilgan o'zgartirishlar;

Barchaning e'tiboriga etkazish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini aloqa vositalari orqali istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo'lgan tarzda barchaning e'tibori uchun yuborish;

Birlik ztoloni - birlik etoloni deganda, fizik o'lcham birligini boshqa o'lchash vositalariga o'zatishtirish maqsadida uni qayta hosil qilish, saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi tushuniladi

GOST - davlatlararo standartlar

DEVKO – bu bozor iqtisodiyotiga o‘tayogan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ISOning dasturi hisoblanadi.

Davlat etoloni - Davlat etoloni deb, vakolat berilgan Moddiy organning qarori bilan O‘zbekiston respublikasi hududida o‘lchash birligini o‘lchash sifatida e’tirof etilgan etoloniga aytiladi.

Davlat metrologiya nazorati. - Davlat metrologiya nazorati, bu metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Davlat metrologik nazorati - bu belgilangan metrologik me’yorlar va qoidalarga rioya etilishini tekshirish bo‘yicha davlat metrologik xizmatining vakolatlangan idoralarining faoliyatidir

EOKK - Sifat nazorati bo‘yicha EVROPA tashkiloti.

YOzuv – ovozlar va (yoki) tasvirlarni qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki yuborish imkonini beradigan biron-bir moddiy shaklda texnika vositalari yordamida qayd etish;

Zot – genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (duragaylari) ga xos bo‘lgan va g boshqa guruhlaridan farqlab turvchi belgilar..

Intellekt - insonning aqli, tafakkuri, bilimi va ilmi, zakovati, qobiliyati va h.k. tashkil etadi.

.Intellektual mulk - insonning intellekti bilan yaratilgan, ijod etgan mahsulot yoki mulkga aytiladi.

Intellektual mulkning manbai - insonning ilmiy-tadqiqot faoliyati, inson yashab turgan jamiyatning bu faoliyatga, bilimiga, ilmiga, umuman fan- texnikaviy rivojlanishga bo‘lgan munosabati va mamlakatning ilmiy va texnoloik salohiyati hisoblanadi

Innovatsiya – ingliz tilidan kelib chikkan, yangilanish, o‘zgartirish, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi- innovatsion rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari bilan shugullanadigan vazirlik..

Ixtiro – yangi qurilmalar, usullar, moddalar, mikroorganizmlarning shtammlari, o‘simliklar va hayvonlar turlari, avvaldan ma’lum bo‘lgan qurilmalar, usullar, moddalarni yangi vazifada qo‘llanilishiga aytiladi.

Ixtironing formulasi - ixtiro tavsifiga va chizmalarga to‘liq asoslangan bo‘lgan, ya’ni ixtironi uning tavsifida mavjud bo‘lgan va chizmalarda ko‘rsatilgan tushunchalar bilan berilgan ta’rif.

integral mikrosxema – elektron vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan, mikroelektron buyum bo‘lib, buyumdagi bog‘lanishlarning bu buyum tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida o‘zviy shakl topgan bo‘ladi;

integral mikrosxema topologiyasi – integral mikrosxema elementlarining va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi;

Ijro – asarni (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini), fonogrammani,, ijroni, sahna asarini o‘yin, ifodali o‘qish, kuylash, raqsga tushish orqali jonli ijro yoki texnika vositalari yordamida taqdim etish;

Ijrochi – aktyor, xonanda, sozanda, raqqos yoki rol o‘ynaydigan, kuylaydigan, o‘qiydigan, ifodali o‘qiydigan, raqsga tushadigan, talqin etadigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san‘at asarini ijro etadigan boshqa jismoniy shaxs.

ISO 9000-2 va ISO 9000-1 - halqaro standartlar O‘zbekiston milliy standarti sifatida qabul qilingan.

ISO - xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) deb yuritildi. ISO xalqaro tashkiloti yirik tashkilotlardan biri bo‘lib hisoblanadi va 100 ga yaqin mamlakat uning a‘zosi hisoblanadi

Iste‘mol tovarining sifati - uni nominal sharoitda o‘z vazifasi bo‘yicha iste‘mol qilishda yoki ishlatishda xaridorlar (iste‘molchilar)ning malum ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlarining majmuiga aytiladi.

Klon, liniya - birinchi avlod duragayi, populyasiya navning muhofaza qilinadigan ob‘ektidir;

Kabel orqali yuborish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob‘ektlarini kabel, sim yoki shunga o‘xshash vositalar yordamida barchaning e‘tibori uchun yuborish;

KS - .korxonalar standartlari .

KSt - korxonalar standartlari faqat shu korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot uchun ishlab chiqiladi va amalga kiritiladi.

KSt - korxonalar standarti;

KNT - konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi;

Kattalik – bu sifat tomonidan ko‘pgina fizik ob‘ektlarga nisbatan umumiy bo‘lib, miqdor tomonidan har bir ob‘ekt uchun xususiy bo‘lgan xossadir.

Litsenziar – seleksiya yutug‘idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziya – bu o‘lchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish, ta‘mirlash, sotish, ijaraga berish uchun davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Litsenziya — litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq) tushuniladi.

Litsenziyalash — litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi;

Litsenziat — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziya shartnomasi — faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da‘vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida to‘ziladigan shartnoma;

Ma‘lumotlar bazasi - EHM yordamida topish va qayta ishlash mumkin bo‘lgan sistemalashgan, ob‘ektiv formada maqolalar, hisoblar va h.k. ko‘rinishidagi ma‘lumotlar majmuasi tushuniladi

Ma‘lumotlar bazasi adaptatsiya dasturi – konkret sharoitlarda EHM dasturlarini ishlashi uchun, mualliflik boshlang‘ich tekstni o‘zgartirmagan holda ma‘lumotlar bazasiga qo‘shimchalar kiritish;

Manzarali-amaliy san‘at asari – asl nusxalari yoki nusxalari amalda foydalanish ashyolari sifatida qo‘llaniladigan san‘at asari, shu jumladan badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat usulida tayyorlangan asar;

Muallif – ijodiy mehanti bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

Milliy standartlashtirish - bu muayyan bir mamlakat (misol uchun O‘zbekiston Respublikasi yoki sanoati rivojlangan ma‘lum bir davlat) doirasida o‘tkaziladigan standartlashtirish.

Mintaqaviy standart - bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste‘molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo‘lgan standart.

Milliy standart – bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste‘molchilarning keng doirasiga yaroqli bo‘lgan standart

Moslashuvchanlik - bu mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning o‘zaro nomaqbul ta‘sir ko‘rsatmaydigan holda birgalikda, topshiriqdagi sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun foydalanishga yaroqliligidir

Mahsulotlarni himoya qilish - mahsulotdan foydalanish, transportda tashish yoki saqlash paytida uni iqlim va boshqa noqulay sharoitlar ta‘siridan saqlash tushuniladi.

MN St - ma‘muriy hududiy standart;

MST - mahsulotni sinash tizimi;

MUAT - mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi;

MSKT - mahsulot sifat ko‘rsatkichlari tizimi;

MEK - xalqaro elektrotexnik komissiyasi - 1906 yilda tashkil etilgan bo'lib, 45 dan ortiq mamlakatni o'z ichiga oladi

MOZM - metrologiya qonuniyati bo'yicha (mejdunarodnaya organizatsiya zakonadatelnoy metrologii) ham standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot deb hisoblanadi. MOZM xalqaro tashkiloti 1955 yilga tashkil topgan

MGS - hamdo'stlik mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashi. (bu kengashda O'zbekiston Respublikasi nomidan O'z davstandart ishtirok etadi.)

Metrologiya xizmati. Metrologiya xizmati bu davlat idoralari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari va o'lchash tarmog'i tomonidan hamda ularning yagona o'lchash birligida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Muvofiqlik sertifikat - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjat.

Majburiy sertifikatlashtirish – bu sertifikatlashti-rish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

Nosanoat mulk - tarkibiga EHM dasturlari, EHM ma'lumot bazalari; Integral mikrosxemalar topologiyalari, Seleksiya yutuqlari va firma nomlari oladigan mulkga aytiladi..

Nav – o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan-naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan farklab turuvchi belgilar.

NVT - hujjatlarni birxillashtirish tizimi;

NKAT - nashriyot, kutubxona va axborot ishlari bo'yicha standartlar tizimi;

Nazariy metrologiya - nazariy masalalarni ishlab, qonunlashtiruvchi metrologiya milliy idora tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatga tegishli bo'lgan birliklar, o'lchash usullari, o'lchash vositalari va o'lchash (sinov) laboratoriyalariga tegishli davlat talablarini ichiga oladi

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish - ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Ob'ektiv kod – boshlang'ich tekstni mashina kodiga aylantirishda vujudga kelgan dastur;

Omnia oldida ijro etish – asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini omnia uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a'zolari bo'lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo'lgan joyda eshitib va (yoki) ko'rib idrok etish uchun etkazish;

Patent - intellektual mulk huquqlarini muhofaza qiluvchi rasmiy xujjat xisoblanadi.

Patent idorasi- intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Patent talabnomasi - , bu qonun-qoidaga binoan patent olish uchun to‘zilgan hujjatlar majmuasi hisoblanadi.

Prototip – analogga nisbatan yanada uxshash, mos ob’ektga aytiladi.

Patent boji – intellektual maxsulotning Davlat reesteridan utkazish uchun Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga doir harajatlarini qoplash uchun Patent idorasiga to‘lanadigan tulov.

Patent vakili - Patent idorasida yuridik va jismoniy shaxslarning vakillik huquqini amlaga oshiruvchi shaxs.

Prokatga berish – asarlarning asl nusxasini yoki nusxalarini yoxud turdosh huquqlar ob’ektlarini daromad olish maqsadida vaqitnchalik foydalanish uchun berish;

Ratsionalizatorlik – ixtirodan, har xil ko‘rinishda beriladigan novatorlik ishlaridan , o‘zining tuzilishi bilan farq qiluchi texnikaviy echim aytiladi.

Reprografik takrorlash –texnika vositalari yordamida yozma va boshqa asarlarning asl nusxalarini yoki ularning ko‘chirmalarini bir yoki undan ko‘p nusxada, har qanday o‘lchamda va shaklda faksimal takrorlash.

Retranslyasiya – efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv .

RH - rahbariy hujjat;

Sanoat mulki - intellektual mulkning tarkibiy qismi bo‘lib u ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini hamda tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlarini o‘z ichiga oladi.

Sanoat namunasi - bu sanoatda ishlab chiqariladigan buyumning (tovarning) tashqi original ko‘rinishi belgilaridan uning badiiy konstruktorlik echimiga aytiladi

Seleksiya yutug‘i – o‘simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

Standartlashtirish - bu ma‘lum sohada aniq va ma‘lum murakkab masalalarga nisbatan, hamma uchun umumiy, ko‘p martalab foydalanish uchun o‘rnatilgan tartiblar yordamida tartiblashtirishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat.

Standartlashtirish ob’ekti – bu standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat va boshqalar) tushuniladi.

Standartlashtirish sohasi - deb, o‘zaro bog‘langan standartlashtirish ob’ektlarining majmuiga aytiladi.

Standartlashtirish me‘yoriy jujjati - faoliyat turlari yoki ularning natijalariga tegishli qoidalar yoki tavsiflar belgilangan hujjatga aytiladi.

Standart - ingliz so‘zidan (standart - me‘yor, namuna, etalon) - bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi (konsensus) asosida ishlab chiqarilgan, eng maqbul

darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat.

Standartlar majmui - bu o'zaro bog'langan standartlashtirish ob'ektlariga kelishilgan talablarni belgilovchi va ma'lum ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash uchun umumiy maqsad bilan birlashgan o'zaro bog'langan standartlar to'plami.

ST - sifat tizimi.

Sertifikatlashtirish - (lotincha, to'g'ri qilingan) mahsulot yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyatga aytiladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma - bu sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjat.

Sifat sertifikati - bu etkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat.

Sifat - bu obektning ta'rif yoki tavsiflari majmui bo'lib, belgilangan va ko'zda tutilgan talablarni qondirish xususiyatidir yoki bo'lmasa sifat deb, iste'molchi talabini qondirish darajasiga aytiladi.

Tovar belgisi - tasviriy, so'zli, hajmiy va boshqa belgilar yoki ularning istalgan rangdagi yoki ranglar birikmasi sifatida kurinishiga aytiladi

Tovar kelib chiqqan joy nomi - jo'g'rofiy ob'ektning belgilash uchun ishlatiladigan omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar joy nomi e'tirof etilishi tushuniladi..

Takrorlash – asarlarni ko'p nusxalarini tayyorlash, EHM va boshqa elektron qurilmalar xotirasiga yozib olish;

TSh - texnik shartlar.

TSh - aniq, mahsulot uchun ishlab chiqarilgan yoki turli mahsulotlar guruhiga mo'ljallangan standartlarda belgilangan talablarga muvofiq yoki ulardan yuqori bo'lgan texnik shart .

TSt - tarmoq standarti;

TNT - texnologik hujjatlarning yagona tizimi;

TT – tarmoq tasniflagichi;

T – tavsianoma

Tsh - texnik shartlar.

TR - texnik puxtaligi;

TKT - texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlashning yagona tizimi va boshqalar.

Unifikatsiyalashtirish – (**birxillashtirish**) deganda, muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlar soni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlash tushuniladi.

O'zaro almashuvchanlik, - bir xil talablarni bajarish maqsadida bir xil buyum jarayon va xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir xil buyum, jarayon va xizmatning yaroqliliga aytiladi.

O'z DSt - O'zbekiston davlat standartlari –tarmoq, standartlari - TS;

O'z DSt - O'zbekiston davlat standarti;

O'z DT - Umumdavlat tasniflagichi;

O'z RH - O'zbekiston rahbariy hujjati;

O'zSt DT - O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi;

O'z SDT - O'zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimi

O'z O'DT - O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi

O'zAT - O'zbekiston akkreditlash tizimi.

O'lchash vositalarini tekshiruvdan o'tkazish. Bu tushunchaning asosiy ma'nosi o'lchash vositalarining belgilab ko'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmat idoralari tomonidan bajariladigan amallar majmuidan iborat.

O'lchash vositalarini kalibrlash – bu metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlari va o'lchash birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmuidir.

O'lchash vositasi - . ulchash vositasi bu o'lchash uchun foydalaniladigan va meyorlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnik vositadir.

Firma nomi- deganda: Firma nomi yuridik shaxs bo'lgan tijorat tashkilotining individual nomi bo'lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtda yuzaga keladi.

Foydali model - qonunga asosan, qurilmalarning konstruktiv bajarilishi tushuniladi

Firma nomi - yuridik shaxs bo'lgan tijorat tashkilotining individual nomi bo'lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtda yuzaga keladi.

Fonogramma – biron-bir ijroning, boshqa ovozlarning har qanday mutlaq ovoqli yozuvi, audiovizual asarga kiritilgan ovoqli yozuv bundan mustasno;

Fonogramma nusxasi – har –anday moddiy jismdagi, fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammada qayd etilgan ovozlarning hammasini yoxud bir qismini qamrab olgan fonogramma ko'chirmasi;

Fonogrammani tayyorlovchi – ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovoqli yozuvi uchun tashabbus va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Xizmat ko'rsatish belgisi - tasviriy, so'zli, hajmiy va boshqa belgilar yoki ularning istalgan rangdagi yoki ranglar birikmasi sifatida kurinishiga aytiladi.

huquq egasi – intellektual mulk muallifi, uning merosxo‘ri, shuningdek foydalanish mulkiy huquqlarini qonunga yoki shartnomaga asosan olgan va ularga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Xalq ijodiyoti asarlari – aniq muallifi bo‘lmagan ertaklar, qo‘shiqlar, raqslar, manzarali-amaliy san‘at asarlari hamda badiiy va havaskorlik xalq ijodiyotining boshqa natijalari;

Xalqaro standartlashtirish - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan standartlashtirish.

Hujjat – bu ma‘lumotlar yozilgan manbaa.

Xalqaro standart - bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste‘molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo‘lgan standart.

Xavfsizlik - zarar etkazish mumkin bo‘lgan nojo‘ya xavf-xatarning yo‘qligi.

CHop etish – asarning, ijro yozuvining xususiyatidan kelib chiqqan holda ommaning oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun etarlicha miqdorda asar muallifining, ijrochining yoki fonogrammani tayyorlovchining roziligi bilan muomalaga chiqarish;

SHtrixli kod - bu optik usulda, ko‘ndalang kanerlash yo‘li bilan o‘qiladigan har xil qalinlik va qadamlarga (shag) ega bo‘lgan parallel shtrixlar (chiziq) to‘plami yordamida tashkil topgan kod.

SHtrixli kodlash - bu maxsus ishlab chiqilgan xalqaro axborotlashtirish tizimi yordamida mahsulotlarning asosiy parametrlarini belgilovchi uslub.

EHM uchun dasturlar - ob‘ektiv formada EHM ishlashi va EHM tarmoqlarining ma‘lum natija olish uchun ma‘lumotlar va ko‘rsatmalar majmui.;

EHM dekompilevlangan dasturi - deb, struktura va EHM kodlashni o‘rganish maqsadida ob‘ekt kodini boshlang‘ich tekstga aylantirish texnikaviy priyomi;

Yagona o‘lchash birligi - yagona o‘lchash birligi deb, o‘lchash natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va o‘lchashdagi xatoliklar muayyan ehtimollikda bo‘lgan o‘lchash holatiga aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida (yangi tahriri)". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 y. 29 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2001 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 1994 y. 6 may. O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar 05.04.2002. №364-11. 30.08.2002 y. №405-11.
4. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2001 y. 30 avgust.
5. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 iyun 209 – sonli qarori: O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi to'g'risida Nizom.
6. Kak zaregistrovat tovarnyy znak v Respublike O'zbekistan. – Tashkent, GPV RO'z. 2006 g.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Seleksiya yutuqlari to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 y. 29 avgust.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Firma nomlari to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2006 y. 18 sentyabr.
9. O'zbekiston Respublikasi qonuni "mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2006 y. 9 iyun.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son farmoni qabul qilindi
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son farmoni O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi axborotnomasi.
12. O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni.
15. Xudoyshukurov T., Karimov M. Standartlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish. Ma'ruzalar matni. Samarkand, 2004.
16. K.Otamuradov. Turizmدا standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2007.
17. O'zDst 1.0: 1998 O'zbekiston standartlashtirish Davlat tizimi. Asosiy qoidalar.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 2 martdagi «O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish to'g'risida»gi 93-sonli qarori.

19. GOST 1.0.-92 Pravila provedeniya rabot po mejgosudarstvennoy standartizatsii. Obshche polozheniya.
20. O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent sh., 2000 yil 25 may.
21. www.Patent.uz/uzb/prootz.uz.htm.